


ISBN 978-9943-7250-7-2


A standard linear barcode representing the ISBN number 978-9943-7250-7-2.

9 789943 725072



•ILU, MANSUROV,
•MIL TO'XTABAYEV

O'ZBEKİSTONNING MADANIYATI VA SAN'ATI TARIXI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

U.U. MANSUROV, A.SH. TO'XTABAYEV

**O'ZBEKISTONNING
MADANIYATI VA SAN'ATI
TARIXI**

O'quv qo'llanma

TOSHKENT
«O'ZKITOB SAVDO NASHRIYOT
MATBAA IJODIY UYI»
2021

UO·K 008:7(575.1)(09)

KBK 71(50·zb)

M 24

U.U. Mansurov, A.Sh. To'xtabayev

O'zbekistonning madaniyati va san'ati tarixi [Matn]: o'quv qo'llanma / U.U. Mansurov, A.Sh. To'xtabayev. – Toshkent: "O'ZKITOB SAVDO NASHRIYOT MATBAA IJODIY UYI", 2021. - 184 b.

Taqrizchilar:

Tog'ayeva Anoroy Zayniddinovna – O'zR FA Tarix instituti ilmiy xodimi, tarix fanlari nomzodi

Rasulov Abdulla Nuritdinovich – NamDU Tarix kafedrasи professori, tarix fanlari doktori.

O'zbekiston madaniyati va san'ati tarixi fanidan tayyorlangan o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 16-avgustdagи "Oliy ta'limgan Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risidagi" Qarori, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 14 iyundagi 531-sonli buyrug'ining 20-ilovasi bilan tasdiqlangan fan dasturi va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida ishlab chiqildi.


Mazkur o'quv qo'llanmadan 5120300 – Tarix (Jahon mamlakatlari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari "O'zbekistonning madaniyati va san'ati tarixi" fani bo'yicha ma'ruza va seminar mashg'ulotlarida foydalanish mumkin.

O'quv qo'llanmada O'zbekistonning madaniyati va san'ati tarixi fanining paydo bo'lishi va taraqqiyoti, ibtidoiy davr madaniyati, ilk o'rta asrlar davri madaniyati va san'ati, arab halifaligi davrida madaniyat taraqqiyoti, Amir Temur va temuriylar davri madaniyati va san'ati, O'zbek xonliklarining XVI-XIX asrlar madaniyati, Rossiya davlati mustam'lakachiligi sharoitida Turkiston o'lkasida ijtimoiy-madaniy hayat, Sovetlar davrida O'zbekiston madaniyati va san'ati taraqqiyoti hamda mustaqillik-yillarida O'zbekiston Respublikasida madaniy sohadagi islohotlar kabi masalalar yoritib berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 30 iyundagi 359-sonli buyrug'iiga asosan chop etishga ruxsat etilgan.

5120300 – Tarix (jahon mamlakatlari bo'yicha)

ISBN 978-9943-7250-7-2



SO‘Z BOSHI

“O‘zbekistonning madaniyati va san’ati tarixi” fani O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi qo‘lga kiritilgandan so‘ng, mamlakatimizdagi oliy o‘quv yurtlarida bakalavr va magistratura yo‘nalishlarida ta’lim olayotgan talabalarga maxsus fan sifatida o‘qitish yo‘lga qo‘yildi.

Ushbu fanning predmeti va tadqiqot obyekti insoniyatning bir necha ming-yillar davomidagi madaniy faoliyati, madaniyat taraqqiyoti tarixi va nazariyasini o‘rganishdan iborat. Mazkur o‘quv qo‘llanmada “O‘zbekistonning madaniyati va san’ati tarixi” fanning predmeti, mazmun-mohiyati, uslubiy asosları, ijtimoiy vazifalari ochib berilgan. Uni o‘qish jarayonida moddiy madaniyat, sivilizatsiya, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ma’naviy va madaniy meros tushunchalarining ma’no-mazmunini bilib olasiz.

“O‘zbekistonning madaniyati va san’ati tarixi” fani Vatanimiz xalqlarining madaniy turmushi, o‘ziga xos jihatlarini yorituvchi ma’lumotlarning ko‘pligi va bu fanning to‘liq mazmun-mohiyatini ifoda etish uchun qismlarga bo‘lib yaratildi. Mazkur o‘quv qo‘llanmadan oliy o‘quv yurtlarida o‘qitiladigan ijtimoiy-gumanitar fanlar, madaniyat va turizm bilan bog‘liq fanlarda foydalanish mumkin. Shuningdek, yurtimiz madaniyati va san’atiga qiziquvchilar, tadqiqotchilar va keng kitobxonlar uchun mo‘ljallangan.

MAVZU: O'ZBEKISTONNING MADANIYATI VA SAN'ATI TARIXI FANIGA KIRISH. IBTIDOIY DAVR MADANIYATI

Reja:

1. O'zbekistonning madaniyati va san'ati tarixi fanining predmeti, maqsad va vazifalari.
2. Ibtidoiy davr madaniy bosqichlari.
3. Ibtidoiy davrning ma'naviy madaniyati.

Mavzuning o'quv maqsadi: Talabalarga O'zbekistonning madaniyati va san'ati fanining maqsadi va vazifalari, ibtidoiy davrning madaniy bosqichlari hamda ma'naviy madaniyati haqida ma'lumot berish.

O'zbekiston madaniyati va san'ati tarixi fanining predmeti, maqsad va vazifalari. O'zbekistonning madaniyati va san'ati tarixi kursi madaniyatimizning rivojlanish umumiyligini qonuniyatlarini o'rnatadi. O'zbekiston madaniyati va san'ati tarixi fanining predmeti O'rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi zamonlardan to hozirgi kunlarga boshib o'tgan uzoq va murakkab tarixiy yo'lini, madaniy va ma'naviy hayotini xolisona o'rghanish va tushuntirishdan iborat. Mazkur kursning asosiy vazifasi insonning tabiat va jamiyat bilan birgalikdagi faoliyati hamda kishilarning ma'naviy turmushiga oid barcha jarayonlarni tadqiq qilishdan iborat.

Madaniyat-insonlardan ijodiy faoliyat tufayli yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar majmuasiga aytildi. Madaniyat atamasi hozirgi zamon ilmiy adabiyotida rang-barang ma'noni anglatadi. U lotincha "ishlov berish, parvarish qilish" ma'nosini anglatsa, keyinchalik "ma'rifatli bo'lish, tarbiyalı, bilimlı bo'lish" mazmunida ishlataladi. O'zbek tilida ko'p ishlataladigan "madaniyat" atamasi arabcha "madaniy" – "shaharlik" degan ma'noni anglatadi. Madaniyat insonni to'laqonli faoliyati "Inson tomonidan yaratilgan muhit",

Insoniyat yaratgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar majmuidir". Madaniyat tushunchasi XX asrga kelib ijtimoiy va gumanitar fanlar tizimidan o'rinn oldi.

Insoniyat jamiyat doimiy ravigishda rivojlanishda bo'lib, o'zgarib takomillashib boradi. Turli tarixiy davrlarda xilma xil madaniyatlar muayjud bo'lib, insonlar dunyoning o'zgacha anglagan va qabul qilishni. Madaniyat jamiyatning mahsuli ijtimoiy hayotining muhim jahhalaridan biri. Madaniyatsiz jamiyat bo'limgandek, madaniyat ham jamiyatdan tashqarida bo'lmaydi.

Jamiyat madaniyatni vujudga keltiradi. Jamiyat boyib borsa, madaniyat ham yuksaladi. Alovida bir shaxsning alovida madaniyati bo'lmaydi. Shaxs muayyan jamiyatdagi madaniy muhitda yashaydi va madaniyati shakllanadi. Madaniyat va san'at evolyutsiyasi, bir tomonidan, va O'zbekiston davlatchiligining rivojlanishi ikkinchi tomonidan, bu tarixiy jarayonning uzluksizligi izchilligi va o'zaro shartlanganligi haqida guvohlik beradi. Tarixiy rivojlanish jarayonida mafkuraviy «funksiyaning roli ortib boradi va yangi davrga kelib davlat qurilishi uning ma'naviy negizini tashkil etuvchi eng muhim jihatini belgilagan holda yetakchilik qiladi. Madaniyatning muayyan ko'rinishi davlatchilik rivojining ma'lum bosqichiga muvofiq keladi. Mayjud ma'lumotlar tahlili davlatchilikning rivojlanishi ma'nosida O'zbekiston madaniyati va san'ati tarixida bir qancha davrlarni ajaratish imkonini beradi.

Birinchi davr – eramizgacha II ming-yillik ilk davlatchilik tuzilmalarining yuzaga kelishi va shahar madaniyati va hunar-mundchiligining paydo bo'lishi.

Birinchi davlat tuzilmalari nishonasi sifatidagi kichik shaharchalar shahar madaniyatining eng dastlabki shakli hisoblanadi, ularning yuzaga kelishini tadqiqotchilar eramizgacha II ming-yillikka mansub beradilar (masalan, O'zbekiston janubida 200 hektar maydonni egallagan yirik Jarqo'ton manzilgohi yoki uy-joy, ma'muriy va sajdagoh majmui ko'rinishidagi kichikroq Sopollitepa manzilgohi). Dastlabki yirik shaharlar eramizgacha I ming-yillikda yuzaga kelgan va qadimgi davrdayoq biz O'zbekistonning barcha hududlarida shaharsozlilikning shiddat bilan rivojlanganini kuzatamiz. Bu O'zbekistonning janubi ham (Qiziltepa, Bandixon, Dalvarzintepa, Xulchayon, Kampirtepa va h.k.) va markaziy mintaqalar ham

(Samarqand yoki yunon mualliflaricha Maroqand) va Farg'ona (yunon mualliflaricha Kiropol) va Xorazm (Qal'aliqir, Tuproqqal'a va h.k.) hamdir. Bu davr moddiy va badiiy madaniyati hunarmandchilik va sajdagohlik san'ati shaklidagi yahlitlik ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Ikkinci davr – eramizgacha I ming-yillikning birinchi yarmi Ilk davlatchilik tuzilmalari san'ati va hunarmandchiligi.

Bu Baqtriya, Sug'd, Xorazmning tarixiy-madaniy viloyatlari shakllanishi davri bo'lib, bunda siyosiy hokimiyatning tarmoqlangan tizimli davlatlarning dastlabki shakllarini ko'rish mumkin. San'atda ikkita yorqin yo'nalish namoyon bo'ladi, ulardan biri sug'oruvchi dehqonchilik, boshqasi ko'proq ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi chorvachilik bilan mashg'ul mintaqalarning rivojlanishi bilan bog'liq. O'zbekiston turli viloyatlarida ilk davlatchilik shakllanishiga muvofiq holda madaniyat va san'atning mahalliy xususiyatlari yuzaga kela boshlaydi.

Uchinchi davr – eramizgacha IV asr oxiri – eramizning IV asri qadimgi va antik davrlar san'ati va davlatchiliga tarixi.

Bu O'rta Osiyo viloyatlarining hokimlik sifatida Ahmoniyalar davlati va Aleksandr Makedonskiy sultanati tarkibiga kirish doirasida mahalliy davlatchilikning shakllanish vaqt. Bir vaqtning o'zida mahalliy davlatchilik uyg'onishi jarayoni sodir bo'ladi (Xorazm, Farg'ona, Sug'd, Qang'yuy). Bu davr madaniyati va san'ati unga zamondosh bo'lgan «Eron-ahmoniy va sak-skif san'ati (Amudaryo xazinasi) bilan aloqada rivojlanadi». Yunon-Baqtriya va Xorazm antik san'ati rivoji mahalliy an'analariiga tayanadi (Baqtriya, Xorazm) va unga mahalliy san'at bilan qorishib ketgan sharqiy ellinism ta'siri sezilarli bo'lgan. Mahalliy davlatchilikning asosiy belgilari bo'lmish rivojlangan tanga tizimi, shaharsozlik va hunarmandchilik bilan birga Sug'd va Xorazm mahalliy yozuvining paydo bo'lishi uni yanada mustahkamladi va rivojlantirdi. Umuman, bu yahlitlik tarixiy davr uchun Old Sharq, Hindiston va Uzoq Sharq mamlakatlari madaniyati an'analari bilan hamkorlikda san'atning jadal rivojlanishiga xosdir.

O'zbekiston madaniyati va san'atida qadimgi va antik davrlar turli diniy, madaniy va badiiy an'analarning o'zaro hamkorlik o'zga madaniy an'analarni idrok etishdagil umumiy tolerantlik bilan

itoda etilgan. Bu ayniqsa o'sha davr ma'naviyatining davlat tuzilishi xususiyatini izohlaydi. Bu davrda madaniyati va san'atning makluraviy va ma'naviy-estetik funksiyasi birinchi marta oldingi jahhaga ehtiyoj qila boshlaydi. San'at esa davlatchilik va kuchli markazlashgan hokimiyat g'oyalarini ifodalovchisi darajasiga ko'tarildi. Bu ayniqsa O'zbekiston janubidagi antik haykaltaroshlikda namoyon bo'ldi.

To'rtinchi davr – V-VIII asr. Ilk o'rta asr davlatchiligi davri madaniyati va san'ati

Bu ilk o'rta asr davlatlari va hokimliklari: Sug'd, Xorazm, Tohariston, Farg'ona va bu vaqtida yuzaga kelgan Turk xoqonliga davridaga O'zbekiston san'ati va madaniyatidir. San'at va hunarmandchilikda birinchi marta sug'd va turk san'ati tamoyillarining uyg'unlanish jarayoni yetakechilik qila boshlaydi. Ilk o'rta asr – san'atning tasviriy shakllari taraqqiy etgan davr (devoriy rangtasvir, haykaltaroshlik va badiiy hunarmandchilik) barcha mintaqalardagi (Sug'd; Tohariston, Farg'ona, Xorazm) san'atining mashhur maktablari shakllanishi bilan izohlangan. Tashqi an'analar va ta'sirlarga nisbatan ijtimoiy va davlat tolerantligi avvalgiday qolavergan. O'ziga xos turk-sug'd badiiy mushtaraklik yuzaga keladi, u ushbu xalqlarning faollashib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, savdo va siyosiy aloqalarini aks ettiradi. O'z navbatida madaniyat va san'at ijtimoiy hayot tuzilmasining benuqson shakli sisatidagi oliy davlat hokimiyatini sharaflash vazifalariga xizmat qiladi, bu zimdan mintaqada markazlashgan davlat hokimiyatiga shakllashuv moyilligini aks ettiradi.

Beshinchi davr – IX-XII asr Mo'g'ullar bosqinigacha Mavarounnahr davlatlari madaniyati va san'ati

Mavarounnahrda yirik sulolaviy davlat tuzilmalari – Somoniylar, Qoraxoniylar davlatlari yuzaga keladi, savdo-hunarmandchilik shaharlari juda tez rivojlanadi. Bu davr O'rta Osiyo, ya'ni Ikki daryo oralig'ida islomning paydo bo'lishi va yoyilish va mintaqqa davlat tuzilmalari siyosiy-iqtisodiy, diniy va madaniy hamjihatlikning doirasiga kirib kelish davri hisoblanadi. U savdo-hunarmandchilik shaharlari infratuzilmasining jadal takomillashishi, shaharsozlik va me'morchilik faoliyati kuchayib, mahalliy san'at va hunarmandchilik maktablari shakllanishi bilan xarakterlanadi.

Mintaqaga VII – VIII asrlarda kirib kelgan islom IX – XI asrlarda mahalliy shaharning nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy shaharsozlik tuzilmasi

va me'moriy qiyofasini o'zgartiradi, balki uning falsafasiga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi. Musulmonlar o'rta asr shaharlari qiyofasi ko'proq sajdagohlar-masjidlar, madrasalar, minoralar va hokazolarda namoyon bo'lgan. Bular shahar hayotining umumiy muhitiga yangi ravonlik va mantiqiy ifodani olib kiradi. Qurilish va bezak – pardoz ashyosi sifatida pishiq g'ishtdan foydalaniladi. IX – XII asrlarda yangi bezak usuli shakllanib va rivojlanib boradiki, u islom o'rta asr san'atiga asos soladi. Tasviriy madaniyat o'rniغا bezak san'ati keladi va u musulmon madaniyatining negizlaridan biri bo'lib qoladi. Ummislom san'ati doirasida O'rta Osiyoning ikki daryo oralig'ida o'z estetik san'ati shakllanib, u ko'proq bo'lajak O'zbekiston hududi asosi – Mavarounnahr davlatchiligi va ijtimoiy-siyosiy rivojlanishi xususiyati bilan bog'liq. Madaniyat va san'at taraqqiy etgan shahar madaniyati-me'morchilik va hunarmandchilik shaklida namoyon bo'ladi, bu madaniyat mahalliy davlatchilik rivojlanishining yangi shaharsozlik bosqichi haqida guvohlik beradi. Mo'g'ullar bosqini munosabati bilan XIII asr boshida Mavarounnahrda davlat qurilishi inqirozga uchraydi.

Oltinchi davr – XIV – XVI asr boshi Amir Temur va temuriylar davri madaniyati va san'ati.

Amir Temur va vorislari sultanati yuzaga kelishi va rivojlanishi jahon madaniy taraqqiyotida favqulorra madaniy-tarixiy voqelik hisoblanadi. Temuriylar sultanati doirasidagi davlat tuzilmalari hozirgi O'zbekiston hududlari doirasidan uzoq-uzoqlarga chiqib ketadi. Amir Temur va temuriylar davrida madaniyat va san'at o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqadi va haqli ravishda Temuriylar renessansi deb ataladi. Aynan shu vaqtida san'at kuchli davlat tomonidan homiylikning yorqin timsoli va bir vaqtning o'zida qudratli sultanat falsafasining ifodachisi sifatida maydonga chiqadi. «Imoratlarimizga qarangda, qudratimizga tan bering». Temuriylar sulolasiga vakillari islom aqidalariga qattiq e'tiqod qo'ygan bo'lsa-da, san'atdaga dunyoviylik o'zining ancha yaqqol ifodasini topgan.

Madaniyat va san'atning yetakchi sohalari – me'morchilik, hunarmandchilik va mitti suratlar davlatning qudratli g'oyalarini va uning fan, ma'rifikat va san'at sohasidagi yetakchi rolini ifoda etadi. San'at va hunarmandchilik rivojlangan davlat tizimining eng muhim ko'rsatkich va belgisi hisoblanadi.

Yettinchi davr – XVII – XIX asr boshi. O‘zbek xonliklari madaniyati va san’ati.

O‘zbekiston madaniyati va san’ati tarixida bu davr barqaror bo‘lgan, ammo biron muhim va yorqin yutuq ham ko‘zga tashlanmagan. Movarounnahr hududlarida Xiva, Buxoro, Qo‘qon xonliklari yuzaga keladi, lekin ularning san’ati oldingi davrlardan yuksaklikka ko‘tarilmagan. Ularning o‘zaro ayrib qolishi badiiy jarayonlarning hududiy tangligiga olib keldi. Faqat amaliy san’atgina nisbatan barqaror rivojlanadi, an’anaviy uslub va texnologiyalarga asoslangan usta hunarmandlar bu davrda sopol, suyak, toshdan noyob buyumlar yaratishadi. Buxoro, Xiva, Samarqand, Farg‘ona vodiysi shaharlari va O‘zbekiston janubining bozorlariga turmushda keng qo‘llaniladigan xalq hunarmandlarining rango-rang mahsulotlari chiqarilgan. Ustalarining buyumlarida Xitoy, Eron va Rossiya badiiy an’analari izlarini payqash mumkin. Bu vaqtدا badiiy hunarmandchilikning asosiy maktablari va markazlari yuzaga keladi, ular o‘z ahamiyatini saqlab, XX asr san’atining umummilliyl uslubiga asos solgan.

Sakkizinch davr – XIX oxiri va XX asr Turkistonning Rossiya davlati tomonidan mustamlakaga aylantirilgan va totalitar davlat davri madaniyati va san’ati

XIX asr keyingi asr estetika va san’atini tubdan o‘zgarishiga zamin yaratdi. XX asr san’ati umumiyo ko‘p asrlik O‘zbekiston madaniyati va san’ati tarixining uzviy bo‘g‘inlaridan biri hisoblanadi. Ayni vaqtida bu davr badiiy madaniyati oldingi bosqichlar san’atidan keskin farq qiladi. Teatr, rangtasvir, haykaltaroshlik, opera va balet, simfonik musiqa va kompozitorlik, kinematografiya va televideniye singari san’atning yangi noan’anaviy Yevropacha shakllari yuzaga keladi va rivojlanadi. O‘tgan asrda O‘zbekistondagi badiiy jarayon murakkab va xilma-xil bo‘lib, ichki jo‘shqinlikka, davriy xususiyatlarga boy edi.

Bir tomonidan bu vaqtida shafqatsiz stalincha qatag‘onlar, sotsialistik realizm aqidalarining singdirilishida qoralangan siyosatning san’atga keskin salbiy ta’siri kuzatiladi. Milliy-tarixiy o‘z-o‘zini anglashning tabiiy ko‘rinishlari bilan kurash davom etadi, unga hokimiyat o‘tmishni adovatli ilohiyashtirish deb qaradi. Shu bilan birga chindanam mashhur me’morlarimiz, rassomlarimiz, aktyorlarimiz, rejissyorlarimiz, bastakorlarimizning daholari yorqin o‘z

ifodasini topdi, ular nafaqat milliy, balki butunjahon san'ati tarixiga kirdilar. Bu davr ijtimoiy davlat xarakteridagi o'zgarishlar me'morchilik va shaharsozlikda o'zining eng yorqin tajassumini topdi. XIX asr oxirida Turkistonda mustamlaka me'morchiliga deb nom olgan uslub tatbiq etiladi, u mintaqaga shaharlari qiyofasini shahar madaniyatini yevropalashtirilishiga asos soldi. XX asrda bu jarayon sovet hokimiyatining totalitar tuzumi o'rnatilishi oqibatida faollashdi-me'morchilikning ijtimoiy-funksional va badiiy obraz yo'nalishi o'zgaradi. Sanoat-ishlab chiqarish, ma'muriy, madaniy-ma'rifiy va turarjoy binolarining yangi namunalari paydo bo'ladi, ularning mafkuraviy konsepsiyasida ijtimoiy tenglik g'oyasi yotadi, u aksar hollarda buzib talqin etilgan va ko'pincha nursiz me'morchilik namunalari yaratilishiga sabab bo'lgan. Bu davrning ijobji tajribasidan ham ko'z yumib bo'lmaydi.

Sovet imperiyasining mudhish ko'rinishlariga qaramasdan bu davrda, ya'ni 1924-yilda respublikamizning tashkil etilishi eng muhim voqeа bo'lgandi, natijada O'zbekistonning hozirga davlat-hududiy tuzilishiga asos solindi. Bu davr madaniyati va san'ati tarixiy jihatdan shakllantirilgan, o'z davlatchiligiga hamda asr oxirida o'zining to'la mustaqilligiga erishgan o'zbek millatining estetik g'oyalari va badiiy intilishlarini aks etgiradi.

To'qqizinchi davr – 1991-yildan hozirgacha. Mustaqil O'zbekiston davlati san'ati.

Milliy mustaqillik g'oyalari va davlatimizning jahon hamjamiyatida qaror topishiga bo'lgan intilishlari madaniyat va san'atning juda ko'p turlarida, shuningdek, xuddi temuriylar davridagidek, Toshkent me'morchiligidagi ham o'zining eng yorqin moddiy-ma'naviy tajassumini topdi. Ayni shu yerda o'ziga xos ikkiyoqlama uslub yuzaga keladi – milliy shakllardan foydalilanigan inshootlar bilan bir qatorda (Oliy Majlis, Toshkent shahar hokimiyati, Temuriylar tarixi muzeysi binolari va h.k.) poytaxtda jahon me'morchilik amaliyotiga yo'naltirilgan binolar qad ko'targan (Interkontinental majmui, Sheraton mehmonxonasi, Bank Assotsiatsiyasi binosi). Mustaqillik-yillarida davlat tomonidan qabul qilingan ko'plab chora-tadbirlar teatr, musiqa va tasviriy san'at, kinematograf va boshqa badiiy ijod turlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lib, ular davlat va madaniyatning o'zaro munosabatining yangi taraqqiy parvar

bosqichi haqida guvohlik berib turibdi. Bugun jamiyatning bozor munosabatlariiga o'tishi davrida davlat san'atning bosh homisi hisoblanadi, ayni vaqtida, ijodiy erkinlik san'at va madaniyat sohasida yetakchi va asos soluvchi tamoyil bo'lib qolaveradi. So'nggi-yillarda respublikada «kuchli davlatdan kuchli jamiyatga» tamoyili e'lon qilindi, ya'ni o'z yo'nalishiga ko'ra oshkora fuqaroviylar jamiyat qurishga bel bog'laganmiz. Ilmiy tuzilma sifatida san'at shu modelni amalga oshirishga ko'proq moslashtirilgan. Aynan ijodiy jarayonlar vositasida tolerantlik va oshkoraliq g'oyalarini jamiyatga nisbatan barqaror va yanada samaraliroq tatbiq etish imkonini yuzaga kelgan. Madaniyat va san'atni iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlagan holda davlat ijodiy arboblarga o'z badiiy g'oyalarini erkin ifoda etish uchun to'la huquq berib qo'ygan, bu O'zbekiston intilayotgan fuqaroviylar jamiyatning intiyozlaridan biri hisoblanadi.

Shunday qilib, bugun san'at madaniy va davlat qurilishining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Boy tarixiy o'tmishi sharofati bilan O'zbekiston madaniyati va san'ati o'ziga xos an'ana va uslubni saqlab qolgan, bu ma'lum darajada madaniyatlarning o'ziga xosligiga tahdid solayotgan, tobora avj olib borayotgan sivilizatsiya sharoitlarida g'oyat muhimdir.

Ibtidoi davr madaniy bosqichlari.

Ibtidoiy davr insoniyatning uzoq o'tmishidan iborat bo'lgan bosqichdir. Bu davr insoniyatni hayvonot olamidan ajratib yuborgan davr hisoblanib, ongli mavjudot hisoblanuvchi odam va u tomonidan yaratilgan madaniyatning shakllanish davridir. Agar insoniyat tomonidan yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklarga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu boyliklarning yaratilishi bundan million-yillar ilgari yashab o'tgan qadim ajdodlarimiz tomonidan vujudga keltirilganligining guvohi bo'lamic. Chunki ibtidoiy davrda yaratilgan barcha moddiy madaniyatning – mehnat qurollari, turar joylar, kiyim-kechaklar va boshqalarning asosiy vazifasi hamda mohiyati hozirgi kunimizda ishlatalayotgan barcha moddiy boyliklarimizda o'z ifodasini topgan yoki ma'naviy madaniyatning barcha elementlarida – axloqiy, huquqiy, siyosiy, badiiy ongda, diniy e'tiqodlar va turli xil urf-odatlar, marosimlar va an'analarda ijtimoiy hodisalar hisoblanuvchi oilaviy munosabatlarda, til taraqqiyoti va boshqalarda, ibtidoiy davrda yashagan ajdodlarimizning ruhi sezilib

turadi. Shu boisdan hozirgi moddiy va ma'naviy madaniyatimizning vujudga kelishi hamda mohiyati to'g'risida muayyan tasavvur hosil qilish uchun ibtidoiy davr madaniyati, uning rivojlanish bosqichlari masalasiga to'xtalib o'tish o'ta muhimdir.

Ibtidoiy odamlar yer yuzida yo'q bo'lib ketganlar. Biroq yerning yuqori qatlamlarida qadim ajdodlarimiz faoliyatining moddiy qoldiqlari, uning ish qurollari, yaroq-aslahalari, uylari, jihozлari, kiyimlari, tasviriy san'at asarlari, topinish buyumlari va nihoyat yovvoyi hamda uy hayvonlarining suyaklari birin-ketin, qavatma-qavat bo'lib ko'milib saqlanib qolgan. Shu bilan birga qadim ajdodlarimiz to'g'risida muayyan fikr yuritish uchun ulardan bizga meros bo'lib kelgan, u yoki bu darajada saqlanib qolgan xalq og'zaki ijodining namunalari manba vazifasini o'taydi.

Ibtidoiy jamiyatning rivojlanish tarixi bir qancha, bosqichlar yoki davrlarni bosib o'tgan. Fanda asosan mehnat qurollari qanday materialdan yasalganligiga qarab, ibtidoiy davrni tosh, bronza va temir asrlariga bo'lish odatga aylanib qolgan. Masalan, Kopengagen (Daniya) asori-atiqalar muzeyi xodimi Kristian Tomsen birinchini marta fanga mehnat qurollarini yasalgan materiallarga qarab tosh, bronza va temir davrlari tushunchasini kiritadi. Keyinchalik tosh asri qadimgi tosh-paleolit (gr.palato qadimgi va litos-tosh) va yangi (gr. peo-yangi) asrlarga bo'lingan.

Davrarga bo'lishning boshqa bir juda qadimgi sistemasi – bu ishlab chiqarish faoliyati sohalariga ko'ra bo'lishdir. Bunda ibtidoiy davr ovchilik, dehqonchilik va chorvachilik bosqichlariga bo'linadi. Kishi va kishilik jamiyatining paydo bo'lishidan boshlangan va tarixning eng avvalgi ibtidoiy poda davri deb yuritiladigan davriga kelib odamning biologik rivojlanishi tugallanadi. Biroq odam mana shu eng avvalgi davrdayoq o'zining hayvonot ajdodidan keskin farq qiladi. Bu davrda ular birgalashib mehnat qila boshlaganlar, sodda mehnat qurollarini yaratishib, madaniyatga asos solganlar. Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi natijasida kishilarning bir muncha mustahkam birligi vujudga keldi. Bu birlikka urug' asos qilib olindi. Natijada ibtidoiy davrning ham moddiy, ham ma'naviy madaniyatini yaratish ma'lum bir sistemaga tusha boshladи. Mehnat qurollari takomillashib, kishilar tasavvuri mahsuli hisoblanmish ustqurma elementlari yaratila boshlandi.

Ibtidoiy kishilar o'zini qurshab turgan tabiat kuchlarini necha-necha ming-yillar davomida o'rgandi. Bu davrda kishilarning ko'pdan-ko'p avlodlari almashindi. Ibtidoiy kishilarning hayoti og'ir bo'lgan. Ular tomonidan yaratilgan qadimgi madaniyat qanchalik sodda bo'lmasin, u texnika, xo'jalik ijtimoiy asosga ega bo'lgan. Madaniy boyliklar yaratish oddiydan asta-sekin yuqori va murakkab shakllarga o'ta borib bu madaniyat muntazam ravishda o'sib bordi. Eng sodda qurollar yasash bilan inson o'zini yaratdi va o'zi bilan hayvon o'rtasiga chegara qo'ydi. Bu esa insonning tabiat ustidan hukmron bo'lishida birinchi qadam bo'ldi.

Xozirgi davrda fanda ibtidoiy odamlarning eng avvalgi vakillaridan birini Pitekantrop deb ataladi. Pitekantroplarning qoldiqlari dastlab Yava orolidan topilgan. Birmuncha vaqt o'tgandan so'ng Xitoyning Pekin shahri yaqinidagi g'ordan Sinantrop («Xitoy odami»)ning qoldiqlari topilgan. Bu yerdan 40 ga yaqin sinantroplarning suyaklari bilan birga juda sodda tosh qurollari, sinantropga ovqat bo'lган hayvonlarning suyaklari va niroyat ularning olovdan foydalanganliklarini ko'rsatuvchi kul qoldiqlari topilgan. Odamning rivojlanishidagi keyingi bosqich Neandertal bosqich deb nomlanadi. Germaniyaning Neandertal shahri yaqinidan topilgan odam qoldiqlari nomi bilan yuritiladi.

Respublikamiz hududidagi Teshiktosh g'oridan (Surxondaryo viloyati, 1938-yil) ham 12 yoshli neandertal bolaning qoldiqlari topilgan. Odamga qurol va yaroq ishslash uchun xizmat qilgan birinchi material tosh, ya'ni chaqmoqtosh yoki unga yaqin mineral jinslar, xususan oqtosh (kvars) bo'lgan. Chaqmoqtosh yer sharining barcha yerida juda keng tarqalgan bo'lib, bu mineralda juda ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan uch xususiyat-qattiqlik, yupqa bo'lakchalarga bo'linib ketish va kesuvchi o'tkir qirralar mavjud bo'lgan. Agar tabiatda shu chaqmoqtosh bo'limganda insoniyatning boshlang'ich tarixi qandaydir boshqa yo'l bilan ketishi mumkin edi. Dastlabki qurol uchun yog'och ham material xizmatini o'tagan, lekin undan toshga nisbatan keyinroq foydalanilgan. Yog'och qurollar yoki qurollarning yog'och qismlari tosh qurollari kabi yerda uzoq vaqtgacha saqlanishi mumkin bo'limganligi uchun arxeologiya yog'ochdan foydalanishning ilk namunalarini ko'rsatib bera olmaydi. Ibtidoiy odamlarga tegishli bo'lgan qoldiqlar madaniyat

va texnikaning uzlusiz o'sib borganligidan da'lолat beradi. Bu birin-ketin keladigan bosqichlar yer sharining turli joylarida topilgan muayyan tipdagi odam faoliyatining qoldiqlariga qarab aniqlanadi va fanda bu qoldiqlar "madaniyat" deb nomlanadi. Bu madaniyatlar dastlab topilgan joylarning nomi bilan atalib, ular ana shu madaniyatning eng tipik yodgorliklaridan iborat bo'ldi.

Ibtidoiy davr madaniyatining eng oddiy bosqichi SHELL madaniyatidir. Bu madaniyat Shimoliy Fransiyaning Shell shaharchasi nomi bilan ataladi. Bu davr mehnat quollarining asosiy turi uzunligi 10 sm.dan 20 sm.gacha, og'irligi 500 grammidan 1kg.gacha bo'lган anchagina katta hajmli, bodom shaklidagi, har ikki tomoni tosh bilan qupol ravishda tarashlangan tosh bo'lagidir. Bu qurol «qo'l cho'qichi», «qo'l chopqichi» va «qo'l boltasi» vazifasini bajargan. Ibtidoiy davr madaniyatining keyingi bosqichi Yevropaning ko'p yerlarida va shuningdek, Afrika va Osiyoda ma'lum bo'lган va bir umumiyy nom ASHEL (Shimoliy Fransiyadagi Sant-Ashel degan joy nomi) deb ataladi. Bu madaniyat mehnat quollarining hajmi bir muncha kichik shakl ancha to'g'ri, o'tkir, qirralik bo'lganligi bilan xarakterlanadi. Bu madaniyat manzilgohidan tosh quollaridan tashqari odamlarning turmushiga oid boshqa belgilarning – mamont, karkidon kabi yovvoyi hayvonlarning ko'plab suyaklari, shuningdek olov izlari topilgan.

Ibtidoiy davrning uchinchi bosqichi Fransiyaning janubig'arbida joylashgan qishloq va g'or nomi bilan ataluvchi MUST'E madaniyati o'rta paleolit davriga mansubdir. Teshiktosh g'oridan topilgan neandertal bolaning qoldiqlari ham ana shu Must'e madaniyatiga tegishli. Bu bosqich mehnat quollarining sezilarli darajada o'sganligi bilan xarakterlanadi. Bu madaniyatning asosiy quroli uchi o'tkirlangan tosh quroldir. Bu qurol nayza sifatida ham ishlatilgan. Shuningdek bu bosqichda yaratilgan mehnat quollari safiga suyakdan ishlangan quollar ham kelib qo'shilgan, ya'ni bu bosqichda suyakdan o'tkir uchli mayda quollar ham yasalgan. Bu manzilgohdan mamontning, karkidon, g'or ayig'i, yovvoyi ot, shimol bug'usi va boshqalarning suyaklari hamda olov izlari topilgan.

Shell, Ashel madaniyatları, odatda umumiyy nom bilan ilk paleolit deb ataladi. Demak, ilk paleolit davridayoq-odamlar mehnat quollarini takomillashtirib, olovdan foydalana boshlaganlar. Bu esa

insonning antropologik jarayonni bosib o'tishini tezlashtirgan va tubiat hodisalariga bo'lgan munosabatlarining sistemalashuviga olib kelgan. Olov odam tomonidan bo'ysundirilgan va o'z manfaatiga xizmat qilgan dastlabki tabiat kuchi bo'lgan. Natijada odam hayvonot olamida ustunlikka erishib, biologik mavjudot sifatida undan uzoqlashgan. Olovning egallanishi ilk paleolit davrining buyuk madaniy yutug'i bo'lgan. Paleolit davrining yana bir yutug'i kishi tafakkuri va nutqining paydo bo'lishidir. Tafakkur va nutq qobiliyati taraqqiyotining qudratli sharti va omili bo'lib, ular kishilikni butun hayvonot dunyosidan ajratdi. Tafakkur va nutqning vujudga kelishi odamda rivojlanishi ilk insoniy munosabatlarning shakllanishi va taraqqiyotining asosiy omili hisoblangan.

Shuningdek, til va tafakkur taraqqiyoti - moddiy ishlab chiqarishning, ya'ni moddiy madaniyatning rivojlanishini tezlashtirgan. Olov singari til va tafakkur ham odamning hayvonot dunyosidan ajralib chiqishini tezlashtirgan.

Ibtidoiy madaniyatning keyingi bosqichi orin'yak – salyut va madlen davrlari so'nggi paleolitga mansubdir. Bu davr o'zining neandertalga nisbatan ancha taraqqiy qilganligi bilan, ya'ni ham mehnat qurollarida, ham inson qiyofasida tub o'zgarishlarning vujudga kelishi bilan xarakterlanadi. Orin'yak – salyut (Fransiyadagi ikkita joy nomidan olingan) davrida texnika sohasida muste madaniyatiga nisbatan anhagina yuksalish ro'y bergen. Eng avvalo toshni ishslash yaxshilanadi. Mehnat quroli sifatida shoh va suyaklardan keng foydalilanadi. Orin'yak-salyut madaniyati manzilgohiga xos bo'lgan joylardan topilgan tosh va suyak qurollarning shakli ular yog'och dastaga o'rnatilgan qurollarning asosiy qismi bo'lganligidan darak beradi. Bu texnika taraqqiyotidagi muhim davr bo'lgan. Bu davr bir necha qismdan tuzilgan qurol-yarog'larga o'tish davri bo'lgan. Umuman olganda orin'yak-salyut davrining barcha qurolyarog'lari muste davri odamlarinikiga nisbatan beqiyos boy va xilma-xil bo'lgan. Bu davrda toshdan turli xil pichoqlar, nayzalar va nayzachalar, keskichlar, qirg'ichlar, bigizlar, suyakdan ignalar yasalgan.

Odamlar bu davrga kelib, qurollardan hayvonlarni o'rab, quvib, qanab, tuzoq qo'yib ushlashni o'rganganlar. O'z manzillarini ochiq joylarga qurbanlar. Orin'yak-salyut bosqichi turar-joylarning

vujudga kelganligidan tashqari, o'troq hayotning boshlanganligi bilan ham xarakterlanadi. Bu davrga kelib odamlar tikishni o'rganganlar, hayvon terilaridan kiyim tikish bilan birga o'zları yashayotgan turarjoylarning ustlarini yopishda ham foydalanganlar.

Shunday qilib, bu davrga kelib odam madaniyatning yana bir boyligi – o'zining tanasini himoya etadigan kiyim-kechakka ega bo'lgan. Bu davrda nafaqat olovning qoldiqlari, balki o'choq va o'ta sodda holdagi pechlarning qoldiqlari ham uchraydi. Orin'yak-salyutr davriga oid bo'lgan maskanlardan eng sodda haykal va rasmlarning nusxalari ham topilgan. Bu yerlardan topilgan parmalangan hayvon tishlari va boshqa ba'zi bir bezak buyumlari ham topilgan. Nihoyat, ayrim belgilar, jumladan ibtidoiy odam skletlarining quyilishi holati hamda ayrim ibtidoiy rasm va tasvirlarning mazmuni ana shu bosqichga kelib dinning paydo bo'lganligini ham ko'rsatadi.

Xullas paleolit davrining so'nggi bosqichlariga kelib antropogenez jarayoni tugallanib, hozirgi zamon odami paydo bo'lgan. Ana shu davrga kelib irqlar ham paydo bo'la borgan. Shuningdek bu davrda bir necha qismdan iborat bo'lgan quroq-yarog'lar ham paydo bo'lgan. Suyak va hayvon shohlaridan material sifatida keng foydalanila boshlangan. Yirik hayvonlarni ovlash osonlashib, doimiy turarjoylar vujudga kelgan. O'troqlashib yashash o'choq va xonani isitish yo'llarining o'ylab topilishiga, tikuvchilikni yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Bularning barchasi ishlab chiqarish kuchlarining ancha taraqqiy yetganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga bu bosqichda tasviriy san'at, bezak buyumlari va diniy qarashlarning paydo bo'lishi ibtidoiy jamiyatning ustqurmasi shakllana borganligidan dalolat beradi.

Paleolitning orin'yak-salyutr bosqichidan keyingi madaniyat Madlen madaniyati deb nomlanadi. Fransiyaning janubi-g'arbidagi La Madlen degan joy nomidan olingan. Madlen madaniyati suyak va shohdan turli buyumlar ishlab chiqarishning sezilarli darajada rivojlanganligi bilan xarakterlanadi. Bu davrda nayza otadigan qurollar va garpun paydo bo'lgan.

Arxeologik davrlashtirishga muvofiq, paleolitdan so'ng ko'pdan-ko'p madaniyatlar mavjud bo'lgan. Ular neolit degan umumiyl nom bilan yuritiladi. Neolit ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi asosida kishilik jamiyatining anchagina tabaqalarga bo'linish davri

hisoblanadi. Neolitning so'nggi bosqichlari ma'lum darajada etnik birliklarning shakllanishuvi bilan bog'liq madaniyat hisoblanadi. Shuning uchun ham neolit davrini ilk neolit, rivojlangan neolit va so'nggi neolit deb nomlanuvchi davrlarga bo'lib o'r ganiladi. Ilk neolit ba'zan, mezolit (gr. Mezzo-o'rta), epialeolit (gr. Ere – so'nggi) va protoneolit (gr. Protoz-birinchi) deb ham ataladi. Neolit davriga kelib o'q-yoy ibtidoiy odamning asosiy quroli bo'lib qolgan. Uning paydo bo'lishi ovchilikning rivojlanishiga turtki bo'ldi. Shuningdek bu davrda madaniyat tarixida buyuk hodisa ro'y bergan, ya'ni birinchi hayvon qo'lga o'r gatila boshlangan. Eng sodda ko'rinishdagi sopol idishlar ishlab chiqarila boshlangan, u esa yangi ishlab chiqarish-kulolchilikning rivojlanishiga turtki bergen.

Neolit davrida kashf etilgan qurollardan yana biri – bumerang bo'lib, u bir vaqtning o'zida ovchilik ham jang, hujum, ham mudofaa, ham qo'l, dam otish quroli vazifasini bajargan. Bu bumerang qattiq yog'ochning egri bo'lagidan ishlangan va aerodinamika qonuniga ko'ra harakatlangan. Bu qurol qadimgi misrliklar, avstraliyaliklar va nemislarning asosiy qurollaridan hisoblangan. Puflab otiladigan qurol ham ibtidoiy davr odamlarining o'ziga xos kashfiyotidir. U Indoneziyada SUMPITAN, Janubiy Amerikada esa SARBAKAI nomi bilan mashhur bo'lган. Bu qurol bir vaqt ni o'zida ham ovchilik ham harbiy qurol bo'lib, silliq bambuk bo'lagidan ishlangan. Unga 25-30 metr masofaga uchuvchi zaharlangan o'qlar solib puflangan. Shuningdek, bu davrda ham ovchilik ham harbiy maqsadlarda ishlatiladigan SOPKON va PALAXMON kabilar ham keng tarqalgan. Bu qurollar Janubiy Amerikada, Polineziya, Osiyo mamlakatlari, shu jumladan Markazny Osiyo xalqlari orasida ham keng tarqalgan. Xullas, inson mehnati ishlab chiqarish qurollari, shuningdek, umuman madaniyat rivojlanishining asosini tashkil etadi. Ibtidoiy davrda mehnat nihoyat darajada og'ir bo'lган. Shell davri odami bizning ko'zimizga juda ham sodda bo'lib ko'r inuvechi keskichni tayyorlash uchun qanchalik mashaqqatli mehnat qilganligini tasavvur qilishimiz juda ham qiyin. Oddiy nayza, ayniqsa, bumerang, o'q-yoy, tarashlangan va par malangan bolta uzoq vaqt davomida qunt bilan mehnat qilishni talab qilgan. Ketma-ket keladigan ashell, muste, orin'yak-salyutr va madla madaniyatlarini yirik hayvonlarni ovlash ayniqsa, rivojlanganligini

ko'rsatadi. Madlen madaniyati davrining oxiriga kelib dehqonchilik bilan bir qatorda ovchilik ham keng rivojlanma boshlagan. Ibtidoiy ovchilikning dastlabki paydo bo'lgan vaqtlaridayoq turli xil ommaviy ov usullari bir tomondan, hayvonni o'rab olish, quvlash, ikkinchi tomondan esa turli xil tuzoqlar qopqog'iga o'xshash ovchilik qurollari, qush ovlaydigan turlar juda katta ahamiyatga ega bo'lgan ibridoiv ovchilikda hayvon yoki qush tovushiga taqlid qilish yoki o'sha ov qilinayotgan hayvon terisini yopinib unga yaqinlashish ancha keng tarqalgan. Ashell davridan boshlab qo'lga o'rgatilgan it endi odamning ov vaqtidagi sodiq yordamchisi va yo'ldoshiga aylangan. Itning qo'lga o'rgatilishi odamga uch tomondan foyda keltirgan, birinchidan, it ovda juda asqotgan bo'lsa, ikkinchidan, it inson yashaydigan manzillarni qo'riqlagan, xavfdan ogoh qilgan, uchinchi tomondan esa ayrim qabilalarning ko'chib yurishi paytida transport vazifasini o'tagan.

Dehqonchilik iqlim sharoitiga qarab turli joylarda turlicha davrlarda rivojlangan. Masalan, iqlim mo'tadil va janubiy hududlarda esa birmuncha keyinroq rivojlangan. Arxeologik izlanishlar dehqonchilik paleolitdayoq, aniqrog'i orin'yak-salyutr davrida paydo bo'lganligini ko'rsatadi. Dehqonchilikda motiga (ketmon vazifasini bajaruvchi quroq) tayoqlar, belkuraklar, toshdan yasalgan boltalardan keng ko'lamda foydalanilgan. Dehqonchilikning yanada yuksalishiga yovvoyi hayvonlarning qo'lga o'rgatilishi muhim ahamiyat kasb etgan. Qo'lga o'rgatilgan hayvonlar kishilarga juda katta foyda keltirgan. Birinchidan, ulardan qo'shimcha mehnat kuchi sifatida foydalanilgan bo'lsa, ikkinchidan, uy sharoitida o'rgangan hayvonlar o'zidan nasl qoldirgan. Ayrim hayvonlar hatto oziq-ovqat vazifasini ham o'tagan. Har xil hayvon turlarini xonakilashtirish juda mashaqqatli ish bo'lgan va bu jarayon uzoq vaqt davom etgan. Chunki yer yuzida yashagan 140 ming hayvon turidan bor-yo'g'i 47 turinigina xonakilashtirganlar. Uy hayvonlarini urchitib ko'paytirish xo'jalikning muhim tarmog'iga aylangan. Uy hayvonlari odamga go'sht, teri, jun, yog', suyak, sut bergen, yuk tashigan va yerni haydagani va nihoyat o'g'it bergen.

Odamning eng dastlabki turar-joylari g'orlar va daraxtlarning kovaklari bo'lgan. Paleolit davriga oid arxeologik yodgorliklar ham kishilarining turar-joylari g'or bo'lganligini tasdiqlaydi.

Tasmaniyaliklar daraxt kovaklarida yashaganlar. Lekin g'orlar ham, daraxt kovaklari ham tabiat tomonidan berilgan tabiiy boshpanadir. Ulardan toydalanish madaniyat tarixida taraqqiyot hodisasi hisoblanmaydi. Chunki madaniy taraqqiyot kishi mehnati natijasida vujudga keltirilgan u yoki bu predmet orqali belgilanadi.

Ibtidoiy odamlarning turar-joylari xilma-xil bo'lib, ularning rivojlanishi uch bosqichga bo'linadi. Insoniyatning eng dastlabki turar joylari shamolni to'sib turadigan g'or va yerdan kavlangan o'rindan iborat bo'lgan. Masalan, tasmaniyaliklar, avstraliyaliklar va bordinga bir qator qabilalarning eng asosiy boshpanasi daraxt shohlari bilan to'silgan g'or bo'lgan. Bir muncha vaqt o'tgandan so'ng yer osti va yer osti turar-joylari paydo bo'la boshlagan. Chayla yer osti boshpanasi hisoblangan bo'lsa, yerto'la yer osti boshpanasi bo'lgan. Chayla va kapalar asosan xoda, shoh-shabba, barg, loy, po'stloq, posol, teri va boshqalardan qurilgan. Keyinchalik chayla va kapaning takomillashuvi kigiz o'tovlarning vujudga kelishiga olib kelgan. Yerto'la qadimgi kishilarning yerni kavlab undan boshpana sifatida toydalanishidir. Nihoyat, turar-joylarning rivojlanishidagi uchinchi bosqichda loy devorli uylar paydo bo'la boshlaydi. Natijada qadim ajdodlarimizning muqim qarorgohlari – qishloqlar va keyinchalik shahurlari vujudga kela boradi. So'nggi neolit davriga kelib g'ildirak kashf etilgan. G'ildirak dastlab yahlit yog'och doiradan iborat bo'lgan. Qadim ajdodlarimiz qayiqni kashf etgunlariga qadar, suv ustida oqib ketayotgan daraxtlardan foydalanganlar. Keyinchalik ikki yoki bir qancha daraxt tanasini bir-biriga bog'lab, sol yasaganlar. Vaqtlar o'tishi bilan yog'ochni o'yib qayiq yasaganlar, hayvon terihidan qayiq yasashda keng foydalanganlar.

Tafakkur dastlabki vaqtarda qanchalik chegaralangan bo'lmasin, ma'lum darajadagi xulosalar, tushuncha va tasavvurlar ifodasi bo'lib, kuzatish va tajribaning maxsuli sifatida vujudga kelgan. Birgalashib mehnat qilish, kuzatish, tajriba, ong, tafakkur, fikr, til tushuncha, bilim bularning barchasi o'zaro ajralmas aloqada bo'ladi hamda bu-birini taqozo qiladi va odamni hayvondan ajratuvchi, uni tabiat ustidan g'olib qiluvchi belgilardir. Bularning barchasi madaniyatning g'olibona taraqqiy etishi uchun asos bo'lgan.

Mehnat jarayonida kuzatish va tajriba orttirish natijasida yangidan-yangi tasavvurlar va tushunchalar paydo bo'lgan, tafakkur

ham, til ham rivojlangan. Yangi so‘zlar paydo bo‘lib, so‘zlarning ma’naviy mazmuni boyigan, grammatik shakllari rivojlanib borgan.

Fikrni anglatishning sodda usullaridan biri – «signallar tili» hisoblanadi va biron bir xabarni belgilar yordami bilan ifodalash vazifasini bajaradi. Masalan, avstraliyaliklar o‘z joylarini tashlab ketganlarida oyoqlari bilan qumga chiziq chizganlar va chiziqning uchiga xivich tiqib qo‘yganlar. Chiziqning yo‘nalishi va uning uzunligi shu guruhning qaysi tomonga va qancha masofaga ketganligini ko‘rsatadi. Bu belgi guruhlarining kechikib qolgan a’zolari va mehmonlar uchun qilingan: «Signallar tili»ga turli xil belgilar – egilgan yoki sindirilgan novdalar, alohida qo‘yilgan toshlar, ovlanadigan o‘ljani ko‘rsatish, dushmanning paydo bo‘lishi yoki xavf-xatardan ogoh qilish kabi turli xil belgilar kirgan. Bu signallar ba’zan ma’lum marta qichqirish, ko‘pincha sun’iy tovush chiqarish, masalan, baraban chalish yordami bilan, shuningdek olov yoki tutun va boshqalar yordami bilan berilgan. Biror xabar, fikr yoki tuyg‘uni ifodalash uchun ma’lum bir buyumni sovg‘a qilishni «ramziy fikrlar tili» yoki signallar tiliga kiritish mumkin. Masalan, Shimoliy Amerika hindlarida tomagauk (suyil) yuborish urush e’lon qilishning ramziy belgisi hisoblangan. Tomagauk dushmanga alohida elchi bilan yuborilgan, u tomagaukni dushmanga olib borib, yerga qo‘ygan. Agar qarshi tomon tomagaukni yerdan ko‘tarsa, urishishga rozi ekanligi bildirilgan. Xullas, «signallar tili» muhim madaniytarixiy rol o‘ynagan, xususan harbiy va mudofaa ishlarida muhim ahamiyat kasb etgan.

Ibtidoiy meditsina davolashning folbinlik, sehrgarlik va jodugarlik usullariga asoslangan. Lekin juda qadim zamonlardayoq ayrim o‘simpliklarning, mineral moddalarning davolash xususiyati kashf etilgan. Etnografik ma’lumotlarga ko‘ra, maxsus tayyorlangan tarkibiy dorilardan ham masalan, nastoykalar, qaynatma dorilar, suriladigan va kukun holidagi dorilarni ishlatganlar. Qustiradigan va ich bo‘shashtiradigan vositalar qo‘llanilgan. Silash va uqalashdan keng ko‘lamda foydalananilgan, sovuq va issiq gidroterapeyani ham yaxshi bilganlar, parhezning ahamiyati ham ma’lum bo‘lgan. Ibtidoiy davrda kichik va katta xirurgiya, ochishni to‘xtatish, qon olish usuli, badandagi ortiqcha to‘siqlarni olib tashlash, singan joylarni tuzatish, hatto amputatsiya ham ma’lum bo‘lgan. Hammom ham ibtidoiy

davrida kasht etilgan.

Ibtidoiy odamning to'plagan bilimi qanchalik bo'l shidan qat'iy nazar, u hali bilmagan tabiat hodisalarini mayjudligicha qolgan. Kishlari sababini bilmaydigan bu hodisalar ularning hayoti uchun munum ahamiyatga ega bo'lgan va o'z navbatida uni bilish talab qilingan. Shu sababli ibtidoiy odam bu sohadagi kamchiliklarni to'ldirish, o'zining ojizliklari o'rnini to'ldirish, o'z tajribalaridan chekkada qolgan hodisalarga javob topishga urina boshlagan. Nati-juda jumboq bo'lib tuyulgan tabiat hodisalariga qarama-qarshi tasavvur va tushunchalarni yarata boshlaganlar. Diniy tasavvurlar tashlab chiqarish kuchlari va jamiyat taraqqiyotida urug'chilik tuzumi poydo bo'lgan bosqichda vujudga kelgan.

Ibtidoiy odam o'zini tabiatdan ajratmaydi va tabiat kuchlari hamda hodisalarini bilan aynan bir narsa deb hisoblaydi. Ibtidoiy jamoa tuzumi davridagi diniy tasavvurlarning ilk shakllari quyidagilarga bo'lindi:

- a) animizm;
- b) totemizm;
- c) magiya (afsungarlik, sehrgarlik);
- d) fetishizm;
- e) shomonizm.

Animizm – Ingliz olimi Eduard Taylor tomonidan fanga kirilgan. Animizm – bu kishi ruhining mayjudligiga ishonishdir. Animizm tabiatdagi buyumlarni ilohiylashtiradi, har bir jismda ruh bor, tanadan tashqarida ham jon bor deb hisoblaydi. Ibtidoiy odamlar uyg'uni jonning tanani vaqtincha tashlab ketishi, tushni esa kishi uxlab yotganida boshqa uzoq joydag'i kishilarining yoki o'lgan kishi-larning joni bilan uchrashuvi deb tushunganlar. Dastlabki animistik tasavvurlar jonni soya yoki nafas bilan aynan bir narsa deb bilar edilur. Masalan, Shimoliy Amerika xalqlarida soya bilan jon, qadimgi arablarda, yaxudiyarda jon bilan qon, Grenlandiyada esa nafas bilan jon bitta nom bilan ataladi.

Totemizm – «uning urug'i» ma'nosini anglatadi va odam ko-pinchha qandaydir bir hayvon yoki o'simlik bilan, ba'zan jonsiz narsa bilan hatto tabiat hodisalarini bilan aloqasi borligi to'g'risidagi tasavvur hamda e'tiqoddir. Totem hisoblangan hayvonni o'ldirish mumkin bo'limgan. Agar o'ldirish zarur bo'lsa, albatta, undan uzr

so'raganlar. Uni o'ldirganliklari uchun ularning gunohini kechirishni iltijo qilib so'raganlar.

Magiya (sehrgarlik, afsungarlik) – insonga, hayvonga yoki tabiat hodisalariga g'ayri tabiiy yo'l bilan ta'sir ko'rsatish maqsadida bajariladigan xatti-harakatlar. Buyum va hodisalarning afsonaviy kuchga ega ekanligiga ishonish baxt keltiruvchi yoki turli xil balo-qazolardan saqlovchi har xil buyumlar va tilsimlarning paydo bo'lishiga, yaxshilik va yomonlikdan iborat turli irim-sirim hamda harakatlarning kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Biror kishiga qilinayotgan xatti-harakatda o'sha shaxsga tegishli bo'lgan narsalar (uning sochi, tirnog'i, kiyimi) ustida afsun qilish, masalan, kuydirish yoki boshqa irimlar (kinna) juda samarali natija beradi deb hisoblaganlar. Odamlar quyoshning chiqishi, yomg'irning yog'ishiga sehrgarlik yordamida ta'sir qilish mumkin, degan tasavvurga ega bo'lganlar.

Fetishizm – moddiy predmetlardagi g'ayritabiyy xususiyatlarga ishonish, jonsiz narsalarga sig'inishdir. Ibtidoiy odamning ongida har xil moddiy buyumlarning tosh, daraxt, o'simlik keyinchalik turli hayvonlarning suyagi, pati, tumor, sanam va boshqalarda g'ayri tabiiy kuchlar bor, degan xayoliy tasavvurlar paydo bo'lgan.

Shomonizm – ibtidoiy jamoa tuzumi yemirilish davrida paydo bo'lgan qadimgi diniy e'tiqodlardan biri. Shomonizm – bu kishilar orasida go'yo turli ruhlar bilan munosabatda bo'ladigan ruhoniylarning qobiliyatiga ishonishdir. Kishilarning tasavvuricha go'yo ruhlar shomonlarga xizmat qiladi, uning turli topshiriqlarini bajaradi, hatto shomon yovuz ruhlar bilan jang ham qila oladi, deb hisoblaganlar.

San'at ham kishilik jamiyatining ilk bosqichlari ibtidoiy odamning tabiat hodisalariga bo'lgan munosabatlari natijasida paydo bo'lgan ma'naviy madaniyatning asosiy elementlaridan biridir. San'at odamning estetik sezgisi, uning ma'naviy rivojlanishi jarayonida, tabiatga xos bo'lgan takomillikdan, go'zallik va ohangdorlikdan ta'sirlanish, odam o'z mehnati bilan yaratgan narsalarda tabiatning sifatlarini ko'rsata boshlaganida va o'z sezgisi hamda fikrlari hayotning turli xil voqealarini ifodalay boshlagan davrlarda vujudga kelgan.

Ibtidoiy san'at va uning barcha turlarining umumiy manbai mehnatdir, odamning mehnat faoliyatidir. Ibtidoiy san'at va uning

barcha turlari o‘z mohiyati, mazmuni bo‘yicha odamning mehnat huoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan sezgisi, kayfiyati va fikrlarini ifodalash shaklidan boshqa narsa emas.

Orin‘yak – salyut bosqichiga kelib, tasviriy san‘at vujudga kela boshlagan. Toshga, suyakka juda sodda ko‘rinishdagi suratlar tasviri tushurila boshlagan. Agar o‘sha davrda ibtidoiy odamlar tomonidan ishlangan suratlarga nazar tashlansa, ko‘proq hayvonlar va noaniq aks ettirilgan insonlar tasvirini ko‘ramiz, Madlen bosqichiga kelgach tasviriy san‘at asarlari bir muncha mukammallasha borgan.

Neolit davri tasviriy san‘ati asosan turli xil shakkarga boy bo‘lgan manzarali tasvir yo‘li bilan rivojlanadi. Bu davrga kelib, odamga xizmat qiluvchi, hatto kundalik turmushda ishlatiladigan oddiy buyumlarni, chunonchi, loydan ishlangan idishlarni ham bo‘yashga harakat qilishgan. Kiyimlar, uy jihozlari, qurollarga ham turli xil, bu‘zan juda chiroyli naqshlar solingan.

Musiqa san‘ati mehnat jarayonida paydo bo‘lgan. Ashula ham ishi vaqtida chiqadigan ovozlardan va odamning harakatdagi ritmlik bilan chambarchas bog‘liq holda paydo bo‘lgan, ya’ni ashula dastlab ritnga solingan nuqtadan iborat bo‘lgan. Uning eng dastlabki sodda shakli regitativ ko‘rinish kasb etgan. Demak, ibtidoiy qo‘schiqdagi asosiy narsa ritmdir, shuning uchun ham sodda qo‘schiqlarning so‘zlarini ko‘pincha ayrim tovush va so‘zlarini qayta-qayta takrorlashdan iboratdir. Kuy esa birmuncha keyinroq paydo bo‘lgan. Ibtidoiy davrda cholg‘u asboblari unchalik rivojlanmagan, eng qadimgi musiqa asboblarning barcha turlari – urib chalinadigan, puflab chalinadigan, keyinchalik simlik (kamon yoyining tebranishiga asoslangan holda paydo bo‘lgan) musiqa asboblari vaqtlar o‘tishi mutijasida vujudga kela borgan. Raqs san‘atining paydo bo‘lishi ham o‘ziga xos xususiyatga ega. Sodda raqs faqat gimnastika xarakteriga ega ekanligiga hech shubha yo‘q. Ovga yoki boshqa bir qabila ustiga yutish oldidan tushiladigan raqlar jismoniy tarbiya va mashq yoki o‘ziga xos ichki junbushga kelish yo bo‘lmasa qo‘zg‘alish xarakteriga ega bo‘lgan. Shuningdek ibtidoiy raqlar afsungarlik va totemistik tasavvurlar bilan ham bog‘liq bo‘lgan. Raqs tushganda ashula yoki musiqa chalinadi. Ko‘p qabilalarning tilida ashula va raqs bir so‘z bilan ifodalananadi. Madlen davriga oid bo‘lgan suratlarda raqs kiyimi kiygan va raqs tushib turgan odamlarning tasvirlari uchrab turadi.

Demak, raqs yuqori paleolit davridayoq vujudga kelgan.

Sodda raqsdan san'atning yana bir turi – drama kelib chiqishi haqiqatdan ham, qoloq qabilalarning raqslari ko‘pincha chinakam tasviriy mazmunga ega va pantomima – so‘zsiz drama san’atining ilk shakllarini ifodalaydi. Ko‘pgina xalqlarda ekishdan tortib to yig‘imterimgacha bo‘lgan butun dehqonchilik jarayonini ifodalovchi ashulalarga cholg‘u asboblari jo‘r bo‘ladi. Shu bilan birga raqs tushilib, o‘sha jarayonlar dramatik ravishda ifodalanadi.

Ibtidoiy davrda og‘zaki ijodiy-folklor (inglizcha, folk – xalq, lore – ijodiyot so‘zidan olingan) keng rivojlangan. Uning eng dastlabki turi o‘tmish haqidagi rivoyatlar hisoblangan. Ertak alohida rivojlangan bo‘lsa, doston, topishmoq maqollar bir muncha keyinroq – inson miyasining keyingi taraqqiyoti mahsulidir.

Xulosa qilib aytganda, ma’naviy madaniyatning turli-tuman elementlari kishilik jamiyati moddiy hayotining taraqqiyotiga bevosita bog‘liq bo‘lib, ishlab chiqarish kuchlarining rivoji va tabiat hodisalariga bo‘lgan munosabatlarning chuqurlashuviga bevosita bog‘liq bo‘lgan. Kishilarning moddiy ehtiyojining oshishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga bo‘lgan intilish hamda shu paytgacha jumboq bo‘lib turgan tabiat hodisalarining asl mohiyatini ochishga bo‘lgan urinishlar ma’naviy madaniyati tashkil etuvchi turli xil elementlarning vujudga kelishiga sabab bo‘lgan.

Mavzuga oid tayanch iboralar

Tarix, Tarixiy xotirani tiklanishi, Tarixiy xotirasiz – kelajak yo‘q, madaniyat tarixi, tarixiy siymolar. Ibtidoiy turar-joylar, diniy tasavvurlar, animism, fetishizm, totemizm. Ibtidoiy san’at. O‘tmish ajdodlarimiz ishlaridan iftixor, g‘ururni his etish va shu bilan birga ularga munosib avlod bo‘lish.

Mavzu bo‘ycha takrorlash uchun savollar

1. O‘zbekiston madaniyati va san’ati tarixi fanini o‘rganish, uni xolis va ilmiy asosida tadqiq etish zarurati.
2. O‘zbekiston madaniyati va san’ati tarixi fani predmeti, maqsad va vazifalarini tushuntirib bering.
3. Ibtidoiy davr madaniyati haqida nimalar bilasiz?
4. Dastlabki diniy tasavvurlarga qaysilar kiradi?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuch-qudratimizga, xalqimizning hamjihatliligi va bukilmas irodasiga bog'liq. – T.: O'zbekiston, 2004.
3. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. T.12. T.: O'zbekiston, 2004.
4. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.: O'zbekiston, 2002.
5. Mirziyoyev Sh. M. Ilm-fan yetuklari – taraqqiyotning bir omili // Xalq so'zi. – 2016. – 31 dekabr.
6. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 59 b.
7. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har qanday bir faolyatining kundaligi qoidasi bo'lishi kerak // Ishonch. 2017. – 17 yanvar.
8. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasining rivojlantirilishining beshta ustuvor uyushmasi bo'yicha harakatlar strategiyasi" PF-4947-sonli farmoni // Xalq so'zi. 2017. – № 28.
9. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l - demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T.11. – T.: O'zbekiston, 2003.
10. Aliyev A. Ma'naviyat, qadriyat va badiiyat. – T.: Akademiya, 2000.
11. Barkamol avlodni shakllantirish – ma'naviy taraqqiyot omili. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: O'zMU, 2010.
12. Bekmurodov M., Umarov A., Qoraboyev U., Haydarov Z. Ijtimoiy-madaniy faoliyat tarixi, nazariyasi va uslubiyoti. – T.: Ma'naviyat. 2016. – 336 b.
13. Nazarov Q. va boshq. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – T.: G'afur G'ulom, 2009.
14. Ochildiyev A. Milliy g'oya va millatlararo munosabatlar. T.: O'zbekiston, 2004.
15. Oydinov N. O'zbekiston tasviri san'ati tarixidan lavhalar. T.: O'qituvchi, 1997-yil.

MAVZU: MARKAZIY OSIYO VA ERON MADANIYATI

Reja:

1. Markaziy Osiyodagi qadimgi madaniyatning o‘ziga xos xususiyatlari.
2. Markaziy Osiyo hududidagi ilk davlatlar madaniyati.
3. Yunon-Baqtriya madaniyati miqiyosida sharq elinistik madaniyati.
4. Qadimgi Eron madaniyati.

Mavzuning o‘quv maqsadi: Talabalarga Markaziy Osiyodagi qadimgi madaniyatning o‘ziga xos xususiyatlari, hududimizdagi ilk davlatlar madaniyati haqida ma’lumotlar berish.

Markaziy Osiyodagi qadimgi madaniyatning o‘ziga xos xususiyatlari. Markaziy Osiyo madaniyati jahon madaniyati tarixida muhim o‘rin tutadi. Uning o‘rta asrlardagi madaniyatiga butun dunyo allaqachon munosib o‘rin bergan. Hatto Baqtriya, Marg‘iyona, Sug‘d, Parfiya, Farg‘ona, Xorazm, Choch xalqlarining qadimgi madaniyati ham jahon xalqlarini hayratga solmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasining qadimgi madaniyatini o‘rganish o‘n-yillar ilgari boshlangan bo‘lsa tadqiqotchilarning bu madaniyatining o‘ziga xosligi va boy mazmuni lol qoldirdi. Markaziy Osiyo madaniyati G‘arb va Sharqning buyuk madaniyat elementlarni bir butunlikda uyg‘unlashtirib o‘ziga xos individuallik kasb etadiki, bu xususiyat keyingi taraqqiyot uchun ham negiz bo‘lib qoladi.

Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatining vujudga kelishi sharoitlarini belgilashda dastavval jo‘g‘rofiy o‘rn ni va tabiiy vositalarga e’tiborni qaratish kerak bo‘ladi. Markaziy Osiyo mintaqasining tabiatni turli millat bilan farq qiladi. Bu yerda serhosil vodiylar va vohalar, sersuv daryolar, qaqroq cho‘llar, dashtu adirlar, Pomir va Tangritog‘ning baland muzofatlari bilan yonma-yon joylashgan.

Bunday xususiyat dehqonchilik, chorvador, tog‘da yashovchi qabila va xalqlar xo‘jalik tarzi va o‘ziga xos madaniyatlarning shakllanishi uchun imkon yaratadi.

«Qadimgi Sivilizatsiya» deb nomlangan risolada Markaziy Osiyo madaniyatining ikki xususiyati ko‘rsatiladi: bir tomondan, turli madaniyatlarning o‘zarotasi sirda, ikkinchi tomondan, qadimgi sivilizatsiyalarning boshqa o‘choqlari bilan yaqin aloqada rivojlanishi. Bu xususiyatlarni batafsil kuzatadigan bo‘lsak Markaziy Osiyo madaniyatining shakllanish jarayolari yaqqol namoyon bo‘ladi.

Markaziy Osyoning serhosil vodiysi, cho‘l va dashti, tog‘larida yashovchi aholining turmush sharoitidagi farqlar turi xo‘jaliklarni ertaroq paydo bo‘lishi o‘ziga xos madaniyatlar shakllanishiga olib keladi. Bu jarayon yaqin qo‘shnichilik munosabatlari asosida sodir bo‘lib, qabila va xalqlarning iqtisodiy va madaniy aloqalari taraqqiyotning ertaroq boshlanishiga imkon yaratdi. Eng qadimgi davrlardan dehqonchilik, chorvachilik va tog‘ ovchi qabilalari o‘rtasida munosabat ayriboshlash Markaziy Osiyo xalqlarining iqtisodiyotida katta ahamiyatga ega bo‘lib, keyingi davrlarda ham uzoq saqlanib keldi. Turmush tarzi va xo‘jalik faoliyatidagi farqlanish bilan birga mintaqalarning etnik va tillardagi yaqinlik juda ham uyg‘unlashib ketganligini qadimgi Xitoy va Yunon manbalarida ham qayd qilingan. Markaziy Osiyo xalqlarining kuchli iqtisodiy aloqalari, etnik va til birligi ularni bir-biridan ayricha yashashiga yo‘l qo‘ymadi. Natijada qadimgi Sharqning klassik madaniyati orasida Markaziy Osiyo qadimgi madaniyati ajralib, o‘ziga xos ko‘rinishda shakllanadi. Dastlab bu madaniyatga ikki xil madaniyat aralashib ketdi: ko‘chmanchilik va ibtidoiylik olami hamda sivilizatsiya olami.

Markaziy Osyoning o‘troq dehqonchilik va ko‘chmanchi xalqlarida ancha mucha farqlar bo‘lishiga qaramasdan ilgaridan yaqin munosabatlari o‘rnatalgan. Diniy e’tiqodlar, urf-odatlar, fol’klorlar, axloqiy me’yordagi umumiylilik madaniy umumiylikni shakllanishiga olib kelgan. Shuning uchun bundan keyin Markaziy Osyoning yahlit madaniyatini tashkil qiluvchi turli submadaniyatlar mavjudligi haqida to‘xtalish joizdir. Qadimgi madaniyatlar sub madaniyati (Baqtriya, Sug‘d, Xorazm, Farg‘ona, Marg‘iyona), dasht ko‘chmanchilari-sak, massaget, dehqonchilar submadaniyati, Pomir va Tangri tog‘ qabilalarning sub madaniyati.

Markaziy Osiyo madaniyatining o‘ziga xosligining ikkinchi jihat mintaqaning o‘ta qulay jo‘g‘rofiy o‘rnashganligi bilan bog‘liq. Mintaq Mesopatomiya, Hindiston va Xitoy kabi uchta buyuk sharq sivilizatsiyasi bilan bevosita chegaradosh bo‘lib g‘arb sivilizatsiyasi beshinchi-Gretsya va Rim bilan aloqada rivojlangan. Bunday aloqalarning muqarrarligi Markaziy Osiyo madaniyati vositachiligi missiyasini bajarishga sabab bo‘ldi, ya’ni iqtisodiy sohalarda eng avvalo xalqaro savdoda va madaniy sohalarda ham Markaziy Osiyo, G‘arb va Sharq o‘rtasida bog‘lovchi ko‘prik vazifasini bajardi. Xususan Markaziy Osiyo hududi orqali buddizm butun dunyoga yoyildi, Hindiston va Xitoya ellistik ko‘rinishlari o‘tdi, sharqdan g‘arbgan va g‘arbdan sharqga madaniy boyliklar (bilim, dunyoviy g‘oya, kashfiyot, badiiy asarlar) ning almashib turishida Markaziy Osiyo muhim vositachi bo‘lib xizmat qildi.

Markaziy Osiyo madaniyatining buyuk vositachilik missiyasi boshqa madaniy qadriyatlarini yangilash, o‘zlashtirish, mahorati va qayta ishlash kabi jihatlarimiz bo‘lmash edi. Bu madaniyat qadimdanoq yangi hodisalarini o‘zlashtirish va moslashtirish mahoratiga ega bo‘ldi. Garchi boshqa qadimgi sharq madaniyatlaridagi kabi Markaziy Osiyo madaniyatida ham an‘analar keng o‘rin egallasada, aytarli xarakter kasb etmaydi, ya’niki, uzuksiz madaniyat yangilanish va taraqqiyot jarayoniga to‘sinq bo‘lmaydi. Shuningdek, an‘analarning mustahkam hukmronligi tarixiy vaziyatga ham to‘sinqinlik qilganliklarini ta‘kidlash kerak. Mintaq orqali katta bosqinchilik yurishlar, xalqlarining ko‘chishlari yuz bergan bo‘lib, bu Markaziy Osiyo xalqlarining tarixi davomida bir necha bor madaniyatni sezilarli o‘zgarishlar olib keldi. Afsuski ko‘pincha urushlar Markaziy Osiyo madaniyatining qadimgi taraqqiyot davrlarining behisob dalillarini yo‘q qiladi. Arxeolog qazilma ma’lumotlar va yozma manbalar mil. avv. I ming-yillik boshlarida vujudga kelgan Markaziy Osyoning ilk davlatlari Sug‘d, Baqtriya va Xorazm madaniyati haqida biroz ma’lumotlar beradi. Mil. avv. VIII-VII asrlarga oid Afrofziyob (Samarqand), Surxondaryo vohasidagi Qiziltepa, Qashqadaryo vohasidagi Uzunqir, Xorazmdagi Qizilqir kabi qadimgi shaharlarda o‘tkazilgan tadqiqotlar murakkab ijtimoiy tuzilma va madaniyatning yuqori rivojlanganligini ko‘rsatadi. Bu shaharlar mudofaa devorlari va suv ta‘minotidan iborat kuchli istehkomlarimizga ega bo‘lib,

ichida hunarmandlar mavzeyi joylashgan. Ayrim shaharlarda saroy qoldiqlaridan qal'alar topilgan. Qadimgi davlatlar xo'jaligining asosiy sohasi hisoblangan dehqonchilik taraqqiyotining darajasi haqida ko'p tarmoqli sug'orish tizimining mavjudligi bunga dalildir. Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi Sharq mamlakatlari bilan yaqin aloqalar o'rnatgan.

Midiya va Ossuriyaning siyosiy tarixida faol ishtirok etib, hunarmandchilik buyumlari va xomashyo bilan (lojuvard, oltin, mis) savdo sotiq qilingan. Bu haqida Ossuriya va Qadimgi Yunon yozma manbalarida gapiriladi. Xususan Baqtriyaning yirik shaharlari, ko'p sonli aholisi haqida Baqtriya shohi Oksartning afsonaviy boyligi haqida Ktesiy Knidiskiy (mil.avv. V-IV asrlar) yozib qoldirgan.

Ko'chmanchi massagetlarning udumi va turmush tarzi haqida mashhur qadimgi yunon tarixchisi Geradot mil.avv. V asrda yozib qoldirgan. U massagetlarning harbiy qurollari (kamon-yoyi, nayza oyboltasi) oltindan bezak sifatida, misdan qurol vasovut uchun keng foydalanishni ta'kidlaydi. Gerodotning yozishicha, massagetlar yagona ma'bud quyoshiga topinib, otni qurbanlik qilganlar.

Qadimgi Markaziy Osiyo xalqlarining ma'naviy madaniyati haqidagi bilimlarning bebaho manbasi Avesto hisoblangan. Avesto so'zining mazmuni umumiy izohga ega emas, ko'pincha asosiy matn sifatida tarjima qilindi. Avesto dunyoning eng qadimgi dinlaridan bo'lgan zardo'shiylik tarafdarlari uchun muqaddas kalima hisoblanib, payg'ambar Zardo'sht to'planganlarga undan va'z o'qigan. Uning hayoti davri mil.avv. IX-VI-VI asrlar atrofida deyiladi. Avesto va uning boshqa matnlarining to'planishi ko'p asrlar davomida amalga oshirilgan. Avestoning eng qadimgi matnlari mil.avv. II minginchchi-yillarga taalluqli. Avestoning millodiy VII asrga tegishli bo'lgan to'plami juda turlicha mazmundagi 21 kitobidan iborat bo'lib, o'sha davrning barcha bilimlari jamlangan. Zardushtiylik an'analariga ko'ra bu yodgorlik ezgulik va yorug'lik xudosi Axuramazdaning Zaratushtra vaxiysi hisoblanadi. Biroq unda qadimgi mifalogik tasavvurlar ham tasvirlanadi. Shuningdek, diniy yo'l-yo'riq payg'ambar davridan keyin Zardushtiylikning rivojlangan e'tiqod ramzi yuzaga keldi. Hozirgacha Avestoning ayrim qismigina, faqat 4 kitobi saqlanib qolgan:

1. Videvdat-«Devlarga qarshi qonunlar», bu kitobda asosan

Zardo'sht va Axuramazada o'rtasida suhbat, yo'l-yo'riq va ko'rsatmalar mazmunida bo'lib, zulmat va yovuzdik xudosi Axrimanni boshqaruvchi yomonlik kuchlarini qaytarish haqida.

2. Visprat-«hamma hukmdor», bu kitobda ibodat namozlari to'plangan.

3. Yasna-«ibodat», Marosim kitobi xudolarga sig'inish va murojatdan iborat. Yasnadagi «Got»lar nomli 17 bob zardo'shtning muqaddas qo'shiqlaridir.

4. Yasht-«Qadrlash», «Hamdu-sano» kitobi xudolarni sharafllovchi qadimgi giminlar va ezgulik xudolariga yovuzlikka qarshi kurash yordam beruvchi kuchlar haqida.

Bundan tashqari «Avesto» majmuaga «Kichik Avesto» ham mansub, u Avesto tilida yozilgan bo'lib, ibodat kalimalari joylashgan. Ko'pchilik olimlar Zardo'sht yuksak axloqiy idealdagi va ishontiruvchi fikrlari bilan birinchi haq payg'ambar ekanligini ta'kidlaydilar. Zardo'sht ta'limotiga muvofiq barcha quruqlikning o'zgarmas ibtidosi Arta bo'lib, «Avesto»da haqiqat, olov ruh deyiladi. Axuramazda tartibli saqlanuvchi osmon xudosi yorug'lik va ezgulik hisoblangan (oxura-xo'shayish, ega, mazda-idrokli, bilimdon). Axuramazdaning o'g'li-Atar (olv), uning vatani bulutlardek qurigan suvlar, uning makoni-hududsiz yog'du. Axuramazda 6 ta ruhni-yordamchilarni yaratdi (amesh spenta): ezgu aql, yaxshi tartib, layoqatli qudrat, oljanob mo'minlik, sog'lomlik va boqiylik. Unga Axrimanining zulmat qo'shini – devlar, urushlar timsoli, ochlik, kasallik, adovat va boshqa yovuz kuchlar qarama-qarshi turadi. Olam va barcha insoniyat hayotining asosida ezgulik o'rtasidagi azaliy kurash yotadi.

Zardo'sht ta'limotining ulug'ligi shundaki, u har bir kishiga tanlash imkonini beradi. Har kim ham yovuzlikni yo'q etish va ezgulikni hukmron bo'lishida ishtirot etishi mumkin, bu ishda barcha bir xilda tengdir. Shu tariqa yerda ilgari bo'lmagan jannat – oltin asr tiklanadi. Unda sovuq ham, jazirama ham, qarilik ham, o'lim ham bo'lmaydi. Yovuzlik bilan kurashda har kishining asosiy quroli mehnat bo'lган. Zardo'shtiylik axloqli kishidan kamtarin va halol meva eksa, u haqiqat tarqatadi. Videvdat kitobining «Dehqonchilik fazilati haqida» bobidan olingan. Fikr, so'z va ishda taqvodorlik, ishchanlik, halollik, xolislik yuksak axloqning asosiy talabalari

sitatida ko'tariladi. Yasna kitobidan zardushtiylikning e'tiqod ramzi haqida deyiladiki: «Qasam, ezgu fikrni, ezgu so'zni, ezgu faoliyat majburiyatlarini bajarishni talab qiladi».

Zardo'shiylilik birinchi bo'lib, esxatalogik ta'limoti rivojlantirish yaratilgan, bunga muvofiq jahon tarixi 12 ming-yilni tashkil qiladi. Bu muddat tugashi bilan ezgulik va yovuzlik kuchlarini hal qiluvchi yovuzlik jang boshlanadi. Bugun olamni erigan metall oqimi o'q qiladi. Biroq xaloskor saosh'yant halok bo'Igan dunyoni va barcha marhumlarni tiriltiradi, barcha gunohkorlarni do'zaxdan chiqarib Ahurumazdaning ideal hukmronligida abadiy hayot kechiradi. Shu tariqa zardo'shiylikda birinchi bo'lib oxiratdagijazo, marhumlarning tilishi so'roq kuni g'oyalar Doro I ming Bexustun yovuzida va Kserksning Persepoldagi yozuvida ham qayd qilinadi. Zardo'shiylilik Markaziy Old Osiyo hududlarida ming-yillar davomida hukmron din bo'lib keldi va shubhasiz, bu din xristianlik va islom kabi jahon dinlarining shakllanishida katta o'rin tutadi.

Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi va madaniyatning mustaqil rivojlanishi Eron ahmoniylari tomonidan birinchi yirik bosqinchi tufayli to'xtab qoldi. Sug'd. Baqtriya, Xorazm mil. avv. VI-IV asrlarda ahmoniylar davlati tarkibiga kirgan. Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ahmoniylar davrida xalqaro savdoning rivojlanishi uchun qulay sharoitning vujudga kelishi Markaziy Osiyo shaharlarining taraqqiyotiga imkon tug'ildi. Ahmoniylar hukmronligida mamlakatlarga sayyohlar va olimlar borishi mumkin edi. Xuddi shu davrda Sharq mamlakatlarga Gerodot, Demokrit va boshqalar sayohat qilgan. Ahmoniylar imperiyasidagi yirik shaharlar – Suza, Persepol, Memfis, Nippur, Bobilda turli joylardan xususan, Xorazm, Baqtriya, Sug'ddan chiqqan kishilar, saklarning harbiy aholisi yashagan.

O'z navbatida mil.avv. V asrda Oks daryosining o'ng sohilida Miletlik yunonlarning manzilgohi tashkil topadi. Shu tariqa Ahmoniylar imperiyasi tarkibida Markaziy Osiyo xalqlari forslar, midiyaliklar, bobilliklar, misrliklar, yunonlar, hindlar bilan yaqin munosabatda bo'lish madaniyatining ham o'zaro ta'siriga imkon yaratdi.

Ahmoniylar imperiyasi madaniyati ham ko'pgina mamlakat xalqlari yaratgan ilmiy bilimlar, diniy e'tiqodlar, san'at yutuqlarining

sintezi hisoblanadi. Bu madaniyatga Markaziy Osiyo xalqlari ham o‘zining hissasini qo‘shtigan. Zardo‘shtiylik ahmoniyarlarning davlat dini va sifatida qabul qilinishi bilan birga G‘arbgan ham keng yoyila boshladi. Ahmoniyalar san‘atining Suza va Persipoldagi ulkan yodgorligi qurilishiga Markaziy Osiyo mintaqasidan ko‘plab xomashyo keltirilgan. Saroylar qurilishi Baqtriyadan oltin, Sug‘ddan lojuvard va qimmatli toshlar, Xorazmdan feruza olib borilgan. 1877-yilda Tojikistonning janubidan topilgan Amudaryo xazinasi madaniy sintezning yorqin misolidir. Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyat munosabatlari juda kengaydi, shuningdek, madaniy qadriyatning boyishi va turli madaniyatlarning o‘zaro ta’siri jarayoni esa o‘z madaniyatlarini juda tez rivojlanishi va boyishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Ahmoniyalar imperiyasi va Markaziy Osiyo yerlari yunon-make-donlar tomonidan bosib olingen Markaziy Osiyo madaniyatida ellinizm elementlari kirib keldi. Ellistik jarayon salavkiylar davlatidan mustaqil bo‘lgan Parfiya va Yunon-Baqtriyada o‘zining yuqori rivoji bilan ajralib turadi. Yunon-Baqtriya davlati yunonlar mahalliy sintezi qisqa vaqtida o‘zining ijobiy natijalarini berdi, sharharlar soni tez kunlarda o‘sdi, dehqonchilik, chorvachilik, ayniqsa hunarmandchilik rivojlanib bordi. Markaziy Osiyo mintaqasi buyuk ipak yo‘li bo‘lib, o‘sgan xalqaro savdoning markazi sifatida o‘ta muhim o‘rin egalladi. Tovar-pul munosabatlарini o‘sishida Baqtriya shohlarining o‘z pullarini zarb qilishi xalqaro savdoning rivojiga ijobiy ta’sir qilish bilan birga, yuksak badiiy darajasi bilan ham ajralib turadi.

Yunon-Baqtriya davridagi Oyxonum (Shimoliy Afg‘oniston), Saksonaxur va Taxtisangin (Tojikiston), Dalvarzintepa, Yorqo‘rg‘on (O‘zbekiston) kabi shaharlar qurildi. Yunon harbiy manzilgohlarining aholisi turmush tarzi va madaniyatları aks ettiruvchi ellistik uslublar Yunon-Baqtriya sharharlarida ochib o‘rganildi. Inshootlar tosh, xom va pishiq g‘ishtdan tiklangan. Ustunlar korinf usulida ishlangan. Saroy va ibodat majmualari, gimnaziya, teatr binolari ochib tekshirilganda ustunlar attik bazalltar, yaproqlari, palmetallar, cheti naqshlangan cherepitsa-antifikslar singari unsirlarni qo‘llanilishida aks etadi.

Markaziy Osiyoning antik badiiy madaniyatning muhim uslubiy xususiyatini san'atlar sintezi tashkil etgan. Haykaltaroshlik, tasviriy san'at, naqsh bunda umumiylig me'morchilik rasamadagi va uning ritmiga bo'y singan holat me'morchilik bilan yahlit namoyon bo'ladi. Bu sintez Kushonlar davrida ham mahalliy madaniyatda o'z ta'sirini saqlab qoldi. Kushonlar davri Markaziy Osiyo, Afg'oniston, Pokiston, Hindiston xalqlari tarixidagina emas balki dunyo madaniyatining taraqqiyotida alohida o'rinn egallaydi. Turli xalqlar madaniyati chatishishi natijasida bu yerda o'ziga xos madaniyat shakllandı, shu bilan birga keyingi asarlar madaniyatining o'zaro ta'siri yangi tarixiy bosqichga qadam qo'ydi. Ellin madaniyatining un'ananalari Kushonlar davrida ijodiy jihatidan qayta shakllandı va yangicha tahlil qilina boshladi.

Kushonlar imperiyasi davrida (I-III asrlar) Markaziy Osiyoda sup'orma dehqonchilik, hunarmandchilik, shaharsozlik, savdosotiylig va iqtisodiy aloqalar ravnaq topdi. Bunga Kushon-Baqtriya yozuvlari, brahma va qaharoshhi, hind alifbosidagi yozuvlar, kushon tangalari guvohlik berdi. Buddizm dinniing rasmiy durajasi budda ibodatxonalarining o'sha zamon san'ati bilan bezatilishida namoyon bo'ladi. Termiz yaqinidagi Ayrитomdan topilgan ibodatxona tashqi devori peshtoqlariga sarg'ishroq toshidan haykal o'rnatilgan. Bino ichida g'ishtdan ishlangan budda haykalining qoldiqlari topilgan. Haykallarning ishlanish uslubi, kiyimi musiqa asboblari Hindiston, O'rta Osiyo, Yunoniston madaniyatlarining o'zaro ta'sirida rivojlanganligidan dalolat beradi. Buni Xorazm, Farg'ona, Sug'd, Parfiyadan topilgan turli xil buyumlar, madaniy obidalar, topilmalari timisolida ham ko'rsatish mumkin. Kushonlar davrida shaharlar qurilishi keng rivojlangan. Shaharlar qalin devorlar bilan o'ralib, ichida ark va arkning atrofida har xil binolar qad ko'targan sopol idishlar nihoyatda nafis va jarangdorligi bilan va xilma-xilligi bilan ajralib turgan. Amaliy san'at keng taraqqiy etgan. Zeb-ziyat buyumlari va mehnat jang qurollari yasash, mato to'qish rivojlangan. Umuman kushonlar davri madaniyati Markaziy Osiyoning eng cho'qqisi hisoblanib, ma'lum hudud va zamon bilan chegaralanmaydi. Bu madaniyat Old Osiyo, Markaziy Osiyo va Antik, Hind madaniyatlarini o'zida jamlab,

qo'llab sharq xalqlarining o'rta asrdagi madaniyati rivoji uchun asos bo'ldi va jahon madaniyati o'chmas iz qoldirdi.

Qadimgi Eron madaniyati. Behistun qoyasiga o'yib yozilgan yozuvlar, Doro I ning yozuvlari va Naqshi Rustam hamda Bobil va Misr yozuvlari, qadimgi Eron xalqlari tarixi va madaniyati to'g'risida birmuncha tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Aslida Eron hududida olib borilgan arxeologik qazishmalar XIX asrning o'rtalarida boshlangan bo'lsa-da, asosiy ilmiy tekshirish ishlari XX asrda o'tkazilgan Eronning qadimgi poytaxti Persepolda olib borilgan arxeologik qazishmalar qadimgi Eron xalqlarining arxitekturasi, tasviriy san'ati, hunarmandchiligi to'g'risida bir qator qimmatli ma'lumotlarni bergen.

Suza shahrida olib borilgan qazishmalar esa qadimgi Eronda toshdan buyumlar yasash, kulolchilik va to'quvchilik yuksak darajada rivojlanganligini ko'rsatadi. Metallurgiya esa juda sekinlik bilan rivojlangan. Shu sababli uzoq vaqtgacha tosh qurollar asosiy mehnat quroli bo'lib qolgan.

Qadimgi Eronda suv muqaddas hisoblangan. Shu sababli muqaddas Vorukash ko'li to'g'risidagi tasavvur suvgaga e'tiqod asosiy elementi hisoblangan. Suv ruhi Apam-Napatga e'tiqod qilish muqaddas «Avesto»da saqlanib qolgan. Shuningdek, qadimgi Eronliklar oliv xudo – Axuramazdaning o'g'li – olov – Atarga ham sig'inganlar. Olov xudosi marhamatli xudo hisoblangan va u uch boshli ajdaho Dahhokni yenggan. Shu bilan birga Qadimgi Quyosh xudosi Mitra, yer, suv va hosildorlik ma'budasi Anaxitaga e'tiqod qilish ham qadimgi eronliklar diniy qarashlarining markazida turgan.

Qadimgi Eron madaniyati o'zining eng gullagan davrini er. avv. V asr boshlarida boshidan kechirgan. Bu davrda ko'plab hashamatli saroylar va maqbaralar qurilgan. Serjilo sopol idishlar yasalib, bo'rtma (relefli) haykaltaroshlik devoriy suratlari yuzaga kelgan.

Qadimgi Eron madaniyati qadimgi Sharq madaniyati ta'siri ostida rivojlangan. Arxeologik qazishmalar natijasida Ahamoniylar davlatining poytaxtlaridan Pasargad, Persepol va Suzadan ko'plab binolar – saroylar, ibodaxonalar, turar-joy binolari va boshqalarning qoldiqlari topilgan.

Uzavv VI-IV asrlarda Persepoldagi podshoh saroyi ansamblini qurilishi uslubi jihatidan qadimgi Osuriya me'morchiligi uchibumi eslatadi. Shoh saroyi tepalik ustiga qurilgan bo'lib, unga bo'ttma suratlar solib bezatilgan keng zinapoyadan chiqib borilgan. Ullan devorlarpa shoh saroyining qo'riqlovchi qanotli muqaddas xo'kizlarning haykallari ishlangan. Ayniqsa, saroydan topilgan shoh shuningdek unga turli xil sovg'aalar olib kelayotgan xiroj to'lovchilarning suratlari muayyan syujet asosida ishlanganligi bilan aqralib turadi. Sarsonga 17 metrli to'rtta ustundan ishlangan duvoza orqali o'tib borilgan. Darvoza yo'n tomonlarida esa qanotli muqaddas xo'kizlar haykali bo'lib ular odam boshli bo'lgan. Saroy ansambliga shoh qabulxonasi, omborxona, yashash va ishlash uchun mo'hallangan xonalar bo'lgan. Shox qabulxonasi o'zining ko'rkmaligi va mahobatligi bilan ajralib turgan qabulxonaning maydonni 67,5x63,5 metr bo'lib, uch tomonidan ikki qavatli ayvonlar bilan o'shalgan. Ayvon uchun o'ta yengil va o'ta nafis ustunlar ishlatilgan. Ullarning balandligi 13,6 metr bo'lgan. Ustunlarning yuqori kapitel (mukarnas)lari muqaddas xo'kizlar haykaliga o'xshatib ishlangan. Haykullarning yuzasi esa oltin plastinkalar bilan qoplangan. Saroy tonalar, devorlari va zinalarining yon tomonidagi yuzalarga bo'rtma (relefl) tasvirlar ishlangan. Bu tasvirlarni tushirishda qizil, yashil, ko'k ranglardan foydalanilgan. Bo'rtma tasvirlarda shoh fuoliyatiga bag'ishlangan mavzular asosiy tasvirlarda shoh hayoti va fuoliyatiga bag'ishlangan mavzular asosiy o'rinni egallagan. Saroya bo'rtma zimaning yon tomoniga ishlangan bo'rtma tasvirlar-33 etab va inqilarning shohga sovg'a-salom olib kelishi tasvirlangan. Ullarning kiyimlari va etnik tuzilishi (tashqi qiyofasi) aniq detallar bilan ko'rsatilgan.

Xillas, Eron Ahamoniylari davrida vujudga kelgan san'at suratlari O'rta Sharq xalqlari tarixida muhim o'rinni egallaydi. Bu san'at bevosita O'rta Sharqda yashagan xalqlarning o'zaro madaniy aloqalar natijasida shakllangan va mazkur xalqlar san'ati ta'siri ostidagi rivojlanguan. Masalan, Persepol va Suzadagi shoh saroylarining qurilishida Sug'd, Baqtriya, Xorazm, Parfiya, Marg'iyonadan kelgan ustular va san'atkorlar shuningdek Ahamoniylar davri san'ati va madaniyati atrofdagi boshqa mamlakatlar san'ati va madaniyati taraqqiyotiga ham sezilarli ta'sir qilgan. Qadimgi Eron ma-

daniyati taraqqiyotidagi O'rta Osiyo xalqlari va qadimgi Sharqdagi boshqa ko'pgina xalqlar madaniy hayoti sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Geradotning yozishicha, "Eronliklar boshqa xalqlarning urfatlarini boshqalardan ko'ra tezroq qabul qilgan". Haqiqatdan ham Eroniyalar tasviriy san'atiga chuqurroq nazar tashlansa Mesopotamiyaning ko'pgina xalqlari tasviriy san'atining ayrim tomonlarini qabul qilib o'ziga singdirganligini ko'rish mumkin. Masalan, podshohlarning hayoti, qahramonliklarini tasvirlovchi, ko'pgina tasviriy san'at asarlari qadimgi Shumeriyalarning podshosi qahramoni deb hisoblangan Gilgamesh singari yovvoyi hayvonlar bilan kurashib ularni yengayotganday qilib tasvirlangan yoki oly xudo Axuramazda ossuriyaliklarning bosh xudosi Ashshurga taqliddir. Quyosh gardishiga makon qurgandek tasvirlangan. Yana bir misol saroylarning pog'onali va zinapoyali qilib qurilishi, podshoh saroyiga afsonaviy hayvonlarni qo'yilishi Mesopotamiya arxitekturasiga binolarni qurishda ustunli kallonnalardan foydalanishlari esa misrliklar arxitekturasiga mos bo'lган. Lekin eronliklar boshqa xalqlar madaniyati elementlaridan ularni umumlashtirgan, qayta ishlangan va ijodiy yondoshgan holda foydalanganlar, ya'ni bu elementlarning barchasini yagona monumental uslub asosida qayta ishlaganlar.

Mavzuga oid tayanch iboralar

Madaniyat yodgorliklari, zardushtiylik, "Avesto", yozuv, uyg'ur yozuvi, Urxun-Enasoy yozuvi, xalq ijodi.

Mavzu bo'ycha takrorlash uchun savollar

1. Markaziy Osiyodagi qadimgi madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida nimalarni bilasiz?
2. Markaziy Osiyo hududidagi ilk davlatlar madaniyati to'g'risida nimalarni bilasiz?
3. Yunon-Baqtriya madaniyati miqiyosida sharq ellistik madaniyati to'g'risida nimalarni bilasiz?
4. Qadimgi Eron madaniyati to'g'risida nimalarni bilasiz?

Adabiyotlar:

- 1 Кабитов А. Jahon tarixi. – Т.: O‘qituvchi, 2001-yil.
- 2 Jahon madaniyati tarixi. – Т.: Universitet, 2002-yil.
- 3 История мировой культуры. – Москва, 2000 год.
- 4 Sulaymonova F. Sharq va G‘arb. – Т.: Fan, 2000-yil.
- 5 Древний Восток и цивилизация культуры. – Москва, 1999 год.
- 6 Атамирзаев О, Гентшке В, Муртазаева Р. Международная
оперативность в Узбекистане. История и современность.
– Университет, 2004 год.
- 7 Умаров Ў, Абдуллаев М, Хакимов Э. Культурология.
– 2000 год.

MAVZU: ILK O'RTA ASRLAR DAVRI MADANIYATI VA SAN'ATI

Reja:

1. Eftalitlar davri madanivati.
2. Turk xoqonligi davri madaniyati, san'ati.
3. Ilk o'rta asrlarda diniy qarashlar.

Mavzuning o'quv maqsadi: Talabalarga ilk o'rta asrlar davri madaniyati va san'ati hamda diniy qarashlar to'g'risida tushunchalar berishdan iborat.

Kushonlar sultanati inqirozga uchragach, hayot sahnasida yangi bir sulolalar davlatchiligi – eftalitlar davlati paydo bo'ldi. Eftalitlar qadimgi Orolbo'yni ko'chmanchi massagetlar avlodlaridan bo'lib, o'z davrida o'ta jangariligi va hujumkorligi bilan ajralib turganlar. Shu sababli qisqa vaqt ichida sharqiy Turkistondan Kaspiy bo'ylarigacha bo'lgan katta hududlarni o'zlariga bo'ysundirganlar. Hatto, soseniylardan bo'lgan podshoh Peruzni ham (459-484) mag'lubiyatga uchratib, eroniylarni o'lon to'lashga majbur qilganlar.

Eftalitlarning qisqa muddat ichida kuchli davlat barpo etishida, birinchidan, barcha qabila-urug'larning azaliy an'analariga qat'iy bo'ysunishi, ikkinchidan, umumqabila uchun qabul qilingan huquq va axloq me'yorlarini buzganlarga ko'rildigan jazoning qat'iy qilib qo'yilganligi, uchinchidan, ko'chmanchi va yarimko'chmanchi hayot kechiruvchi qabilalarning jangarilik xarakteri muhim rol o'ynagan. Eftalitlarda ko'p erlilik (poliandriya) an'anasi, ya'ni aka-ukalarning bir ayo'lni xotinlikka olishi hamda zodagonlarning ko'p xotin olish an'anasi, yuqori tabaqa vakilining 20 va undan ortiq do'stlarga ega bo'lishi va vafot etganda o'zining sevimli oti va do'stlari birgalikda dafn etilishi kabi an'analar qonun darajasida bo'lgan. Qabul qilingan

Ining me'yorlari barcha uchun qat'iy qonun tusiga ega bo'lgan. Masalan, o'rg'irlik uchun kim bo'lishidan qat'iy nazar, eng avvalo, o'rg'itilangan mol o'n baravar qilib undirib olingan, so'ngra o'lim jasoviga mahkum etilgan.

I Itabitlarning kuchli davlatga ega bo'la borishi ularning o'troq-lashuviga olib kelgan, sun'iy sug'orish shohobchalari kengayib, dehqonchilik madaniyati yuksala borgan. Qalin mudofaa devorlari bilan o'rulgan istehkomli qal'alar, qo'rg'onlar soni tezlik bilan ko'paygan. Bu davrda Amudaryo, Surxondaryo, Qashqadaryo, Zarafshon va Chirchiq daryolari bo'yalarida dehqonchilik rivojlanadi. Mazkin daryolardan suv ichuvchi shaharlarda hunarmandchilik taraqqiy etadi. Ayniqsa, kulolchilik, chilangarlik, shisha ishlab chiqish, bo'zehilik va sarrojlik, zargarlik va quroqsozlik yuksaladi. Choyvachilik va dehqonchilik rivojlanib, sun'iy sug'orish tizimlari qurtilishu avj oladi.

I Itabitlarda hokimiyatni boshqarish maxsus kengash zimmasida bo'lgan. Hokimiyat tepasida kengash ma'qullagan kishi turgan. Utasini kengash tasdiqlagan qonun asosida boshqargan. Eftalitlar davrida Xorazm, So'g'diyona, Baqtriya va Shosh viloyatlarida mustahkam va hashamatli qo'rg'onlar vujudga kelgan. Savdo-sotiqning gurkinab rivojlanishi eftalitlar davlatchiligi iqtisodiyotining yanada rivojlanishiga olib keladi, harbiy qudratini yana oshiradi. Tashqi saytdoga ipak, bo'yoq mahsulotlari, rangli shishalar, qimmatbaho tosh, atq'umoq otlar, matolar, qurol-yarog'lar chiqariladi.

Albatta, mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti nafaqat mamlakatning madaniy bayotiga, balki unga chegaradosh bo'lgan boshqa davlatlilar va mintaqalar bilan bo'ladigan madaniy aloqalariga ham sanjarali ta'sir ko'rsatadi. Eftalitlar mamlakat ichkarisidagi kattakichlik shaharlarda hashamatli binolar qurdiradi. Eftalitlar davri arxitekturasida ikki qavatlil qilib qasrlar qurish odad tusiga kirgan. Qasrlar shaharning markazida, tuproq bilan baland qilib ko'tarilgan joydu (eng baland qismi yoki tuproq bilan sun'iy ravishda ko'tarilgan balandlik tepasiga) qurilgan. Masalan, hozirgi Buxoro viloyati hududida joylashgan qadimgi Varaxsha, Poykand shaharlari, Xorazmdagi Tuproqqa'l'a shahri, Qashqadaryo viloyatidagi qadimgi Zaboki Moron qasrlari ana shunday sun'iy tepalik ustiga qurilgan bo'lib, tashqi ko'rinishidan nihoyatda mahobatli bo'lib ko'ringan.

Eftalitlar davri arxitekturasida, eng avvalo, ibodatxona yoki qasrning tashqi mahobatliligiga va uning ichki bezaklariga alohida e'tibor berilgan. Ichki devorlar rangli suratlar, naqshlar va haykallar bilan bezatilgan. Masalan, hozirgi Surxondaryo viloyati hududida joylashgan qadimgi Bolaliktepa shahrida qurilgan qasr devorlarida saqlanib qolgan devoriy suratlar o'zining nafaqat tabiiyligi, rangdorligi, balki maishiy hayotning bir bo'lagini badiiy tasvirlashi bilan ham ajralib turadi. Haykaltaroshlikda ko'proq terrakota va koroplastika haykaltaroshligidan foydalanilgan. Bu davr haykaltaroshligida hudud va unda yashovchi kishilarning kiyimkechaklari, taqinchoqlari va o'xshash tomonlari ko'zga tashlanib turgan. Ma'bud yoki ma'budalar haykallari (albatta yirik va ulkan haykallar yasalmagan) da uni yaratuvchi haykaltaroshning diniy dunyoqarashi o'z ifodasini topgan.

Arxeologlarning ma'lumotlariga ko'ra, binolar bir necha qavat qilib qurilgan. Uy devorlari turli naqshlar va suratlar bilan bezatilgan. Ayniqsa, ibodatxonalarga katta e'tibor berilgan. Ularning ichki tomonini bezashda qimmataho toshlardan va oltindan foydalaniganlar. Eftalitlar davrida Poykent shahri, Tuproqqa'l'a (hozirgi Xorazm hududida), qadimgi Chochdag'i Oqtepa qal'asi, qadimgi Varaxsha qo'rg'onlari shaharsozlikning namunalari hisoblangan. Misol tariqasida Varaxsha qo'rg'onini olib qarasak, eftalitlar davrida me'morchilik san'ati qanchalik rivojlanganligining guvohi bo'lamiz. Varaxsha qo'rg'oni ulkan kvadrat shaklida mustahkam tepa ustiga qurilgan. Binoning devorlari ganch bilan suvalgan va devoriy suratlar bilan bezatilgan.

Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy o'zining «Buxoro tarixi» asarida Varaxsha haqida shunday deb yozadi: «... Varaxsha ... katta qishloqlar jumlasidan bo'lib, Buxoro singari edi. U podshohlar turadigan joy bo'lib, mustahkam hisorga ega bo'lgan, chunki podshohlar (u hisorni) bir necha marta mustahkamlaganlar. Uning Buxoro shahrining devorlari singari devori ham bo'lgan. Bu qishloq Buxoro devorining ichkarisida joylashgan. Unda shunday bir obod qasr bo'lganki, go'zallikda uni namuna qilib ko'rsatar edilar».

Eftalitlar davrida saroylar, ibodatxona va boy-badavlat kishilarning turar joylari ichki bezagida sujetli tasviriy san'at asarlari va turli xil naqshlardan foydalanish odatiy tusda bo'lgan. Masalan, Bolaliktepa

qurit devorlariga tushirilgan ziyofat marosimi nihoyatda yorqin bo‘yoqlar bilan chizilgan bo‘lib, unda gilamchalar ustida juft-juft bo‘lib tiz cho‘kib o‘tirgan erkak va ayollar tasvirlangan.

Etkaklarning egnida uchburchak shaklida keng qaytarma yoqali va hoshiyali uzun kamzul, oyog‘ida mahsi, belidagi ingichka kamonga qayirma uchli xanjar osilgan. Birida vaza, ikkinchisida tug‘ro tutgan qo‘llarining jimjilog‘iga bittadan ikkita yirik ko‘zli uzuk taqilgan. O‘ng qo‘lida qadah, so‘lida ko‘zgu tutgan ayollarning kiyim-kechaklari nihoyatda bashang. Ichki libos ustidan hoshiyali qaytarma yoqali hamda uqali uzun va keng gul dor yopinchiq – qabo yelkaga tashlangan. Quloqlarida Buxoroning yakkadur ziragi, jimjiloqlarida em yoqut ko‘zli uzuk taqilgan.

Nillas, Bolaliktepa qasri devorlarida tasvirlangan ayollarning tushqi qiyofasi VI asrda eftalitlar hukmdori huzurida bo‘lgan budda kohinini hayratga solgan saroy zodagoni ayollarini eslatadi. Kohuning ta’riflashicha, o‘sha vaqtarda eftalit malikalari juda qummatbaho matodan tikilgan, orqa etagi uch quloch va undan ham uzunroq bo‘lgan serbezak ko‘ylak kiyar, uning etagini maxsus toriyalar ko‘tarib yurganlar.

Eftalitlar davrida diniy e’tiqodlar xilma-xilligi - zardushtiylik, Anaxita va Mitraga, buddaviylik, iuadizm va nasroniylik mavjud bo‘lgan. Buxoro vohasida esa ko‘proq Siyovushga e’tiqod qilish rivojlangan. Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asarida ko‘rsatilishicha, «podshoh Afrosiyob o‘z kuyovi Siyovushni o‘ldiradi. «Buxoro aholisi Siyovushning o‘ldirilishi haqida ajoyib ashulalar to‘qiganlar, kuychilar bu qo‘shiqlarni «Kini Siyovush» - «Siyovush jangi» deb ataydilar. Siyovushga e’tiqod qiluvchilar Navro‘z kuni uning qabri atrofida katta bayram o‘tkazganlar. Bu bayram «Navro‘zi kishavarzon»

«Dehqonlar navro‘zi deb atalgan. Buxoro otashparstlari Siyovush dafni etilgan joyni aziz tutganlar va unga atab har-yili har bir erkak Navro‘z kuni Quyosh chiqmasdan o‘sha joyda bittadan xo‘roz so‘yandi. Buxoro aholisining Siyovushning o‘ldirilishiga bag‘ishlab aytgan marsiyalari bo‘lib, u barcha viloyatlarida mashhur bo‘lgan. Kuychilar unga moslab kuy tuzganlar va qo‘shiq qilib aytganlar. Qo‘shiqchilar uni «otashparastlar yig‘isi deb ataganlar.

Shuningdek, Eftalitlar davrida O‘rta Osiyo va Sharqiy Turkistonda Monizm keng tarqala boshlaydi. Monizm tasviriy san’atni diniy

marosimlarga olib kiradi. Tuproqqa (Xorazm), Varaxsha (Buxoro) va Panjikent (Tojikiston Respublikasi) dagi ibodatxonalar bezaklari bu fikrimizning dalili bo'la oladi. Masalan, Panjikentdagi motam marosimining suratda tasvirlanishi bunga misol bo'la oladi. Eftalitlar o'z urf-odatlari, ayniqsa, dafn marosimlariga ko'ra kuchli tabaqalanishga ega bo'lganlar. Oddiy eftalitlar murdasi tuproqqa qo'yilgan. Boy-badavlat kishilar vafot etganda esa, ularning jasadi maxsus tayyorlangan tosh dahmaga qo'yilgan. Urug' boshlig'i vafot etganda, juda katta tantana bilan dafn marosimi o'tkazilgan. Odatga ko'ra urug'ning eng boy-badavlat kishilari 20 va undan ham ko'proq sodiq do'stlarga ega bo'lgan.

IVasrda yashagan tarixchi Ammian Marselinning yozishiga ko'ra, Xionit shahzodasi vafot etganda, uning murdasi kuydirilib, uning atrofiga sodiq do'stalarining terrakota haykalchalari o'tkazib qo'yilgan.

Xulosa qilib aytganda, eftalitlarning 100-yildan oshiqroq hukmronligi davri Markaziy Osiyodagi xalqlarning jipslashuvi, turli qabilalarning qo'shilishi, iqtisodiy va madaniy hayotning yanada rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan.

Turk xoqonligi davri madaniyati, san'ati va diniy qarashlari

V asrning ikkinchi va VI asrning birinchi yarmida Oltoy va Janubiy Sibir hududlarida uyushgan yangi bir kuch – turk qabilalar ittifoqi vujudga keladi. Bu ittifoqning eng ko'zga ko'rigan boshlig'i Bumin VI asrning o'rtalarida o'sha davrdagi Osiyoning ancha kuchli davlati hisoblangan Jujan xoqonligiga katta zarba beradi va o'zining Turk xoqonligiga asos soladi.

Bumin xoqon ukasi Istemni bilan birga qisqa vaqt ichida Enasoy (Yenisey) daryosi bo'yalarida yashovchi qirg'izlarni, janubi-g'arbiy Manjuriyadagi kidanlar va shimoliy Xitoyni bosib oladi. Xitoy imperatorlari-yiliga yuz ming to'p ipak mato hisobida o'lon to'lashga majbur bo'ladilar. «Yabg'u xoqon» unvoniga ega bo'lgan Istemni boshchiligidagi Turk qo'shnulari tezlikda Yettisuv, Sharqiy Turkiston va uning atrofida yashovchi turkiy qabilalar yerlarini. Markaziy Osiyoning Sirdaryo va Orol dengizigacha bo'lgan hududlarini bosib oladilar.

558-yilga kelgach, turklar Yoyiq (Ural) va Itil (Volga) daryolari bo'yalarini hamda Shimoliy Kavkazdagagi avarlar yashaydigan

hududlarni ham qo'lga kiritadilar. Besh-yildan so'ng turklar Parkana, Choch viloyatlarini, so'ngra Sirdaryodan kechib o'tib, Zarafshon vohlysigiga kirib boradilar. Samarqand, Kesh (Shahrisabz), Naxshab (Qurshi) va Buxoro shaharlarini egallaydilar. Buxoro yaqinida Eftalitarning qo'shinlari bilan to'qnashib, ularni tor-mor etadilar va butun Amudaryo bo'ylaridan Kaspiy dengizigacha bo'igan yerlarni o'z tasarrufiga o'tkazadilar.

Turk xoqonligi Vizantiya bilan savdo-iqtisodiy va madaniy hamkorlik o'rnatadi. 575-576-yillarda turklar Kimmeriyalar Bosforini egullashib, Qrim yarimoroligacha kirib boradilar.

Xallas, VI asrning 70-80-yillariga kelib, Enasoy daryosining yuqori oqimidan to Amudaryo bo'ylarigacha. Manjuriyadan Kimmeriy Bosforgacha bo'Igan ulkan hududlar Turk xoqonligining tasarrufiga o'tadi. Turklar o'zlari bosib olgan hududlarning ichki hayotiga aralashmaydilar va hokimiyatni yerli sulolalar hukmdorlari orqali boshqaradilar. Natijada, turk xoqonligi tasarrufidagi ko'plab mayda feodal hokimiyatlar vujudga keladi. Xoqonlikka kiruvchi yetli sulolalar hukmdorlarning boyishi uchun xalqni ayovsiz talashi, urug'-aymoqchilikning kuchayib ketishi va mayda feodallarning hokimiyat uchun zimdan kurash olib borishi tufayli Turk xoqonligi 60-1-yilda ikki mustaqil davlatga – Mo'g'ulistonda tashkil topgan Sharqiy turk davlati va Markaziy Osiyo, Jung'oriya hamda Sharqiy Turkistonni birlashtirgan G'arbiy turk xoqonligiga bo'linib ketadi.

VII asrning birinchi choragida G'arbiy turk xoqonligi kuchayib, shimoliy chegaralarini Oltoy hududlarigacha, janubiy chegaralarini esa Hind daryosi bo'ylarigacha kengaytiradi. Yettisuv G'arbiy turk xoqonligining markaziga, Siyob shahri esa uning poytaxtiga aylanadi. G'arbiy xoqonlik aholisining kattagina qismi o'troq hayot kechirib, dehqonchilik bilan, shaharlar va yirik qishloqlar aholisi savdo-sotiqligini hamda hunarmandchilik bilan mashg'ul bo'Iganlar. Hunarmandchilikning kulolchilik, to'qimachilik, misgarlik, chilan-gaulik, temirchilik, zargarlik kabi turlari ancha rivojlangan. Farg'ona va So'g'diyonada oltin, mis, temir, simob va boshqa ma'danlar qazib olingan. Turk xoqonligining xazinasi savdo-sotiqlidan keladigan doromad va viloyatlardan to'lanadigan boj hisobiga to'Ig'azilgan. Hunarmandchilik, dehqonchilik va savdo-sotiqlarning rivojlanishi, birinchidan, o'troq aholining jipslashuviga sabab bo'Igan bo'lsa,

ikkinchidan, aholining madaniy jihatdan taraqqiy etishining asosiy omili bo'lib xizmat qilgan.

VII asrning boshlariga kelib ishlab chiqarish jarayonining rivojlanishi, savdo-sotiq va hunarmandchilikning taraqqiy etishi yanidan yangi shaharlar va qishloqlarning vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatadi. Buxoro, Zarafshon, Qashqadaryo va Xorazmning keng dashtlarida yangi qo'rg'on va qal'alar qurilib, ularga suv chiqarilib, atroflar obodonlashtiriladi. Bu davrga kelib, xoqonlik hududida ko'plab qal'alar, qo'rg'onlar, qasrlar, saroylar, huqandozlar, ko'shk va sardobalar qurilishi keng avj oladi. Bu inshootlarning qurilishida, birinchidan, hunarmandchilik, ikkinchidan, savdo-sotiq, uchinchidan, mahalliy hukmdorlarning shuhratparastligi (chunki ular o'zlarini haqiqiy hukmdor, xoqon deb hisoblaganlar), to'rtinchidan, markazlashgan xoqonlik tomonidan boshqarilsa-da, yerli mayda feodal hokimlar o'rtasida o'zaro nizo, bir-biriga ishonchsizlik tufayli o'z-o'zini himoya qilishga bo'lган intilish kabi sabablar muhim rol o'ynagan. Shu boisdan mazkur arxitektura inshootlarining qurilishi bir necha baravar oshib ketgan. Masalan, Xorazm vohasidagi Burgut qal'a mavzeyida 100 ga yaqin ko'shk va qasrli qo'rg'onlar qurilgan bo'lsa, Buxoro atrofida 4000 ga yaqin qasrlar, Chochda 50 dan ortiq katta-kichik istehkomlar, yirik yer egalari qo'rg'onlari, ko'shk va obod qishloqlar qad ko'taradi.

Markaziy Osiyoga Shimoldan turkiy qabilalarning ko'chib kelishi natijasida (er.avv. II asrdan boshlab) turkiy lahjalar va shevalarda gaplashish odad tusiga kirgan. Turkiy til so'g'd va yunon tillari bilan bir qatorda muomala tiliga aylangan, ya'ni Eron lahjalari va shevalarida so'zlashuvchi ayrim guruhlar turkiy tilda so'zlasha boshlaganlar. Eron tillari guruhidagi tillar zaminida fors-tojik tillari vujudga kelganidek, turkiy tillar zaminida o'zbek, turkman, qozoq, qirg'iz, uyg'ur va boshqa turkiy tillar paydo bo'ladi.

Eramizning boshlaridan VIII asrgacha bo'lган davrda ijtimoiy hayotda ro'y bergen barcha o'zgarishlar me'morlik, haykaltaroshlik va tasviriy san'atda o'z ifodasini topgan. Tasviriy san'at, haykaltaroshlik va me'morlikning ilk o'rta asrlarga xos bo'lган jihatlari ko'proq o'sha davrda qurilgan turli qasrlar, saroylar, qal'alar, qo'rg'onjar, ko'shklar, ibodatxonalar, otashkadalar va ularni bezagan rasmlarda, budda va nasroniylik ibodatxonalariga o'rnatilgan haykallar va

suratlarda, zarb etilgan tangalarda, xilma-xil bezaklarda o‘z aksini topgan.

O‘sha davrning o‘ziga xos san’at asarlarini hamda bu san’at asarlarini yaratgan me’morlar, haykaltaroshlar va musavvirlarning dunyoqarashi, intilishlari-yu orzu-umidlarini qadimgi Bolaliktepa, Panjikent, Varaxsha, Afrosiyob, Quva va boshqa qadim shaharlar xarobalaridan topilgan devoriy suratlar, haykallar, ganchkor naqshlar, turli xil zeb-u ziynatlarda ko‘rish mumkin. Bu yodgorliklar ilk o‘rta asrning o‘ta murakkab siyosiy va iqtisodiy, madaniy va maishiy hayotining sermazmun va serjilo, jozibali va ayanchli, zavqli va munpli manzaralarini o‘z bag‘rida yashirib kelgan. Misol uchun, Bolaliktepadan topilgan devoriy suratlardagi qo‘llariga qadah tutgan just-just ayol-u erkaklarning tasviri o‘sha davr hayotining jozibadorligini ko‘rsatib bersa, Varaxsha saroyidagi oq fil ustidagi tilbon va boshqa pahlavonlarning old va orqadan chovut solayotgan uslon hamda qanotli grifonlar bilan jang qilishi insonning hayot va yashash uchun kurashini ko‘rsatib beradi.

Panjikent xarobalaridagi qariyb 15 metrga cho‘zilgan rang tasvirda to‘riq otliq suvoriy boshchiligidida choparlarning yurishi, ularning dushman bilan olishuvi, suvoriyning ajdaho va otliq dushmanga qarshi yakkama-yakka jangi, chokarlarning devlar to‘dasi bilan kurashi tasvirlangan. Suratning oxirida qulagan ajdahoni yanchib boshlab, o‘z chokarlarini boshlab borayotgan suvoriyning g‘alaba mushidasini surishi tasvirlangan. Panjikent xarobalarida xona devorlariga chizilgan suratlar turli xil mavzularga bag‘ishlangan. Bu suratlardan biri dehqonchilikka bag‘ishlangan bo‘lib, unda kattagina g‘alla xirmoni, yakka pallali tarozida g‘alla tortayotgan amaldor, donni qoplayotgan va qoplangan g‘allani eshakka ortishga taraddud ko‘riyotgan yalangoyoq keksa dehqon hamda o‘spirin tasvirlangan. Yana bir tasvirda Siyovushning o‘limi bilan bog‘liq bo‘lgan aza marosimi ifodalangan.

Qadimgi Afrosiyob xarobalarida topilgan suratda esa tantanali yurishi tasvirlangan. Suratda tasvirlangan oq fil, uning ustiga o‘rnalig‘an taxtiravonga joylashib olgan malika, uning joriyasi, ot minib olgan hamrohlari va qo‘riqchilarini ko‘z oldingizda namoyon bo‘ladi. Ekkrimizcha, bu suratda hukmdorning uylanish marosimiga oid kelin (malika)ni tushirib kelish lahzasi tasvirlangan bo‘lishi mumkin.

Chunki, qadimdan So‘g‘diyona va unga tutash bo‘lgan hududlarda kelinni oq rangdagi ulovda tushirib kelish marosimi mavjud bo‘lib, u o‘z yangasi va boshqa hamrohlar kuzatuvida bo‘lishi shart bo‘lgan. Malikani kuzatib kelayotgan ayollarning birinchisining qo‘liga so‘g‘dcha «malikaning yangasi» deb yozib qo‘yilgani bundan dalolat beradi.

Turk xoqonligi davrida musiqa, raqs, qo‘sinqchilik san’atlari, dorbozlik, masxarabozlik va qo‘g‘irchoqbozlik tomoshalari keng rivojlangan.

VI-VII asrlar Markaziy Osiyoda san’atning rivojlanganligi bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, musiqa va qo‘sinqchilik san’atlari yuqori darajaga ko‘tarila boradi. Musiqa va qo‘sinqchilik san’atlarining rivojlanishi So‘g‘diyona hududida yaqqol sezilib turgan.

Qadimgi Markaziy Osiyo musiqa madaniyati yuksak darajada rivojlanganligini mintaqaning turli hududlarida olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida topilgan ashyoviy dalillar ham ko‘rsatadi. Bunga musiqachilar tasviri tushirilgan turli xil buyumlar va idishlar dalil bo‘la oladi. Masalan, rus olimi A.Belinskiyning ta’kidlab ko‘rsatishicha, birgina Panjikentda har bir bayram, to‘y-tomosha va hatto dam marosimlari sozanda, xonanda va raqqosalarsiz o‘tmagan. Yoki V-VI asrlarga oid Bolaliktepadan topilgan tasvirda bazmi jamshid tasvirlangan bo‘lib, unda chang va nay chalayotgan sozandalar, qo‘sinq kuylayotgan xonanda ko‘zga tashlanadi.

Shuningdek, Markaziy Osiyoda musiqa va qo‘sinqchilik san’atlarining rivojlanganligini So‘g‘diyona, Baqtriya, Marg‘iyona hududlarida bo‘lgan chet ellik sayyoohlar va rasmiy kishilarning esdaliklari hamda yozishmalariga qarab bilsa bo‘ladi. Masalan, VII asrda Afrosiyobga kelgan buddaviy monaxning yozishicha, bu paytdagi har bir bayram va shodiyona qo‘sinq va raqlsarsiz o‘tmagan. Nafaqat bayram va to‘y-tomoshalar, balki dafn marosimlarida ham sozanda va xonanda (go‘yanda)lar qatnashganlar. Go‘yandachilikning bizning davrimizgacha yetib kelganligi buning dalili bo‘la oladi. Ushbu davr san’atkorlari nafaqat Markaziy Osiyoda faoliyat ko‘rsatganlar, balki boshqa davlatlarda tashkil etilgan bayram, tantana va bazmlarda ham ishtirok etganlar.

Markaziy osiyolik san’at ahli bilan xitoylik san’atkorlar o‘rtasida doimiy hamkorlik mavjud bo‘lgan. Ko‘proq Markaziy osiyolik

san'atkorlar Xitoyda bo'ladigan tantanalar va bayramlarning doimiy idditiotchisi bo'lgan. Xitoy manbalarida ko'rsatilishicha, VII – VIII asrlarda Markaziy Osiyoda musiqa, raqs, qo'shiqchilik va dorbozhk kabi san'atning boshqa sohalari ham rivoj topgan. Xitoy imperatorlari saroylarida o'tkaziladigan tantanalarda Turkistondan borgan dorbozlar, akrobatlar, ko'zboytag'ichlar, olovyutgich va purkuyich afsungarlar hamda qiziqchilar o'z mahoratlarini zavq-shuvq bilan namoyish qilganlar. Hatto Xitoyning Chan'on shahri adolisi qo'rg'irchoq o'yinini ilk bor VII asrda Turkistondan borgan san'atkorlar ijrosida tomosha qilishga tuyassar bo'lgan.

Islomgacha bo'lgan Turkiston musiqa madaniyatining rivojlantishida Marv viloyatida tug'ilib, Eron shohi Xusrav Parvez saroyida faoliyat ko'rsatgan Borbad Marvaziyning hissasi beqiyos katta bo'lgan. Borbadning musiqa madaniyatini rivojlantirishdagi buyuk xizmati azal-azaldan iqtisodiy-madaniy aloqada bo'lgan Turon va Xuroson xalqlari madaniyatining yanada boyishiga olib keldi. Borbad qisqa muddat ichida mashhur musiqashunos, bastakor, mursilshoq-sozanda, hatto raqqos va shoir sifatida elga tanildi. Uning dovrug'i Turon-u Eronga yoyilgan. Naql qilishlaricha, Borbadning ovozi shunday yoqimli bo'lganki, uning ovozini eshitgan odamning qo'shiq sehridan chiqib ketishi qiyin bo'lgan. Shu sababli o'sha davring ko'pgina hukmdorlari Borbadning o'z saroyida xizmat qilishini orzu qilganlar. Borbad Xusrav Parvez II ning olimlar, shoirlar, san'atkorlar va hunarmand ahliga g'amxo'rlik qilayotganini eshitib, uning saroyiga yo'l oladi. Xusrav uni o'z saroyiga xizmat qilayotgan san'atkorlarga bosh qilib qo'yadi.

Borbad shoh Xusrav Parvezni adolatparvarlikka, ma'rifatparvarlik va raiyatparvarlikka undagan. Uni zulm qilishdan, aysh-ishratga berilishdan tiyib turgan. U Xusrav Parvezning san'atkorlarga homiyligi hurmati haqqi unga atab «Xusravoniy» nomli kuyni yaratgan. Uning bu xizmatlari shohning sevimli xotini Shirin tomonidan munosib tuqdirlanadi. Malika Borbadga o'zining Isfaxondagi mulkini in'om qiladi. Borbad ko'plab shogirdlar yetishtiradi. Naql qilishlaricha. Sosoniyalar sulolasи davrida mashhur bo'lgan Nyokiso Changiy, Bomshod, Romtin, Ozodvor Changiy, Sarkash ismli san'atkorlar Borbadning shogirdlari bo'lganlar. Borbad o'z asarlarini ko'proq tubiat hodisalariga bag'ishlaydi. Bahor fasli, Navro'z bayrami

uning sevimli mavzusi hisoblangan. Shu sababli uning «Gulzor», «Sabz bahor», «Rohigul», «Abhari kuhan», «Ravshan charog», «Polizbon», «Dilangizan» singari ko'pgina asarlarida Navro'z va tabiat go'zalligi tarannum etiladi. Shuningdek, sozanda «Yazdon ofarid», «Sabzdori sabz», «Partavi farxor», «Kini Siyovush», «Bog'i Shahriyor, «Isabdiz» singari qo'shiq va ohanglarni ham mavsum va marosimlarga bag'ishlab yaratadi. Borbad ko'pgina qo'shiqlarini avlod-ajdodlar tarixiga, xalq og'zaki ijodi va zardushtiylikning muqaddas kitobi «Avesto» ohanglariga bag'ishlagani haqida ma'lumotlar bor. Uning musiqa sohasidagi buyuk xizmati shundan iboratki, u yaratgan «Zerafkand», «Nufuxt», «Gulnush», «Oromishi jon», «Dargam» kabi kuy va taronalar eron, tojik, arab va turkiy xalqlarga mansub sozanandalar tomonidan hanuzgacha sevib ijro ettiadi.

Hozirgi kunda o'zbek-tojik musiqasi boyligi hisoblangan «Shashmaqom» ohanglari silsilasidagi «Zerafkand», «Xusravoni», «Navro'zi buzrug», «Navro'zi Ajam», «Navro'zi Xoro» maqom yo'llarida Borbad ijodining an'analarini bevosa davom etib kelmoqda.

Umuman olganda, Borbadning Sharq musiqa madaniyatiga qo'shgan hissasi va uning mashhurligi haqida ko'plab asarlar yozilib, tadqiqotlar olib borilgan. Borbad ijodi ko'plab Sharq va G'arb olimlari tomonidan o'rganilgan. Masalan, Borbadning musiqa madaniyati tarixida yorqin iz qoldirganligi haqida daniyalik mashhur sharqshunos A.Krestinsen shunday deb yozadi: «Borbad sosoniyilar davri musiqasi rivojida asosiy o'rinn tutgan, shuningdek, u haqiqatdan ham Sharq xalqlari musiqa san'atining asoschilaridan biri hisoblanadi. Hech qaysi san'at arbobi tarixda va adabiyotda uningdek yorqin iz qoldirmagan. Borbad o'z hayoti davomida 360 ta maxsus qo'shiq va 30 ta tarona yaratdi, ulardan 148 tasining nomi hozir ham manbalarda doimo eslanadi. U yaratgan asarlarning nomlari Sharq xalqlari musiqasida hozirgi kunlargacha o'zgarmagan». Borbadning nomi va iste'dodini abadiylashtirishda mashhur Sharq mutafakkirlarining roli benihoya kattadir. Abu Bakr Narshaxiy, Abu Abdulloh Rudakiy, Abdulqosim Firdavsiy, Ibn Sino, Nizomiy Ganjaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqalar o'z asarlarida Borbad nomini abadiylashtirib ketganlar.

Qadimgi Markaziy Osiyoning ilm-fani dunyoning barcha mada-

ity jihatdan taraqqiy etgan hududlaridagi singari, eng avvalo, dehqonchilik madaniyatining, hunarmandchilik va iqtisodiy-madaniy ~~ulogalarining~~ rivojlanishi bilan bog'liq holda vujudga kelgan. Buzgacha yetib kelgan ko'pgina hujjatlar, taqvimlar va boshqa yodgorliklarda ko'rsatilishicha, qadimgi Markaziy Osiyoda ilmi nujum, handasa, yer ilmi, fizika va boshqa tabiiy fanlar taraqqiyotida birmuncha ilgarilash mavjud bo'lган.

Abu Rayhon Beruniy asarlarida ko'rsatilishicha, qadimgi Markaziy Osiyoda ilmi nujum (astronomiya) ancha rivojlangan. Xotazmlik, so'g'diyonalik, baqtriyalik va marg'iyonalik olimlar eng avvalo, sayyoralar va yulduzlarning turkumlarini o'rganib, ularga shoxsas nomlar berishadi va burj (zodiak) tizimini aniqlaydilar. Har bir shohlik va xonlik saroylari qoshida astronomlar guruhi mavjud bo'lган. Ular sayyoralar dunyosini kuzatganlar va harbiy harakatlarni amalga oshirish vaqtini, hattoki, har xil shikorlar va to'y tomoshalarni o'tkazish mumkin bo'lган «qulay va noqulay» kundarni aytib bergenlar. Munajjimlik taqvimlarini tuzishib, osmon jismlari va inson taqdiri o'rtaсидаги aloqani bashorat qilganlar. Sug'orish inshootlari, mustahkam qal'alar, saroylar, qasrlar va qo'ship onlarning qurilishi handasa ilmining taraqqiy etishiga katta ta'shi ko'rsatgan bo'lsa, metall quyish, toshni eritib shisha ishlab chiqarish, qurilish va turli xil binolarni bezashda xilma-xil ranglardan foydalananish, kimyo hamda fizika fanlarining taraqqiy etishiga sabab bo'lган.

Xullas, ilk o'rta asrlar Markaziy Osiyo madaniyati taraqqiyoti o'ziga xos tarzda rivojlangan. Moddiy va ma'naviy madaniy boyliklar yaratishda birmuncha muvaffaqiyatlarga erishilgan. Bu davrda, ayniqsa, turli elatlar va xalqlarning tili va yozma adabiyoti, san'ati va fani taraqqiy etib, qo'shni davlat va hududlar: Hindiston, Itron, Vizantiya, slavyan xalqlari madaniy taraqqiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Ushbu davlatlar bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy ~~ulogalarining~~ yo'lga qo'yishi madaniy boyliklarning boshqa o'lkalarga voyilishi va boshqa xalqlar madaniy hayotining ilg'or yutuqlarini o'rjanish imkonini yaratib bergen. Bu davrda diniy dunyoqarashda o'zgarishlar ro'y bera boshlagan.

Diniy qarashlari. Turk xoqonligi hududlarida o'troq, ko'chmachi va yarimko'chmanchi aholi yashaganligi sababli, ularning

diniy qarashlarida ham turli-tumanlik mavjud bo‘lgan. Masalan, o‘troq aholi o‘rtasida ko‘proq zardushtiylik, buddaviylik, moniylik dinlari asosiy diniy e’tiqodlar bo‘lgan bo‘lsa, ko‘chmanchi aholi o‘rtasida ko‘proq totemizm va shomonlik hukmron diniy tasavvurlar hisoblangan. Yarimko‘chmanchi aholi o‘rtasida ham totemistik, ham zardushtiylik, ham xrustianlik, ham monizm, ham Anaxita va Fr Xubbiga sig‘inish mavjud bo‘lgan.

Zardushtiylik va uning muqaddas kitobi «Avesto» O‘rta Osiyo, Eron hamda Ozarbayjon xalqlarining eng qadimiy yozma yodgorligi va madaniy boyligi bo‘lganligi sababli, bu diniy e’tiqod maxsus mavzu sifatida ko‘rib chiqiladi.

Arablar bosqiniga qadar O‘rta Osiyo xalqlari zardushtiylik, buddaviylik, xrustianlik, monizm va boshqa bir qator dinlarga e’tiqod qilganlar. Otashparastlik bu davrning hukmron dini hisoblangan. Bu e’tiqod So‘g‘diyona, Xorazm, Choch viloyatlarida hukmron din darajasiga ko‘tarilgan. Tohariston, Farg‘ona, Yettisuv va Sharqiy Turkistonda buddaviylik dini keng tarqalgan. Shu sababli bu hududlarda olib borilgan qazishmalar natijasida ko‘plab budda ibodatxonalarini topilgan. Masalan, Tohariston hududidagi Balx shahrida yuzga yaqin, Termizda o‘nga yaqin, Kabodiyonda uchta hamda Farg‘ona vodiysidagi qadimgi Quva shahri xarobalaridan ikkita buddaviylarning ibodatxonalarini topilgan. Quva shahridagi ibodatxonalarda olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida loydan yasalgan rang-barang haykal va haykalchalar qazib olingan.

Turk xoqonligi davrida O‘rta Osiyo va u bilan muntazam ravishda madaniy aloqalar olib boruvchi Sharqiy Turkiston hamda Xitoy xalqlari mafkuraviy hayotida monizm dini ham muhim rol o‘ynagan.

Ma’lumki, moniylik dini zardushtiylik, nasroniylik va buddaviylik dinlarining qo‘siluvi natijasida vujudga keldi. Uning asoschisi Moniy hozirgi Iroqda 216-yilda tug‘ilgan bo‘lib, mazkur uchala dinniing asosiy jihatlarini: zardushtiylikdan ezgulik va yovuzlikning o‘zaro kurashi; buddaviylikdan taqvodorlik yo‘lini; nasroniylikdan missiya (xudoning vakili) g‘oyalarini birlashtirib, dastlab qadimgi Midiya va Eron hududlarida targ‘ib qila boshlaydi. Eron shohi Bahrom I tomonidan 277-yili qatl etiladi. Uning izdoshlari o‘z targ‘ibotlarini Markaziy Osiyo, so‘ngra Sharqiy Turkiston va

Xitoyda oldib beradilar.

Moskun ta'limotga ko'ra, dunyoning o'zi ikki qarama-qarshi
~~bu~~ - ezbilik va yovuzlikning o'zaro kurashidan iborat. Insonning
g'izi ham ruh-nur va jism-zulmatdan iborat. U aqlli mavjudod
~~bu~~ - qachon ham zulmat va yovuzlikka qarshi kurashishi zarur.
Taqvodorlik - bu kurashdagi eng to'g'ri yo'lli. Taqvodorlik orqaligina
~~bu~~ - ozming keyingi hayotida jannatga tushadi. Ibat bilan
~~bu~~ - ul bo'lish, ro'za tutish va sadaqa-ehson berish moniylikning
moniyli labablari hisoblanadi. Turk xoqonligi davrida moniylik
~~bu~~ - diyoma, Tohariston, so'ngra, Sharqiy Turkiston va Xitoyda
~~bu~~ - turqaladi. Sharqiy Turkiston va Xitoyda keng tarqalishida
~~bu~~ - diyonalik missionerlarning roli benihoya katta bo'lgan. VIII
andu uyp'ni xoqonlari moniylikni davlat dini deb e'lon qiladilar.
Xitoy imperatorlari esa so'g'dlarga Xitoy hududlarida ibodatxonalar
qurishiga va moniylikni targ'ib qilishga ruhsat beradi.

Moniy va uning izdoshlari o'z ta'limotlarini targ'ib qilishda
~~bu~~ - ayniqsa, uning musiqa va tasviriy san'at turlariga alohida
e'tibor beradilar. Ular musiqa va tasviriy san'atning inson ruhiyatiga
shuqtiroq kirib borishi, dindorning nozik tuyg'ularini o'zgartirishi va
ap'dar to'ntar qilib yubora olish qudratiga alohida e'tibor beradilar.
Bu hechdan ular diniy marosimlarni o'tkazishda musiqa san'atidan
keng foydalanadilar. Ibodatxonalarni bezashda esa tasviriy san'atga
~~bu~~ - o'rinn ajratadilar, diniy sujetlardan keng foydalanishadi.
Bu bilan Markaziy Osiyo va unga yondosh bo'lgan mintaqalar va
davlatlar, jumladan sharqiy Turkiston va Xitoyda musiqa va tasviriy
~~bu~~ - atining rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadilar.

Shuni alohida qayd etish lozimki, Turk xoqonligi davridagi
haykallaroshlik va qo'shiqchilik san'atlarining rivojlanishida bud-
davlylik va zardushtiylikning o'rni ham beqiyos katta bo'lgan. Sababi,
Buddaviylidka Buddha ibodatxonalari va stupalar bezagida nafaqat
terakota haykalchalar, balki relyefli va gorelyefli haykallardan ham
keng ko'lunda foydalanilgan. Mazkur haykallarda Buddha va uning
~~bu~~ - hisoblangan bodhisatvalarning haykallari yaratilib ibodat
kompleksiga joylashtirilgan.

Zardushtiylid dini esa qo'shiqchilik san'atining rivojiga beqiyos
~~bu~~ - katta ta'sir ko'rsatgan. Chunki, zardushtilar ibodatida
Aburanazda va boshqa e兹gu kuchlar qo'shiq bo'lib kuylanuvchi

goxlar (qo'shiqlar) orqali madh etilgan. Yovuz ruhlarga la'natlai o'qilgan. Boshqacha qilib aytganda, diniy madhiyalar va goxlarни birgalashib kuylash diniy marosimlar hamda bayramlarning sho'x shodon va zavqli o'tishini ta'minlagan.

Oltoy hamda Janubiy Sibirdan ko'chib kelgan turkiy qavmlar o'rtasida shomonga e'tiqod qilish ham saqlanib qolingga. Chunki ko'chmanchi chorvador qavmlarda hali urug' jamoasi an'analari saqlab qolingga edi. Xuddi shuningdek, tuproq, suv, olov va havomi yaratgan Ko'k tangriga e'tiqod qilish, unga atab ot, sigir, va qo'y qurbanlik qilish marosimi ancha muhim bo'lgan. Shu o'rinda nima sababdan buddaviylik Markaziy Osiyo xalqlarining mustahkam diniy e'tiqodiga aylanmadni, degan savol tug'iladi. Axir buddaviylik hatto turkiy sulola-Kushonlar tomonidan davlat dini deb e'lon qilingan edi-ku?

Turklar azaldan tabiatning ayovsiz qarama-qarshiligi ostida yashaganlar. Ular iqlim sharoiti birmuncha mo'tadil bo'lgan hindlarga nisbatan injiq tabiat hodisalari va turli urushqoq qavmlar orasida yashaganlar. Ularning yumshoq ko'ngil bo'lishi, yovga rahm-shafqat qilishi o'lim bilan baravar bo'lgan. Shimolning ayovsiz sovuqlariga, tabiatning turli xil sinovlari va har qanday qiyinchiliklarga dosh bera oladigan mustahkam iroda talab qilinadi. Shu boisdan ham turklar o'z mijozlariga to'g'ri kelmagan Hindiston dinlarini qabul qilishga mutlaqo urinishmagan. Xususan, Buddha dini VI – VIII asrlar davomida Markaziy Osiyoda tarqala boshlagan edi. Biroq Ko'k Turk hukmdori Bilga xoqon va uning vaziri To'nyuquq bu dinni yumshoqlik va miskinlikni targ'ib etgani, jangu jadalni va hayvon so'yishni man qilgani, xullas, turklarning hayot tarzlariga mos kelmagani uchun rad etdilar. Chunki Buddha din millatning harb qudratini buzib, Chin (Xitoy) xavfiga yo'l ochishi mumkin edi. Shuning uchun ham turklar har bir ishda milliy xususiyat, ehtiyoj va andishalardan kelib chiqib ish qilishardi. Ayni choqda IX asr arab mutafakkiri Johizning: «Moni dinini qabul etgan uyg'ular jang qobilyatini yo'qotdi – degan ta'kidini eslamoq joiz.

Shomoniy turklar jang asnosida dushmani o'ldirishni gunoh emas, balki savob hisoblashardi. Shuning uchun ham Ko'k turk xoqonlari va beklari o'ldirilgan yog'iy (dushman) urug'larining chirkin haykallarini (balballarini) o'z mozorlari yoniga tiklashib.

~~Shuning~~ oxirat uchun foydali bo'lishiga shubha qilmasdi. Bu ham ~~shuning~~ jangovarligidan bir shohidlik beradi.

~~Hujum~~ tabiat sinovlariga zo'r matonat bilan dosh bergen, yovlarga ~~hesbatan~~ beshatqat bo'lgan turklar tabiatiga buddaviylikdagi azob-~~uqubat~~ haqidagi ta'lilot - tug'ilish, yashash, kasallik va o'lim azob-~~uqubatdan~~ iborat ekanligi, azob-uqubatga faqat taqvo, tinimsiz ~~hesbat~~ bilan shug'ullanish yo'li orqali chidash mumkinligi haqidagi ~~ta'lilot~~ to'xti kelmas edi.

Turk qavmlarning olovga e'tiqodi nihoyatda yuqori bo'lgan. ~~Chunki~~ ularning tasavvuriga ko'ra olov tozalovchilik xususiyatiga ~~O'sodim~~ Turklarda qavmga begona bo'lgan kishi ular yashayot-~~gan~~ hududiga kirganda yoki qavm oqsoqoli (hukmdori) huzuriga ~~shaxotpanida~~ albatta ikki olov orasidan o'tish shart bo'lgan. ~~Shaxot~~ Shohnoma asarida ham Siyovushning o'z o'gay ~~masinining~~ hayvoniy hirsini rad etganligi uchun nohaq ayblanishi, ~~qo'shiq~~ o'zining begunoh ekanligini olov o'rtasidan ziyon-zahmat ~~shaxot~~ o'tishi orqali isbotlaganligini hikoya qilinadi. Turk ~~imponligi~~ davriga kelib, Buddaviylik markazlari O'rta Osiyoning ~~hududiy~~ jihatdan birmuncha rivojlangan markazlari Buxoro, ~~Bata~~ va ~~Bomiyonda~~ saqlanib qolingga. Arablar istilosini arafasida ~~Buxoro~~ hududida ko'plab buddaviy ibodatxona (Vihara)lar saqlanib ~~qolingga~~ Arablar Poykent shahrini ishg'ol qilganlarida shahardagi ~~ibodatxonalarida~~ kumushdan yasalgan budda butlarini to'plab ~~chitdilar~~

~~Idomi~~ dinining Turk xoqonligi hududiga kirib kelguniga qadar, ~~Mamlakatda~~ turli xil bayramlar nishonlangan. Mavarounnahr ~~Idomtoshbirilg'umicha~~ O'rta Osiyo xalqlari turli xil bayramlar, sayillar ~~va matosimlarni~~ o'tkazganlar. O'rta Osiyo xalqlarining asosiy odat, ~~Matosim~~ va bayramlari koinot, tabiat, fasllar va mehnat faoliyati ~~bilan bog'liq~~ bo'lgan. Ajdodlarimiz borliqdagi muhim to'rt narsa (~~quyoshi~~, havo, yer, suv)ni aniqlash bilan bir qatorda, ular bilan ~~bog'liq to'rt ulug'~~ kunni ham belgilab, nishonlashga odatlanishgan. ~~Mosul~~, tabiatning Uyg'onish kun-tun tengligi, dala ishlarining ~~bo'shlamish~~ pallasida Navro'z; yozda -- quyosh tik bo'lib, tun ~~qisqarib~~, kunning uzayishi davom etganida, havo harorati yuqori ~~darajaga~~ ko'tarilib suvg'a ehtiyoj kuchayganida suvg'a bag'ishlangan ~~Augom~~ Augom (Vaxshangom); kuzda kun-tun tenglashib-yilning

ikkinchi yarmi boshlanganida – dehqonlar daladagi hosilni yig'ib olgan vaqtida Mehrjon (Chir-ruj, Nim-sarda); qishda – eng uzoq tun va qisqa kun sodir bolib, sovuq avjiga chiqqanida (qishki chilla) isitishga ehtiyoji kuchaygan paytda Sada-Olov bayrami (gulxnlarda isinish) kabilarni uyuştirishgan.

Mavzuga oid tayanch iboralar

Ilk o'rta asrlar, Eftalitlar, Turk xoqonligi, madaniyati, Mehrjon, Buddaviylik markazlari, diniy qarashlar.

Mavzu bo'yicha takrorlash uchun savollar

1. Markaziy Osiyodagi ilk o'rta asrlar madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida nimalarni bilasiz?
2. Markaziy Osiyo hududidagi ilk davlatlar madaniyati to'g'risida nimalarni bilasiz?
3. Eftalitlar davri madaniyati to'g'risida nimalarni bilasiz?
4. Turk xoqonligi davri madaniyati va diniy qarashlar to'g'risida nimalarni bilasiz?

Adabiyotlar:

1. Kabirov A. Jaxon tarixi. – T.: O'qituvchi, 2001-yil.
2. Jaxon madaniyati tarixi. – T.: Universitet, 2002-yil.
3. История мировой культуры. – Москва, 2000 год.
4. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. – T.: Fan, 2000-yil.
5. Древний Восток и цивилизация культуры. – Москва, 1999 год.
6. Атамирзаев О, Гентшке В. Муртазаева Р. Международная толерантность в Узбекистане. История и современность. – Т.: Университет, 2004 год.
7. Умаров Э, Абдуллаев М, Жакимов Э. Культурология – Т.: 2006 год.

MAVZU: ARAB XALIFALIGI MADANIYATI VA SAN'ATI

Reja:

- | Arablar tarixidagi uch davr va uning o'ziga xos xususiyatlari.
- | Arab halifaligida diniy va dunyoviy fanlar taraqqiyoti.
- | Arab halifaligi san'ati.

Mavzunlig o'quv maqsadi: Talabalarga arablar tarixidagi uch davr va uning o'ziga xos xususiyatlari, arab halifaligida diniy va dunyoviy fanlar taraqqiyoti hamda arab halifaligi san'ati to'g'risida hisobli hador berishdan iborat.

Arablar tarixidagi uch davr va uning o'ziga xos xususiyatlari. Arabiston Osiyoning janubi – g'arbiy qismida Afrikaga tutashib turgan joyda Yevropa qit'asini to'rtidan bir qismiga to'g'ri keladigan yarim orolda (maydoni 3mln. km²) joylashgan. Ana shu kattakon o'tkazning ko'pchilik qismi quruq dasht va yarim sahrolardan iborat. Arabiston aholisi ko'chmanchi badaviylar va o'troq arablardan iborat. Ko'chmanchi badaviylar yarim orolning cho'l va yarim sahrolarida Arabistonning eng katta qismini egallagan Maj o'tkazidagi yassi tog'larda yashab asosan, chorvachilik bilan shug'ullanib, tuya, qo'y, va ot boqqanlar. Ot arablarning shondoshilni bo'lib, uni harbiy maqsadlar uchun asraganlar. Tuya o'z egasiga go'sht, sut, jun, teri bergen. Arablar hamma narsaning bahosini tuyaning bahosiga qarab belgilaganlar. Hatto odamning hayoti ham tuya bahosiga qarab belgilangan. Biror kishi o'ldirilsa 100 tuya xun to'lanar edi. O'troq arablar shaharlarda, Hijozning ayrim vohalarida, ayniqsa, Arabistonning dehqonchilik uchun eng qulay o'tkasi janubi-g'arbiy viloyati Yamanda yashaganlar.

Arablar tarixi uch davrga: 1. Makka – Madina davriga (VI-VII asrlar), 2. Damashq (Suriya) davriga – Ummaviylar sulolasining idora qilish davriga (661-750); 3. Abbosiylar sulolasining idora

qilish davriga (750-1055 yoki 1258) bo'linadi.

Qadimdan arablar tarqoq holda yashardilar. VII asr boshlanda Arabistonda yagona e'tiqod asosida mamlakatni birlashtirish harakati boshlandi. Bu e'tiqod yakka xudolikka asoslangan islam dini edi. Islom - "Bo'ysunish", "Itoat etish", "O'zini Olloh irodasiya topshirish" yoki "Banda" degan ma'nolarni anglatadi. Payg'ambar din targ'ibotchisi sifatida 610-yillarda maydonga chiqdilat Sudxo'rlikni qoralab, har bir kishidan kambag'allarga yordam berishni, o'z daromadini o'ndan bir qismini kambag'allarni boqish uchun ajratishni talab qildilar. Makka zodagonlari yangi dinga qattiq qarshilik ko'rsatdilar. 622-yil Yasrib shahriga (keyinchalik Madinat un-Nab ya'ni, Payg'ambar shahri deb atalgan) xijrat qilingan.

Islom dini uch elementdan – iymon, islam, exsondan iborat. Iymon talablari 7 ta aqidani: ollohga, farishtalarga, muqaddas kitob larga, Payg'ambarlarga, oxirat kuniga, taqdirning ilohiyligiga va kishi o'lgandan keyin tirlishiga ishonish talablarini o'z ichiga oladi. 5 talab: kalima keltirish, namoz o'qish, ro'za tutish, zakot berish, hajga borish. Payg'ambar vafotlaridan keyin Abu Bakr 632-334, Umar 634-644, Usmon 664-656, Ali 656-665-yillarda halifalik qildilar. Umar davrida Suriya, Falastin, Misr, va Eron egallandi. Ali o'limidan so'ng halifalikni egallagan Suriya noibi Muoviya markazni Damashqqa ko'chirib Ummaviylar sulolasiga (661-750) asos soldi. Bu davrda halifalik hududi g'arbda Atlantika okeanigacha, sharqda Xitoy va Hindiston chegaralarigacha borib yetdi. 747-yilda Xurosonda Abu Muslim boshchiligidida boshlangan xalq qo'zg'oloni natijasida Ummaviylar sulolalsi ag'darildi. 750-yilda Abul Abbas taxtga chiqdi va Abbosiylar hukmronligi o'rnatildi. Bu davrda poytaxt 762-yilda qurilgan Bog'dod shahriga ko'chirildi. Xalifalik VIII asrdayoq parchalana boshladи. 1055-yilda Bog'dodni Saljuqiy turklar bosib oldi. Xalifalar qo'lida faqat diniy hokimiyatgina qoldi. 1258-yilda halifalik mog'ullar istilosini oqibatida uzil-kesil yemirildi.

Arablarining o'rta asr madaniyati to'liq ma'noda, Arabiston madaniyatiga va arabshtirilgan, arab xalqi tashkil topgan davlatlari madaniyatiga (Arabiston, Iraq, Suriya, Falastin, Misr, Shimoliy Afrika) taalluqlidir. Arablar, Yaqin va O'rta Sharq, Shimoliy Afrika xalqlarining o'rta asrlarda bunyod etgan madaniyati, moddiy va ma'naviy boyliklari, shu xalqlarning arab tilida yaratgan ilmiy va

buddiy asarlari arab madaniyatining bir turidir. Arab halifaligida arab tili davlat tili edi. Arablar bosib olgan davlatlarda ham majburan arab tili va dinni joriy etdilar. Arab tili faqat arab olimlari o'rtasidagina emas, halifalikka qaram bo'lgan mamlakat olimlari, yozuvchilari, shoirlari orasida ham keng yoyilgan. Bu oimlarning arab tilida ~~tarixg'ani~~ asarlari har bir xalq milliy madaniyatining keyingi rivojiga ta'sir ko'rsatdi.

Ko'pgina tarixiy adabiyotlarda arab faniga sof arab olimlari ~~ipoddilish~~ tashqari, arablar tomonidan VII-VIII asrlarda istilo qilingan ~~mamlakatlardagi~~ fan va madaniyat arboblarining ijod etgan asarlari ~~qu'shish~~ yuborilgan. Haqiqatda esa istilo qilingan xalqlar madaniyatini ~~ko'p~~ hollarda arablar madaniyatidan yuqori turgan.

Arab madaniyati. Xalifalikning arab madaniyati arab tilidagi madaniyat o'z zamonasi uchun juda yuksak madaniyat bo'lib. **Umaribuy** Yevropa o'rta asr jamiyatiga katta ta'sir ko'rsatgan edi. **Arab** tilida olib borilgani va vujudga keltirilishida arablar katta rol o'yinigonligi sababli arab madaniyati deb atalgan bu madaniyatning ~~ancha~~ qismi halifalik tarkibidagi ko'p xalqlarniki edi. Turli halifaliklarning poytaxtlarida – Bog'dod, Kordoba va Qohirada – o'tta asr Yevropasidagi universitetlarga o'xshagan oliy maktablar bo'lib, bularda Qur'onidan va musulmonlarning diniy kitoblaridan tashqari dumyoviy ilmlar ham qunt bilan o'rganildi. Yuz minglab kitoblarni o'z ichiga olgan katta-katta kutubxonalar (Kordoba, Qohira va boshqa joylardagi kutubxonalar) g'oyat katta bilim xazinasi edi. Bog'dod, Damashq va Samarqandda katta-katta rasadxonalar bor edi. Arab astronomlari juda ko'p yangi yulduzlarni topdilar va yulduzlar osimonining juda qimmatli xaritasini tuzdilar.

Arab fani va madaniyatining o'sishiga O'rta Osiyolik olimlardan **Muhammad Xorazmiy**, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va **Ahmad Farg'oniylar** katta ta'sir ko'rsatgan. Ulug' astronom va matematik Xorazmiy tuzgan astronomik jadvallar – «zij»dan arab astronomlari soydalanganlar. Ibn Sino va Xorazmiy asarlari arablar orqali O'rta asr, Yevropasiga ma'lum bo'lgan. IX–X asrlarda Bog'dod va arab fanining boshqa markazlarida arab halifaligi va umumiyligi tarixga oid asarlar yaratildi. Bu asarlarning ko'pchiligi fors-tojik manbalariga asoslangan fors tarixnavislari tomonidan yozilgan. Hundiy asarlar Tabariy, Mas'udiylar tomonidan yozilgan.

Bu davrda tabiat fanlari sohasida katta yutuqlarga erishildi. Matematik va astronom Battoniy (858-929-yy.) Trigoj Setrik funksiyalarni ishlata boshladı. Kimyo sohasida bir qancha ixtiolar qilgan arab alximigi Jobir ibn Hayyon (VIII asr) dir. Fizik ibn al-Xaysam (965-1039-yy.) optika sohasida qator ixtiolar qildi. Uning «Optika» asari yevropalik olimlarga katta ta'sir ko'rsatdi. XIII asrda Misrda birinchi globus ishlandi. Arablar O'rta Osiyo xalqlaridan qog'oz tayyorlashni o'rganib (VIII asr), so'ngra bu ixtironing Yevropaga tarqalishiga sababchi bo'ldilar. Bu davrda Misr, Andalusiya meditsina taraqqiyotining markazi bo'lgan, Faylasuf Ibn Rushid (1124-1198-yy.), Ibn Ma'mun (1135-1204-yy.) amaliy tabobat bilan shug'ullanib, qator tibbiy nazariy asarlar yozganlar.

Arab tabiblari dindorlarning «hamma kasalliklar xudodan» degan idealistik fikrlariga qarshi chiqib, yuqumli kasalliklarning yuqish yo'llarini tajriba asosida isbotlashga uringanlar. Arab tabiatshunoslari dorivor o'simliklar va minerallar yig'ish, sharhlash va ularning navlarini tartibga solish bilan shug'ullanganlar. Ibn Baytor o'z asarlarida 2700 dori, dorivor o'simliklarni sharhlagan. Arablarda ijtimoiy-falsafiy fikr egaari ham paydo bo'ldi. Arablarning birinchi yirik faylasufi al Kindiydir (IX asr). Arab tilidagi ilm va falsafiy taraqqiyotida O'rta Osiyoning mutafakkirlari Forobiy va Abu Ali ibn Sinoning xizmatlari katta.

Arablarda adabiyot ham rivojlangan bo'lib, islomgacha bo'lgan davr arab adabiyotiga badaviy shoirlarning asarlari kirgan. Badaviy shoirlari ijodida mashhur kishilarga atalgan motam she'rlari, qasos olishga chaqiruvchi, o'z qabilasining shon-shuhratini maqtovchi she'rlar bo'lgan. Badaviylar adabiyoti namunalari VIII-X asr yozma yodgorliklari orqali yetib kelgan. Bularidan eng mashhurlari: Roviy Hammodinning (772-yilda vafot etgan) «Muallaqlar» to'plami, Abu Tammom (768-846-yy.) va al Buxturiyning «al-Hamosa» nomli tazkirasи, Ibn Qutaybaning (889-yilda vafot etgan) «Kitob naql ash-she'ri» («She'riyat tashqidi» kitobi) Abul Faroj Isfahoniying «Kitob ul-aroniy»si («Ashulalar kitobi») qadimgi arab adabiyoti namunalaridir.

VII asrning 20-yillaridan boshlab Arabiston yarim orolida islom dinining vujudga kelishi, feodal davlati, arab halifaligining tashkil topishi va arab bosqinchilik urushlarining boshlanishi kabi tarixiy

voqealar yuz berishi bilan bu davrda arab adabiy tili ham shakllandi. VII asr o‘rtalarida arab yozuviga asos solindi. Arab adabiyotining birinchi yozma asari «Qur'on»dir. Arab adabiyoti taraqqiyotiga «Qur'on» katta ta'sir ko'rsatdi, uning asosida juda ko‘p she'riy-nasriy asarlar yaratildi, Muhammad va uning tarafdarlari avvaliga she'riyatga qarshi chiqdilar. Ba'zi shoirlar dinni maqtab she'rlar yoza boshlagach, din asoschilarining she'riyatga nisbatan munosabati o‘zgardi. Hazan ibn Sobit (674-y. vafot etgan) kabi shoirlar o‘z ijodlarini Muhammadni madh etishga bag‘ishladi.

Arab adabiyoti ummaviylar, abbosiyalar davrida yanada rivojlandi. Arablar bosib olgan davlatlardagi shoirlar ham ba'zan arab tilida ijod etdilar. Ummaviylar davri adabiyotining yirik vakillari al-Axtar (640-710-yy.), al-Farazdak (641-731-yy.) va Jarit (653-733-yy.) dir. Arab klassik adabiyotining gullagan davri VIII-XII asrlarga – abbosiyalar sulolesi hukm surgan davrga to‘g‘ri keladi, Mashhur adiblardan Bashshor ibn Burd (714-738-yy.), Abul Atohiya (748-825-yy.) va boshqalar.

Arablar nafis adabiyot sohasida mashhur asarlar yaratdilar. «Ming bir kecha» nomli mashhur kitob XII asrda uzil-kesil vujudga keldi. Bu asar arab-musulmonlar olamidagi turli xalqlar yaratgan g‘oyat ko‘p ertak va qissalar yig‘indisidan iborat bo‘lib, bu ertak va qissalarning manbalari qisman qadimgi dunyo xalqlarining folkloriga (O‘rta podsholik davridagi Misr ertaklariga va boshqalarga) borib taqaladi. Lekin «Ming bir kecha»ning vujudga kelishida VI asrdayoq to‘plangan Eron ertaklari ayniqsa katta rol o‘ynadi.

Eron-arab eposining eng yirik yodgorliklaridan biri shoir Abul-Qosim Firdavsiyning (935-1020) qahramonlik dostoni «Shohnoma» bo‘lib, u chamasi 1000-yillarda yozilgan. Doston arab tilida emas, balki fors tilida yozilgan. Unda 60 000 she'r bor, buni yozish uchun Firdavsiy juda boy xalq og‘zaki ertaklaridan foydalangan, bu ertaklarga adabiy jihatdan juda nozik sayqal bergen.

Biz quyida keltirgan ba'zi manbalar islom dini va Makkadagi muqaddas joylar haqidagi hikoyalarni o‘z ichiga oladi. Makkaning tarixiy hujjatida savdo yo‘llari masalasi va musulmonlikning paydo bo‘lishi kabi ma’lumotlar uchraydi.

Arablar geometriya va trigonometriyani rivojlantirdilar. Ular algebrani rivojlantirish borasida ko‘p ishlar qildilar va hind

raqam sistemasini mukammallashtirib, unga «0» (nol) alomatini qo'shdilarki, buning natijasida raqamlar bilan har qanday katta sonni ham ifodalashga imkon tug'ildi.

Arablar juda yaxshi sayyoh edilar. Eng ko'zga ko'ringan arab sayyozi, geografi va tarixchisi Mas'udiy bo'lib (956-yilda vafot etgan), u halifalikning hamma viloyatlarini aylanib chiqqan edi. Eronqa, Suriyaga, shuningdek. Hindiston bilan Xitoya ham borgan edi. U o'z sayohatlarining natijasini «Oltin bo'stonlar» degan umumiy bir nom bilan chiqqan kitoblarida bayon qildi. Ko'pgina arab sayyoohlari – Ibn Dast, Ibn Fadlan va boshqalar – slavyan mamlakatlariga borganlar va slavyanlar to'g'risida, xususan IX va X asrlardagi sharqiy rus slavyanlar to'g'risida ma'lumotlar yozib qoldirganlar.

IX asrning oxiri-X asrning boshlarida yashagan arab tarixchilari orasida ayniqsa mashhuri Tabariy bo'lib (923-yilda vafot etgan) u «payg'ambarlar podsholar tarixi»ni, ya'ni halifalar tarixini yozgan edi, bu tarix 915-yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Arab san'ati. Arab san'atida asosiy o'rinni arxitektura egallaydi. Arablar monumental binolar: machitlar, saroylar, maqbaralar, hammomlar va boshqa jamoat binolari qurbanlar. Arab arxitekturasining eng qadimgi yodgorliklaridan biri Quddusdag'i Umar machiti deb atalgan machit bo'lib, u Ummaviylar davrida 688-yilda qurilgan. Bu machit qubbalari juda baland, nihoyatda salmoqdor sakkiz burchakli qilib ishlangan. Unda Vizantiyaning monumental uslubi aks etib turadi. Ammo arablar odatda, yengil, xushbichim binolar qurardilar. Bu binolarning xarakterli tomoni shu ediki, ularning minora va minorachalari ko'rakm, xushbichim, ustunlari ingichkadan kelgan, toqi ravvoqlarining naqshi ancha jo'n bo'lar edi. Arab binolarini yanada ko'rakm qilib bezab turgan narsa – uning devorlariga juda mohirlik bilan rang-barang qilib o'simliklar, qisman hayvonlar olamiga oid motivlardagi g'alati naqshlar, shuningdek, har xil geometrik chiziq va figuralardir. Haddan tashqari sipo, ammo o'zining nihoyatda nozik san'atkorona ishlanganligi bilan kishini hayratda qoldiradigan juda zinnatli naqsh solish-arab rassomchiligining xarakterli xususiyatidir. Qo'l-yozmalar, kitob muqovalari, zastavkalar, konsovskalar va shu kabilar mana shu xildagi rasmlar bilan bezatilar edi. Turmush hayotdan olingan xilmayxil mavzudagi ajoyib miniatyuralar ham qo'l yozmalarga bezak

bo‘lib xizmat qilar edi. Arablarda katta hajmli surat bosish uncha rivojlanmagan edi. Buning sabablaridan biri shu ediki, Qur'on musulmonlarning ko‘p xudolikka (“butparastlik”) qaytishidan qo‘riqib kishilar va hayvonlarning suratlarini solishni taqiqlagan edi.

Mavzuga oid tayanch iboralar

Arablar tarixi uch davri: 1. Makka – Madina davri (VI-VII asrlar); 2. Damashq (Suriya) davriga – Ummaviylar sulolasining idora qilish davri (661-750); 3. Abbosiylar sulolasining idora qilish davri (750-1055 yoki 1258), Bog'dod, Kordoba va Qohirada Tabariy, Mas'udiy, Fizik Ibn al-Xaysam, Faylasuf Ibn Rushid (1124-1198-yy.), Ibn Ma'mun (1135-1204-yy.) faylasuf al Kindiy, suriyalik mashthur shoir, mutafakkir Abul'alo al-Maorriy Roviy Hammodi (772-yilda vafot etgan) «Muallaklar» to'plami, Abu Tammom (768-846-yy.) va al Buxturiyning «al-Hamosa» nomli tazkirasi, Ibn Qutaybaning (889-yilda vafot etgan) «Kitob naql ash-she'ri» («She'riyat tashqid» kitobi) Abul Faroj Isfahoniyning «Kitob ul-aroniy»si («Ashulalar kitobi»), «Qur'on», Hazan ibn Sobit. Ummaviylar davri adapiyotining yirik vakillari al-Axtar (640-710-yy.), al-Farazdak (641-731-yy.) va Jarir (653-733-yy.) dir.

Mavzu bo‘yicha takrorlash uchun savollar

1. Arablar tarixidagi uch davr va uning o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikringiz?
2. Arab halifaligida diniy va dunyoviy fanlar taraqqiyoti to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
3. Arab halifaligi san’atining o‘ziga xos xususiyotlari nimalarda aks etgan?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyati - yengilmas kuch.
– T.: Ma’naviyat. 2008. – 176 b.
2. Kabirov A. Jaxon tarixi. – T.: O‘qituvchi 2001-yil.
3. Jahon madaniyati tarixi. – T.: Universitet. 2002-yil.
4. История мировой культуры. – Москва., 2000 г.
5. Умаров Э., Абдуллаев М., Хакимов Э. Культурология.
– Т.: 2006.

MAVZU: IX-XIII ASRLARDA MOVAROUNNAHRDA MADANIYAT VA SAN'AT TARAQQIYOTI

Reja:

1. Uyg'onish tushunchasi va uning mazmun-mohiyati.
2. Ilk uyg'onish davri, uning vujudga kelish sharoitlari va omillari.
3. Ilm-fan ravnaqi, madaniyat rivoji.
4. Islom dini, buyuk hadisshunoslar. Sufiylik.
5. Vatandoshlarimizning jahon tamadduniga hissasi.

Mavzuning o'quv maqsadi: Talabalarga Uyg'onish tushunchasi va uning mazmun-mohiyati, ilk uyg'onish davri, uning vujudga kelish sharoitlari va omillari, ilm-fan ravnaqi, madaniyat rivoji, islom dini, buyuk hadisshunoslar, sufiylik, vatandoshlarimizning jahon tamadduniga hissasi haqida ma'lumotlar berish.

Fanda yirik, salmoqli ma'rifiy yuksalish uyg'onish, ya'ni renessans deb atalgan. Fransuz tilidan olingen bu so'z "tiklanish", "uyg'onish" ma'nosida tarjima qilinib, adabiyotga kirib kelgan. Renessans, odatda, u yoki bu hududda, mamlakatda yuz bergan moddiy, ma'rifiy, ma'naviy jihatdan katta yuksalish davrini tasnif etishda ishlatalidi.

Sharq Uyg'onishi, Sharq Renessansi haqida gap ketganda turli soha olimlari-tarixchilar, adabiyotshunoslar, madaniyatshunoslar va san'atshunoslar bu masalaga befarq bo'Imaganlaridek, qarashlar ham asosan ikkiga bo'linadi. Uyg'onish atamasi (italyancha-fransuzcha-Renanssans-Uyg'onish) ni dastavval shu madaniyat sohiblari – italyan gumanistlari ishlatganlar. Jumladan italiyalik yozuvchi J.Bakachcho bu atamani Djotto ijodiga qarata, "u antik san'atni uyg'otdi" deb birinchi bor ishlatgan edi. Butun bir davrni anglatuvchi tushuncha sifatida san'at tarixchisi J.Vazari (1511-1574-yy.) tarafidan uning

"Madhiur san'atkorlar hayotidan lavhalar" kitobida (1550) tilga olingan. Bu tushuncha birinchi paytda antik madaniyat an'analarini Italiyada "ming-yillik yovvoyilikdan so'ng" tiklanishini anglatib, so'uproq ilmiy tadqiqotlarida keng ishlatila boshlandi. Ya.Burhart Uyg'onish (Renessans) ni alohida tipdag'i madaniyat deb baholadi. Masalaga qiziqish ortib, ilmiy izlanishlar ko'pay'a borgani sayin Uyg'onish tushunchasi, bu davr madaniyatining xronologik va geografik chegaralari, uni davrlashtirish xususida ziddiyatli, turlicha likilar bildirila boshlandi. Y.Xeyzing o'zining "O'rta asrchilikning kuz fasli" asarida Uyg'onish davri-O'rta asr madaniyatining intixo davri deb hisoblasa, boshqa olimlar Uyg'onish davri Yangi davr madaniyatining boshlanishi deb sanaydilar. Ko'pchilik olimlar Yevropa Uyg'onish davrini klassik tarzda davrlashtirib u XIV-XVI asrlarga xos deb bilsalar, boshqalar Uyg'onish madaniyatini bir muncha ilgariroq XII asr Karolinglar Renessansidan boshlab, Ispaniya, Italiya, shimalidagi mamlakatlar (Shimoliy Uyg'onish) Uyg'onish – XVII asr bilan yakunlaydilar. 1950-yillarning o'rtalaridan e'tiboran "Sharq" Uyg'onish davri masalasida jiddiy munozara bahs ketdi. Xitoy madaniyati tarixi tahlilida akademik N.Kondrad Uyg'onish davrini qadimgi, o'rta asrlar singari insoniyat sivilizatsiyasining barcha mintaqalariga xos umumbashariy hodisa deb qaraydi. Umumjahoniy jarayon hisoblagan Uyg'onish Sharqda (Xitoy) VI-VIII asrlarda boshlanib, G'arb sari siljigan va XIV asrda Yevropa hodisasiiga aylangan. Uyg'onishning bunday talqiniga qarshi bu hodisa turli mamlakatlarda mintaqaviy, ayrim ko'rinishlarda amal qilishi mumkin, lekin u umumjahoniy fenomen bo'lishi mumkin emas, deb hisoblovchilar ham bor. Ayni chog'da har ikki qarash tarafdarlarini Yevropa Uyg'onish davrini mutlaqo betakror hodisa deb qarovchi mualliflar (A.Losev, M.Petrov) jiddiy tanqid qiladilar.

O'zbekistonda Sharq Uyg'onish davri masalasi mahalliy materiallarni umumlashtirgan holda yetarli ishlanmagan. Markaziy Osiyo mintaqasidagi Uyg'onish haqida gap borganda IX-XII asrlar avvalo xorijiy madaniyat va qaror topgan islomiy e'tiqodga nisbatan rivojlangan va boyigan qadimiylar madaniyat negizida milliy Uyg'onish deb qaralmogi lozim. Markaziy Osiyo uzoq-yillik tarixida ko'p bosqin va talonchiliklarni ko'rdi, ularga qarshi ozodlik va mustaqillik uchun kurash olib bordi. Haqiqat shundaki,

har bir bosqichdan so‘ng milliy davlatchilik va madaniyat tiklandi. Mustaqillikka intilish g‘oyasi va harakati o‘zga xalqlar tomonidan yaratilgan madaniyatlarni inkori emas. Markaziy Osiyo madaniyatida umuminsoniy ahamiyatga molik jamiki madaniyat yutuqlari ijodiy uyunlashganidek, ayni paytda mintqa madaniyati boshqa xalqlar madaniyatlariga samarali ta’sir ko‘rsatdi va ularni boyitdi.

Mavjud adabiyotlar va fikrlar tahlili asosida Markaziy Osiyodagi xalqlar milliy madaniy uyg‘onishni uch davrga bo‘lishi mumkin:

1. IX-XII asrlar – arab bosqinidan keyingi davr.
2. XIV-XV asrlar mo‘g‘ul istilosidan keyingi davr.
3. Mustaqillik davri.

Mustaqillik va milliy madaniyat uyg‘onish hodisalari mohiyatan, ichki jihatdan uzviy bog‘liq bo‘lib, bu xususda akademik M.M. Xayrullayev shunday yozadi: “Mustaqillik va uyg‘onish, Mustaqillik va yuksalish uzviy bog‘liqdir, uyg‘onish bizdan aql-idrokni, bilimni, iste’dodu qobiliyatni, faollikni, kuch-g‘ayratni talab etadi”.

Milodni yuz-yilliklar boshlarida Kushon podsholigi, so‘ng Eftalitlar davlati va Turk xoqonligi davrlarida ham Xorazm vohasida, Sug‘diyonada (Samarqand, Buxoro, Qarshi), Ustrushonada (Sirdaryo, Jizzax), Choch (Toshkent va uning atrofi), Fargona viloyatlarida, Chog‘aniyonda (Termiz, Denov) moddiy va madaniy taraqqiyot davom etgan. Bu davrlarda me’morchilikda yangicha naqsh uslublari keng rivojlangan, binokorlikda pishgan g‘isht ishlatish boshlangan. VI-VII asrlarda aholi o‘rtasida savodxonlikka intilish kuchaygan edi. Xitoy manbalarining guvoxlik berishicha, Sug‘diyonada o‘gil bola 5 yoshga to‘lgach, yozuv va hisobga o‘rgatilar, so‘ng‘ra ular 20 yoshga kirganlarida savdo ishlarini o‘rganish uchun katta mamlakatlarga jo‘natilar edi.

San‘at, ayniqsa, devoriy tasvir rivoji yangi bosqichga ko‘tarilgan edi. Haykaltaroshlik, badiiy yog‘och o‘ymakorlik ganchkorlik taraqqiy etdi. Musiqachilar, bastakorlar ko‘payib bordi, naychilar, o‘yinchisiyu-raqqosalalar, surnaychilarning oilaviy chiqishlari bo‘lib turgan edi. Bu davrlarda diniy e’tiqodlar o‘zaro murosada bo‘lganligi aholini hayotida va mamlakat osoyishtaligida muhim o‘rin tutgan. Shu bilan birga tabiiy fanlarga, atrof-muhitni anglash, mavjudotni kengroq bilishga intilish kuchayadi. Xususan, o‘sha paytlarda Sug‘d taqvimlari tuzilganligi, hozirgi To‘rtko‘l hududida esa rasadxona

bo'lganligi haqida malumotlar bor. Demak, O'rta Osiyoda qadimdan sivilizatsiya asoslari, moddiy va ma'naviy madaniyatning chuquq iddiziari mayjud bo'lgan.

Arablar bosqini natijasida jiddiy putur yetgan o'l kamiz madaniyati-yillar o'tib bir munkha tiklandi va yangi sharoitda ilm-fan rivojlandi, madaniy-ma'rifiy sohalarda jiddiy ijobjiy o'zgarishlar yuz berdi. Arab halifaligi ham, IX asr boshlariga kelib ilm-fan, ma'rifat ahamiyatini yaxshiroq tushundi. Xalifalikning yangi poytaxti Bog'dodda 832-yili "Baytul-xikma" ("Donishmandlar uyi") tashkil etilib, uning ehtiyoji uchun katta mablag' ajratildi. Baytul-xikma qoshida ikkita rasadxona, ilmiy markaz tashkil etilib, dunyoning turli yerlardan avvallari bitilgan ilmga oid adabiyot to'plandi, yunoncha, lotincha, hindcha, xitoycha, forscha va boshqa tillardan arabchaga tarjima qilindi, o'rganildi. Xalifalik bu ilm maskaniga ko'p mintaqalardan mashhur allomalarни jalb etdi. Xususan, O'rta Osiyodan 20 ortiq olimlar bu markazda sadoqat bilan ilm-fan rivojiga o'z salmoqli hissalarini qo'shgan edilar.

Mintaqamizda IX asrga kelib arablarning ma'muriy tazyiqi aticha zaiflashgan, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat bir munkha barqarorlashgan edi. Somoniylar, Qoraxoniyalar va Xorazmshohlar davlatlarida nisbatan osoyishtalik vujudga keldi. O'l kada moddiy ishlab chiqarish, madaniy rivojlanish jarayoni ancha tezlashdi, shaharlar hayoti yuksala bordi. Hunarmandchilik turlari ko'paydi, xususan, tog' jinslarini ishlash, shishasozlik kuchaydi, savdo-sotiq ishlari qayta rivoj topdi. Davlat tizimida madaniyatni yaxshi anglagan ilmli odamlar ko'paydi. Xususan, devon boshliqlari (vazirlar) xokimlarning ko'pchiligi arab, fors, turkiy tillarni bilgan, dunyoqarashlari keng kishilar edi. Masalan, somoniylar vazirlari Abu Fazl Bal'amiy, Abdullo ma'rifatli insonlar bo'lgan va ilm-fan rivojiga bevosita homiylik qilganlar. Xorazmshoh Abul Abbas Ma'mun o'z vaziri Abulkusayn bilan birga Urganchda «Donishmandlar Uyi» (akademiyasi)ni tashkil etgan va unda Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Miskavayx, Ibn Iroq kabi allomalar barakali ijod qilganlar, X-XI asrlarda mintaqada ko'p bunyodkorlik ishlari amalga oshirilgan, yangi madrasalar, saroylar, masjidlar, maqbaralar va boshqa noyob me'morchilik inshootlari barpo etilgan. O'l kada ko'plab karvonsaroylar, rabotlar, sardobalar qurilgan.

Buxoro, Samarqand, Xiva, Termiz, Marv, Shosh, Kubo, Xo'jand O'sh, Andijon, Kesh, Karmana, Koson, Marg'ilon, Panjikent kabi shaharlarda turli ilm maskanlari bo'lgan. Ko'plab madrasalar ishlab turgan, kutubxonalar, kitob rastalari va bozorlari gavjum bo'lgan Ko'pchilik oilalarda bolalar avvalo uyda o'qib savod chiqarar, so'ne madrasalarda o'qishga intilar edilar. Bularning bari o'sha paytlarda ma'rifat va madaniyat rivoji uchun zarur bo'lgan muhit, shart sharoitlar mavjudligidan dalolat beradi.

O'lkamizda bu asrlardagi kashfiyotlar va bilimlar ko'p jihatdan hayotiy bo'lib, ijtimoiy ehtiyojni, jadal sur'atlarda o'sib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar talabini qondirish, keng ma'noda moddiy va ma'naviy madaniyatning yuksalishi bilan bog'liq bo'lgan. Ana shu ehtiyoj o'lkamizda buyuk allomalarning vujudga kelishida, ular ijodining samaralarida namoyon bo'ldi. Masalan Al-Xorazmiy o'zining algebraga oid kitobi muqaddimasida asarni yozishdan maqsad mamlakat oldida turgan ehtiyojlar, me'morchilik va sug'orma dehqonchilik bilan bog'liq bo'lgan muammolarni hal qilishda ko'makdir, deb ta'kidlaydi.

Demak, IX-XII asrlardagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyat mintaqamizda ilm-fan, umuman madaniyatning keng ko'landa rivoqlanishini taqozo qilar edi.

Bunday sharoitda yuzlab allomalarda davr talabiga javob berib barakali ijod qildilar va ilmnинг turli sohalarida ko'plab yangiliklari yaratdilar. Aslini olganda, bunday ilmiy madaniy va ma'naviy yuksalish o'rta asrlar uchun kutilmagan, shu bilan birga dunyonim hayratda qoldirgan hol bo'ldi. Shu boisdan ham bunday ma'rifatni siljish, uyg'onish, ilk renessans deb tarixga kirdi.

Bunday taraqqiyotning sarvarlari Muso al-Xorazmiy (783-850) va Ahmad al-Farg'oniy (798-865) bo'lganlar. Ular matematika, astronomiya, geografiya fanlarini chuqur o'rganib, bu sohada ko'plab yangiliklari yaratdilar. Xususan, hozirgi "algebra", "algoritm" so'zlarini Al-Xorazmiy nomi bilan bevosita bog'liq. Al-Farg'oniy dastlab-kilardan biri bo'lib, yer shari xaritasini tuzgan, uning Damashqdayi rasadxonada ishlab yer meridiani bir darajasining uzunligini o'lash, Nil daryosi suvi sathini belgilovchi asbobni yaratish kabi kashfiyotlari jahonga ma'lum. Olim-yilning yozda eng uzun kunini (22 iyun), qishda eng qisqa kunini (23 dekabr), tunu kunning'

21 iyun va **23** sentyabrga to‘g‘ri kelishini aniqlagan.

Vazandosh allomalarimizning aksariyat ko‘plari qomusiy olimlar **Abu Nasr Forobi**, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino **qo‘ntab olimlar** falsafa, matematika, astronomiya, adabiyot, **qosimishunoslik**, jamiyatshunoslik bobida samarali ijod **X asr allomasi** Abu Abdullo al-Xorazmiy (Muso al-Kavir bilan adashtirmaylik) o‘zining “Ilmlar kalitlari” nomli **o‘sha paytda ma‘lum bo‘lgan ellikka yaqin ilmlar tasnifini,** **klassifikatsiyasini** beradi va ularni sharhlaydi. Tabobat va **bilimshunoslik borasida dunyoga dong‘i ketgan** Ibn Sinodan tashqari **Al-Kamriy**, Abu Mansur Kamariy, Sharafutdin al-Iloqiy, Ismoil **qabti olimlar unumli mehnat qilganlar.**

Kunyo ham ravnaqiga Abu Bakr ar-Roziy, Abul Hakim al-Kashi, geometriya va trigonometriya rivojiga Mahmud Chag‘miniy, Sharafutdin Al-toul Buxoriy, falsafaga Ibn Miskavayx kabi donishmandlarining hissalarini katta bo‘lgan.

Mashhur Taylasuf, ko‘p tabiiy fanlar bilimdoni Al-Forobiy musiqa **ham nsarlar yozgan,** uning notalar xususidagi kitoblari **O‘ta asurlar davoyq lotin, ivrit (Qadimgi yaxudiy)** va boshqa tillarga **etilgan ekan.** Yoki Ibn Sinoni olaylik. Bilamizki, bu ulug‘ **tabiiy fanlar bityan.** Shu bilan birga Ibn Sino 10 jildlik arab grammatikasi **kitob yaratgan.**

Mintaqamizda mavjud bo‘lgan ko‘p tillilik (aholining ko‘pchiligi **korxly, fors va arab tillarini bilgan**) bu davr madaniyatining muhim **mualliyatlaridan** biridir. Shu bilan birga donishmandlarimiz boshqa **korxly tillardan ham xabardor bo‘lganlar.** Masalan, buyuk astronom **Matematik, geodeziya, geologiya, mineralogiya, tarix fanlarining** **bilimdoni** Al-Beruniy 7-8 tilni mukammal bilgan. Xususan, u **Chrestova olimlari Evklidning “Negizlar” va Ptolemyning “Al magest” nsarlarini yunonchadan, o‘zi yaratgan “Usturlobiya” kitobini** **arabchadan sanskritga (qadimgi hind tiliga) tarjima qilganligi** **ma‘lum.**

Ajdodlarimiz aqlni peshlashda shaxmat o‘yininining ahamiyatini **yashshi bilganlar.** U paytlarda ko‘pincha 100 katakli shaxmatda **o‘ynashchi mutuzli hisoblanardi.** Abubakr as-Suli X asrda eng kuchli **shaxmat ustasi bo‘lgan.** Boshqa kuchli o‘yinchisi-Abulfatx Admad XI

asrda shaxmat bo'yicha qo'llanma yozadi, bu risola bir necha asrlar davomida qayta-qayta ko'chirilib unga qo'shimchalar kiritiladi. Firdavsiyning "Shoxnoma"sida shaxmat o'yinlari mahorat bilan ifodalangan edi.

IX – XII asrlarda tarix, tilshunoslik, badiiy san'at kabi gumanitar fanlar ravnaqi ham salmoqli bo'lgan. Abu Bakr Narshaxiyning "Buxoro tarixi" Al-Mustagfiriyning "Nasaf va Kesh tarixi", Bayxakiyning "Ma'sudiy tarixi" bitildi. Bu davrda Xorazm, Samarqand, Shosh, Kubo, Termiz, Chog'aniyon o'tmishiga oid tarixiy risolalar yaratildi. Xususan, X asrning o'rtalarida yaratilgan "Buxoro tarixi" turli davrlarda fransuz, rus, ingliz, arab, fors va hozirgi o'zbek tillarida bir necha bor chop etilgan.

Usha paytlarda turkiy tillarga e'tibor ham kuchaydi – VIII – IX asrlar oralig'ida ijod etgan adib Axmad Yugnakiy "Haqiqatlar tuhfasi" dostonini yaratdi. Bizgacha yetib kelgan bu asardan ko'rinish turibdiki, uning muallifi saloxiyatli shoir va axloq muallimi bo'lgan. Bu ajoyib asar 14 bobdan iborat bo'lib, ular ma'naviy-axloqiy kamolot sirlaridan ta'lim berishga mo'jallangan. Mashhur turkiyshunos olim Mahmud Qoshg'ariy "Turkiy tillarning sintaksis qoidalari"ni yozdi va "Devonu lug'atit turk" asarini yaratdi. Unda muallif 7,5 mingdan ortiq turkiy so'zlar izohlari, grammatik va didaktik xususiyatlari, shevalari to'g'risida to'xtalgan. Shu davrlarda Yusuf Xos Xojib "Saodatga boshlovchi bilim" kitobini yaratdi. O'zbek adabiy tilining shakllanishida bu asarlarning o'rni katta bo'lgan.

O'sha asrlarda o'l kamizda she'riyat keng ko'lamda rivojlandi. Ular ko'pincha fors, turkiy va arab tillarida bitilar edi. Abu Abdullo Rudakiy, Abu Mansur Daqiqiy, Sobir Termiziyy, Abu Mansur as-Saolibiyarning badiiy asarlari mashhur bo'lgan. Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma"si madaniyatimizda ulkan voqeа bo'ldi. Bu davrda xalq og'zaki ijodi ham keng rivoj topdi. "O'g'iznoma", "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Manas" kabi dostonlar elga manzur bo'ldi, aholi orasida she'riy, qofiyaviy aytishuvlar vujudga keldi.

Musiqa san'ati ham yangi bosqichga ko'tarildi. Bu davrda bir necha turdag'i maqom ixtiro etildi, navoyu ohanglarni notaga solish boshlandi. Bu jahhada Forobiyning izdoshlari Ma'sud Ishroziy va Muhammad Amoliy samarali ish olib bordilar. Yangi musiqiy asboblar kashf etildi, o'ynoqi ohanglar bastalandi. Sayyoxlardan

bu XII asrda Buxoroda Isfaxoniying “Ashulalar kitobi”ni bozor tutasida uchratgani haqida hikoya qiladi.

XII asrlarda dunyoviy fan va madaniyat bilan bir qatorda islam mazmunini anglash, uning mohiyatini o’rganish, targ’ib qilishda ham katta ishlar qilindi. Bunday mas’uliyatlari va savob ishda Imom al-Buxoriy (810-870) va Abu Iso Muhammad at-Termiziyy (824-892)lar tashabbuskor bo’ldilar. Ular islam dunyosida vujudga kelgan minglab hadislarni sinchiklab o’rgandilar, xolis va ishomarlilarini ajratib, ularga sharxlar berdilar. Ular Muhammad payg’ambarning hayoti va faoliyati shuningdek uning diniy va axloqiy ko’rsatmalariga oid asarlar yozdilar. Bu buyuk zotlar mashaqqatli qodollarida va amaliy ishlarida musulmonchilikning asl ma’nosini mahorat bisan oolib berdilar, islamning ilm-fanga, madaniyatga, umuman taraqqiyotga bo’lgan ta’sirini ko’rsata bildilar. Ular islamning insonparvarlik xususiyatlarini ta’kidlab, uning ko’pchilik manfaatini ko’zlovchi demokratik e’tiqod ekanligini yoritib berdilar, Al-Buxoriy va At-Termiziyyning sadoqatli izdoshlari Abduraxmon an-Nasoiy, Abu Mansur ad-Moturidiy, Kaffol ash-Shoshiy, Mahmud az-Zamaxshariy, Abu Iso Samarcandiyy, Najmiddin Kubro kabi ulamolar musulmon dunyosining yirik mutafakkirlari sifatida ko’pchilikka mashhur bo’ldilar. Xususan, shayx Al-Moturidiy ta’limotiga ko’ra, bilishning uch manbai mavjud. Ular xis (sezgi), naql-rivoyat va aql-idroktdir. Shu bilan birga ul zot aql-idrokning alohida o’rni borligini ta’kidlaydi, Demak, aqliy dalillar va isbotlar asosida voqelikni anglamoq musulmonchilikda muhimdir. Xazrati imom Ash-Shoshiy halollik, odillik masalalarini o’z asarlarida keng yoritgan. Shariat qonun-qoidalarini chuqur tahlil etib, “Xidoya” asarini yaratgan Burxoniddin Marg’inoniying muloxaza va tavsiyalari islam dunyosida ko’p asrlar davomida muhim manba bo’lib, u yoki bu masalaniadolat va insof nuqtai nazaridan xal etishda asosiy qo’llanma vazifasini bajargan.

Islam dini shakllangandan so’ng uning doirasida, Qur’on va hadis talablariga mos ravishda paydo bo’lgan tasavvuf (sufiylik) ta’limoti XI asrga kelib keng tarqa-la boshladi. O’lkamizda sufiylik asoslarini Yusuf Hamadoniy, Abdulxoliq G’ijduvoniy, Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg’onyi targ’ib etganlar va rivojlantirganlar. So’ng Xorazmda Kubraviya birodarligi, Buxoroda Naqshband tariqatlari

shakllandi. Bularning barchasi o'sha davrda islom madaniyatining shakllanishida ma'naviyatimiz asoslarini peshlashda, odamlarning iymonli bo'lib yetishishda muhim o'rin tutgan. Bu iymon-e'tiqod asrlar davomida sinovdan o'tdi va hamon odamlarni kamtarlikka mo'minlikka, halollikka, bag'rikenglikka, insofu-vijdonli bo'lishga da'vat etib kelmoqda.

Demak, bir davrda va bir makonda ham dunyoviy fanlar, ham diniy bilimlar rivojlangan, ular biri ikkinchisiga keskin ziddiyatda bo'limgan. G'arb mamlakatlarda deyarli yetti asr davomida inkvizitsiya (zulmat) hukm surgan bir vaqtida ilm-fan quvg'inda bo'lib xurofot esa keng ildiz otgan bir paytda, musulmon yurtlarida, xususan O'rta Osiyoda, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyot yuz berdi va yuksaldi. Bu holatning asosiy sabablaridan biri islomning bilimga ijobjiy qarashidadir. Ayni paytda, dunyoviy ilm ahli islomni nafaqat inkor etmadni, balki ko'p jihatdan unga tayanch, musulmonchilikning axloqiy, ma'naviy sifatlari esa ularga madad bag'ishladi. O'lkamizdag'i bu yuksalishning eng muhim xislati insonparvarlik bo'lgan. Bu davr madaniyatining markazida inson, insoniy aql, xis tuyg'u, inson ma'naviy boyligini e'zozlash, uni yuksaltirish bo'lgan.

Yurtdoshlarimiz yaratgan ilmiy asarlар o'sha asrlardayoq arab tili orqali dunyoga tanilib, Sharqu Garbda ibrat bo'lgan va ma'lum darajada andoza rolini o'ynagan. Donishmandlarimiz asarlari turli o'zga tillarga tarjima qilinib, Fransiya, Angliya, Ispaniya, Italiya, Gollandiya va boshqa ko'p mamlakatlarda tarqalgan. Masalan, Ibn Sinoning "Tib qonunlari" Garb ilm-fan tili bo'lgan lotin tilida 30 martadan optiq chop etilgan va lotinchadan Yevropa va boshqa qit'a xalqlari tillarida ko'p marta nashr etilgan. To'la bo'limgan ma'lumotlarga ko'ra, yuzdan ortiq yurtimiz donishmandlarining asarlari o'z davrida lotinchaga o'girilgan va so'ng boshqa xorijiy tillarga tarjima qilinib, uzoq vaqt mutolaa qilingan..

X asrdayoq Rim papasi Silvesto II murakkab rim raqami o'rniiga Al-Xorazmiy qayta ishlab chiqqan "arab raqamlari"ni amaliyotga kiritish haqida farmon bergen. XV Avstriya va Italiya universitetlarida Al-Farg'oniyning pronomik asarlari bo'yicha ma'ruzalar qilinganligi xususida gollandiyalik olim Regimonton xabar beradi. Oyning yangi yetilgan ikki krateriga Al-Farg'oniy va Mirzo Ulug'beklar berilganligi haqida 1647-yili polshalik Yan

Cieveliy edi. Mutaxassislarning ta’kidlashlaricha, Al-Forobiy asaridan p’tibning mashhur olimlari Leonardo da Vinchi, Bekon, Kopernik, Kepler, Leybnits va boshqalar faydalanganlar. Allomalarimizni mashhur shoir A.Dante, I.Shiller tarannum etganlar, buyuk nemis tuylasufi G.Gegel ajdodlarimiz ijodiga tan berib, ularga yuksak hurrmat bildirgan.

Bugungi kunda ham jahoning o’nlab mamlakatlarida yurtimiz donishmandlarining noyob qo’lyozmalari avaylab saqlanmoqda. Masalan, Al-Xorazmiyning arifmetika xususidagi risolasi XII asrda Ispaniyada lotin tiliga tarjima qilingan. edi. Bu tarjimaning XIV asrda ko’chirilgan yagona qo’lyozmasi hozir Angliyaning Kembrij universitetida saqlanmonda. Asar “Diksit Algorizmi”, ya’ni “Al-Xorazmiy deydiki” deb boshlanadi. Xorazmiy qalamiga mansub astronomik asarning 1037-yilda ko’chirilgan arabcha nusxasi Strasburg (Fransiya) universiteti kutubxonasida mavjud. Al-Farg’oniy asarlaridan birining qo’lyozmasi AQSHning Princeton universiteti kutubxonasida saqlanmoqda. Misrning mashhur “Al-Azhar” dorilfununida O’rta Osiyolik olimlarning yuzdan ortiq asarları bugun ham ilmi toliblar xizmatidadir.

Ajdodlarimiz shuhratining muhim manbai ularning qiziquvchanligida, jiddiy izlanuvchanligida masalaning yechimini topishda zahmat chekishga ruhan tayyorligida, halol va xolis tadqiqot olib borishlarida, falsafiy idrokida, mustahkam irodasida, qisqasi ularning imoni komilligidadir, desak vijdonan to’g’ri bo‘ladi.

Qissadan hissa shulkim, ajdodlarimiz orasida katta iste’dod egalari, zehni tez, mulohazasi chuqur, mantiqi kuchli, fikri o’tkir, xotirasi mustahkam allomalar ko’pdan-ko’p bo’lgan. O’sha asrlarda donishmandlarimiz bilan tabiiyki faxrlanamiz. Ularning ilm-fan, ma’rifat va ma’naviyat sohalaridagi buyuk jasorati bizga-mustaqil O’zbekiston ahliga-nafaqat boy meros, balki katta saboq, ulkan ibratdir.

Demak, IX – XII asrlarda O’rta Osiyoda madaniy va ma’rifiy taraqqiyotning barcha sohalarida yuqori darajali rivojlanish yuz bergen. Shu bois bu ulkan jarayonni uyg’onish, renessans deyishga asos bor.

O’zbekistonning birinchi Prezidenti I.A.Karimov “Tafakkur” jurnali savollariga javob bera turib, IX – XII asrlarda ma’rifatli dunyo

yurtimiz donishmandlarini qanchalik izzat-ikrom qilgan bo'lsa, XXI asrda biz xalqimiz, millatimizga nisbatan ana shu extiromni qaytadan qo'lga kiritishimiz kerak, deb buyuk vazifani olg'a surdi. Bugungi kunda Vatanimiz, uning xalqi yangi sivilizatsiya arafasida turibdi, mamlakatimiz ulkan taraqqiyot sari qadam qo'yemoqda. Ana shunday sharoitda ajdodlarimizning ruhi barchamizga yor bo'lsin.

Mavzuga oid tayanch iboralar

Renessans, Musiqa, rasadxona, Sug'd taqvimlari, "Baytul-xikma" (Donishmandlar uyisi), Xorazmshoh Abul Abbas Ma'mun, Beruniy, Ibn Sino, Miskavayx, Ibn Iroq, Ahmad al-Farg'oniy, Al-Xorazmiy "Ilmlar kalitlari" kimyogar Abu Bakr ar-Roziy, Abul Xakim al-Kosiy, geometriya va trigonometriya rivoji: Mahmud Chag'miniy, Shamsutdin A'loul Buxoriy, falsafa: Ibn Miskavayx, tabobat va dorishunoslik borasida dunyoga dong'i ketgan Ibn Sino, Al-Kumriy, Abu Mansur Kamariy, Sharafutdin al-Hoqiy, Ismoil Jurjoniy, Devonu lug'atit turk.

Mavzu bo'yechi takrorlash uchun savollar

1. Uyg'onish tushunchasi va uning mazmun-mohiyati haqidagi tushunchangiz?
2. Movarounnahrda Ilk uyg'onish davri, uning vujudga kelish sharoitlari va omillari nimalarda ifoda etilgan?
3. Movarounnahrda IX-XII asrlarda ilm-fan ravnaqi, madaniyat rivoji to'g'risidagi fikringiz?
4. IX-XII asrlarda Movarounnahrda yashagan islom dini, buyuk hadisshunos olimlardan kimlarni bilasiz?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyati – engilmas kuch.
– T.: Ma'naviyat. 2008. – 176 b.
2. Kabirov A. Jaxon tarixi. – T.: O'qituvchi 2001-yil.
3. Jaxon madaniyati tarixi. – T.: Universitet. 2002-yil.
4. История мировой культуры. – Москва., 2000 г.
5. Умаров Э., Абдуллаев М., Хакимов Э. Культурология.
– T.: 2006.

MAVZU: AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI MADANIYATI

Reja:

1. Amir Temur – ilm-fan va madaniyat homiysi.
2. Ulug’bek – buyuk olim, ilm-fan rahnamosi.
3. Temuriylar davrida tarixshunoslik, xattotlik, tasviriy san’at va musiqa.
4. Temur va temuriylar davri badiiy adabiyoti.
5. Temuriy davrida miniatyura san’atining shakllanishi.

Mavzuning o‘quv maqsadi: Talabalarga Amir Temur – ilm-fan va madaniyat homiysi, Ulug’bek – buyuk olim, ilm-fan rahnamosi, Temuriylar davrida tarixshunoslik, xattotlik, tasviriy san’at va musiqa, Temur va temuriylar davri badiiy adabiyoti haqida ma’lumotlar berish.

Vatanimiz tarixida temuriylar davrining tom ma’noda milliy va ma’naviy uyg’onish (ikkinchi “Renessans” davri) sifatida namoyon bo‘lishi, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bilan birlikda madaniy yuksalishga erishishi Amir Temur nomi bilan chambarchas bog‘liqidir. Negaki, bu tengsiz siymo qudratli, yahlit sultanatni barpo etish, uning har tomonlama ravnaqini ta’minlash barobarida ma’naviy-madaniy hayotning ham gurkirab rivojlanishiga, ilm-urfon, adabiyot va san’at sohalarining o’sishiga, bu jabha sohiblarining iste’dodi va ijodkorligining kamolotiga benazir rahnamolik ko’rsatdi. Bu o’rinda Amir Temur, Shohruh Mirzo, Ulug’bek, Boysunqur Mirzo, Sulton Xusayn, Bobur Mirzo singari ulug’ hukmdor siymolarning shaxsiy ibrati tahsinga loyiqidir.

Amir Temur o‘z mamlakatining ilmu urfon, madaniyat va san’at ahliga xorijiy ellardan ko‘plab hunar-kasb ahllarini, me’moru naq-qoshlarini, olimu fozillarini oldirib kelib, ularga qulay shart-sharoitlar

yaratib berib, ularning bilimi, tajribasi va iste'dodini ishga solib, hayratomuz bunyodkorlik va ijodkorlik ishlarnini ro'yobga chiqardi.

Bu davrda bunyod etilgan betakror me'moriy obidalar, osori-atiqalar, yuksak san'at asarlari, ilmiy-madaniy meros namunalari bunga yorqin dalil bo'la oladi. Amir Temur salohiyatining ajoyib ifodasi bo'lgan "Tuzukot"da sohibqironning ilm-fan, ma'rifat ahliga har doim alohida e'tibor bergenligi va har bir muhim ishni amalga oshirishda ularga qat'yan suyanganligi qayta-qayta ta'kidlab o'tilgan. Amir Temur davrida yashab ijod qilgan allomalardan Jaloliddin Turonshoh (vafoti 1385), Xoja Xofiz Sheroyi (vafoti 1389), Xoja Kamol Xo'jandiy (vafoti 1391), Allomai Taftazoniy (vafoti 1392) va boshqalarni eslash kifoyadir.

Muhammad Tarag'ay Ulugbekning tarixdagi alohida muhim o'rni uning davlat hukmdori sifatidagi ko'p-yillik faoliyatidan ko'ra ham ko'proq buyuk olimlik, ilmu urfon homiysi bo'lgan. Chunki u o'zining aql-zakovati, jo'shqin hayotining asosiy qismini ilmu fan ravnaqiga bag'ishladi, shu sohada katta kashfiyotlarga bosh bo'ldi.

Ulugbek zamonida bunyod etilgan Samarqand, Buxoro, G'ijiduvon. Shosh va boshqa shaharlardagi masjidu madrasalar, ilm maskanlari, jumladan, Samarqand yaqinida barpo etilgan tengi yo'q ilm koshonasi – Rasadxona – bular uning yuksak darajada ma'rifatparvar donishmand hukmdor bo'lganligidan dalolat beradi. Ulugbek ayniqsa fanning astronomiya, matematika, geometriya singari muhim sohalarida katta ijod qildi va o'zidan bebaho ilmiy meros qoldirdi. Uning ko'p-yillik zahmatli mehnati, ijodiy izlanishlari mahsuli bo'lgan mashhur "Ziji Ko'ragoniy" asari olimga jahonshumul shuhrat keltirdi. Ulugbek ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida ham o'z iste'dodini namoyon eta olgan zabardast allomadir. Uning qalamiga mansub "Tarixi arba' ulus" (To'rt ulus tarixi) asari, hech shubhlasiz, tarixshunoslik fanida qimmatli manbalardan biri hisoblanadi.

Mirzo Ulugbek ilm-fan va madaniyat rahnamosi sifatida iste'dod sohiblariga moddiy va ma'naviy jihatlardan g'amxo'rlik ko'rsatdi, ustozlik qilib ularni voyaga yetkazdi.

Ulugbek akademiyasi. Ulugbek nomini shonu shuhratga burkagan, ilmiy tafakkuri va salohiyatini yuksak darajaga ko'targan asosiy narsa, bu alloma dahosining yorqin ko'zgusi bo'lgan ilmiy

akademiyaning yaratilib, samarali faoliyat ko'rsatganligidir. Ulug'-bek akademiyasida dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan 100 dan ottiq olim faoliyat ko'rsatdi.

Ulug'-bek atrofiga uyushgan ko'plab buyuk qomusiy olim sohiblari

Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Muhammad Ali Qushchi, Muhammad Xavofiylar ilm-fanning turli sohalarida, ayniqsa astronomiya, matematika singari aniq fanlar bo'yicha barakali ijod qildilar hamda o'zlaridan ulkan ilmiy meros qoldirib ketdilar. Muarrix Davlatshoh Samarcandiy yozganidek "Olim, odil, g'olib va himmatli podshoh Ulug'-bek ko'ragon... yulduzlar ilmida olis qadar yuksala bordi, masniy ilmida qilni qirq yordi. Uning davrida olimu fozillar martabasi nihoyat cho'qqisiga ko'tarildi".

Ulug'-bek ilmiy maktabining eng katta yutug'i, avvalo, astronomiya, matematika, geometriya, trigonometriya fanlari sohasida yaratilgan muhim kashfiyotlardir. Ulug'-bek rasadxonasida 1018 ta yulduzlar harakati o'rganilib katolog tuzildi. Uning qalamiga mansub "Ziji Ko'raroniy" asari o'zining beqiyos to'g'ri ilmiy yechimlari, xulosalari bilan hozirga qadar ham jahon olimlari e'tiborini qozonib kelmoqda. Shuningdek bu ilmiy maktab olimlarining uchinchi darajali algebraik tenglamani yechib, bir darajali yoyning sinusini aniqlash borasidagi tadqiqortlari ham matematik tafakkurning katta yutug'idir.

Tarixshunoslik fani rivoj topdi. Bu davrda yashab ijod etgan muarixlarning asarlarda o'sha zamон tarixiy voqealarining mufassal tafsilotlari, sharxlardan tashqari ularning chuqr ijtimoiy moniyati, mazmuni o'zining butun ziddiyatliligi va murakkablligi bilan ifoda etilgan. Bu davr tarixchilaridan Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma", Xofizu Abruning "Zubdat at-tavorix", Sharofiddan Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Fosih Xavofiyning "Mujmal Fashiy", Abdurazzoq Samarcandiyning "Matla sa'dayn va majmai baxrayn" (Ikki saodatli yulduzning chiqishi o'rni va ikki azim daryoning quyilish joyi), Ibn Arabshohning "Amir Temur tarixi" (Ajoib al-makdur fi tarixi.Taymur), Riyosiddin Alining "Amir Temurning Hindistonga qilgan g'azo urushi", Mirxondning yetti jildli "Rav-zat us-safo" (Poklik bog'i), Xondamirning "Makorimul axloq", "Xabib as-siyar" hamda Amir Temur huzuriga tashrif buyurgan ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixoning "Temurbek saroyiga sayohat kundaligi" singari asarlarini keltirib o'tish joizdir.

Yuqorida nomlari zikr etilganlar XV asr muarixlari bo'lib, ular o'sha davr ijtimoiy hayoti jarayonining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda temuriy hukmdorlarning turli-tuman faoliyati, sa'y-harakatlari bilan bog'liq tarixiy hodisalar, voqealar silsilasini o'z imkoniyatlari darajasida xolis va haqqoniy aks ettirishga intilganlar. Shu bilan birlikda bunda ularning o'z shaxsiy qarashlari yoxud u yoki bu hodisalarni ba'zan bo'rttirib, ba'zan esa kamshitib, bir yoqlama tarzda ifodalashga uringan bo'lishlari ham shubhasizdir. Bunday hollar, jumladan, Ibn Arabshoh, Riyosiddin Ali, Sharofiddin Ali Yazdiy va boshqa muarixlarning asarlari uchun ham birdek taalluqdidir. Biroq, eng muhimi, tilga olingan bu asarlar o'zining ilmiy qimmati, muhim tarixiy manbalar sifatidagi benazir qadri bilan biz minnatdor avlodlar uchun muhim ahamiyatga egadir.

Zamonaviy kitob nashri hali vujudga kelmagan bir davrda bu soha sohiblari mehnati yuksak qadr etilgani shubhasiz. Shu bois kitob ko'chiruvchi xattotlar o'z qalamlariga sayqal berib, uni san'at asari darajasiga ko'targanlar. Masalan, Mirali Tabriziy (vafoti 1401) Temur davrining yetuk xattotlaridan bo'lgan. Bu talant sohibi nash va ta'liq xati uslublari asosida nastaliq xatini kashf qilgan.

Temuriylar davrining eng taniqli xattotlari orasida Sultonali Mashxadiy, Abdujamil Kotib, Darvish Muhammad Toqiy, Mirali Qilqalam, Ali ibn Nur, Sulton Muhammad Xandon, Ali Xijroniy, Buxoro xattotlik maktabining yirik vakili Muhammad Ali as-Sultoniy nomlari ko'zga alohida tashlanib turadi.

Hattotlik san'atida o'ziga xos maktab yaratgan Sultonali Mashxadiy (1432 – 1520) nastaliq xatinining mislsiz ustozи, Alisher Navoiyning kotiblaridan biri sifatida sharaf topgan edi. U Nizomiy, Farididdin Attor, Xo'ja Xofiz, Sa'diy, Xusrav Dexlaviy, Abduraxmon Jomiy, Xusayniy (Xusayn Boyqaro) va boshqa mualliflarning asarlarini kitobot qilgan. Sultonali tomonidan ko'chirilgan 50 dan ziyyod kitoblar nusxasi bizgacha yetib kelgan.

Abdujamil Kotib qalamiga mansub Alisher Navoiyning «Xamsa», «Novodir un-nixoya» asarlari qo'lyozmalari ham o'sha davr xattotlik san'atining go'zal namunalaridan sanaladi. Bunday yuksak bahrni, shuningdek, Darvish Muhammad Toqiy, Ali Xijroniy, Ali ibn Nur, Sulton Muhammad Xandon va boshqa qalam sohiblari ijodiga ham nisbat berish mumkin.

Temuriylar davrida yetishib tasviriy san'at dong'ini olamga taratganlar jumlasiga usto Shamsiddin Abdulhay, Muhammad Nur, Shayx Turoniy, Abdulla Xiraviy, Ustoz Gung, Ustoz Jahongir, Pir Sayid Axad Bog'ishamoliy va boshqa musavvir va naqshdoshlarni kiritish mumkin. Ular chizgan yorqin tasvirlar, portretlar, tabiat manzaraları yoxud jang tafsilotlari o'zining tabiiyligi, tiniqligi va originalligi bilan kishini hayratga soladi. Masalan, Muhammad Siyoqalam, Xoja Muhammad va usto Abdulhay mo'yqalami bilan sayqal topgan 96 ta muroqda (albom) shunday tasvirlar sirasiga kiradi.

Tadqiqotchilar Samarqandda qadimdan musavvirlar mahallasi mavjud bo'lganligini ta'kidlaydilar. Amir Temur davrida shakllanib, yuksalish jarayonini kechirgan nafis san'at akademiyasi uning o'g'li Shohruh, nabiralari Ulug'bek, Boysunqur Mirzolar davriga kelib har tomonlama ravnaq topdi, o'zining kamolot bosqichi sari rivojlanib bordi. Ayniqsa Boysunqur Mirzo Nigoristonni (nafis akademiyasi) shuhrati tafakkur olamini munavvar etdi. Unga jalb qilingan, o'z davrining taniqli, yetuk ijodkorlari Sayd Ahmad Naqqosh, Hattot Ja'far Tabriziy, Mavlono Xalil, G'iyosiddin Naqqosh, Ma'ruf Bog'dodiy va boshqalar katta ilhom va qaynoq extiros bilan bu yerda ijod qilganlar.

Xusayn Boyqaro davriga kelib esa Xirot tasviriy san'at maktabi yuqori cho'qqiga ko'tarildi. Bu yerda Miroq Naqqosh, Kamoliddin Behzod, Qosim Ali, Ustod Muhammadiy, Muzaffar Ali, Shoh Muzaffar singari yetuk va zukko musavvirlar ijod qildilar.

Qomusiy bilim va hunar sohibi Miroq Naqqosh (vafoti 1507-yil) Xirot maktabining juda ko'plab san'at namoyandalarining yetishib chiqishi va ijodining barq urishida yorqin iz qoldirgan buyuk shaxsdir.

Temuriylar davri tasviriy san'atining ulkan namoyandasasi, tengsiz talant sohibi, o'nlab mohir musavvirlarning ustozi, benazir ijodi hozirgacha ham insoniyat ahlini lol qoldirib kelayotgan mo'yqalam sehrgari Kamoliddin Behzod (1455-1537) ham Xirot ijodiy muhitida faoliyat ko'rsatdi.

Temuriylar davri musiqa madaniyatining rivoj topishida ham alohida o'r'in tutdi.

Tarixchi Ibn Arabshoh Temur saroyidagi ijodiy muhitni shunday

tasvirlaydi: ..."Qur'oni qiroatda ham tajvid bilan yod olgan kishilardan Abdullatif ad-Domgoniy, Mavlono Asaduddin, Sharif Xofiz Xuzayniy, Mahmud Muxriq al-Xorazmiy va Jamoluddin Ahmad al-Xorazmiy va musiqa ilmida ustoz bo'lgan Abdulqodir al-Marog'iy edi".

Alisher Navoiy o'zining "Mavzonul-avzon" asarida xalq qo'shiq-chiligining 8 turi rivojlanganligini qayd etadi. Tuyuq, changchi, turkiy, orzuvoriy, muhabbatnoma, mustahzod shular jumlasidandir.

Amir Temur davrida san'at va musiqa olamida Abdulqodir Guyanda (1334–1435) mashhur bo'lgan. Uning hayotining asosiy qismi Samarqandda kechgan. Abdurazzoq Samarqandiy va Sharafiddin Ali Yazdiylar uni musiqa va advor (musiqa nazariyasi)da zamona yagonasi, deb yozadilar.

Temuriylar davri musiqa san'atida ayniqsa Xirot ijodiy muhitining roli katta bo'lgan. Xirot musiqashunoslari o'z ijodlarida Navoiy, Xiloliy va Jomiy singari mumtoz shoirlarning she'r, g'azallaridan keng foydalanganlar. Xo'ja Abdulla Marvarid, Qul Muhammad, Shayx Noiy, Xusayn Udiy va Shayx Kumiyalar mashhur va taniqli musiqa san'ati vakillari sanaladilar.

Navoiyga zamondosh bo'lgan Abuqodir va Qutbiddin Qoiy, qo'shiqchi va musiqa nazariyasi bilimdoni Abdulloh Lorig, qonunchi Darvesh Ahmad Qonuniy, naychi Sulton Ahmad Devona, Shoh Kuli Rijjakiy, Xiriy, shuningdek 360 dan ziyod kuylar ijodkori Xoja Yusuf Andijoniy singarilar ham davr musiqa olamining benazir namoyandalari edilar.

Amir Temur va temuriylar davri madaniyatining to'laqonli mazmuni, manzarasi va ko'lami o'sha zamonda har taraflama gurkirab ravnaq topgan badiiy tafakkur samarası – badiiy adabiyotda yaqqol namoyon bo'ldi. Negaki Vatanimiz tarixining mana shu chinakkam Uyg'onish davrida o'zlarining serqirra, serjilva ijodi bilan yuksak insonparvarlik umumbashariy g'oyalarni tarannum etgan ko'plab zabardast adibu shoirlar, daxr ijodkorlar yetishib chiqdilar. Eng muhim shundaki, bu davrda badiiy tafakkurda an'anaviy bayroqdar bo'lib kelgan fors-tojik adabiyoti bilan yonma-yon turkiy-o'zbek adabiyoti ham rivojlanib, uning namoyandalari safi ko'payib bordi. Bu o'rinda o'zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan Lutfiy, Xaydar Xorazmiy, Durbek Gadoiy, Atoiylar.

Sakkokiy, Xusayniy singari badiiy so'z sehrgarlarini nomini alohida tilga olib o'tish joizdir. Ularning ko'plari forsiy va turkiy tillarda ham bab-baravar ijod qildilar. Lutfiyning "Gul va Navro'z", "Zaturnoma", Xaydar Xorazmiyning "Maxzunul asror" (Sirlar xazinasi), Durbekning "Yusuf va Zulayxo asarlari, shuningdek Atoiy, Gadoiy va Sakkokiylarning nafis g'azallari, she'riy meroslari o'zbek adabiyoti tarixida muhim o'rinni tutadi.

Ulug' o'zbek shoiri, mumtoz she'riyatimiz sulton Alisher Navoiyning katta ijodi ham shu tarixiy davr bilan bog'liqdir. Alisher Navoiy (1441–1501) ijodiga nazar tashlar ekanmiz. bunda yuksak insonparvarlik, vatanparvarlik, yurtparvarlik va erksevarlik g'oyalari butun tarovati bilan namoyon bo'ladi. Ayniqsa bu yuksak g'oyalalar uning mashhur "Xamsa" siga kirgan "Xayratul abror", "Layli va Majnun", "Farhod va Shirin" dostonlarida to'da kuch bilan barq urib turadi. Navoiy she'riy ijodining cho'qqisi bo'lgan "Xazoinul ma'oniy", "Muhokamatul lug'atayn" (Ikki til bahsi), "Majolisun nafois" (Nafis majlislar) singari nasriy asarlari o'zbek (turkiy) tilining badiiy ko'rki va qudrati dovrug'ini olamaro taratishda mislsiz voqealari bo'ldi.

Shoirning Xuroson hukmdori, bolalik do'sti Xusayn Boyqaroning vaziri, eng yaqin maslakdoshi sifatida mamlakat obodonchiligi, xalq farovonligi, ilmu urfon ravnaqi yo'lidagi benazir sa'y-harakatlari ham minnatdor avlodlar tahsiniga sazovordir.

Temuriylar davrida madaniyatimizning buyuk allomalari Bahoudin Naqshband (1318 – 1389), Xoja Axror Valiy (1404 – 1490) ham samarali ijod qildilar. Ko'p zamonlar (ayniqsa sho'rolar hukmronligi davrida) nomlari asossiz ravishda yomon otliq etilib, ijodlari chetga surilib, ilmiy merosi o'rganilmay kelingan bu buyuk siymolarimiz to'g'risidagi haqiqat milliy istiqlol sharofati tufayli ro'yobga chiqdi. Bahouddin Naqshband tariqat ilmining asoschilaridan biri sifatida insonlarni Xaq Taolo yo'lida halo'l xizmat qilishga, hamma narsada insof, diyonatli, adolatli bo'lishga, peshona teri bilan kun kechirishga da'vat etadi. Uning "Dil ba yoru, dast ba kor" (Diling Alloha, qo'ling ishda bo'lsin) naqli naqshbandiya ta'limotining tub mohiyatini o'zida ifoda etadi. Naqshbandiya tariqatining yirik namoyandasasi va targ'ibotchisi, o'z zamonasining peshqadam allomasi Xoja Ubaydulloh Axror Valiy islam olamida din peshvosi

bo‘lish bilan birga el-ulus manfaati uchun qayg‘urgan, temuriylar sultanati birligi va barqarorligi uchun doimo harakat qilgan. Uning “Risolai Validiya”, “Risolai Xavroiya”, “Fikrat ul-orifin” singari durdona asarlari ilm-ma’rifat ahli orasida mashhur bo‘lgan.

Temuriy davrida miniatyura san’atining shakllanishi

Sharq miniatyura san’ati o‘ta nafisligi, ranglarning uyg‘unligi, ramziy ma’nolarga boyligi bilan jahonni hamon hayratga solib kelmoqda. Sohibqiron Amir Temur fan va madaniyatning ko‘pgina sohalari qatori kitobat va miniatyura san’atiga ham katta e’tibor bilan qaragan. Uning davrida Samarqand va boshqa hududlarda gullab-yashnay boshlagan bu san’at Amir Temur avlodlari davrida yuksak cho‘qqilarga ko‘tarildi.

Amir Temur va temuriylar davri tasviriy san’at sohasida biz avvalo mazkur davr tarixnafislari yozib qoldirgan asarlar orqali tasavvurga egamiz. Chunonchi, Mavlono Sharafiddin Ali Yazdiy, Xondamir Abdurozzoq Samarcandiy, Davlatshoh Samarcandiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirza Muhammad Haydarlar davri madaniy hayoti va nafis tasviriy san’at namoyandalari haqida qisqa-qisqa, ammo mazmunli va naqqoshlikka doir risola va tarkizalarda san’at namoyandalari to‘g‘risida muhim ma’lumotlar berildi.

O‘rta Osiyo tasviriy san’atining o‘ziga xosligi bu va ulkan tarixga ega ekanligini fransuz olimi E.Bloshe va shved olimi Ye.Martinlar ham ta’kidlab o‘tganlar. Ingliz olimi Tomas Arnoldning mazkur davr tasviriy san’atiga doir asarlari mavjud. Fransuz olimi I.Shevchenko ham temuriylar davri tarixiy san’atti bilan shug‘ullangan.

Afg‘on tarixchisi Ali Ahmad Naimiy 1950-yili chop etilgan “Temuriylar davri suratlar va xushnavistlari” degan asari katta ilmiy qimmatga egadir. Garchi mazkur asarda tarixiy san’at asarlari tashkil etilib, ularning g‘oyaviy afzalliklari haqida so‘z yuritilmasa ham, temuriylar davri musavvirlari, naqqosh va xushnavislari haqida muhim ma’lumotlar beriladi.

Sharq mualliflarining ta’kidlashicha, tasviriy san’atda temuriylar maktabining asoschisi musavvir Ustod Gung (soqov) bo‘lib, uning kelib chiqishi noma’lum. Uning shogirdi Umdatul musavvirlar (musavvirlar peshvosi) nomi bilan mashhur bo‘lgan buxorolik Ustod

Jahongir edi. Ustod Jahongir mashhur Pir Sayyid. Ahmad Tabriziyga ustozlik qilgan. Kamolliddin Behzod esa ana shu Pir Sayyid Ahmad Tabriziydan musavvirlikni o‘rgangan.

Temuring juda ko‘p qo‘lyozmalar to‘plaganligi haqida dovrug‘i bizzacha yetib kelgan. Sharofiddin Ali Yazdiyning guvohlik berishicha, samarqandlik ustalar qadimiy moxeylik rangtasviri namunalaridan xabardor bo‘lganligi bois, Sohibqiron kutubxonasida ulug‘ rassom Moniyning “Arjang” albomidan ba’zi bir surati sahifalar saqlanib kelingan.

Ma‘lumki, Movaraunnahr qadimgi kitobot tartib etish va ularni to‘plash markazi edi. Ibn Sino tomonidan tasvirlangan mashhur sononiylar kutubxonasining o‘ziyoq bu o‘lkada kitob yig‘ish va ularni omilkorlik bilan asrashning boy an‘analari mavjudligidan dalolat beradi. Shayx Muhammad Parso ajdodlari tomonidan qariiyb uch yuz-yil davomida yig‘ilgan nihoyatda boy oilaviy hisobxona zaminda kitobga hurmat – e’tibor juda katta, kuchli bo‘lganligidan darak beradi.

To‘plangan ushbu kitoblar tarkibini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, XV asrgacha asosan ilmiy adolatlarni yig‘ish ustuvor bo‘lgan. Faqat XV asrdan boshlab asta-sekin miniatyura – suratlar bilan bezatilgan she‘riy majmualar qo‘lyozmalarini yig‘ish ustunlik qila boshladi. Bunda A.Temur va uning vorislari qilgan homiylik muhim ahamiyat kasb etadi. O‘rtta asr mualliflari yozib qoldirgan guvohliklarni hisobga olmaganda, A.Temurning mashhur kutubxonasidan nom nishon ham qolmagan. Faqat bu yerda to‘plangan qo‘lyozmalar asarlarining san‘at darajasi o‘ta yuqori bo‘lganligini taxmin qilish mumkin, xolos, zotan bular – mag‘lub bo‘lgan hukmdorlarning kutubxonalaridan saralab keltirilgan eng yaxshi asarlar, shuningdek, zabit etilgan o‘lkalardan keltirilgan zamonasining eng yetakchi ustalarini tomonidan Samarqandda – A.Temur saroyida Sohibqiron uchun tayyorlangan noyob kitoblar edi.

XVI asr tarixichisi Do‘st Muhammadning guvohlik berishicha, Samarqand kutubxonasi boshida Temur Bog‘doddan oldirib kelgan mashhur musavvir Abdulhay turgan. U “o‘zining muzaffar lashkari bilan birga xoja Abdulhayni o‘z poytaxti Samarqandga olib keldi. Usta ushbu maskanda vafot qildi. Xojaning vafotidan so‘ng jami ustalar uning ishlariga taqlid eta boshladilar”. Bu XVI asr boshida

miniatyuralarning manbalari va uslublarini yaqqol ko'rsatuvchi nodir dalillardir.

Amir Temur va temuriylar davrida barcha san'at va memorchilik turlarining o'ziga xos jihatlari rivojlanib, turli badiiy maktablar yutuqlarining bir-biri faollik bilan boyitib borishi va asta-sekin birikib ketishi jarayoni XV asrning bиринчи yarmida yangi, o'ziga xos Samarqand san'ati uslubining shakllanishiga olib keldi. Dohiyona bunyodkorlikdan, san'atning yuksak darajasidan darak beruvchi me'moriy yodgorliklarning, amaliy san'at namunalarining bir qismi bizgacha yetib kelgan bo'lsa-da, biroq rang-tasvir ishlari saqlanib qolmagan. Faqat yozma manbaalardagina Temur saroyidagi bezaklar, uning mashhur kutubxonasi, unda saqlangan qo'lyozmalar hamda ularni bezagan miniatyuralar haqida ma'lumotlar uchraydi, xolos.

Amir Temurning nevarasi Ibrohim Sultonning Sherozdag'i saroyida Sohibqiron hayoti va zafarlari haqida hikoya qiluvchi «Zafarnoma» asarini bitgan Sharofiddin Ali Yazdiy Eron ustalari tomonidan ishlangan bezaklar haqida hayratga tushib so'zlaydi.

Amir Temur hayotining XV asrdagi boshqa bir-yilnomachisi Ahmad ibn Arabshoh Samarqand saroylarining devorlariga ishlangan suratlar mavzusiga to'xtalib, ularda qabul marosimlari, sohibqironning bazmlari, jang manzaralari, ov sahnalari shuningdek, Temurning o'zining, jangchilar, o'g'illari, nevaralari, xotin va kani-zaklarining portretlari tasvirlanganligini xabar beradi.

Keyinroq bitilgan asar – Zahriiddin Boburning “Boburnoma” me'yorida Bog'i Dilkusho saroyi devorlari Temurning Hindistonga yurishi haqidagi tasvirlar bilan bezatilganligi aytib o'tiladi.

Yuqorida qayd etganimizdek, qasr va Saroy devorlariga solingan rasmlar bizgacha yetib kelmagan. Ma'lumki, 1407-yili Samarqandning shimoliy shahzoda Begim Sulton uchun katta porloq qurilib, uning o'rtaсидаги qasr devorlari ishqiy mazmundagi suratlar bilan bezatilgan. Amir Temurga atab tarixiy asar yozgan olim Sharofiddin Ali Yazdiyning ko'rsatishicha, mazkur rasmlarni bunyod etishda Amir Temur zamonida shuhrat qozongan turli mamlakat musavvirlari ishtirot etgan. Tarixchilar bu san'atlar katta mahorat bilan yaratilgan san'at namunalari bo'lganini hikoya qiladi. Temur va temuriylarning har biri o'z davrida hatto qurilish ishlari olib borganlar. Ular o'z

poytaxtlarida, mamlakatlarida boshqa joylarda orongoh joylar, saroy va qasrlar, madrasa va hammomlar qurib, ularni o'sha davr mohir usta va hunarmandlari, podshoh va musavvirlarining asarlari bilan bezatganlar. Afsuski, turli mavzudagi suratlar bilan devorlari bezatilgan bunday ajoyib qasr va saroylar bilan shuhrat topgan Samarqand, Shahrisabz, Hirot va boshqa shaharlarning chor bog'lar, ularning buniyodkorlari haqida bat afsil fikr yurita olmaydi. Bunday qasr va saroylarning ko'pchiligi zamonlar o'tishi bilan nobud bo'lgan. O'sha binolarini, oromgohlarini, chor bog'larini va boshqa qurilishlarini yuksak hunari, mohir talanti bilan bezatgan mo'yqalam sohiblari, oymakor va sartaroshlari, turli xil bezak egalari haqida juda oz ma'lumotlarga egamiz. Faqat tarixnavislar, shoirlar tufayli biz Amir Temur va temuriylar qurdirgan chor bog'larning ba'zi qasr va saroylari qiyofasini tasavvur qila olamiz.

Temuriylar hukmronligi davrida o'rta sharqning o'rta asr mada-niyati va san'ati gullagan davrini boshidan kechirdi. Bu davrlarda hashamatli va go'zal binolar vujudga keldi, devoriy rassomlik, amaliy-dekarativ san'at sohasida nafis asarlar yaratildi. Bu hol so'zsiz, me'morchilik va tasviriy san'atda qator yangi an'analarining vujudga kelishi va rivojlanishiga sabab bo'ldi. Jumladan, birinchi bor vujudga kelgan yirik va murakkab me'morlik ansamblari shahar kompozitsiyasida muhim o'rinni egallay boshladi va an'anaviy meroslik shakl va uslublarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi.

Ayniqsa, me'morchilikning rangli bezak bilan boyishi katta badiiy – estetik ahamiyat kasb etdi. Albatta, rang bezak o'rta Osiyo an'anaviy me'morchilarning ajralmas qismi bo'lgan. Lekin XIV asrga kelib, binoning ichi va tashqari pardozi alohida o'rinni egallay boshladi. Sirli sopol taxtachalardan ishlangan rangli naqshlar, XVI asr oxirlaridan keng tarqala boshlagan o'yma naqshlarning keng ko'lamba amalga tatbiq etilishi O'rta sharq xalqlari ijodiy fantaziyasining katta yutug'i bo'ldi. O'rta Osiyo me'morchiligidagi sodir bo'lgan o'zgarishlar ilk bor ko'hna Urganchdagi To'rabet xonim maqbarasida namoyon bo'ldi. Xorazm ustalari yaratgan bu ijobiy yodgorlik an'analarini keyinroq Temur farmoyishi bilan Samarqand va saltanatining boshqa yerlarda keng foydalilanilgan.

Amir Temur va temuriylar davrida Hirot miniatyurasi ham keng rivojlandi. XV asr Eron, Mavarounnahr va Xuroson rang-tasvir

miniatyurasi tarixida musulmon mamlakatlari ma'naviy hayatda muhim ahamiyat kasb etgan. Qo'lyozma kitob san'ati, anig'rog'i, Hirot miniatyurasi muhim o'rinni egallaydi.

1381-yilda Amir Temur Hirotni egallab, 1383-yilda butun Xurosonni o'z saltanatiga qo'shib oldi. Bu hududga salkam yuz-yil mobaynida temuriylar hukmronlik qildi.

XV asrda Hirot temuriylar sultanatining siyosiy va madaniy markazi sifatida gullab-yashnadi. Amir Temur vafotidan keyin Shohruh hukmronlik qilgan davrda Hirotda keng ko'lalma qurilish ishlari olib borilishi tufayli me'morchilik san'ati ravnaq topib, bu yerga yangi me'morlik maktabi yuzaga keldi. Bu paytda Samarqandni Shohruhning o'g'li Mirzo Ulugbek boshqarar edi. U Samarqandda matematika, astronomiya singari fanlar rivojiga alohida e'tibor qaratgan bo'lsa, Shohruh Hirotda san'at va adabiyot, tarix kabi gumanitar fanlar ravnaq topshiga keng imkoniyat yaratib berdi.

Hirotda madaniyat va san'atning gullab yashnashi Shohruhning o'g'li Boysunqur Mirzo nomi bilan bevosita bog'liqidir. Shohruh taxtda o'tirgan paytda Boysunqur Mirzo vazir lavozimida edi. U 1414-yildan hokimiyatni boshqarishni to'laligicha o'z qo'lliga olgan. Boysunqur Mirzo shoirlar, musavvirlar, tarixnavislarga g'amxo'rlik ko'rsatib, homiylik qilgan. Qori Ahmadning qayd qilishicha, Boysunqur Mirzo "Hattotlikda noyob ustalardan biri" Mavlono Shamsning shogirdi bo'lgan. Temuriy hukmronlar san'at va adabiyotga qiziqib qarashi bilan boshqa hukmronlardan alohida ajralib turishgan. Davlatshoh Samarqandiying ma'lum qilishicha, Ulugbek Nizomiy, Boysunqur esa Dehlaviy asarlarini sevib o'qigan. Alisher Navoiy ham Boysunqur Mirzo Hirotda hukmronlik qilgan davrda yashagan va uning madaniyat va san'atni rivojlantirishdagi beqiyos xizmatlarini alohida ta'kidlagan. Jumladan, "Boysunqur Mirzo saroyida shoir, xattot, musavvir, sozandalar shunchalik ko'pki, hech bir zamonda hukmdorlar saroyida bunchalik bo'lgan emas" degan. Alisher Navoiy Boysunqur Mirzo "adolatli, bag'ri keng, iste'dodli kishilarни e'zozlaydigan, kishilar farovon yashashini istaydigan hukmdor" bo'lganini qayd etgan. Davlatshoh Samarqandiy Boysunqur Mirzo she'rlar yozib, bor va turkiy tilda bitilgan she'rlarga eng to'g'ri baho bera olgan, olti xil usulda husnixat yoza olganini eslatgan. U shuningdek, Boysunqur Mirzoning katta kitobxonasi

bu ijami, unda qadim zamonlardan va O'rta asrlargacha yaratilgan eng yaxshi asarlar saqlanganini ma'lum qilgan. Boysunqur Mirzo davrida Hirotda kitoblarni ko'chirish va qo'lyozma kitoblarni badiiy bezatish ainalga oshiraladigan ustaxonalar tashkil etilgan.

Temuriylar sultanatidan juda ko'p xattot, musavvirlar ustaxonalarda ishlash uchun jalb etilgan. Iskandar Sulton vafot etganidan keyin Shohruh Sherodzdan uning xazinasini Hirotga keltirgan. Bu xazinada qimmatbaho buyumlar bilan birga ko'pgina qo'lyozmalar ham bo'lgan. Davlatshoh Samarqandning yozishicha, Hirotdagi ustaxonalarda qisqa – yaqin xattot kitoblarni ko'chirish va qo'lyozmalarini bezatish bilan shug'ullangan. Ularning aksariyati tabrizlik va sherozlik bo'lgan. Masalan, Mavlono Feriddin Jafar Tabriziy, Sayyid Ahmad Naqqosh, Xoja Ali Musavvir, Qiyomiddin Tabriziy tabrizlik bo'lsa, xattot Mavlono Ma'rif Bog'dodiy, Mahmud Ali Hnsuyin sherozlikdir.

Bu Boysunqur Mirzoning ma'lum muddat Tabrizda hukmronlik qilgani bilan bog'liq. U Hirotda ustaxona tashkil etgach, Tabriz, Sheroz singari o'lkalardan xattot, musavvirlarni ishga jalb etgan. Albatta, Hirotdagi ustaxonalarda mahalliy xattot va musavvirlar ham ish olib borishgan.

Kitobxonada kitoblarni ko'chirish, bezatish bilan birga, asl matnni tiklash bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari ham olib borilgan. Bu yerda Firdavsiyning mashhur "Shohnoma" asari yahlit matni yaratilgan. Boysunqur Mirzo tarixga juda qiziqqani uchun tarixnavislarga alohida g'amxo'rlik ko'rsatgan. Hobizi Abro (Mavlono Nuriddin Abdulla) Boysunqur Mirzoning yaqin kishilaridan biri bo'lgan va unga bag'ishlab "Zubdat at – taborixi Boysunqur" asarini bitgan. Ushbu mashhur asarning bir nusxasi 1425-yilda Hirotda rasmlar bilan bezatilgan. Boysunqur Mirzoning topshirig'iga ko'ra, Rashiddin mashhur "Jome at tavorix" asarini yozgan. Mazkur asar temuriylar davrida tarixiy manbalarni yozish tartib – qoidalarni boshlab bergen. Xuddi shu asardan keyin tarix to'g'risidagi tadqiqotlarni rasmlar bezash an'ana tusini olgan. Bundan tashqari Boysunqur Mirzo naqqosh Ustod Sayyid Ahmad, Xo'ja Ali musavvir va jildsoz Qovimiddin Tabriziyiga Ahmad Bog'dodiy muroqqosini ko'chirishni buyuradi.

U Amir Temur tomonidan Samarqandga keltirilgan Abdulloh

musavvirning shogirdi edi. Ahmad Bog'dodiy tomonidan tuzilgan suratlar muraqqosi o'sha paytda yagona nusxa bo'lib, ba'zi suratlar davr zoli bilan o'z latofatini yo'qota boshlagan edi. Boysunqur Mirzo uchun ko'chirtiriladigan mazkur muroqqoga mashhur xattot Mavlono Fariddin Jafar qasida yozadi va yozuvlarini ko'chiradi. Jild yasashni Ustod Qovimiddinga, bezash ishi Amir Xoliqga topshiriladi. Ammo muraqqo ko'chirilib tomom bo'lmasdan Boysunqur Mirzo dunyodan o'tadi. Muraqqani ko'chirishni uning o'g'li Aloviddavlo Mirzo davom ettiradi.

Hirotda Shohruh va Boysunqur Mirzo hukmronlik davrida saroyda qo'lyozmalarga miniatyuralarni chizishdan oldin katta tayyorgarlik ishlari olib borilgan. Saqlanib qolgan ko'pgina rasmlar va xomaki chizmalar qo'lyozmalar uzoq tayyorgarlik asosida bezatilganidan dalolat beradi. Qo'lyozmalardagi erkak va ayol qiyofasi, g'aroyib o'simlik, daraxtlar manzaralar tasviri kompozitsiyasining eng maqbul variantini topishga jiddiy e'tibor qaratilganidan davlolat beradi, turli miniatyura markazlari musavvirlarining bir joyda jonlanishi yuz-yillar mobaynida shakllangan uslublarni o'zaro uyg'unlashtirish asosida yangi uslublar yaratishga imkon bergen va natijada, XV asr birinchi yarmida Hirot miniatyura maktabi vujudga kelgan.

Ayrim tadqiqotchilarining fikriga ko'ra, Hirot miniatyura maktabi XV asr 20-yillarda shakllana boshlagan. Ammo XV asr birinchi o'n-yilligidayoq bu yerda Boysunqur Mirzoning topshirig'i bilan tarixiy asarlardan nusxalar olina boshlagan. 1410-yilda Tojiddin Salmonning «Shams ul - husm» asari ko'chirilgan, 1412-yilda Shomiy Zuilning "Zafarnoma", "Zafarnomai shomiy" asarlari nusxalari ko'paytirish davom ettirilgan. 1414-yilda "Muntahibdin at – tavorizi tuyiniy" (Muyiniy va muyiniddin Natanzaniyning tanlangan solnomasi) asari nusxalari yaratilgan. Bu kabi dalillar ustaxonada asarning dastlabki o'n-yilligida ish boshlangan va unda o'nlab xattot, musavvirlar faoliyat olib borganidan davlolat beradi. Shuning uchun ba'zi tadqiqotchilar Boysunqur Mirzo kutubxonasini "Akademiyaga" qiyoslashadi. Chunki unda juda ko'p mutaxassislar o'z ixtisosligi bo'yicha qo'lyozmalarga manzara ishslashgan bo'lsa, kimdir kishilarning qiyofasi, yuz ko'rinishini chizgan.

Tabrizlik ustalar Boysunqur Mirzo topshirig'ida kutubxonada

dostlabki ishlanmadan biri sifatida bog'dodlik Sulton Ahmadning albonidan "O'shanday o'Icham (sohibo)da, o'shancha satrda nusumlarni xuddi o'sha tartibda joylashtirib" nusxa ko'chirishgan. Bu usulda ishlash Boysunqur Mirzo kutubxonasi ustalari uchun qo'lyozmalarni ko'chirishda o'ziga xos qolipga aylangan. Ular bu qolda asosida ish tutib, Bog'doddagi Jaloiy miniatyura maktabi un'aularini davom ettirishgan. Janoyd sulton Bog'doddagi mazkur miniatyura maktabi namoyondasidir.

Shohruh davrida yaratilgan miniatyuralari qo'lyozmalar suratlarning nafisligi, manzaralar o'ziga xos yangicha uslubda chizilganligi bilan e'tiborni tortadi. Shohruh tashkil etgan kutubxonada 1514

1416-yillarda Hofizi Abro'ning "Qulliyoti tarixi" asariga 20 ta rasm ishlangan, 1426-yilda shayx Sayidning "Guliston" asari xattot Inlar Boysunqur tomonidan ko'chirilib, unga musavvir Xalil 8 ta miniatyura ishlagan. Hattot Muhammad ibn Shamsiddin Boysunquriy 1426-yilda ko'chirilgan "Devon" 7 ta miniatyura bilan bezatilgan Xoja Kirmoniyning "Himoy va Himoyum" asarini ham shu xattot ko'chirgan. 1427-yilda ko'chirilgan ushbu asarga 3 ta miniatyura ishlagan. 1425-yilda Hofizi Abro'ning "Majmua at – tavorix" (Zubdat ut-tavorixi Boysunqur) asari ham miniatyuralar bilan bezatilib ko'chirilgan. Mazkur kutubxonada "Merojnama" asari, Xari Malik Baxshining arabcha va turkiycha maktablari ham ko'chirilib, ularga miniatyuralar ishlangan. 1425-1450-yillarda ko'chirilgan kitoblarga ishlangan 61 ta miniatyura avvalgi davrga mansub miniatyuralarga qiyoslansa, 1425-1450-yillar miniatyurasi muayyan darajada ustun ekanligi yoqqo'l seziladi. Mazkur davrga oid miniatyuralardagi me'moriy inshootlar va tabiat manzaralari tasvirida Junayd Sulton miniatyuralaridagi uslub unsurlari ko'rindi. Albatta, Boysunqur Mirzo kutubxonasi musavvirlari miniatyuralarida o'ziga xos jihatlar ham mavjud.

Bu ularning ikkinchi darajali personajlarini tasvirlash (Himoy va Himoyun bog'da miniatyurasida bog'da qo'y go'shtini kabob qilayotgan xizmatlar), kompozitsiyaning barcha qismlari mutanosib bo'lishga erishish, tabiat va inson, tabiat va me'moriy inshootlar uyg'unligi namoyon bo'ladi. Miniatyuralarga voqeylek shartli tarzda aks ettirilsada, ular hayotning o'zida kabi tasavvur beradi. Akbarning qo'lyozmalardagi miniatyuralar Xitoy rangtasvir ta'siridan

holi ekanligini, kompozitsiyasining mukammalligi, makonning be-poyonligi, ranglarning jozibaliligi, boy koloriti bilan diqqatni jalg etadi. Qo‘lyozmalarga ishlangan miniatyuralar asarida Hofizi Ab-ro‘ning “Qulliyoti tarixi” asariga ishlangan miniatyuralar alohida ajralib turadi.

Ilk Hirot miniatyurasi rivojining keyingi bosqichi 1430-yillarda ishlangan miniatyuralar bilan bog‘liq. Hattot Shamsiddin Boysunquriy ko‘chirgan “Kalila va Dimna” asoriga 25 ta miniatyura ishlangan. 1431-yilda Hattot Mahmud Nizomiyning “Xamsa”siga ko‘chirilgan. Unga 98 ta miniatyura chizilgan. Hattot Jafar Boysunquriy 1429-1430-yillarda ko‘chirgan “Shohnoma” ko‘pgina miniatyura bilan bezatilgan. Boysung‘ur Mirzo kutubxonasida ko‘chirilgan “Kalila va Dimna” asariga ishlangan miniatyuralar ranglarining nafisligi, manzaralarning jozibaliligi bilan alohida ajralib turadi. Miniatyuralarda ko‘k, yashil, och ko‘k, kulrang, kumush rangdan ko‘p foydalilanigan. Ularda jonzotlar bilan bir qatorda, hukmdorlarning tabiat qo‘ynida dam olishi tasvirlangan. Keyinchalik ushbu shahar sharq Saroy miniatyurasida eng keng tarqalgan mavzuga aylangan.

Boysunqur Mirzo saroyi kutubxonasi Hattot, musavvirlari ijodida 1430-yilda Firdavsiyning “Shohnomasi”ga ishlangan miniatyuralar turkumi ham alohida o‘rin tutadi. Texrondagi Guliston saroyida saqlanadigan ushbu asar birinchi sahifasidan oxirgi betigacha kitobat san‘atining noyob namunasidir. Uni Hattot Mir Zafar Tabriziy Boysunquriy ko‘chirgan. Kitob muqovasining nafisligi, sohibalariga yozuvi, rasmlari, naqshlari va albatta miniatyuralarning beqiyos go‘zalligi bilan kishini hayratga soladi. Kitobat san‘atining bu nodir namunasi keyinchalik xattotlar, musavvirlar, muqovasozlar uchun ibrat namunasiga aylandi.

Qadimiyoq qo‘lyozma shohning ov qilishi tasvirlangan ikki betli frontispis (kitobining birinchi oldinga betdagisi yoki birinchi bet matni yuqorisidagi surat) bilan ochiladi. Ushbu qo‘lyozmani bezatishda dostonning eng muhim o‘rnirlari miniatyuralar uchun mavzu qilib olingan. Ya’ni hukmdorlarning ov qilishi, saroyidagi bazm ziyofati (Kaykosuv, Kayxusravi, Isfandiyor, Anushirvon) pahlavonlarning yakkama-yakka olishuvi, bahodirlarning jangdagi jasurligi (Rustam, Zol), lirik sahnalar (Zol, Rudoba) chizilgan. Suratlarda hayvon, odam, daraxt, o‘simgiliklar, turli narsa – buyumlar, personajlar turgan makon

manzarasi, xususan, tog‘ qoyalari ko‘rinishi, daraxt yaproqlari, maysalar nafis sizgilar orqali juda jonli chizib berilgan. Qizg‘in, kulrang, pistoqi (bargikaram) ranglarni o‘zaro uyg‘unlashtirish orqali diqqatni birdaniga jalg etadigan manzara yaratilgan.

Umuman, Boysunqur Mirzo davridagi Hirot miniatyurasi har jihatdan – makon, tabiat manzarasi yoki odamlar obrazini gavdalantirishi jihatidan g‘oyatda mukammaldir. Ushbu miniatyuralar o‘sha davr san’atining yuksak namunasidir.

1540-yillarda ishlangan miniatyuralar ham har jihatdan diqqatga sazovor. Hattot Yusuf al-Jalol 1445-1446-yillarda ko‘chirgan Nizomiy “Xamsa”si nusxasiga musavvir Xoja Ali Tabriziy ishlangan miniatyuralar xususida xudidi shu fikrni aytish mumkin. “Xamsa”ning ushbu qo‘lyozmasi Shohruhning o‘g‘li Muhammad Do‘kiyning xotini Ismat at – Dunyo buyurtmasi bilan ishlangan. Firdavsiy “Shohnoma”si Muhammad Jo‘kij buyurtmasi asosida 1440-yillarda ko‘chirilib, 31 ta miniatyura bilan bezatilgan. Ushbu nodir qo‘lyozma Londondagi kutubxonalardan birida saqlanadi. Miniatyuralar bilan bezatilgan mazkur qo‘lyozmalar san’atning bu yo‘nalishida temuriylar davriga xos uslub shakllanganini namoyon etadi. Bu uslubning eng muhim jihatni kompozitsiyadagi barcha qismlar aniq va ravshan uyg‘unlik hosil qilgani, voqelikning nafis chizgilar orqali jonli aks ettirilishida ko‘rinadi. Boysunqur Mirzo kutubxonasida ishlangan miniatyuralarda me’moriy inshootlar ham, odamlar ham, hayvonlar, parrandalar, daraxt, o‘simliklar, narsa – buyum, liboslar ham aniq gavdalantirilgan. Ular xuddi jonliday, harakatlanayotganday taassurot uyg‘otadi. Maysazor, gullagan daraxt, butalar kishini beixtiyor maftun etadi. Miniatyuralarda makon yechimida Eron va Yaqin Sharq miniatyurasiga xos uslub uyg‘unlashtirilgan. Eron musavvirlari miniatyurasida makon yassi, Yaqin Sharq musavvirlari rasmlarida esa vertikal bo‘ylab ichkariga olib ko‘rsatiladi. Boysunqur Mirzo kutubxonasi musavvirlari jaloyirlik musavvirlar uslubini ijodiy boyitish asnosida makonni ko‘rsatishda yangicha uslub yaratishga erishdilar. Hirotlik musavvirlar miniatyuralarida makon yuqoriga va ichkariga qarab, kengayib boradi. Unda odamlar va hayvonlar tasviri o‘lchami kichraytilishi hisobiga interyer va eksteryer aniq ko‘rsatiladi. Shu tarzda miniatyuralarda makonning kosmoning yechimiga erishiladi.

Go'yo musavvir voqyelikni yuksakdan turib tasvirlaganday tuyuladi. Miniatyurada, umuman, rangtasvirda makonni ko'rsatishda rang muhim o'rın tutadi. Temuriylar davrida musavvirlari ranglarning turlicha jiłolanishidan foydalangan holda, ixcham makon hosil qilishadi va unga barcha ranglarini to'liq saqlagan holda, keng tabiat manzarasini, katta me'moriy inshootlarni joylashtirishadi. Ular tilla rangda olov, quyoshning butun mohiyatini mujassam etganidan boshqa ranglar uning fonida o'zining butun jiłosi bilan ko'rindi.

XV asr birinchi yarmidagi ilk Hirot miniatyurasi, balki Sharq rangtasviri rivojiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Hirotlik musavvirlar Sheroz, Bog'dod va Tabriz musavvirlari erishgan eng muhim yutuqlarni o'z asarlarida yahlit holda mujassamlashtirishdi. Lekin ularning miniatyuralari obrazni ifodalash, makon yechimi jihatidan g'oyatda o'ziga xos ekanligi tadqiqotlarda alohida ta'kidlanadi.

Ilk Hirot miniatyura rangtasviri mavzusi boy va rang-barang. Temuriylar davri miniatyurachilari tarixga bag'ishlangan asarlarni bezashda yuksak ijod namunalarini yaratishib, tarixiy voqelikni suratlarda gavdalantirish konsepsiysi rivojini belgilab berishdi. O'sha davrda tarixiy voqelarni ko'rsatishda qamal, jang, g'alaba, ziyofat, yakkama-yakka olishuv manzaralari ("Zafarnoma", "Majmua at-tavorix") miniatyuralar uchun asosiy obyektga aylandi. Abadiy-badiiy asarlar ("Shohnoma", "Xamsa", "Kalila va Dimna", devonlari, dostonlar), diniy mavzudagi asarlar ("Me'rojnama"), ilmiy ishlar, yulduzlar jadvali, shajaralarga suratlar ishlashda ham ulardagagi eng muhim jihatlarga e'tibor qaratish keng tus solgan.

Temuriylar davrida miniatyurasidagi yangilik unda shohga sig'inish kompozitsiyasi yaratilib, hukmdorning namunaviy obrazi ko'rsatilishi, hukmdorning jang olib borishi, ov qilishi, ko'ngil ochishi, saroydagi bazm ziyofati suratlarning asosiy mavzusiga aylangani bilan belgilanadi. Ularda jannat sary, gulxayri, turfa mevali daraxtlar o'sgan yam-yashil maysazor, bir-biriga tutashib ketgan marjon qoyalaridan iborat maskan – Yaratguvchining ilohiy quadrati bilan bunyod etilgan mo'jiza sifatida ko'rsatiladi. Ular jannat tabiat go'zalligi ko'rinishida ekanligi to'g'risida taassurot qoldiradi. Temuriylar davri miniatyuralarida inson obrazini gavdalantirishda, shartlilikni saqlagan holda, hayotiy detallarni aniqroq ifodalashga alohida e'tibor qaratiladi. Avvalgi davr miniatyuralariga sinchiklab

qurabasi, kishilar qiyofasi deyarli o‘xshash ekanligi, bir xil qiyofalar miniatyuradan miniatyuraga ko‘chib yurgani aniq seziladi.

XV asr oxirgi choragi Hirot miniatyurasining yetuk namoyandasini Kamoliddin Behzod ijodi bevosita XV asr birinchi yarmi ilk Hirot miniatyura maktabi ravnaqining mantiqiy natijasi bo‘ldi.

Kamoliddin Behzod va uning tasviriy san’at maktabi

Temuriy davrida tasviriy san’atning Shohruh Mirzodan keyingi taraqqiyoti Kamoliddin Behzod nomi bilan bog‘liq. San’atshunoslar mazkur davrni sharhlaganda “Behzod va uning maktabi” degan iborani ishlatajilar. Bu bejiz emas, albatta. Behzod Shohruh Mirzo zamonda Boysunqur Mirzo tomonidan asos solingan tasviriy san’atning Hirot maktabini takomilga yetkazadi. U hech bir tukrorlanmaydigan nafis va mazmunan boy, ajoyib tasvir namunalari yaratib, o‘z nomini abadiylashtirdi.

“Moniyi soniy” ya’ni “ikkinchi Moniy”, degan yuksak faxriy unvonga sazovor, hayotligidayoq zamondoshlari tomonidan “nodirlar nodiri”, “yaxshilar yaxshisi”, “musavvirlar peshvosi”, “muhabbatlar yetakchisi” kabi sifatlar bilan ta’riflangan ustoz Behzod jahon tasviriy san’ati tarixida munosib o‘rin egallagan. Hatto, yevropalik san’atshunoslar ham Behzod san’ati va mahoratidan hayratlanib uni “Sharq Rafaeli” degan yuksak muqoyasa bilan ulug‘laganlar. Behzodning shaxsi to‘g‘risida gapirganda, u haqda tug‘ilgan bir afsonani keltirish o‘rinlidir: ma’lumki, 1514-yilning avgustida Janubiy Ozarbayjondagi Choldiron tekisligida Eron shohi Shoh Ismoil (1501-1524) bilan turk sultonni Sulton Salim I (1512-1520) o‘rtasida katta jang voqe bo‘ldi. Shoh Ismoil jangga ketish oldidan: “Kim biladi, taqdirimda nima bor. Jangda dushman g‘olib kelsa, o‘larman yoki qochib qutularman. Eron mamlakati vayron va talon-toroj qilinar”. Biroq Behzodning Sulton Salim Rumiy qo‘liga tushishini aslo xohlamayman» degan andishalarga boradi va Behzodni qandaydir bir g‘orga berkitishni buyuradi. Shundan so‘ng, Behzodni xudoyi taolo panohiga topshirdim, deb o‘zi jangga ketadi. U jangdan qaytib kelib, Saroy a’yonlaridan so‘ragan birinchi gapi: “Behzod tirikmi? - degan savol bo‘lgan”. Shoh Ismoil uchun o‘z mulki va xazinasining xavfsizligidan ko‘ra. Behzodning salomatligi

muhimroq bo'lgan. Mazkur rivoyat, garchi haqiqatdan yiroqroq bo'lsa ham, Kamoliddin Behzodning bebaboh, noyob hunar egasi ekanligining, katta shuhrat sohibi bo'lganligining bir guvohidir.

Behzod 1455-yili Hirotda hunarmand kosib oilasida dunyoga keldi. Naqqoshlik va musavvirlikka bo'lgan qiziqish unda juda erta uyg'ondi. Behzod ota-onasidan yoshligadayoq judo bo'ldi. Sulton Husayn Mirzo kitobxonasining raisi Mavlono Mirak naqqosh yosh Behzodni shogirdlikka oladi, unga ustoz bo'ladi. Mavlono Mirak naqqosh hirotlik bo'lib, uni Said Mirak yoki Xo'ja Mirak ham deb yuritishar edi. U yoshligida o'qsoz edi. Madrasada o'qidi, Quro'nni o'rgandi, so'ng xattotlikni egalladi. Otasi dunyodan o'tgach, o'q yoy yasab, shu hunari orqasidan kun ko'ra boshlaydi. Imoratlarga kitoba yozish (devorga yozuvlarni naqsh bilan yozish va rasm solish) bilan ham mashg'ul bo'lgan. Musavvir sifatida tanila boshlagandan keyin u Sulton Husayn Mirzo kitobxonasiga boshliq qilib tayinlandi. Sulton Husayn davrida qurilgan imoratlarning aksari kitobasi shu Mavlono Mirak naqqosh qo'li bilan bajarilgan. U o'z hunariga shunchalik mohir ediki. zamondoshlarining yozishiga qaraganda, u bir-yillik ishni bir oyda ham bajara olardi. Rivoyat qilishlaricha, Alisher Navoiy tashabbusi bilan Hirotdagi masjidi jome qayta tiklanayotgan paytda bu ishni tezroq bitirish zarur bo'lib qoladi. Biroq Mavlono Mirak, nima uchundir, kitoba ishini paysalga sola boshlaydi. Ishga Alisher Navoiy aralashadi-yu. Mirak naqqosh masjidni bezash va kitoba yozish ishlarini 15 kunda bajaradi. Masjidi jomeni hozirgi kunlarda ham ziyorat etgani kelgan har bir sayyoh yoki mehmon Mavlono Mirakning mazkur noyob san'atiga tahsinlar o'qib ketishadi.

Behzod Mavlono Mirak, Alisher Navoiy, Sulton Husayn Mirzo singari ma'rifatparvar olimlar davrasida tarbiyalanib, tezda mohir san'atkori naqqosh va musavvir sifatida tanildi. U o'z davrigacha bo'lgan tasviri san'at sohasida erishilgan yutuqlarni mukammal egalladi va musavvirlikda yuksak insoniy fikrlar va boshqa ilg'or g'oyalar bilan sug'orilgan hayotiy tasvirlari bilan tezda shuhrati orta bordi. Mavlono Behzod oldin Alisher Navoiy kitobxonasida ishladi. Mazkur davrda u o'z kasbidagi san'atkorilardan ham mahorat, ham g'oyaviy yo'nalish va uslubda ancha ilgarilab ketdi. She'riy munozara va ijodiy majlislarda, anjuman va yig'lnlarda Behzodning

ham asarlari muhokama qilinib, har kim o‘z mulohazasini bayon etar va hal qiluvchi fikrni Alisher Navoiy aytardi.

Navoiy va Behzod zamondoshlaridan Zayniddin Vosify o‘zining “Budoyiul-vaqoye” asarida Behzod chizgan suratini shoir va uning maslakdoshini hikoya qiladi.

Vosify yozadi: “Behzodning san’ati va shuhrati kun va soat sayin oshardi. Uning har bir yangi asari unga g‘alaba va shon-shuhrat keltirardi”. Ma’lum bo‘lishicha, bir kuni usta buyuk amir Alisher Navoiy majlisiga hayotiy mavzu tasvir etilgan miniatyura suratini olib keladi. Unda turli daraxtlar shoxlarida sayrayotgan rang-barang qushlar, har yerda jildirab oqayotgan jilg‘alar, chaman gullarga to‘la so‘lim bog‘ juda ko‘rkam va tarovatli tasvirlangan edi. Alisher hassaga suyangan, uning oldida esa ehson uchun mo‘ljallangan oltin va kumushga to‘la idishlar. Miniatyurani ko‘rar ekan, amirning yuragi ehtiroslarga to‘la va “Ofarin!” deb olqishladi. Keyin majlisning boshqa ishtirokchilariga qarab murojaat qildi: “Bunday ajoyib tasvirga nisbatan sizlarda qanday olqishlar va hayrat paydo bo‘ldi?”, Xurosondagi mashhur kishilardan biri Alisherning ustozи mavlono Fasihiddin shunday deydi: «Men bu gulshandagi gullarni ko‘rganim hamono, ularning birini uzib olib, sallamga taqmoqchi bo‘ldim». Alisherning doimiy suhbatdoshi va do‘sti mavlono Sohibdori: “Menda ham shunday xohish paydo bo‘ldi. Lekin agar gullarga qo‘limni cho‘zsam, daraxtdagi qushlar cho‘chib, uchub ketmasmikan deb andisha qildim”, - deydi. Xurosoning oqil kishilariga doimo taqlid qilib, hazil – mutoyiba bilan Alisherga tegishib yuruvchi mavlono Burxon shunday deydi: “Bunday ta‘riflardan keyin, mulohaza bilan jim turishni maqul ko‘rdim. Agar so‘z qotadigan bo‘lsam hazrat Mir yuzlarini burishtirib, qovoqlarini chimirishlari mumkin”. Hirotning dono va aqlliik kishilaridan biri, Alisher “latifatarosh” deb laqab qo‘yan mavlono Muhammad Badhiy deydi: “O mavlono Burxon, agar bu kaltabin va beadablik bo‘limganida edi, sizning bu so‘zlarining uchun men hazratimning qo‘llaridagi hassa bilan naqd boshingizga tushurar edim”. Hazrat shunday deydi: “Muhtaram suhbatdoshlar ko‘p yaxshi so‘zlarni aytdilar va ma’no durlarini xo‘b sochdilar. Agarda mavlono Burxon bunday qo‘rslik va qo‘pollikni qilmaganlarida edi, men mana shu tilla va kumushlarni sizlarning boshingiz uzra sochmoqchi edim”. Shundan keyin Hazrat

Navoiy Behzodga boshdan oyoq anjomlangan ot va majlisda hozir bo‘lganlarning barchasiga qimmatbaho to‘n taqdim etadi.

Bu dalillar musavvir asarlari zamondoshlari tomonidan qanchalar yuksak baholanganligini ko‘rsatadi. Behzodning doimo Alisher Navoiy va uning yaqin fikrdoshlari diqqat-e’tiborida bo‘lganining isbotidir. Uning murabbiysi Alisher Navoiy garchi u haqda aniq bir fikr qoldirmagan bo‘lsa ham, do’stlaridan biriga yozgan bir maktubidan o‘scha davr musavvirlari orasidagi Behzod mavqeini yaqqol tasavvur qila olamiz:

“Firoqnomakim yuborilibdur – tasvir qililsun deb, ani tasvir qila olur kishi Ustod Behzoddir va bu yaqinda Ustodi mushorunilayhni (Sulton Husayn) Mirzo tilab oldilar: o‘z qoshlarida bog‘da hujra yasatib ish buyurdilar. Yana andoq kishiki, ul kitobatqa munosib ish qila olg‘ay – yo‘q erdi”. Ha, Sulton Husayn Mirzo naqqoshlik va musavvirlikda kamolot cho‘qqisiga ko‘tarila boshlagan. Behzodni o‘z saroyida ishlatishni lozim ko‘radi va uni o‘z kitobxonasining raisi qilib tayinlaydi. Bu mansabni topshirish to‘g‘risidagi nomaning matni Xondamirning “Nomai nomiy” asarida keltiriladi: “Hirot kitobxonasining boshlig‘i (mansabi) uchun Ustod Kamoliddin Behzod nomiga berilgan nishon...”.

Yevropalik san’atshunos olimlar Behzodning Sharofiddin Ali Yazdiy (vafoti 1454) “Zafarnoma”siga chizgan suratlariga yuqori baho beradilar. Bu asardan 1467-yili sulton Husayn Mirzo xazinasi uchun Sherali xattot nasta’liq yozuvida nusxa ko‘chiradi. Har biri ikki sahifali oltita qo‘shaloq suratlarda 1490-yil ko‘rsatilgan. Qo‘lyozmada jami bo‘lib 12 ta tasvir bor. Demak, uni XV asrning 90-yillarida tasvir qilingan deyish mumkin. Qo‘lyozmaning 69-sahifasida shoh Jahongirning 1605-yilda o‘z qo‘li bilan yozgan quyidagi so‘zlarini o‘qiymiz: “Bundagi sakkiz surat Behzod qo‘li bilan chizilgan. Kitob menga bobom Humoyundan qolgan. Taxtga chiqqan kunim yozdim – 1037-yil, h. 1605. Jahongir ibn Akbar”.

“Zafarnoma”ning mazkur nusxasi hozir baltimordagi Jon Xopkins universiteti kutubxonasida saqlanmoqda (AQSH). Yevropalik olimlardan R.Etingauzen o‘zining Islom qomusiga yozgan maqolasida barcha suratlar Behzod mo‘yqalamiga mansubligini va ular Behzod ijodiyotining ilk davrida yaratilganligini yozgan. Ingliz sharqshunos olimi T.V.Arnold 1930-yili mazkur “Zafarnoma” nusxasidagi

suratlarni rangli holda alohida kitob tarzida nashr etadi. U o‘z kitobida “Zafarnoma”dagi Behzod chizgan suratlarga xos xislatlar haqida gapirib, Behzod suratgarligida ko‘m-ko‘k butazorlar bilan zumin sathi ziynatlangan bo‘lishi, manzaralarning jonli va jozibali chiqishi undan oldin o‘tgan va zamondosh musavvirlaridan atzalroq chiqadi, deb yozadi.

Mazkur qo‘lyozmadagi Behzod chizgan suratlar turli tarixiy voqelar, jang holatlari, saroydagi qabul marosimi, Samarqandda binokorlik ishlari va boshqalarni aks ettirib, faqat kitob mazmuniga hualliqli suratlardir. Bulardan birinchi qo‘shaloq surat Amir Temurning bog‘da o‘tkazayotgan qabul marosimini tasvirlaydi: o‘ng tomondagi sahifada Amir Temur va uning yaqin kishilar, so‘l tomondagisida esa tantanali qabul marosimiga kelgan turli mamlakat elchilari va Saroy mansabdorlari. Ulardan ikkitasi kursida, har xil kiyimli yana beshtasi esa, Amir Temur qarshisida tavoze bilan turishibdi. Elchilardan bir to‘dasi eshik yonida to‘planishgan. Amirlar ortida turgan xodimlar orasida ko‘p habashlar ham bor. Ana shu sahnada o‘nlab kishining tasviri bo‘lishiga qaramay, musavvir o‘z maqsadiga erishgan, kishilar surati jonli va tasvirdagi mazmun tushunarli va ishonarli chiqqan. Bu hol, yuqorida qayd etilganidek, faqat Behzod ijodiyotida mavjuddir.

“Zafarnoma”dagi ikkinchi surat Xiva qal’asining Amir Temur qo‘shinlari tomonidan qamal qilinishini tasvirlaydi. Tasvir baland, mustahkam qal‘a, yonida tok chirmashgan ulkan chinor... Musavvir jangning eng qizg‘in paytini tanlab olgan: qal‘a himoyachilari kungurali baland tik devor ustidan dushman ustiga o‘q yog‘dirib, katta xarsang toshlar irg‘itishmoqda. Ammo Amir Temur askarlari qal‘a darvozasiga kiraverishdagi ko‘tarib qo‘yilgan osma ko‘priksi tushirishga muvaffaq bo‘lganlar. Ilg‘or qismidan suvoriyalar qal‘a ichkarisiga kirib bormoqda. Ba‘zilariga o‘q tegib, otdan ag‘darilgan. Qal‘a himoyachilari orasida xotin-qizlar ham bor. Tasvirning aniqligi, jangchi va otlarning tez, chaqqon va shiddat bilan harakat qilishi, jonliligi sezilib turadi. Jang shiddati chinor shohlari, barglarni ham titratayotgandek tuyuladi.

Uchinchi surat tog‘dagi jang manzarasidir. Amir Temur qo‘shinlari Oltin O‘rda xoni To‘xtamish (1381 – 1395)ning qo‘shinidan qolgan-qutganlarini tor-mor keltirmoqda. Musavvir Amir Temur qo‘shini, uning

tuzilishi, qurollari va afzalliklarini bilgan holda, uning har qanday sharoitda ham jang qila olish qobiliyatini ko'rsata olgan. Askarlar tog'ning chiqib bo'lmaydigan, tik, chuqur daralariga to'rt – besh jangchini zambilda chilvir bilan tushirmoqdalar. Bu Behzodning nihoyatda kuzatuvchan mohir musavvir bo'lganligining yana bir isbotidir.

Keyingi suratlarda Samarcanddag'i Amir Temur tashabbusi bilan avj oldirilgan binokorlik ishlari tarannum etiladi. Faqatgina shu Behzod asarlari tufayligina asrlar bo'yи jahon xalqlarini o'z muhtashamligi va ko'rki bilan hayratga solib kelgan me'morchilik obidalarining haqiqiy ijodkorlari ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Ular oddiy mehnatkash xalq vakillari; tarix sahifalarida ularning nomi deyarli qolmagan bo'lsa ham, o'zlaridan o'lmas yodgorlik qoldirdilar. Bu me'morchilik obidalari o'tmisht madaniyatimiz taraqiyotidagi bir bosqichning jonli guvohidir.

Rasmlarning birida Bibixonim madrasasini bunyod etish jarayonidan bir lavha berilgan. Ustalar o'ziga tegishli ish bilan band, ular turli holatlarda, tinimsiz mehnat qilayotgandek. Binoning asosiy qismi – nafis gullar bilan bezatilgan ayvon esa qurilib bo'lingan: pastda ishchilarning bir qismi devor yuzasini qoplash uchun ishlatiladigan og'ir marmar taxtalarni tashimoqdalar, boshqalari bo'lsa, g'isht teruvchilar uchun loy tayyorlamoqdalar. Eng yuqorida qo'lida bir shaklni (binoni oddeli bo'lsa kerak) ushlab turgan kishi bor. Bu binoning bosh me'mori bo'lsa kerak.

Ikkinci surat binoni pardozlash jarayonini tasvirlaydi. Duradgorlar taxta qirqib, randalashmoqda. Tosh yo'nuvchilar marmar taxtalarni o'yib, naqshlash, sirkor plitalarga pozik chiziqli gul tushirish bilan band. Nazoratchi ulardan birini kaltaklamoqda. Oldinda marmar taxtalar ortilgan arava... tasvirda qurilishga ishtirot etayotgan negr (hindu)larni ko'ramiz. Hindistonlik usta va ishchilar, fillar Temur Hindistonga qilgan harbiy yurishidan so'ng bu yerga olib kelgan. Tasvirning aniq va hayotiyligi naqqoshning Hirotda Alisher Navoiy tashabbusi bilan avj oldirilgan qurilish ishlaridan ilhomlanganining dalilidir. Navoiy Farhodning yaratuvchilik mehnatini kuylagan bo'lsa, mohir rassom buni to'g'ri angladi va ko'pchilik xalq mehnatini sharafladi. Bu jihatdan Behzod O'rta Osiyo xalqlari san'ati tarixida birinchi insonparvar rassomdir.

Behzod portret janrining boshlovchisi va mohir ustasi bo'lgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur Sulton Husayn Boyqaro davridagi imotlik madaniyat arboblariga baho berar ekan, ta'kidlab aytadiki: "Maslikhur musavvirlar qatoriga Behzod munosibdir. U badiiy muhoratning nozik jihatlarini egallagan. Lekin soqolsiz yuzlarni yomon tasvirladi. Ularni me'yordan tashqari cho'zinchoq holatda berdi. Soqolli kishilarning chehralarini juda maromiga yetkazdi".

Behzodning homiysi bo'lgan Husayn Boyqaro tasvirlangan bir qancha miniatyura ishlari yetib kelgan. Ular 1485-yilga (Tehron muzeyi to'plamlaridan) mansub ekanligi miniatyuralarda yozilgan. Ikki qismli asarning chap tomonidan gullagan bog' o'rtasida tantanavor holatda, qo'lida gul ushlab turgan Sulton, uning atrofida esa ko'pgina ayollar tasvirlangan. Ular Sulton haramiga mansub bo'lib ko'rkar gilamda o'tirgan, gullar oralab sayr etayotgan, she'r mutolaa qilayotgan, arfa – changlar chalayotgan holatlarda, xizmatkorlar va sharobli jom va qadahlar bilan birgalikda aks ettirilgan (ma'lumki, Husayn Boyqaro mayning ishqibozi bo'lgan). Asarning unchalik katta bo'limgan hajmi faqatgina umumiyo ko'rinishni namoyish etadi.

Husayn Boyqaroning kishi diqqatini jalb etuvchi, uning o'ziga xos xususiyatlarini ochib beruvchi portret Behzod tomonidan XV asr oxirlarida qayta ishlangan. Unda Husayn Boyqaro shaxsi yorqin ochib berilgan. Boshqa miniatyurada Sulton oyoqlari yig'ilgan holatda o'tirgan, bir qo'li tizzasiga tushirilgan, biri yarim bukilgan, barmoqlari esa "muhokama qilayotgan" tarzda. Egnidagi shohona qabosining yuqori qismi zarlarda naqshlangan, kamarbandida esa oltin to'g'nag'ich o'rnatilgan. Boshida jig'ali xushbichim salla.

Uzunchoq soqoli yuziga o'zgacha ko'rk baxsh etgan: sultonning ko'zlari cho'zinchoq, bejirimgina labining ustki qismida, mo'ylovi bor. Ot ustida o'tirgan holatdagi boshqa miniatyuralarda ham. Sulton Husayn shu ko'rinishda (Bo'ston Nafis san'ati muzeyi) tasvirlangan. Sulton Husaynga temuriylarning kenja shahzodalaridan biri Zahiriddin Muhammad Bobur ta'rif bergan. Ta'rifga ko'ra, uning qiyofasi bekami ko'st. Boshqa asarlarda sulton xushro'y, zabardast, tantanavor, kiyinishni juda xush ko'ruvchi, jasur sarkarda, zukko va teran aql – zakovatli, shuningdek, yuksak badiiy qobiliyat va iste'dod sohibi sifatida o'z atrofiga ilm ahli, shoirlar, din ahli, musavvir va musiqachilarini to'plagan holatda, namoyon etiladi.

Behzod miniatyura portretlarida Sulton shu tarzda ko'rsatiladi.

Shayboniyxon 1505-yilda Hirotni bosib olgandan keyin Behzod uning portretini ham ishlagan. Portretda Shayboniyxon Husayn Boyqarodan boshqacha tarzda ifoda etilgan. Xon odmigina bezaksiz qaboda. Boshida qizil kulohga salsa o'rالgan va unga jig'a qadalgan. Yuzi keng, soqollari hurpaygan. Bu ikki portret xuddi boshqa-boshqa rassom tomonidan butunlay farqlanadi. Sulton Husayn ochiq rangli libosda, u kiygan qabosining ko'krak va yelka qismlari zardo'zi naqshlangan. Shayboniyxon esa oddiygina ko'kish-kulrang qaboda. Bu esa u o'tirgan to'q qizil gilam rangiga zid ravishda olingan. Ranglar go'yo birining nafis qiyofasini, ikkinchisining esa o'ta jiddiy ekanligini ta'kidlaydi.

Behzodning portret juda real ishlanganligi haqida Mahmud Ziyiniddinning Sulton Husayn davridagi Hirotning "Iste'dodli yoshlari" hikoyasi ham guvohlik beradi. Behzod kartinalaridagi dunyo maftunkor. U mukammal va latif bir nafosat bilan tasvirlangan. Borliq hodisalari orasidagi umumiylilik va xususiylik maishiy tur mush ziddiyatlarini bartaraf etuvchi shakl sifatida namoyon bo'ladi. Uning miniatyurasidagi odamlar faol harakatda, aniq ma'no anglatuvchi qilib tasvirlangan. Kamoliddin Behzod Hirot, Buxoro, Samarkand, Bog'dod, Sheroz va Tabriz miniatyura tasviriy san'at maktablariga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Bu o'sha davr miniatyuralarida musiqi asboblar tasvirida ham yaqqol ko'rindi.

Alisher Navoiy Kamoliddin Behzodning ijodkor sifatida dunyoqarashi shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan, unga muruvvat ko'rsatib, xomiylik qilgan. Shu boisdan Behzod ijodida musiqa olamiga alohida e'tibor qaratilgan.

Miniatyura tasvirlaridagi ko'pgina musiqachilarining belidagi belbog'lari ham e'tiborni tortadi. Ma'lumki, belbog' so'fiylik tariqatiga kirgan kishi libosining ajralmas qismidir. Ayrim musiqa asboblari ham so'fiyona tariqat a'zolari hayotida alohida o'rinn tutgan. Xususan, nay ular uchun poklik,adolat, to'g'rilik ramzi hisoblangan. Rumiy uni quyidagicha tasvirlaydi:

Tinglagil, nay ne hikoyat aylagay,

Ayriliqlardan shikoyat aylagay.

Nay ayriliq azobini tortayotgan qalb izardoblarining ramzi hamdir. Miniatyuralardan birida Majnunning Layli chodiri yonida holati

hisoblanadi. Yuqori kompozitsiyada ishq tufayli qalbi iztirobga to‘lgan Majnun va nay chalayotgan cho‘pon bir osmon tagida, bir mukonda tasvirga olinadi. Sevgi dardida telbaga aylangan oshiq durdini ayriliqdan azob chekayotgan qalb ramzi bo‘lgan nay hikoya qiladi-yu shu boisdan nay chalayotgan cho‘pon obrazi chuqur falsafiy mu‘noga ega. Kamoliddin yaratgan va uning maktabiga mansub miniatyuralardagi har bir jihat, rang, ishora, u yoki bu personaj davr, hayot, kishilar haqida falsafiy mushohada yuritish imkonini beradi.

XX asrda hammaga ma’lum bo‘lgan “Behzod – sharq Rafaeli” dejan o‘xshatish unchalik to‘g‘ri emasga o‘xshaydi. Unda sharqona g‘ururga bir oz putur yetgandek, g‘arbni baholashda biroz ortiqchilikka o‘rin berilgandek tuyuladi.

Sharq naqshlarining aqlni lol qoldiruvchi jozibasi va Malevichning “Qora kvadrati”ning og‘ir xislatlari, Jakondaning istehzoli tabassumi va Behzod miniatyuralarining aql bovar qilmas nazokati – bularning barchasi beqiyos ahamiyatga ega bo‘lib, inson zakovatining qudrati va uning butun borliqni hayajonga solguvchi sirli xilqat ekanligidan dalolat beradi.

Behzodning “Bog‘dodlik darvesh” nomli ajoyib portreti uning yuksak mahoratidan dalolat beradi. Behzod bu portretda nihoyatda nozik ruhiy obraz yaratadi. Bu bilan miniatyurani rassomlarning yuksak mahoratga ega ekanliklarini, ular akademik qalam va rangtasvir an'analarini ham bilishlarini isbotlaydi. Behzod qo‘l qovushtirib, jim o‘tirgan odamning kayfiyati va yuz ifodasini muvaffaqiyatli ifodalaydi. Salla o‘ralgan oq qalpog‘ Behzod mansub bo‘lgan naqshbandiya tariqatidagi darveshlarning ramzi hisoblanadi. Darveshning yelkasiga movut chakmonqabo tashlangan. Uning ustida ko‘k ko‘ylak ko‘rinadi. Tomoshabinning ko‘zi eng muhim narsa – diqqat bilan, osoyishta sirli boqib turgan ko‘zlarga tushadi. Bu portretda g‘ayritabiiy tarzda mavhumlik va borliq, maishiy kayfiyat va ma‘naviy holat bir – biriga qorishib ketgan. Oltin rang fondagi nozik bezakli portretning har bir burchaklaridagi so‘fiyona yozuvlar uning ta’sirchanligini oshirgan. Shu davrlarda Leonardo da Vinchingining “Mona Liza Jakonda”si yaratildi (“Darvesh portreti” 1500-yili chizilgan bo‘lsa, “Jakonda” 1503-1506-yillarda yaratilgan). Bu asar Yevropa portret an'analarini biroz boshqacharoq tarzda namoyon qildi.

Bu asar Behzodning ishi bilan muqoyosa qilinganda unda obrazlar tashqi ta'sirida ham, lahzalik psixologik holatlar tasvirida ham mushtaraklik seziladi. Gavda, qo'llar holati, ko'z qarashlar, umumiy ruhiy holatlar nuqtai nazaridan har ikala portret bir-biriga yaqin keladi. Tashqi dunyo va hissiy holatni ulug'lagan antik estetikadan farqli o'laroq. Behzod va da Vinchi asarlarida hissiy talqindan ko'ra, ruhiy kayfiyat ustunroq turadi.

Behzodga ham, Leonardo da Vinchiga ham antik estetika yotdir. Ular aniq "hissiy ko'rinish"ni rad etib, har ikkalasi ham o'z obrazlarining ma'naviy holati va ichki hislarini berishga intilishadi. Aynan shu tarkibiy-musiqiy umumiylig "tushunadigan kuzatuvchiga ko'p ma'noli qarash qilayotgan" obrazlar talqinida rassomlikni birlashtiradi.

Shunday qilib, har ikkala obrazning o'ziga xos xususiyatlari qaramay, ularning talqinidagi umumiylig Behzod ijodi XV-XVI asrlar Yevropa badiiy an'analarini bilan shaklinigina emas, mohiyatan ham bog'liq ekanligidan dalolat beradi. Ravshan hayotiy manzara, kishilar tasviridagi jonlilik mehnatkash xalq hayotiga, uning mashaqqatli mehnatiga ko'proq murojaat qilish, ortiqcha dabdabaning yo'qligi Behzod yaratgan tasviriy san'at asarlarining o'ziga xos xususiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Nom chiqargan har qanday mohir usta singari Behzodning ham o'nlab shogirdlari bor edi. Masalan, uning eng yaqin shogirdi Qosim Ali ustozidan qolishmadi va zamondoshlari tomonidan yuqori baholandi. Tarixchi Haydar Mirzoning yozishicha, Behzod shogirdlari Qosim Ali Chehrakusho (portretist)dan tashqari, Maqsud va Mulla Yusuf kabi naqqoshlar bo'lganini; Ali Mustafo Shayxzoda Xurosoniy va Oq'a Mirak bo'lganini; Qozi Ahmad esa, Do'st Devona va uning otasi Muzaffar Ali bo'lganini eslab o'tadi. Qozi Ahmad Qohirada saqlanayotgan Sa'diyning miniatyurali "Bo'ston"ini (1488) yaratishda Behzodga yordam bergen Yori Muzahhibni ham Behzoddan ta'lrim olgan deydi.

Safariy davri tarixchisi Iskandar Munshiy Behzodning Tabrizda yetishtirgan shogirdlaridan biri Muzaffar Ali bo'lganini ta'kidlaydi. Shoh Muzaffar (1481-1505). Mirza Haydar Mirzo zamoniidagi musavvirlar haqida yozar ekan, uni birinchi bo'lib tilga oladi. Shoh Muzaffar haqida u quyidagilarni hikoya qiladi: "shoh Muzaffar ustod Mansurning o'g'lidir. Sulton Abusaid zamonida bundan bextari

bo'lmagan. Mo'yqalami borik (ya'ni ingizka) va noziklikda tengi yo'q edi. 24 yoshida vafot etdi. Urimiz muddatida sakkiz majlisni tarmom qildi. San'at ustodlari uni g'oyat hurmat qilishar edi". Zahiriddin Muhammad Bobirming "Bobirnoma" asaridan musavvir o'tmishdoshimiz Shoh Muzaffar haqidagi quyidagi qaydlarni topamiz: "Yana Shoh Muzaffar edi, tasvirni ko'p nozuk qilur edi. Tash'irni (ya'ni she'rni – sochni) xud guzaro nozuk qilur edi. Xili umr topmadni. Yana bir tasnifi bor, ul tasnifi tasavvuftadir, yomon emas... Taraqqiy muhalida – o'q olamdin bordi (ya'ni vafot etdi)". "Tarixi Rashidiy" va "Boburnoma" asarlaridagi mazkur qaydlar Shoh Muzaffarning tasvir va xattotlik sohasida o'ziga xos original iste'dodga ega bo'lganini, o'z davrining mohir musavvirlaridan bo'lganligidan dalolat beradi.

Badiuzzamon Mirzo. Nasta'liq va boshqa xatlar ustasi: temuriyzoda sulton Husayn Boyqaroning katta o'g'li, Seiston va Balx (1495-1505) hokimi. Alisher Navoiyning muxlisi va shogirdi. Otasidan keyin taxtga ega bo'lgan (1506) bo'lsa-da, bir-yildan so'ngra ko'chmanchi o'zbeklar xoni Shayboniyxon tomonidan mulki olinib, Eron ahllari bilan Tabrizga ketadi. Turkiya Sultonı Salim Tabrizni 1514-yil istilo etganda uni Istanbulga olib ketadi. Keyinroq 1517-yilda o'sha yerda vafot etadi. Badiuzzamon yaxshigina xattot va musavvir bo'lgan. Navoiy "Majolisun nafois" usarida uning to'g'risida shunday yozadi: "Badiuzzamon Mirzo husin surat va husni siyrat bila orasta, jamoli zohiriy va kamoli botiniy bila piyrosti yigitdur".

Sulton Muhammad. Naqqosh va musavvirlilikni Sulton Husayn zamonida egalladi. Sulton Husayn vafotidan so'ng mamlakatda besarishtalik avj olgach, u Tabrizga ko'chadi. U yerda Sulton Muhammad Hirot tasviriy san'at mакtabida olgan bilimlari asosida qator shogirdlar yetishtirdi. O'g'li Ustod Mahdi Haraviy va Shoh Ismolning o'g'li tahmosi shulur jumlasidandir. Behzod vafotidan so'ng Tabrizda uning tasviriy san'atdagi an'analarini davom ettirdi. naqqoshlik va tasvirda o'z ustozi Behzod uslubiga sodiq qoldi. Afg'on olimi Ali Ahmad Naimning yozishiga qaraganda, Sulton Muhammad XVI asrning so'nggi choragida vafot etgan. Sulton Muhammad qo'li bilan chizilgan suratlarni ko'zdan kechirar ekanmiz, ularda Hirot tasviriy san'at maktabiga xos belgilarni ko'ramiz.

Mavlono muzaffar Ali naqqosh. Tabrizlik. Ustod Behzodning

jiyani (singlisining o‘g‘li) Mavlono Haydar Alining o‘g‘li. Naqqoshlar to‘g‘risidagi tazkira muallifi Sodiqiy kitobdor naqqoshlik musavvirlilikni shu Mavlono Muzaffar Alidan o‘rgangan. Shoh Taxmosi Muzaffar Alining ishlarini Behzodnikidan ustun qo‘yar edi. Mavlono Mir Ali va Mavlono Sultonali singari yozuv ustodlarining qit‘alarini ko‘chirganda ularning yozuvidan hech bir farq qilmas edi. Sodiqiy kitobdorning yozishiga ko‘ra, u satranjni g‘oyibona ham mohirlik bilan o‘ynar ekan. Kazvinda vafot etgan. Ustod Kamoliddin Behzod yaratgan badiiy tasvir maktabi an’analari O‘zbekistonda bir hayotligi nihoyatda quvonarli hodisadir. O‘zbek musavvirlarining yangi asarlarini jahonning yirik san’ati xazinalarida ko‘rish mumkin.

Mavzuga oid tayanch iboralar

Amir Temur, Shohruh Mirzo, Ulug‘bek, Boysunqur Mirzo, Sulton Xusayn, Bobur Mirzo “Tuzukot Baxruddin Naqshband (vafoti 1389), Xoja Xofiz Sheroziy (vafoti 1389), Xoja Kamol Xo‘jandi (vafoti 1391), Allomai Taftazoniy (vafoti 1392) Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, Muhammad Ali Qushchi, Muhammad Xavofiylar, Ulug‘bek akademiyasi, Muarrix Davlatshoh Samarcandiy, Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”, Xofizi Abro‘ning “Zubdat at-tavorix”, Sharofiddan Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Fosih Xavofiyning “Mujmali Fashiy”, Abdurazzoq Samarcandiyning “Matla sa’dayn va majmai baxrayn” (“Ikki saodatli yulduzning chiqishi o‘rni va ikki azim daryoning quyilish joyi”), Ibn Arabshoxding “Amir Temur tarixi” («Ajoib al-makdur fi tarixi. Taymur»), Riyosiddin Alining “Amir Temurning Hindistonga qilgan g‘azo urushi”, Mirxonning yetti jildli “Rav-zat us-safo” (“Poklik bog‘i”), Xondamirning “Makorimul axloq”, “Xabib as-siyar”, Rui Gonsales de Klavixo, Shamsiddin, Abdulhay, Muhammad Nur, Shayx Turoni, Abdulla Xiraviy, Ustoz Gung, Ustoz Jahongir, Pir Sayid Axad Bog‘ishamoliy, Ahmad Naqqosh, Hattot Ja‘far Tabriziy, Mavlono Xalil, G‘iyosiddin Naqqosh, Ma‘ruf Bog‘dodiy, Lutfiyning “Gul va Navro‘z”, “Zafarnoma”, Xaydar Xorazmiyning “Maxzunul asror” (“Sirlar xazinasi”), Durbekning “Yusuf va Zulayxo” asarlari, Atoiy, Gadoiy va Sakkokiylarning “Xazoinul ma’oniy”, “Muhokamatul lug‘atayn” (“Ikki til bahsi”), “Majolisun nafois” (“Nafis majlislar”) nasriy asarlari.

Mavzu bo‘yicha takrorlash uchun savollar

1. Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan va madaniyatning quysi sohalari taraqqiy etgan edi?
2. Ulug‘bek – buyuk olim, ilm-fan rahnamosi sifatidagi faoliyati?
3. Temuriylar davrida tarixshunoslik, xattotlik, tasviriy san’at va musiqa san’atining rivoji haqidagi fikringiz?
4. Temur va temuriylar davri badiiy adabiyot namoyandalari to‘g‘risidagi tushunchangiz?
5. Temuriy davrida miniatyura san’atining shakllanishi va namoyandalari?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008-yil.
2. Mo‘minov I. Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli. –T.: Fan, 1993-yil.
3. Muhammadjonov A. Amir Temur (risola). – T.: Abu Matbuot-Konsalt, 2011-yil.
4. Muhammadjonov A. O‘zbekiston tarixi. – T.: G‘Gulom nashriyoti, 2004-yil.
5. Muhammadjonov A. Temur va Temuriylar sultanati. – T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1994-yil.
6. Qo‘ziyev T. Behzod va tamaddun. – T.: 2000-yil.
7. Ravshanov P. Amir Temur sulolasi. – T.: Yangi asr avlod, 2015-yil.
8. Shamsutdinov R., Mo‘minov X. O‘zbekiston tarixi. –T.: Sharq, 2013-yil.
9. Temur va Ulug‘bek davri tarixi. – T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1996-yil.
10. Usmonov B. Amir Temur davlati (siyosiy va harbiy tarix masalalari). –T.: Adabiyot uchqunlari, 2016-yil.
11. Usmonov O., Madraimov A. Kamoliddin Behzod. – T.: 2000-yil.
12. Uvatov U. Sohibqiron Arab muarrihlari nigohida. – T.: Sharq, 1997-yil.

MAVZU: XVI-XIX ASRLAR MADANIYATI

Reja:

1. Ijtimoiy-madaniy hayot va uning asosiy xususiyatlari.
2. Falsafiy tafakkur va tarix fanlari rivoji.
3. Adabiy-badiiy jarayon.
4. Me'morlik va musiqa madaniyati.
5. Markaziy Osiyo hududidagi uch xonlik va madaniy hayot.

Mavzuning o'quv maqsadi: Talabalarga XVI-XIX asrlarda o'zbek xonliklari davrida ijtimoiy-madaniy hayot va uning asosiy xususiyatlari, tarix fanlari rivoji, adabiy-badiiy jarayon, me'morchilik va musiqa san'ati taraqqiyoti haqida ma'lumot berish.

XV asr oxirlariga kelib temuriyzodalarning o'zaro taxt talashishlari Xuroson va Movarounnahr ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Siyosiy tanglik avj olib, madaniy hayot izdan chiqdi. Dehqonchilik, savdo-sotiq va boshqa hududlar bilan bo'ladigan madaniy aloqalarga putur yetdi. Movarounnahr mayda hokimliklarga bo'linib ketdi. Temuriyzodalar hokimiyatni qo'lga kiritish uchun Dashti Qipchoqda hukmronlik qilayotgan ko'chmanchi o'zbek va mo'g'ul xonlariga murojaat qila boshiadilar.

Iqtisodiy va siyosiy tanglik ko'pdan beri Movarounnahrga ko'z olaytirib turgan ko'chmanchi o'zbek xonlari, dastlab Abulxayrxonga, so'ngra uning nabirasi Muhammad Shayboniyxonga qo'l keldi. Abulxayrxon temuriyzoda Abusaidga Samarqand tojini qo'lga kiritishga yordam bergen bo'lsa, Muhammad Shayboniyxon Sulton Ali Mirzoga yordam berish bahonasida uni qatl ettirib, Samarqand taxtini egalladi va Bobur Mirzo kuchlarini mag'lub etib, Movarounnahrning yagona hukmdori bo'lib oldi. 1507-yili Hirot taxtini egallab, yirik Shayboniylar imperiyasiga asos soldi.

Muhammad Shayboniyxon o'z davlatini mustahkmalab olgach,

mamlakatning iqtisodiy hayotini yaxshilashga, uni ichidan mustahkamlashga qaratilgan bir qator islohotlar o'tkazdi. Dehqonchilikning rivojlanishiga yordam beruvchi yer to'g'risida, vaqf masalalari bo'yicha bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirdi. O'zaro taxt talashishlar natijasida tinch joylarni izlab, o'z yerlarini tashlab ketgan kishilarning qarovsiz yerlarini masjidlar, madrasalarga vaqf mulki sifatida berdi. 1502-yilda Zarafshon vohasida qaqrab va qarovsiz yotgan yerlarda dehqonchilikni rivojlantirish maqsadida Ko'hak (Zarafshon) daryosiga suv-ayirgich va ko'prik qurdiradi. Mamlakatning ichki birligini mustahkamlash uchun 1507-yilda barcha hududiy hukmdorlar zarb qildirayotgan pullarni bekor qilib, pul islohotini amalga oshiradi. Bu esa savdo-sotiqning rivojlanishiga, mamlakat siyosiy-iqtisodiy mavqeyining oshuviga yordam beradi.

Bu davrda to'qimachilik, kulolchilik, duradgorlik, metallga ishlov berish, qog'oz va mato ishlab chiqarish taraqqiy etdi. Shuningdek, xalq amaliy san'atining yog'och, tosh, metall o'ymakorligi, kandakorlik, naqqoshlik, xattotlik rivoj topdi. Samarqandda yuqori sifatli qog'oz ishlab chiqarish yanada yuksaldi. Ipak qog'ozni deb ataluvchi oliy nav qog'ozlar asosan ipak paxtadan aralashtirib tayyorlangan. Samarqandlik usta Miribrohim "Sultoniy" va "Miribrohimiy" nomli qog'ozlarni ishlab chiqarish bilan mashhur bo'lgan.

Samarqand qog'ozlarining keng ko'lamda ishlab chiqarilishi kitobat san'atining taraqqiy etishiga, o'z navbatida, Movarounnahrning ko'pgina madaniy jihatdan yuksalgan shaharlaridagi madrasalar qoshida hamda boy-badavlat kishilar tomonidan tashkil etilgan kutubxonalarning ko'payishiga olib keldi. Bu kutubxonalarda nodir qo'lyozmalar bilan birga tarix, tilshunoslik, adabiyot, geografiya, falsafa, mantiq, fiqhshunoslik, notiqlik, tibbiyot, matematika, astronomiya kabi ko'plab fan sohalariga oid kitoblar to'plangan.

XVI asrdan boshlab Shayboniy hukmdorlar, ayniqsa, Abdullaxon Soniy savdo-sotiqning rivojlanishiga alohida e'tibor berdi. Hindiston, Xitoy, Eron, Rusiya va boshqa davlatlar bilan savdo-sotiq aloqalari rivojlandi. Movarounnahrda ishlab chiqarilgan to'qimachilik buyumlari, ayniqsa, ip va ipak gazlamalar, kimxob, gilam, metall buyumlar savdo-sotiqning asosiy manbayi hisoblangan.

Shayboniyalar davri madaniyatining rivojiga bevosita sulola va killarining o'zlarini sezilarli ta'sir ko'rsatdilar. Chunki sulolaning Mu-

hammad Shayboniy, Ubaydullaxon, Rustam Sulton, Abdulazizzxon, Abdullaxon Soniy va boshqa hukmdorlarining o‘zlari o‘qimishli kishiilar bo‘lishib, hatto she’riyatda qalam tebratganlar. Tarixiy ma’lu-motlarga ko‘ra, Ubaydullaxon musiqa asboblarida kuy chalishning ustasi, nozikhusnixat sohibi bo‘lgan. Shu boisdan Abdulazizzxon va Abdullaxonlar o‘z davrining yetuk kutubxonalarini tashkil etganlar. Kutubxonalar qoshida qo‘lyozma asarlardan nusxa ko‘chiruvchi, es-kilarini ta‘mirlovchi xattotlar va ustalar faoliyat ko‘rsatganlar.

Bu davr madaniyatining asosiy xususiyati – diniy mafkuraning davlat mafkurasiga aylanganligidir. Shu boisdan diniy mafkura-chilarni tayyorlovchi diniy madrasalar faoliyatiga alohida e’tibor bilan qaralgan. Movarounnahrning ko‘pgina shaharlarida (masalan, Buxoro, Samarqand, Toshkent va boshqa shaharlarida) yangi madrasalar buniyod etildi. Mazkur madrasalarda nafaqat sof teologik fanlar o‘qitilgan, balki axloqshunoslik, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarix, matematika, astronomiyaga oid fanlar ham o‘qitilgan.

Taxt tepasiga kelgan hukmdorlar izdan chiqib borayotgan ma’naviy hayotni qaytadan izga solish, ma’naviy tanazzulning oldini olish maqsadida o‘sha davrda juda katta obro‘ga ega bo‘lgan shayxlarning yordamiga suyanishga majbur bo‘ladilar. O‘z navbatida, shayxlar mamlakatning siyosiy hayotiga bevosita o‘z ta’sirini ko‘rsata boshlaydilar. Masalan, Juybor qishlog‘ilik mashhur shayxlar shayboniyalar davrida ham, ashtarxoniyalar davrida ham jamiyatning ma’naviy hayotini o‘z qo‘llariga oldilar.

XVI asrdan boshlab madaniy taraqqiyot, ilm-fan, adabiyot va san’atning rivoji nafaqat umumjahon, balki mintaqaga darajasidan ham pastga tusha boshlaganligi ko‘zga tashlanadi. Mutaassiblikka yuz tutgan dinning ma’naviy hayotga ko‘rsatadigan ta’siri natijasida madaniyat milliy mahdudlik qobig‘iga o‘rala boshladi. Natijada Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatining ta’sir doirasi toraya bordi. Shuningdek, bu davr madaniy taraqqiyotining susayishiga, eng avvalo, Shayboniyalarning qisqa muddatli bo‘lsa-da, o‘zaro taxt talashishlari ham ta’sir ko‘rsatdi. Natijada XVI asrdan boshlab Movarounnahr va Xuroson hududlarida faoliyat ko‘rsatayotgan ko‘pgina olimlar, shoirlar, san’atkorlar tinch joylarni izlab Eron va mo‘tadil siyosat yurgizayotgan Boburiylar huzuriga – Hindistonga yo‘l oladilar. Faqatgina Abdullaxon Soniy davriga kelib Movarounnahr madaniy

hayotida ijobjiy o'zgarishlar ro'y bera boshladi. Osoyishta hayotning boshlanganligi bilan birga, Boburiylar davlati bilan Movarounnahr o'rtaida madaniy aloqalarning yo'lga qo'yilishi bu rivojlanishning usosiy sabablaridan edi. Natijada Boburiylar huzuriga ketib qolgan, lekin hali o'z ona vatanlaridan butkul ko'ngil uza olmagan shoirlar, olimlar va san'atkorlar yana Movarounnahrga qaytib kela boshlaydilar.

Shayboniylar davri madaniyatining o'ziga xos xususiyatlardan biri –Shayboniylarning ko'chmanchi va yarimko'chmanchi hayot tarzining ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy hayotga ta'sir ko'rsatganligidir. Chunki bunday hayotga o'rgangan sulolalarda, biringchidan, ilm-ma'rifatning asosiy yadrosi (o'zagi) hisoblangan tabiiy fanlar rivojiga bo'lgan qiziqish yuqori darajada bo'lmaydi. Ikkinchidan, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi hayotdan o'troq hayotga o'tayotgan kimsalarda ko'proq yangi diniy e'tiqodga bo'lgan ixlos nihoyatda baland bo'ladi. Xuddi shuningdek, Shayboniy, so'ngra Ashtarxoniylar sulolalari hukmdorlarida ham islam diniga ixlos yuqori darajada bo'lgan. Shu boisdan ular Movarounnahr taxtiga o'tirganlaridan so'ng bu yerda hukmron mavqega ega bo'lgan sufiylik – Naqshbandiylik tariqatiga, uning talablari va qonunga kirgan "pir-murshid" tamoyiliga katta ixlos bilan qaradilar (bo'ysunadilar) va oxir-oqibat o'zlarining inon-ixtiyorlarini Juybor shayxlari qo'liga tutqazdilar.

Har bir davrda kishilar va jamiyat o'rtaсидаги ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-axloqiy vaziyatni barqarorlashtirib turuvchi ijtimoiy institutlar faoliyat ko'rsatib kelgan. Aynan islam dini XVI asrdan XIX asrning ikkinchi yarmigacha mazkur vazifani bajargan. Islam dini arboblari jamiyatdagи o'zaro nizolarni, oddiy xalq bilan yuqori tabaqa o'rtaсидаги kelishmovchiliklarni bartaraf etuvchi va barqarorlashtiruvchi asosiy kuch bo'lgan. Davlatni boshqarishda bevosita ishtirok etuvchi diniy arboblari, yirik-yirik yer egalari, mahalliy hokimlar, sarkardalar va boy-badavlat kishilar o'rtaida o'sha davrda tez-tez ro'y berib turadigan kelishmovchiliklar va nizolarni bartaraf etishib, sulolalar vakillarining o'zaro taxt talashishlarining oldini olishga harakat qildilar, ularni birlikka da'vat etdilar.

XVI asrdan boshlab sufizm (naqshbandiya tariqati)ning yirik vakillari davlatni boshqarishda faol ishtirok eta boshladilar. Natijada

davlatni boshqarishda katta kuchga ega bo'lgan shayx ul-islom (jamiyatni boshqarish me'yorlarini ishlab chiquvchi, boshqaruv organlari qarorlarining to'g'rilagini, avvalo, Qur'on, so'ngra hadislar bilan qiyoslovchi), mufti (diniy huquq va huquqiy masalalarga fatvo beruvchi) va bosh qozi (jinoyat va jazo masalalarini, ya'ni jinoiy ishlarni ajrim qiluvchi) kabi mansab egalari hukmdorlar (Shayboniyalar va Ashtarkoniylar)ning pirlari, hukmdorlar esa ularning muridlari hisoblangan.

Davlatni boshqarishda Buxoro yaqinidagi Juybor qishlog'ida istiqomat qiluvchi Muhammad Islom Jaloliddin Kosoniy (Mahmudi A'zam nomi bilan mashhur bo'lgan), Hoji Muhammadamin, Hoji Hoshimiyy, Abu Rahim, Tojiddin Hasan, Xoja Saad; Samarqandda istiqomat qilib jamiyat ma`naviy hayotida muhim rol o'ynagan Xoja Ahror Valiy (asli Toshkentda tug'ilgan) va uning nabirasi Bakirxo'jalari; XV asrning 80-yillarda Movarounnahrga kelib Xoja Ahror Valiyning izdoshi va muridi bo'lgan Mir Arab (asli Yamanda tug'ilgan va Movarounnahrga kelib, Turkistondagi Sayram shahrida yashagan) Abdulloh at-Arabi al-Yamanlilar katta ta'sir kuchiga ega bo'lganlar.

Ikkinci tomondan, naqshbandiyalar sufiylar (o'z davrida Yassaviylik ham, Kubroviylik ham) millat ajratmasdan mahalliy o'troq, ko'chmanchi va yarim-ko'chmanchi xalqlarning azaliy an'analari va turli diniy ibodat unsurlarining umumlashuvi hamda fors, arab va turkiy xalqiar madaniyatlarining o'zaro uyg'unlashib, hozirgi milliy madaniyatimizning shakllanishi hamda rivojlanishida muhim rol o'ynagan.

Falsafiy tafakkur va tarix fanlari rivoji. Bu davr madaniyatining xarakterli jihatlaridan biri o'tmish falsafiy merosini o'rganish, ilmiytabiiy bilimiarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish bilan cheklanganlik, falsafa va adabiyot orqali insonparvarlik g'oyalarini ilgari surish bo'lgan. Shayboniyalar va Ashtarkoniylar davri madaniyatining yana bir muhim xususiyati tarixnavislik fanining rivojlanganligidir. Buning boisi, birinchidan, millatning shakllanish jarayoni, milliy o'zlikni anglashga, ikkinchidan, o'zi mansub bo'lgan xalq, elat yoki urug'ning kelib chiqishi, ularning til, e'tiqod, ruhiyat birligi, xalq tarixida ro'y bergan hodisalarini yoritishga bo'lgan intilishning kuchaya borishi, boshqa urug'lar, elatlar bilan aloqasi va boshqa

jihatlarini bilishga, uchinchidan, milliy ong, milliy g'urur va millatparvarlikning shakllana borishi natijasidir. XVI asrdan boshlab Markaziy Osiyoda yashayotgan turli xalqlar, elatlar va urug'larning tarixini yorituvchi asarlar yaratish an'anaga aylana bordi. Masalan, Shayboniyalar davrida tarixga oid quyidagi asarlar vujudga keldi. Muallifi noma'lum bo'lgan "Tavorixi go'zidayi Nusratnoma", Mulla Shodiyoning "Fathnoma", Binoiy va Muhammad Solihlarning "Shayboniynoma"lari, Abdulloh Nasrullohiyning "Zubdat al-asom", Fayzulloh Ro'zbixonning "Mehmonnomai Buxoro", Zayniddin Vosifiyning "Badoye' ul-vaqoye", Hofizi Tanish Buxoriyning "Abdullahoma" va boshqa asarlari yozildi.

Ashtarxoniy hukmdorlardan Subhonqulixon davrida fan taraqqiyotida ozgina bo'lsa-da siljish ro'y berdi. Masalan, Mulla Tursun Faroziy, Mulla Ne'mat Samarqandiyalar matematika, astronomiya va geometriya bo'yicha, Abdulla Ofarinketiy, Ali Buxoriy, Mulla Rahmat Samarqandiyalar musiqashunoslik bo'yicha faoliyat ko'r-satdilar.

Subhonqulixon 1697-yilda Buxoroda 18 hujrali "Dorush-shifo" nomli madrasa-kasalxona qurdirdi. Bu maskan qoshida tashxisxona, dorixona, kutubxona va boshqa yordamchi binolar mavjud bo'lgan. "Dorush-shifo" xarajatlariga vaqf mulklaridan keladigan 40 ming tanga ajratilgan. Subhonqulixon o'z saroyiga tabiblarni yig'ib, tabobat borasida ilmiy anjumanlar tashkil etib turgan. Bu anjumanlarda o'sha davrda keng tarqalgan kasalliklar va ularni bartaraf etish yo'llari, tabobatga oid yangiliklar tinglangan. Subhonqulixonning o'zi tabobatga oid ikkita asar yozgan. Bu asarlar o'zbek tilida yozilgan bo'lib, ularning birinchisi "Subhon tibbiyoti" deb nomlangan va unda turli xil kasalliklarni aniqlash hamda davolash yo'llari tushunarli tarzda tasvirlab berilgan. Ikkinci asari 8 qismdan iborat bo'lib, "Subhonning hayotbaxsh tibbiyoti" deb yuritilgan. Asarning har bir qismida dorilarning sifatlari tayyorlanishi va ishlatilishiga oid masalalar yoritilgan. Uning o'zi bu xususda shunday deb yozadi: "O'tmishdagi tabiblar bizga arab va fors tillarida yozilgan asarlar qoldirganlar. Men turk (o'zbek) tilida yozilgan tibbiy kitob uchratmadim. Mahalliy aholi arab va fors tilida yozilgan kitoblardan foydalana olmaydi. Shuning uchun men o'z kitoblarimni turk (o'zbek) tilida yozdimki, undan o'zimizning

odamlar foydalansinlar”.

Xullas, bu davrda Markaziy Osiyoda istiqomat qilgan turli xil etnik guruhlarning kelib chiqishi, tili, urf-odatlari, moddiy hayot shart-sharoitlari hamda taxt tepasida turgan hukmdorlar sulolalari, ularning davlat tepasiga kelishi, zafarli yurishlari va taqdiri haqidagi turli xil tarixiy asarlar yuzaga keldi.

Adabiy-badiiy jarayon. Bu davr adabiyotining asosiy xususiyati adabiy jarayonda o’sha davr hukmdorlari ta’sirining sezilib turganligi bilan xarakterlanadi. Hukmdorlarning o’zлari she’riy, nasriy va tarixiy asarlar yaratishga bo’lgan intilishlari bilan ko’zga tashlanib turganlar. Bu holat Shayboniyalar, Ashtarkoniylar, va hatto, rus istilosigacha bo’lgan hukmdorlarning deyarli barchasiga xos bo’lgan xususiyatdir. Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon, Abdulazizzon, Subhon-qulixon, Abulg’ozixon, Qo’qon xoni Umarxon, Xivaning so’nggi xonlaridan Muhammad Rahimxon (Feruz) va boshqalarning she’riyat, nasr va tarix sohalarida qalam tebratganlari fikrimizning dalilidir. She’riyatda qalam tebratgan hukmdorlardan biri Muhammad Shayboniyxonning o’zidir. U o’z umrining ko’p qismini jangu jadalda o’tkazsa-da, ilm-fan va san’atga qiziqishi ancha baland bo’lgan. U yaxshi ta’lim-tarbiya olgan. Natijada iste’dodli shoir, musavvir, mu-siqachi va xushovoz qiroatxon bo’lgan.

Shayboniyalar sulolasining yana bir vakili Ubaydullaxon ham ilm-fan adabiyot va san’atga qiziquvchi hukmdorlardan biri bo’lgan. U “Ubaydiy” taxallusi bilan o’zbek va fors tillarida ijod etgan. Asosan g’azallar, ruboiylar va qit’alar bitgan. Ubaydullaxonning o’g’li Abdulazizzon ham “Aziziy” taxallusi bilan g’azallar yozgan. Abdulazizzon o’z saroyida Hofiz Sulton Ali Ubaxiy, Vosify, Baqoiy, Majlisiy, Kavkabiy, Surudiy, Shaydo kabi shoirlar va san’atkorlarni to’playdi, ularga ko’plab iltifotlar ko’rsatadi. U o’z saroyida shoirlar bilan muntazam ravishda mushoiralar o’tkazib turadi. Shuningdek, Abdulazizzon mamlakat obodonchiligi yo’llida ko’plab qurilishlarni amalga oshiradi, me’moriy binolar qurdirib o’z saroyi qoshida yirik kutubxona tashkil ettiradi.

Shayboniylardan keyingi davrda taxt tepasiga kelgan Ashtarkoniylar ham o’z davrining o’qimishli va yetuk kishilari bo’lganlar. Ularning ko’pchiligi uch tilni (turk, fors va arab tillarini) mukammal bilganlar. Dunyoviy va diniy ilmlarni egallaganlar. Imomqulixon,

Nazarmuhammadxon, Abdulazizzon, Subhonqulixon she'riyatda qalam tebratganlar. Masalan, Subhonqulixon Nishoniy taxallusi bilan she'r bitgan. Imomqulixon yetuk siyosatchi, insonparvar va ra'iyat-parvar bo'lganligi uchun ham 30-yildan oshiqroq hukmdorlik qilgan. Uning davrida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy barqarorlik vujudga kelgan. Imomqulixon chiqarilgan qonun va farmoyishlarning bajarilishini nazorat qilib borgan.

Shunga qaramasdan, Ashtarxoniylar davrida mamlakatni holdan toydiruvchi o'zaro taxt talashishlar, beklar va boylar o'rtasidagi ixtiloflar davom etgan. Xalqning o'zaro kurashlardan qiynalayotganligini ko'rgan ijod ahllari, masalan, Turdi (Farog'iy), Boborahim Mashrablar o'z asarlarida hukmdorlar, beklar, sultonlar va ayrim din rahnamolarini qattiq tanqid ostiga oлган. Chunki ularga nisbatan xalqda ishonch qolmagan edi. Ular diyonat, insof, adolat va xalqparvarlikdan uzoqlasha boshlagan edilar. Ma'lumki, qayerda diyonat, imon-e'tiqod, adolat hukm surarkan, o'sha joyda el hukmdordan xur-sand, o'sha yerning shoirlari hukmdorlar madhida bo'lgan, xalqning turmushi, ijtimoiy munosabatlar va hodisalar, botiniy va zohiriy ishqning kuychisiga aylangan. O'zaro nizolar esa xalqni hayotdan bezdiradi. Tarafkashlik kuchayadi. Tinch va osuda hayot, ra'iyat-parvar hukmdorlar xalqning orzusiga aylanadi. Shu boisdan Turdi o'z asarlarida mamlakatni parchalab, boylik toplashga intilayotgan yuqori tabaqa vakillarini tanqid ostiga oladi.

Jamiyat hayotining taqdiri butunlay ruhoniylar qo'liga o'tgach, ya'ni XVII asr oxiridan boshlab Markaziy Osiyo madaniyatida tush-kunlik kayfiyatları kuchaydi. Tasavvuf ta'limotining ildizlari jamiyat ma'naviy hayotining ko'pgina sohalariga chuqurroq kirib bordi. Ayniqsa, tasavvufning qalandarlik oqimining ta'siri kuchaydi. Qalandarlar tasavvuf ta'limotini yoyishning qudratlil vositasiga aylandilar. Ular nafaqat diniy ta'limotni, balki tarki dunyochilikni targ'ib qilishni ham asosiy vositasiga aylanganlar. Shuningdek, ular devonalik yo'li orqali adolatsizlikka qarshi kurashganlar ham.

Umuman olganda, bu davr abadiy jarayonida bir tomonidan ko'proq botiniy va zohiriy ishq-muhabbatni kuylash ko'zga yaqqolroq tash-lansa, ikkinchi tomonidan, riyokor dindorlar, ochko'z boylar, boylik toplashga intiluvchi beklar tanqid ostiga olinadi, uchinchi tomonidan esa, inson qismati taqdirning azaliy hukmi ekanligi g'oyasi ilgari su-

riladi. Ham Shayboniyalar, ham Ashtarkoniylar o‘z saroylari qoshida ko‘plab san’atkorlarni to‘plab, ularga homiylik qilganlar. Natijada nafaqat she’riyat va me’morlik san’atlari, balki musiqa san’ati ham taraqqiy etadi. Ikkala sulola hukmronligi davrida mohir sozanda va xonandalar, shoir-bastakorlardan Mavlono Kavkabiy, Mavlono Rizo, Mavlono Pirmuhammad Kulol, Ali Do’st Noiy, Amir Ali Akbar Samrqandiy, Amir Masti Kobuziy va boshqalar xalq orasida mashhur bo‘lgan.

XVI-XVII asrlarda yashagan Mavlono Kavkabiy va Darvesh Ali Changiylar musiqashunoslikka oid asarlar yaratishib, kuy va qo‘shiq, ularning turlari hamda shakllari masalasini yoritib berdilar. Masalan, Hasan Xoja Nisoriyning yozishicha, “Va mullo Kavkabiy musiqa sohasida Ubaydullaxon nomiga bir risola tasnif etib, unda ta’rif va iyko‘ haqida so‘z yuritgan, hajm, jinslar bahsini ham keltirib, yettita bo‘lgan birinchi tabaqa zarbidan va o‘n uchta bo‘lgan ikkinchi tabaqa zarbidan hosil bo‘luvchi 12 maqomni 6 ovozda nazm qilib, manzumaga kulliyot bog‘langankim. musanniflar bir ovozdan bu dilkash amalga tahsinlar aytib kelmoqdalar”. Kavkabiy maqom yo‘llari va musiqaning nazariy tomonlarini yoritib bergen.

Me’morlik va musiqa madaniyati. Shayboniyalar davrida nafaqat hukmdorlar, balki o‘z davrining ko‘zga ko‘ringan va katta moddiy imkoniyatga ega bo‘lgan shaxslari ham ko‘plab me’moriy yodgorliklar qurbanlar. Bu davrda Samarqandda Muhammad Shayboniyxon qurdirgan Xoniya, Abu Said nomli madrasalar, Buxoroda shahar devonining ta’mirlanishi, Mir Arab (Ubaydullaxon qurdirgan), Abdullaxon, Modarixon (Abdullaxon o‘z onasiga atab qurdirgan). Govkushon, Fatxulla Qushbegi, Muhammad Xoja Porso, Juybor, Ko‘kaldosh, Qulbobo madrasalari, Kalon, Xoja Zayniddin. Baland, Chor Bakr, Abdullaxon masjidlari, toqi Sarrafon, toqi Zargaron, toqi Urdfurushon, toqi Tirgaron, toqi Telpakfurushon kabi beshta toqlar, Abdullaxon timi, Toshkentda Ko‘kaldosh va Baroqxon madrasalari, Kaffoli Shoshiy maqbarasi, Turkistonda Muhammad Shayboniyxon masjidi, Balxda Abdullaxon va Quibobo Ko‘kaldosh madrasalari hamda boshqa me’moriy yodgorliklar qurilgan.

Ashtarkoniylar davri ham ko‘plab me’moriy yodgorliklarning bunyod etilganligi bilan ajralib turadi. Bu davrda Buxoroda Abdulazizzon, Ubaydullaxon madrasalari, Boqi Muhammad va

Ulbaydullaxon masjidlari, Subhonqulixon qurdirgan kasalxona, madrasa, Balx shahrida Nazar Muhammad va Subhonqulixon madrasalari, qator chorborg‘lar, Mozori Sharifda Hazrat Ali qabridagi yumbaz va boshqa binolar barpo etiladi. Albatta, Ashtarxoniyilar davrida ham o‘ziga to‘q kishilar, amirlar, amaldorlar ham o‘zlarining mablag‘lariga ko‘plab me’moriy yodgorliklar qurdirganlar. Masalan, XVII asrda Xivada Arab Muhammadxon, Xojamberdi, Sherg‘ozixon madrasalari qurilgan bo‘lsa, Buxoroda Poyandibiy otaliq masjidi, Shodimbek, Nazrdevonbegi madrasalari, Bozori Gusfand madrasasi, Samarqandda Amir Yalangto‘shbiy tomonidan Registon maydonida Sherdor va Tillakori madrasalari bunyod etilgan.

Bunday ulug‘vor va hashamatli binolar hukmdorning qudratidan dalolat berishini, ularning nomlarini abadiylashtirishning eng maqbul yo‘li ekanligini anglab yetganlar. Shuning uchun ham Shayboniy hukmdorlar bir tomondan nafaqat Buxoro, balki o‘zları bosib olgan boshqa shaharlarda ham ko‘plab madrasalar, masjidlar va xonaqohlar qurdirgan bo‘lsalar, ikkinchi tomondan, o‘zidan oldin yetti iqlimni bo‘ysundirib o‘zining qudratini namoyish qilgan Amir Temurga g‘ayrlik bilan qaraganlar va Temur tomonidan bunyod etilgan eng hashamatli va ulug‘vorlikda boshqa me’moriy yodgorliklardan ustun bo‘lgan “Oqsaroy”ni vayron qilishga harakat qilganlar “Oqsaroy”ni XVI asrdayoq Shayboniyalar xonadoniga mansub yangi hukmdorlar nafaqat a’lo sifatli g‘ishti uchun, balki saroy bunyodkorining ulug‘vor xotirasini unittirish uchun ham buzib tashladilar.

Xulosa qilib aytganda, temuriylar davridan keyingi madaniy hayotda adabiy-badiiy jarayon sezilarli darajada rivojlanishda davom etdi. Lekin hayotning barcha sohalarini qamrab olgan mutanosiblik ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyotiga, ayniqsa, aniq fanlar taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Shuningdek, diniy mutaassiblik ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyotiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Natijada moddiy va ma’naviy boyliklar ishlab chiqarish oldingi davrlar – ilk Uyg‘onish va temuriyar davriga nisbatan birmuncha sust rivojlangan. Aholining ilm-fanga bo‘lgan qiziqishi ham, ilmiy tafakkur taraqqiyoti ham bir qadar susaya borgan. Bu davr madaniyatining xarakterli xususiyati o‘zligini anglashga bo‘lgan intilishning kuchaya borganligi bilan xarakterlanadi. Natijada tarix fani taraqqiy etdi, hukmdorlarning nomlarini abadiylashtirishga

bo'lgan intilishlari esa me'morchilikning rivojiga olib keldi.

Markaziy Osiyo hududidagi uch xonlik va madaniy hayot. XVIIasrning birinchi yarmiga kelib Markaziy Osiyo hududida uchta yangi davlat: Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklari vujudga keldi. O'rta asrlarda butun dunyo madaniyati va ma'naviy hayotiga o'zining muhrini bosa olgan hududlarda iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayot butunlay izdan chiqqa boshladi. Bu uchala davlatda ham beqarorlik, o'zaro yakdillikka rahna solindi. Jaholatparastlik kuchaydi. Fan va madaniyatga bo'lgan e'tibor susayib, o'zaro iqtisodiy, madaniy va savdo-sotiq aloqalari izdan chiqqa boshladi.

XVIIIasr madaniyatining asosiy xususiyati – ma'naviy hayotida o'ta tushkun kayfiyatning hukmronlik qilishidir. Bu davrda tabiiy fanlar rivoji uchun barcha yo'llar berkitib qo'yilgan, hukmdorlar ruhiyatiga zid keladigan barcha g'oyalar va qarashlarga keskin zarba berilgan. Mintaqalarda madaniy hayotida muhim rol o'ynagan buyuk karvon yo'llarining ahamiyati ham ancha susaygan edi. Din va davlatning kuchi bir joyga birlashtirildi. Shu boisdan endigina shakllanayotgan demokratik fikrlar ana shu qudratli kuch oldida ojizlik qilib qoldi. Jamiatning yakka mafkuraviy hukmroni hisoblangan din jamiatning moddiy va ma'naviy taraqqiyotiga, uchala xonlikda istiqomat qiluvchi xalqning yakdilligiga to'sqinlik qildi.

Budavr madaniyatining asosiy tomonlaridan yana biri – xalq og'zaki ijodi va xalq tomosha san'atining rivojlanganligidir. Bu davrda xalq baxshilari, sozanda va xonandalari, qiziqchilari va masxarabozlari xalq tomonidan yaratilgan ko'plab hikoyalar, rivoyatlar, dostonlar, masallar va matallarning haqiqiy targ'ibotchilariga aylandilar. Bu davrda "Yusuf va Zulayho", "Tohir va Zuhra", "Bo'z o'g'lon", "Yusuf va Ahmad" kabi dostonlar vujudga kelgan bo'lsa, "Alpomish" va "Go'ro'g'li" dostonlarining ko'plab variantlari yaratila boshlandi. Qiziqchi va masxarabozlar hamda qo'g'irchoqbozlar esa xalqning nochor ahvolini tasvirlovchi sahna ko'rinishiarini, hukmdorlar, boylar va ularning gumashtalari munofiqqliklarini fosh etuvchi kichik-kichik asarlarni namoyish qildilar.

Umuman olganda, xalq og'zaki ijodi va tomosha san'ati targ'ibotchilarini hisoblangan baxshilar va san'atkorlar o'zlarining ijodlari hamda tomoshalari bilan uchala xonlikda istiqomat qiluvchi, yagona diniy e'tiqodga, turmush tarzi va ma'naviyat qadriyatlariga

ega boʻlgan elatlarning boshini bir joyga qovushtirishga va milliy oʻzligini anglatishga xizmat qildilar.

XVIII asr va XIX asrning birinchi yarmida adabiy jarayon quyidagi uch yoʻnalishda mavjud boʻlganligini koʼrish mumkin. Birinchi yoʻnalish saroy adabiyoti doirasidagi, ikkinchi yoʻnalish unga qarama-qarshi yoʻnalishdagi va uchinchi yoʻnalish – bu azaliy anʼanalarga sodiq qolgan va uning rivojlanishiga ulkan hissa qoʼshgan ijodkorlarning faoliyati shaklidagi adabiy jarayondir.

Birinchi yoʻnalishda ijod qilgan shoirlar asosan hukmdor va yirik mulk egalarining madhi bilan shugʼullanganlar. Ikkinciyoʻnalishda ijod qilgan shoirlar esa oʼz asarlarida koʼproq xalqni talash evaziga boylik orttirayotgan, elga zulm oʼtkazayotgan amaldor va boylarni tanqid ostiga olganlar. Xalqning ularga boʻlgan noroziliklari hamda gʼazabini tasvirlaganlar. Masalan, bu davrda ijod etgan Muhammad Sharif Gulxaniy, Maxmur, Gʼoziy kabilarning asarlari xalqning nochor ahvoli, boy-badavlat kishilar, amaldorlar, riyokor nihoniylarning qilmishlarini tasvirlab beradi.

Uchinchi yoʻnalish – azaliy anʼanalarni davom ettirgan ijodkorlar oʼz asarları orqali oʼtgan asrlar davomida shakllanib va rivojlanib kelayotgan poetik ijodning hali nomaʼlum boʻlgan qirralariga qoʼl urib, oʼzlarining lirk gʼazallari bilan inson ruhiy kechimmalarining sahifalarini ochib beradilar. Bu anʼanaga sodiq qolgan shoirlar har uchala xonlik hududida oʼziga xos ijodiy-badiiy jarayonni vujudga keltira olganlar. Bu davrda Qoʼqon xonligida Amiriyl taxallusi bilan gʼazallar bitgan Qoʼqon xoni Umarxon, uning rafiqasi, Nodira taxallusi bilan ijod qilgan Mohlaroyim, shuningdek, oʼz davrining mashhur shoirlari sanalgan Uvaysiy, Mahzuna, Maxmur, Mushtariy, Fazliy Namangoniy kabilalar ijod etganlar. Buxoro amirligi hududida esa “Malik ush-shuaro” nomini olgan Mushfiqiy, Shahrисабзда ijod qilgan Xiromiy oʼz davrining yirik isteʼdod egalari boʻlganlar. Xiva xonligida Munis Xorazmiy va Ogahiylar mashhurlikda tengsiz shoirlar edi. Munis nafaqat oʼzining lirk gʼazallari bilan dovrugʼ taratgan, balki hokimiyat uchun kurashib, xalq boshiga ogʼir kunlarni solayotgan, koʼplab kulfatlarning sababchilari boʻlgan hukmdortar va boylarni tanqid ostiga olgan. Ogahiy sheʼriyati esa oʼzining xalqchilligi, fikrlar nafisligi va hayotiyligi bilan ajralib turadi.

Bundan tashqari, Ogahiy tarixchi olim sifatida ham mashhur

bo‘lgan. U XIX asrda Xiva xonligi va uning atrofidagi davlatlar tarixini yoritib beruvchi “Zubdat ut-tavorix”, “Riyoz ud-davla”, “Jomiy ul-voqeoti Sultoniy” nomli asarlar yozgan. Shuningdek, Ogahiy ko‘plab tarixiy asarlar, masalan, Muhammad Mahdixonning “Nodirnoma”, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Muhammad Mun-Yusuf Munshiyning “Tazkirai Muqimxoniy”, Nizomiddin Ahmad Xiraviyning “Tabaqoti Akbarshohiy”, Rizoqulixon Hidoyatning “Ravzat us-safoi Nosiriy” kabi asarlarini, Nizomiy Ganjaviyning “Haft paykar”, Sa`diy Sherioziyning “Guliston”, Xusrav Dehlaviyning “Hasht bihisht”, Abdurahmon Jomiyning “Yusuf va Zulayho”, “Solomon va Ibsol”, “Bahoriston”, Badriddin Hiloliyning “Shohu gado”, Vosifiyning “Badoye’ ul-vaqoye” asarlarini hamda falsafiy-axloqiy mavzudagi Kaykovusning “Qobusnoma”, Husayn Voiz Koshifiyning “Axloqi Muhsiniy” asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qildi.

Xulosa qilib aytganda, uchta xonlikning vujudga kelishi, eng avvalo, hududiy va milliy parchalanishning yaqqol namunasi bo‘lgan. O‘z navbatida, milliy parchalanish milliy yakdillikni yemirib, mahalliychilikning avj olishiga zamin hozirlab berdi. Milliy parchalanish XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab milliy va ma’naviy, iqtisodiy va siyosiy tanazzulni kuchaytirdi, davlatlarning iqtisodiy va harbiy qudratini yemirib tashladi. Milliy parokandalik Markaziy Osiyo xalqiarini Rossiya imperiyasiga iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy qaramlikka olib keldi.

Mavzuga oid tayanch iboralar

Bobur Mirzo, Muhammad Shayboniyxon, Abulkayrxon, Mir Arab, Ko‘kaldosh va Baroqxon madrasalari, “Yusuf va Zulayho”, “Tohir va Zuhra”, “Bo‘z o‘g‘lon”, “Yusuf va Ahmad” kabi dostonlar.

Mavzu bo‘ycha takrorlash uchun savollar

1. O‘zbek xonliklari davrida ijtimoiy-madaniy hayot va uning asosiy xususiyatlari nimalarda aks etgan?
2. Xonliklar davrida falsafiy tafakkur va tarix fanlari rivoji haqida tushunchangiz?
3. O‘zbek xonliklari davrida adabiy-badiiy jarayon va uning taraqqiyoti to‘g‘risidagi fikringiz?

4 Xonliklarda me'morlik sohasi va taraqqiyoti haqidagi tushunchangiz?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008-yil.
2. Mirziyoyev Sh. M. Ilm-fan yetuklari – taraqqiyotning bir omili // Xalq so'zi. 2016. 31 dekabr.
3. Azamat Ziyo O'zbek davlatchiligi tarixiy: (Eng qadimiy davrdan Rossiya bosqiniga qarshi). – T.: 2000-yil.
4. Zoxidov P. Memor olami. – T.: Qomus, 1996-y.
5. Sagdullayev A.S. Qadimgi O'rta Osiyo tarixiy. – T.: 2004-yil.
6. Sagdullayev AS, Mavlonov O'. O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixiy. –T.: 2006.
7. Oydinov N. O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhalar. T.: O'qituvchi, 1997-yil.
8. Eshov B.J. O'zbekiston davlatchiligi tarixiy. (o'quv qo'llanma). – T.: Ma'rifat, 2009-y.
9. O'zbekistondagi yangi tarixiy. 1, 2, 3-kitoblar. – T.: Sharq, 2000-y.
10. O'zbekiston davlatchiligi tarixiy ocherklari. Mas'ul muharrirlari D.A.Alimova., E.V.Rtvelodze. – T.: 2001-yil.
11. Haqqulov A. Ta'mir sanati. – T.: Mexnat, 1991-y.
12. Muhammadjonov A. O'zbekiston tarixi. – T.: G'Gulom nashriyoti, 2004-yil.
13. Muhammadjonov A. Temur va Temuriylar sultanati. – T.: Qomuslar bosh tahririysi, 1994-yil.
14. Quziyev T. Behzod va tamaddun. – T.: 2000-yil.
15. Ravshanov P. Amir Temur sulolasi. – T.: Yangi asr avlod, 2015-yil.
16. Shamsutdinov R., Mo'minov X. O'zbekiston tarixi. – T.: Sharq, 2013-yil.
17. Usmonov O., Madaraimov A. Kamoliddin Behzod. – T.: 2000-yil.

MAVZU: O'RTA OSIYO ROSSIYA IMPERIYASI TARKIBIDA: ME'MORCHILIK, MUSIQA, TASVIRIY SAN'AT, ILM-FAN RIVOJI

Reja:

1. Turkiston o'lkasida xalq maorifi va adabiy-ma'rifiy jarayon.
2. Ilm-fan va san'at rivoji.
3. Me'morchilik, badiiy hunarmandchilik va tasviriy san'at.
4. Turkiston o'lkasida jadidchilik harakati va siyosiy harakatlar.

Mavzuning o'quv maqsadi: Talabalarga O'rta Osiyo Rossiya imperiyasi tarkibida: me'morchilik, musiqa, tasviriy san'at, ilm-fan rivoji hamda o'lkada jadidchilik harakati va siyosiy jarayonlar haqida ma'lumotlar berish.

Rus bosqiniga qadar Turkistonda keng tarmoqli xalq maorifi o'choqlari: maktablar va madrasalar mavjud edi. Istilochilar ularning faoliyati bilan tanishib, mustamlakachilikning bundan keyingi taqdiri uchun o'sha maktab va madrasalarning g'oyatda xavfli ekanligini tushunib yetgandilar. Shu bois chorizm o'lkada ruslashtirish siyosatini ayni shu sohadan boshlab, bu soha bo'yicha o'z dasturini ishlab chiqadi. Ayniqsa bu sohada K.P.Kaufman jon kuydirib faoliyat ko'rsatgandi.

1866-yilda Toshkent Rossiya tomonidan bosib olinganidan bir-yil o'tgach, Toshkent shahrida birinchi rus maktabi ochildi, bundan keyin Turkistonning boshqa shaharlarda ham rus maktablari ochila boshladi. 1876-yildan e'tiboran Turkiston o'lkasidagi o'quv yurtlari boshqarmasi tuziladi, shu-yili Toshkentda erlar va xotin-qizlar progimnaziyalarining quyisi sinflari ochiladi. 1880-yili Imperiya Davlat Kengashining qarori bilan Turkistonni ruslashtirish siyosatining yangi bir jabhasi xalq maorifiga qaratildi. Kaufman kengashda Turkistonda ruslar bilan mahalliy millat bolalarini birgalikda

o'qitish masalasini ko'taradi. U musulmon va rus maktablarining aqralib turishi iqtisodiy va siyosiy jihatdan zararli deb hisobladi. Bu g'oyani Kaufmanning izdoshi general-leytenant N.O. Rozenbax (1884-1889) davom ettirib, ibridoiy turdag'i boshlang'ich maktablar rus-tuzem maktablari tarmog'ini yaratish loyihasini ishlab chiqdi. 1884-yilda Toshkentda birinchi rus-tuzem maktabi ochildi, ularning soni XIX asr oxirida yuzdan oshib ketdi. Bunday maktablarda o'quv kuni ikki qismidan iborat bo'lib, birinchi qismda ikki soatlik mashg'ulotni rus o'qituvchisi, ikkinchi qismda esa saboqni o'zbek muallimi olib borgan. O'quv-yili 125 kundan oshmagan. 1887-yilda rus-tuzem maktablari uchun umumiy tarzda tuzilgan dastur ishlab chiqilgan. Bu maktablar uchun darsliklar sistemasi ham bo'lмаган. O'zbek bolalarini rus tiliga o'rgatish metodlari tasodifiy xarakterda bo'lgan. Mana shular natijasida rus-tuzem maktablарини камдан-кам mahalliy millat vakillari bitirib chiqqanlar. Maktabni tamomlaganlar ruschan'i odatda ancha tez va ravon o'qiganlar, rus grammatikasiga doir biron bir qoidani ham yoddan aytib bera olganlar, lekin og'zaki so'zlashda qo'pol xatolar qilganlar.

XIX-asr oxiriga kelganda Turkiston o'lkasidagi rus-tuzem maktablari uchun darsliklar sistemasi tuzilgan. Bu sistema ko'rgazmali-o'zaki metod asosida tuzilgan edi. Lekin darslikdagi assosiy kamchilik shunda ediki, unda o'quvchilarining ona tili hisobga olimmagan edi. 1898-yilgi Andijon qo'zg'oloni Turkiston ma'murlarni musulmon ruhoniylariga extiyotlik bilan qarashga majbur etdi. Shu munosabat bilan Turkiston ma'murlari rus-tuzem maktablarining rolini ko'tarmoqchi bo'ldi. Bunda avvalo mahalliy o'quvchilar sinflariga e'tibor berila boshladi. Farg'on'a harbiy gubernatori N.I.Korolkov 1898-yilda imperatorga yo'llagan hisobotida podsho ma'muriyatining o'lkani ruslashtirish borasidagi dasturini bayon etib, tuzemetslarning o'z bolalarini ixtiyoriy rus-tuzem maktablariiga berishiga erishish muhimligiga e'tiborni qaratgan. Buning uchun u mahalliy ma'muriyat amaldorlariga yaqin besh-yil ichida ish yuritishni rus tiliga ko'chirtirish lozimligini uqtiradi. Korolkov bu tadbir mahalliy millat vakillarini mansabga qiziqib, farzandlarini rus-tuzem maktablariiga berish istagini uyg'otadi, deb hisoblagan. Bu g'oya o'z natijasini berib, rus-tuzem maktablari o'quvchilarini soni ko'payla boshladi. XIX-asr oxirida Turkistonda 100 dan ortiq rus-

tuzem maktablari bo'lib, xonliklar poytaxtlari Xivada (1891-yilda) va Buxoroda (1894-yilda) ham rus-tuzem maktablari ochildi.

Shaharlarda ochilgan bilim yurtlari ham ruslashtirishning muhim o'chog'i bo'lib hizmat qildi. Ular rus-tuzem maktablaridan internatlari bilan ajralib turgan. Internatlarda o'zbek, qirg'iz, qozoq bolalarining rus tengdoshlari bilan birga yashab, rus tilini yaxshi o'zlashtirayotgani mustamlakachilarga ayon bo'lgan. Shuning uchun ham Turkiston general-gubernatori M.G. Chernyaev (1882-1884) Chimkent shahar bilim yurtini kengaytirish uchun 100 ming rubl ajratgani va bilim yurtida o'qiyotgan xotin-qizlar uchun pul mukofoti ta'sis etgani bejiz emas.

Ammo rus amaldorlariga ruschani yaxshi bilgan va xalq ko'zini ochib g'aflat uyqusidan uyg'otadigan ziyyolilar kerak emas edi. Mustamlaka ma'muriyati Turkiston ziyyolilari katta mansabga erishsa, o'z xalqi uchun xizmat qilishlari va mustamlaka tartiblariga qarshi chiqishlari mumkinligidan xavfsirashgan. Shu boisdan ham mustamlaka ma'muriyati mahalliy millat vakillari orasidan etishib chiqqan oydin fikrli ziyyoliliarni doimo ta'qib etishga harakat qilgan. Mahalliy xalq manfaatlari yo'lida qayg'uradigan ilm odamlari, millatparvar kishilar mahalliy boshqaruvga umuman yaqinlashtirimagan. Bunday kimsalar savylovlarda g'olib bo'lsada, rus ma'muriyati tomonidan saylov natijalari bekor qilingan. Vaholanki, mustamlaka Turkistonida mahalliy maktab-madrasalarda saboq olgan, bilimli, savodli kishilar ham ko'p edi.

Rossiya davlati ma'murlarining Turkiston o'lkasida erli xalq vakillarini qorong'ulik va zulmatda saqlashga qaratilgan mustamlakachilik va zo'rlik siyosatiga qaramasdan XIX asrning oxiri XX asr boshlarida o'lkada milliy maorif, fan va madaniyat taraqqiyoti to'xtab qolgan emas. Ammo ushbu masalada ham sovet davri tarixchilari o'z asarlarida chorizm davrida yuritilgan maorif, fan va madaniyat sohasidagi siyosatni maqtab, rus bosqiniga qadar o'lkadagi ahvolni kamsitib erga urdilar. Ular 1897-yil o'lkada savodli o'zbeklar - 1,6 foizni, qozoqlar - 1 foizni, turkmanlar - 0,7, qirg'izlar - 0,6 foizni tashkil etgan. aholining savodxonligi shundan keyingi-yillarda ham oshmagani, O'zbekistonda har 100 kishining 98 tasi savodsiz edi, deb keldilar. "O'rta Osiyo xalqlari inqilobgacha deyarli yoppasiga savodsiz edi. 1897-yili o'zbeklarning atigi 1,9 foi-

zi o'qish va imzo chekishni bilardi. 1897-yilgi Butunrossiya aholi ro'yxatiga ko'ra savodlilar o'lkada 1,8 foizni tashkil etgan, ya'ni inqilobgacha Turkiston deyarli yoppa savodsiz o'lka edi". "O'zbek xalqi deyarli yalpi savodsiz edi". Hatto ayrim olimlar vatanga, o'z xalqiga xiyonat qilgan va bosqinchi Rossiya hukmdorlari tomoniga o'tgan Saidazimboy singari savdogarlarni Toshkentda o'z uyida rus-tuzem maktabi ochdi deb osmonga ko'tarib maqtaydilar. Aslida esa rus-tuzem maktablari asosan tilmochlar-tarjimonlar tayyorlashga mo'ljallab tashkil etilgan edi.

Shu bilan birga sovet davrida bu kabi da'volarni inkor etuvchi xolisona tadqiqotlar ham e'lon qilindi. Taniqli tarixchi olim Pyotr Geronovich Kim o'zining "Uydirma va haqiqat" maqolasida quyidagicha yozadi: Xo'sh, savodsiz xalq butun dunyo xalqlarining fahru iftixoriga aylangan Samarqand, Buxoro, Xorazm, Toshkent va Xivadagi Go'ri Amir, Shohizinda, Bibixonim kabi koshonalarni va boshqa ko'plab asori-atiqalarni qanday qilib bunyod etgan ekan? Savodsiz xalq qay yo'l bilan jahonga Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Beruniy kabi olamga mashhur allomalarini yetkazib berdi ekan? Savodsiz xalq Navoiy, Ulug'bek, Forobiy, Jomiy va boshqa ko'plab shoiru fozillari bilan olamga dong taratganining siri nimada? Furqat, Muqimiy, A.Avloniy, M.Behbudiy kabi minglab ma'rifatparvarlari bo'lgan xalqning savodsizligiga ishonish mumkinmi?

P.G.Kim yuqoridagi kabi mantiqsiz va kurakda turmaydigan da'volarni inkor etib bo'lmaydigan dalillar bilan o'z maqolasida isbotlab berdi. U bunday yozadi: "Endi manbalarda keltirilgan fakt-larga asoslanib, 1897-yili Rossiya, Belorusiya va Turkistonda aholining, maktablarning, ulardagi o'quvchilarning sonlarini kuzatsak, bu o'lkalardagi savodxonlikning darajasi oydinlashadi. Rossiyada aholining umumiy soni – 126,388,800, maktablar soni – 33,401, o'quvchi soni – 2,318.100, aholining umumiy soniga nisbatan o'quvchilar 1,8 foizni tashkil etgan holda, aholining savodxonligi – 21 foiz; Belorusiyada aholining umumiy soni – 6,492.857, maktablar soni – 2,263, o'quvchilar soni – 125.418, aholining umumiy soniga nisbatan o'quvchilar – 1,9 foizni tashkil etgan holda aholining savodxonligi – 24,7 foiz; Turkistonda aholining umumiy soni – 3,792.774, maktablar soni – 6.027, o'quvchilar soni – 64015, aholining umumiy soniga nisbatan o'quvchilar – 1,7 foizni tashkil

etgan holda aholining savodxonligi – 19,55 foiz bo‘lgan».

Axir mustamlaka Turkistonidagi juda ko‘p eski maktablarda oliy ta’lim beradigan o‘quv yurtlarida ajdodlarimiz farzandlari ta’lim olganliklari, madrasalarda mudarrislar, mahallalarda savodxon ayollar otinoyilik qilib, shariat (fiqh) qonunchiligidan ta’lim-tarbiya bergenlari, o‘sha o‘quv muassasalarida ko‘plab yurtdoshlarimiz o‘qib, zamonasining savodli kishilar bo‘lib yetishganini unutmaslik kerak. XX asr boshlarida butun o‘lka bo‘yicha jadid maktablarining necha tarmog‘i yuzaga kelganini ham e‘tibordan chiqarmaslik lozim. Ehtimol shu boisdan mashhur rus olimlaridan akademik V.V.Bartold, A.D.Middendorf, sayyoh olim A.L.Fedchenko, sharqshunoslardan V.P.Nalivkin, A.L.Kun va boshqalar o‘lkadagi maorif taraqqiyotiga yuqori baho bergenlar, xalqimizning madaniyatiga hayron qolganlar va uni olqishlaganlar. A.Middendorfning 1882-yilda chop etilgan “Очерки Ферганской долины” kitobida shunday satrlarni o‘qiymiz: “Farg‘ona viloyatida qadimdan o‘troq holda yashashni sevgan mehnatkash qabilalar istiqomat qilishadi. Albatta, o‘ziga xos betakror sharoiti bo‘lgan Farg‘ona yuksak madaniyatli mamlakatlar cho‘qqisiga ko‘tarildi”. A.Middendorfning so‘ziga qaraganda XIX asrga yevropaliklar yer xo‘jaligi ravnaqiga harakat qilib maqsadlariga erisholmayotgan bir paytda Farg‘ona vodiysida bu muammo ancha burun hal bo‘lgan, u joylarda dalalar sug‘orilar, yaylovlар esa o‘g‘itlanrilarkan.

Olim o‘z fikrini davom ettirib yozadi: “Farg‘onada qilingan ishlarga havas qildik, bu yerdagi zaminga nisbatan yuksak madaniyat boshqa yerborda qaraganda ko‘proq saqlanib qolganligini ko‘rdik. Bir qancha yerborda ko‘zdan kechirib shu xulosaga keldikki, Farg‘onada yer xo‘jaligini ehtiyyotkorona va mohirona olib borishar ekan. Bu esa hayratda qoldiradigan haqiqiy madaniy mehnat eng katta zanjirining bir qismi ekaniga ishonch hosil qildik”.

“Golos” gazetasi 1874-yil 29 avgust sonida suv xo‘jaligi masalasi haqida bunday yozadi: “amalda ko‘pincha tuzemetslardan (ya’ni mahalliy aholidan) ko‘p narsani o‘rganishga to‘g‘ri kelmoqda. Irrigatsiya haqida Rossiyada oxirgi vaqtgacha o‘ylanmagan edi. Osiyoda esa bu soha yuksak darajada rivojlangan va albatta, dalalarni sun’iy sug‘orish bo‘yicha biz O‘rta osiyoliklarga hech narsa o‘rgata olmaymiz. Bizda Janubiy Rossiyada irrigatsiya borasida tortishuvlar

davom etayotgan bir davrda osiyoliklar tog'larda korizlar orqali kanallar qurishmoqda. Uning tubidan o'nlab sajen yuqori suvlarni chiqarishmoqda, bir qoyadan ikkinchi qoyaga arg'amchi tortib tarnov yordamida suv olishmoqda, bular esa bizdagi donishmandlarning tushiga ham kirmagan".

Rus olimlari, sayyohlari, savdogarlari Qo'qon xonligidagina emas, balki o'lkaning boshqa joylarida ham sun'iy sug'orish usulini o'z ko'zlar bilan ko'rib yuksak baho berganlar.

Turkiston xalqlari madaniyati haqida Turkiston general-gubernatori S.M.Duxovskiyning 1899-yili podshoga yozgan dokladida qiziqarli fikrlar bor. Jumladan, u shunday yozadi: "Uzoq vaqtlar mobaynida Buxoro butun musulmonlar olamida musulmon huquqshunosligi va ilmining mo'tabar markazi sifatida tan olib kelingan, boz ustiga bu obro'-e'tiborni hanuz yo'qotmay kelayotir. Bir vaqtlar O'rta osiyolik ruhoniylar, qonunshunos arab tili bilimdonlari faoliyatining ahamiyati naqadar ulug' bo'lganini bugungi kunda butun dunyodagi musulmon-sunniylar qo'llayotgan mashhur va mo'tabar shariat majmualarining ayrimlari O'rta Osiyoda bitilganini eslashning o'zigina kifoya. "Hidoya-i-Sharif" Marg'ilonda, "Aqoid" Buxoroda, "Hikmat-ul-Ayn" Samarqandda yaratildi. Musulmon olamiga shariatning so'nggi talqinini O'rta Osiyo taqdim etdi. Bulardan tashqari, bu o'lka olamga Navoiy, So'fi Olloyor, Ahmad Yassaviy, Mashrab kabi shoir-so'fiylarni berdi".

Xullas Turkistonda Rossiya bosqiniga qadar aholining savodonlik va madaniyati darajasi ba'zi kimsalar ta'kidlagani singari qoloq bo'Imagan. To'g'ri, hozirgi davrga nisbatan oladigan bo'lsak, savodsizlar Turkiston o'lkasida XIX asrda ko'p bo'lgan. Ammo o'tgan o'sha XIX asrda qaysi mamlakatda ahvol bundan ko'ra yaxshiroq edi? Shuning uchun xalqimizning o'tmish tarixini nodonlarcha qora bo'yoqlarda yoritishga istiqlol tufayli barham berilmoqda.

XIX asrning ikkinchi yarmida o'lkaning ijtimoiy-madaniy hayotida albatta ba'zi bir ijobiy o'zgarish va yangiliklar bo'ldi. Bu o'zgarishlar va yangiliklar mustamlakachilar tomonidan yerli xalqlarning talab va ehtiyojlarini qondirish maqsadida ro'yobga chiqarilgani yo'q. Balki, birinchi navbatda va asosan bosqinchilarning talablari va manfaatlari nuqtai-nazaridan amalga oshirildi. Ana shunday yangilik va o'zgarishlardan biri o'lkada aholiga xizmat qiluvchi madaniy

oqartuv muassasalaridir. 1870-yilda Toshkentda kutubxona tashkil qilindi. Kutubxona uchun Peterburg va Moskvadan 1867-yilda yuborilgan dastlabki kitoblar zo'r qiyinchiliklar bilan 1868-yilda Toshkentga yetib kelgan edi. Bu kitoblar asosan Markaziy Osiyoni va unga qo'shni bo'lgan mamlakatlarni o'rganishga va boshqa masalalarga aloqador adabiyotlar edi. Kutubxona fondi mutlaqo rus tilida bo'lib, uning o'quvchilari ham asosan rus ofitserlari, amaldorlari, va ularning oilalaridan iborat edi. Dastlabki kitobxonlar to'g'risidagi ma'lumot 1870-yil may oyidan 1871-yil sentyabrgacha bo'lgan davrga aloqadordir. Hammasi bo'lib 75 kitobxon bo'lgan, shundan 45 nafari ofitser, 19 nafari amaldor, 4 nafari savdogar, 2 kishi ruhoniyligi, bir kishi mahalliy maktab talabasi edi.

Shunday bo'lsada, kutubxona har holda ma'rifiy ish bilan shug'ullandi va o'lkada XIX asr rus adabiyotining demokratik g'oya-larini tarqatishda ma'lum rol o'ynadi. Biroq 70-80-yillarda Rossiyada madaniyat va xalq maorifi 60-yillarda qo'lga kiritgan demokratik huquqlarni yo'q qilishga intilgan reaksiyaning hujumi boshlanib ketdi. Bu hujumdan kutubxona ham chetda qolmadi. 1882-yil dekabrda Turkiston general-gubernatori M.G.Chernyayevning buyrug'i bilan alohida ishlar bo'yicha amaldor, "Peterburg xarobalari" asarining muallifi, reaksiyon yozuvchi V.V.Krestovskiy kutubxonani taftish qildi. U o'zining Chernyayevga yozgan raportida: "Rus mualliflaridan Saltikov, Dobrolyubov, Pisarev, Nekrasov va Shiller (A.Mixaylov) asarlariga talab eng ko'p ekanligi ma'lum bo'ldi", deb yozdi. Ushbu raportga asosan general Chernyayev 1883-yil 1 yanvardan e'tiboran kutubxona faoliyatini to'xtatish to'g'risida buyruq berdi. Jamoatchilikning talabi bilan 1889-yilda kutubxona yana o'z ish faoliyatini boshladidi. Markaziy Osiyoni o'rganish bilan shug'ullangan taniqli rus olimlari arxeolog V.L.Vyatkin, akademik V.V.Bartold va boshqalar kutubxonaga faol yordam berib turishgan, natijada kutubxona qimmatli asarlar va materiallar bilan to'lib borgan.

1868-yilda Toshkentda bosmaxona va litografiya, 1874-yilda Xivada litografiya, keyin esa Samarqand, Farg'onha va boshqa shaharlarda litografiyalarning paydo bo'lishi Turkiston xalqlari hayotida muhim voqealari bo'ldi. 1880-yildan boshlab mahalliy tilda chiqadigan "Turkiston viloyati gazetasi" sahifalarida tabiyot, meditsina, tarix,

adabiyot va falsafaga oid kichik-kichik xabarlar ba'zan hatto maqolalar chiqa boshladi. Shu tariqa Turkistonda vaqtli matbuot yuzaga keldi. 1898-yilda Toshkentda "Russkiy Turkestan", 1904-yildan boshlab Samarqandda "Samarqand" gazetalarini chiqarish yo'lga qo'yildi. 1880-yilda Navoiyning "Xamsa"si, "Devoni Munis" va "Devoni Roji" asarlari bosilib chiqdi.

1906-yilda Toshkentda o'zbek tilida "Taraqqiy" gazetasi chiqarildi. Shundan so'ng birin-ketin yangi matbuot organlari vujudga kela boshlaydi. Toshkentda "Sadoi Turkiston" gazetasi jadidlar tomonidan chiqarila boshlaydi. 1916-yildan esa rus demokratlari va jadidlar Andijonda "Turkestanskiy golos" gazetasini chiqara boshlaydilar.

Bu davrda tarix va adabiyot sohasida ijod qilgan mahalliy yozuvchilar o'z asarlarida mahalliy xalq ommasining ezgu niyatlarini tarannum etdilar. Ahmad Donish (1827-1897) o'z davrining yirik ma'rifatparvar olimi va faylasufi, yozuvchisi va astronomi, tarixchisi va arxitektori, musavviri va musiqanavisi edi. U "Ulug' qonun", "Tanlangan qarorlar", "Noyob voqealar", "Mang'it amirlari xonadoni sultanatining qisqacha tarixi" kabi asarlar yozib qoldirgan. Ahmad Donish o'z asarlarida taraqqiyotda orqada bo'lgan amirlikdagi ijtimoiy-iqtisodiy tuzumni tanqid qiladi, rus madaniyatini omma o'rtaida tinmay targ'ib qiladi va undan o'rganishga chaqiradi.

Muqimiyl (1850-1903) XIX-asr oxirida Turkistonda yuzaga kelgan demokratik adabiyotning yirik vakillaridan biri hisoblanadi. U asosan lirika (g'azallar, muhammaslar, ruboiy, tuyuq va fardlar), hajviy, sayohatnomalar, maktubot janrlarida ijod qilgan. U o'z hajviyalarida mahalliy zolim amaldorlarining kirdikorlarini fosh qilib, mazlum xalqning nochor ahvoliga achinadi. Bu kabi asarlari jumlasiga "Tanobchilar" she'ri misol bo'la oladi. Shoir Muqimiyl "Sayohatnama" asarida och va yalang'och dehqonlarni zolimlarcha ezayotgan mingboshilarni tanqid qilgan.

Furqat(1858-1909)o'zining xalqchil va demokratik ruhda yozilgan asarlar bilan xalq orasida katta obro' qozongan. U shoirlar maskani Qo'qonda tug'ilgan. Furqat ham dastlabki davrlarda Turkistonni bosib olgan chor ma'murlariga umid ko'zi bilan qaragan. Hatto u rus ilm fani, texnikasi va madaniyatini tadh etuvchi asarlar yozib o'z xalqini unga da'vat etadi. Uning "Gimnaziya", "Ilm hosiyati", "Vistavka xususida" kabi asarlari fikrimiz isbotidir.

Zavqiy (1853-1921) o‘zbek demokratik xalqchil adabiyotining Muqimiy va Furqat ijod etgan an‘analarini davom ettirdi. Zavqiy ijod etgan asarlar yo‘nalishini quyidagi to‘rt guruuga bo‘lish mumkin: 1. Lirik she’rlar. 2. Hajviyalar. 3. Sayohatnomalar. 4. Dostonlar. Shoir o‘zining “Aylab keling” “Kelmasa kelmasun netay”, “Ofarin”, “Ajab ermas”, “Farg‘ona”, “Ahli rasta hajvi”, “Ajab zamona” kabi lirik va hajviy she’rlarida insoniy fazilat va sadoqatni tarannum etadi.

Turkiston chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishidan ancha ilgari rus olimlari o‘lkani o‘rganish borasida ancha ishlarni amalga oshirgan edilar. XIX-asrning 2-yarmida o‘lkani ilmiy jihatdan o‘rganish yanada avj oladi. N.YA.Seversov, P.P.Semyonov-Tyan-Shanskiy (1827-1914) lar O‘rta Osiyoni geografik joylashuvi va uning relyefini o‘rganish borasida muhim ishlар qildilar. Rus sayyohi A.P.Fedchenko Turkistonni tabiiy-tarixiy jihatdan o‘rganib, Farg‘ona va Oloy vodiysi tekshirdi. Shuningdek, u Zarafshon vodiysi va Qizilqumni ham tabiiy tarixini o‘rganadi. 1877-1879-yillarda I.V.Mushketov Oloy, Pomir, Buxoro, Xisor, Amudaryo bo‘ylari va Qizilqumni geologik jihatdan tekshirib, Turkistonning birinchi geologik kartasini tuzdi. U “Turkiston” nomli monumental monografiyasini yozgan.

Rus mustamlakachiligi davrida bir qator rus ziyolilari va olimlari tomonidan Turkistonning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tarixiga oid turli materialalr “Turkiston to‘plami” nomi ostida jamlana boshlagan. Bu to‘plam Turkiston o‘lkasiga oid asarlar va maqolalarning ajoyib majmuasi bo‘ldi. Bu to‘plam 594 tomdan iborat bo‘lib, Oktabr to‘ntarishigacha bo‘lgan Turkiston haqidagi kitoblardan, ro‘znama va oynomalardan olingan maqolalardan tashkil topgan. To‘plamning 416 tomi mashhur rus bibliografi V.I.Mejob tomonidan tayyorlangan. Bu tomqlarga 1867-1887-yillarga oid materiallar kiritilgan. So‘ngra to‘plam ustida olib borilayotgan ish to‘xtab qolgan va 1907-yildan 1917-yilgacha bo‘lgan davrda har xil bibliograflar to‘plamning 175 tomini tuzganlar.

XIX asrning 80-90-yillarida Toshkent va boshqa yirik shaharlarda turli ilmiy jamiyatlar (arxeologiya, jug‘rofiya, etnografiya kabilar) tashkil etilgan. 1896-yilda Samarqand “Tarixiy muzey” ish boshladi. Bir qator ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirildi. Bu borada rus olimlari I.V.Mushketov, N.A.Seversov, A.P.Fedchenko, P.P.Semenov Tyan-Shanskiy, N.M. Prjevalskiy va boshqalar samarali ishlар olib bordilar.

Turkiston xalqlari tarixini o'rganish va yoritish xalqimizning o'tmish madaniyatini ilmiy tadqiqot qilishda sharqshunos olimlar V.V.Radlov, V.V.Bartold, E.E.Bertels va boshqalarning xizmatlari oz emas. Shu davr mobaynida bir qator ijodkor rus adiblari asarlarining mahalliy xalqlar tillariga o'girilishi ham ijobiy faoliyatlardan hisoblanadi.

1871-yilda O'rta Osiyo ilmiy jamiyatni vujudga keldi, bu jamiyat o'z oldiga O'rta Osiyo tarixi, geografiyasi, etnografiyasi, statistika va iqtisodiyotiga oid ma'lumotlarni toplash, qayta ishlash va tarqatish vazifasini qo'ygan edi. 1874-yilda Toshkentda dastlabki observatoriya tashkil qilindi. Observatoriya xodimlari O'rta Osiyo hududlarida 870 astronomik punktni belgiladilar. O'lkada ish olib borgan arxeolog xavaskorlar 1895-yilda Turkiston arxeologiya xavaskorlar to'garagiga birlashdilar. Lekin fanning boshqa sohalarida bo'lgani singari arxeologiya sohasidagi ishlar ham plansiz olib borilgan. Arxeologik ishlar asosan qadimgi yodgorliklarni yozma manbalarga qarab tasvirlash va o'rganishdan, ayrim arxeologik yodgorliklarni qidirish va qazuv ishlarini olib borishdan iborat bo'lgan. Bu kabi ishlar asosan Samarqandda olib borildi. 1895-yili arxitektor A.V.Shchusev ishtirokida tashkil etilgan ekspeditsiya natijasida Go'ri Amir maqbarasining arxitekturasi albom shaklida nashr etiladi.

Rus olimlari tomonidan o'lka tarixini o'rganish XIX asr ikkinchi yarmida nisbatan avj oladi. O'lka rus mustamlakasiga aylanganidan keyin qator rus sharqshunoslari o'z faoliyatlarini kengaytiradilar. XIX asrning ikkinchi yarmida bir qancha yodgorliklar to'g'risida ma'lumotlar to'plagan va Xiva tarixi bilan shug'ullangan A. Kun, shuningdek, V. Nalivkinni (Qo'qon xonligi tarixi) ko'rsatib o'tish kerak. O'rta Osiyo tarixiga oid muhim manbalardan biri Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asari N.S. Likoshin tomonidan rus tiliga tarjima qilinishi katta ahamiyatga ega bo'ldi.

O'lkanı boshqarish ehtiyojlari xalq ommasi hayotini o'rganishda hozir ham muhim manba hisoblangan turli xil statistik ma'lumotlarni toplash va nashr etishni talab etgan. 1871-1874-yillarda har-yili "Turkiston o'lkasini statistik jihatdan o'rganish uchun materiallar" bosib chiqarilgan. Turkiston o'lkasining ayrim oblastlarining, ayniqsa muhim paxtachilik sanoati rayoni sifatida mustamlakachi hokimiyyat rasmiy doiralarining e'tiborini o'ziga tortgan Farg'ona viloyatining

har-yilgi obzori nashr etilib turgan.

O'rta Osiyo Rossiya tomonidan bosib olinganidan keyin san'at sohasida ham ma'lum o'zgarishlar yuz berdi. O'lkaga rus san'ati turli formalarda kirib kela boshladи. O'zbekistonga musiqachilar, rassomlar, arxitektorlar, artistlar kela boshladи. Ular o'lkada Yevropa madaniyati va san'ati ko'rinishlarini yoya boshladilar. Mahalliy aholi ularning ijodi bilan tanisha boshladilar. Bu davrda o'zbek san'ati hamma sohada yanada rivojlandi, yangi g'oyalari, yangi texnika imkoniyatlari bilan boyidi. Ijtimoiy fikr sohasida yangi oqimlarning rivojlanishi va ilgarigi madaniy cheklanishning yo'qolib borishi o'zbek san'atiga samarali ta'sir ko'rsatdi.

Turkiston o'lkasida qadimdanoq yuksak taraqqiy etgan xalq professional teatri XIX asrda asosan ikki xil: qiziqchilar teatri va qo'g'irchoq teatridan iborat edi. Qiziqchilar ham, qo'g'irchoq o'ynatuvchilar ham hunarmandlar kabi rayonlar bo'yicha ayrim sexlarga birlashgan. Xalq artistlari sexi yaxshi uyushtirilgan tashkilot bo'lgan. Ular turli bayramlarda va tadbirlarda xalq o'rtasida o'z san'atlarini namoyish qilganlar. Turkiston Rossiya tomonidan bosib olinganidan keyin bu yerga rus teatri ham kirib kela boshladи. Dastlabki rus spektakllarini xavaskor mahalliy ziyolilar qo'ygan.

Xullas, yuqorida fikr-mulohazalar shundan dalolat beradiki, chor Rossiyasining og'ir mustamlakachilik zulmi siyosati davrida ham Turkistonda siyosiy-ijtimoiy va madaniy hayot to'xtab qolmadi, xalqimiz o'zining an'anaviy tarixiy taraqqiyotiga sodiq qoldi, jahon fani va madaniyati xazinasi rivojiga munosib hissa qo'shdi. XIX-asrning ikkinchi yarmida Osiyo, jumladan, Turkiston ilm-fan va texnika taraqqiyoti bo'yicha Yevropadan ancha orqada qolib ketgan edi. Qoloqlik va jaholat, o'lka aholisining ayanchli ahvoli Turkistonning Yevropa va jahon sivilizatsiyasidan orqada qolib ketishi va bunday fojiali hayotdan qutulish, erk va ozodlikka erishish haqida o'z zamonasining ilg'or ziyoli qatlamlarida fikr-mulohazalar paydo bo'la boshladи.

XX asr boshlarida Rossiyadagi musulmon maktablarining buyuk islohotchisi va "Tarjimon" jurnali tashkilotchisi Ismoil G'aspiralining nomi butun Sharqqa mashhur bo'lib ketdi. U Bog'chasarojoyda eski maktablarning murakkab o'qish usuliga nisbatan yengil qiroat usuliga asoslangan yangi maktab ochib. Unda o'zi dars bergen,

darsliklar yozgan, chorizmning Sharqdagi siyosatini fosh qiluvchi asarlari bilan Turkistondagi ilg‘or ziyolilarning dunyoqarashiga katta ta’sir ko’rsatgan edi. Qisqacha aytganda u yangi usul maktablarning vujudga kelishida namuna bo‘lgan.

Jadidlar chorizmning mustamlaka siyosati strategiyasiga jiddiy zaiflantiruvchi o‘zgarishlar qilishga majbur etuvchi vatanparvar siyosiy kuch sifatida XIX asr oxiri – XX asr boshlaridan tarix sahnasiغا chiqsa boshladilar. Jadidlar Turkistonda XIX-asr oxirida paydo bo‘lgan ilg‘or usullarni yoqlagan ma’rifatparvarlargina bo‘lib qolmay, ayni chog‘da turkiy-isloviy huquqiy merosning millat ichida keng yoyilishi, xurifikrlilik, taraqqiyot va milliy istiqlol uchun ham kurashni maqsad qilib qo‘ygan edi. Bu harakatning vujudga kelishida O‘rta va Yaqin Sharq mamlakatlari keng quloch yoyib rivojlangan bobiylik va bahoiylikdan iborat falsafiy-diniy oqimlar va Turkiyadagi “Ittihod va taraqqiy” (“Yosh turklar” harakati) harakatining ta’siri katta bo‘ldi. Bobiylik va bahoiylik XX asr boshlariga kelib Kavkazda, so‘ngra Toshkent, Ashxobod va Turkistonning boshqa shaharlarida keng tarqala boshlagan va xalqning madaniy-ma’rifiy darajasini ko’tarishda katta ta’sir ko’rsatgan. Birgina Toshkentning o‘zida bobiylar va bahoiylar tarafidan “Turkiston”, “Isloh”, “Osiyo” va boshqa kutubxonalar, qiroatxonalar tashkil etilgan bo‘lib, ular xalqning turli qatlam vakillari o‘rtasida ma’rifat tarqatishda katta rol o‘ynadi.

Turkiyadagi “Ittihod va taraqqiy”chilardan Turkistondagi “Ittihod va taraqqiy” chilarning afzallik tomonlari bor edi. Ularda kosmolitik g‘oya deyarli yo‘q edi, rus imperializmiga va uning mustamlakachilik tizimiga qarshi kurash g‘oyasi va mafkurasi kuchli edi. Hatto 1905-yilgi rus inqilobi va 1908-yilgi Turkiya inqilobida imperializm va mustamlakachilikka qarshi kurash olib borish g‘oyasi yo‘q edi.

Jadidlar Buxoro amirligi va Xiva xonligida xon va amirni ham o‘z g‘oya va maslaklariga tortishga harakat qildilar. Buxoro jadidlari 1900-yil boshida amirdan yangi usuldagagi maktablar ochishga ruhsat olishga muvaffaq bo‘ldilar. Ammo bunday yangi usul maktablarini ochilishi Rossiya manfaatiga zid edi, shu boisdan Rossiyaning amirga bo‘lgan tahdidi ortdi, amir jadidlarni siquv ostiga oldi. Rossiya barcha imkoniyatlarni ishga solib jadidlarning musulmon mamlakatlari, xususan Turkiya bilan bo‘ladigan har qanday bordikeldi aloqalarini oldini olishga e’tibor beradi.

Rus mustamlakachilari O'rta Osiyoda ochilgan yangi usul mактабларига qarshi kurash boshlaydi, bu maktablarni "islomiyatga qarshi", "g'ayridin maktablari" deb tashviqot yurgizadilar, josuslik idoralarini ishga soladilar, hatto Buxoro amiriga va Xiva xoniga ham kuchli tazyiq o'tkazadilar. Ahvol shu darajaga borib yetadiki, bu masala bilan bog'liq ko'plab qurbanlar yuz beradi. Chor ma'murlari islom diniga ham qarshi kurashni kuchaytirib yuboradilar. Hatto, 1903-yili podsho Turkiston aholisi uchun muborak Haj qilishni ham farmon bilan man etadi. Bu mahalliy musulmon aholisida kuchli norozilik uyg'otdi.

1905-yilgi to'ntarish harakatidan keyin Rossiya hududidagi turkiy xalqlar va ularning Turkiya bilan qardoshlik aloqasi kuchaydi. O'z davrida Turk dunyosi markazlaridan biri bo'lgan Qirim, Qozon, Istanbulda chop etilgan jadidchilik ruhidagi adabiyotlar Turkistonga ham keng yoyila boshladi. 1908-yilgi Turkiya inqilobi tufayli yuzaga kelgan "Yosh turklar" harakatiga muqobil holda Xivada "Yosh xivaliklar", Buxoroda "Yosh buxoroliklar" jamiyatları yuzaga keldi. Bu jamiyatlar oxir-oqibatda siyosiy partiyalar maqomini oldi. Jadidchilik haraktining bunday siyosiy tashkilotlari qisqa vaqt ichida Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon, Andijon kabi yirik shaharlarda kuchli tashkilotlarga aylandi. Turkiston xalqida jadidlarga bo'lgan hayrixohlik, ishonch tobora ortib bordi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, XX asr boshlaridayoq milliy ozodlik bayrog'ini baland ko'tarib, milliy birlik kuchlarini birligini ta'minlash borasida salmoqli faoliyat ko'rsata boshlagan Turkiston jadidlari jahon jamoatchiligi e'tiborini o'ziga jalb qildi. 1906-yilning bahorida Fransiya respublikasi bosh shtabi ikkinchi byurosi (harbiy razvedka) topshirig'i bilan mayor Lyakost ikki-yil davomida Turkistondagi ijtimoiy siyosiy vaziyat bilan yaqindan tanishdi. U o'zining kuzatishlarini hisobot tarzida "Komitet Asiya Fransays" nomli jurnalda chop etadi. Maqola Yevropada katta qiziqish uyg'otdi. Bu maqolada Turkiston general-gubernatorligi hududidagi ijtimoiy-siyosiy kuchlar va partiyalar faoliyati sharhlab berilgan edi. E'tiborli tomoni shundaki, fransuz razvedkachisining o'tkir nigohi bilan Turkistonda qaysi partiya, qaysi siyosiy oqim kuchli ekani shunday aniqlab berildiki, bu hol rus siyosiy politsiyasini g'oyat jiddiy tashvishga soldi. Mayor Lyakost Turkiston o'lkasidagi eng

e'tiborli va kelajagi porloq tashkilot sifatida sotsial-demokratlar (bolshevik va mensheviklar), yoki sotsialist-inqilobchilar (so'l va o'ng eserlar), yo kadet va liberallar emas, balki yosh sartlar (rasmiy idoralar Turkiston jadidlarini yosh turklarga qiyoslab "Yosh sartlar" deb atashgan) degan xulosaga kelgan edi. Razvedkachi Turkistonda jadidlar ta'siri kuchli bo'lgan o'z firqasiga ega ekani va u 1906-yilning yanvarida Sankt-Peterburgga. Umumrusiya musulmonlarining qurultoyiga vakil yuborganini ta'kidlab, bu firqa suiddi Qozon tatarlari kabi o'zining milliy dasturiga egaligi va rus istibdodiga jiddiy zarba berishi mumkinligiga ishora qilgan edi.

Jadidchilik harakati muhitida jadidchilik adabiyoti ham yuzaga keldi, mukammal bir shaklga kirdi. Ham nasrda, ham nazmda yangilanish, qoloqlik va jaholatdan qutilish, rus istilosiga qarshi kurash, ma'rifat va hurriyatga erishish, istiqlolni qo'lga kiritish g'oyalari bilan to'lib-toshgan yangi bir adabiyot shakllandi. Abay bunday adabiyotning ilk namoyandalaridan biri edi. Undan so'ng Shayx Ahmad Mahdum maydonga chiqqan edi.

O'rta asrlarda shunday ulug' zotlarni yetishtirgan Turkiston kabi buyuk bir tabarruk zaminning so'nggi asrlarda jaholat va hurofot azobida inqirozga yuz tutishi, bu yerda kuchli bo'lgan o'rta asrchilik va mustamlakachilik zulmlari, o'lkadagi yangi uyg'onish, yangi ma'rifat va adabiyot uchun borayotgan kurash musulmon xotin-qizlar huquqini himoya qilish haqida Ismoil Gaspirali o'tkir publisistik maqolalari bilan faol qatnasha boshladi. "Buxoro va Bog'chasaroy", "Bog'chasaroydan Toshkentga" (1893), "Turkistonning yangi tarixi" (1905), "Buxoroda nimalarni ko'rdim?" (1908), "Turkistondan xat" va boshqalar shu jumladandir. Uning ta'siri bilan Turkistonda ham yangi usul maktablari uchun o'quv qo'llanmalari, matbuot va adabiyot namunalari maydonga kela boshladi.

Turkistonda jadidchilik harakatining yirik vakillaridan Mahmudxo'ja Behbudiy (1871-1919)dir. U "Turkiston jadidlarining otasi" sifatida tarixda nom qoldirgan. U istiqlol uchun kurashning oldingi saflarida borgan yalovbardorlardan edi. Fayzulla Xo'jayev Behbudiy haqida bunday degandi; "Siyoziy, ijtimoiy faoliyati, bilimining kengligi jihatidan o'sha zamon Turkistonidagi jadidlar orasida unga teng kela oladigani bo'limasa kerak".

Behbudiy Gaspirinskiy yo'lga qo'ygan "usuli jadid" maktablarini

Turkistonda qaror toptirishda, ularni darslik va qo'llanmalar bilan ta'minlashda jonbozlik ko'rsatdi. Yangi tipdag'i maktablarning milliy-madaniy taraqqiyotimizda muhim omil bo'la olishi mumkinligi haqida o'nlab maqolalar yozdi. "Qisqa umumiy geografiya", "Bolalar maktubi", "Islomning qisqacha tarixi", "Amaliyoti islom", "Aholi geografiyasiga kirish", "Rusiyaning qisqacha geografiyasi" kabi darsliklar yaratdi. Nashriyot tashkil qilib, darsliklar va qo'llanmalar, xaritalar bosib chiqargani ma'lum. Bular ilk o'zbek maktablari uchun tuzilgan darslik va qo'llanmalar sifatida emas, til-yozuv madaniyatimiz taraqqiyoti nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. Behbudiy 1913-yilda "Samarqand" gazetasi va "Oyina" jurnalini chiqardi. Gazeta dastlab 2, so'ng 4 betlik bo'lib haftada 2 marta chiqqani va moddiy tanglik tufayli 45 sonidan keyin to'xtagani ma'lum. "Oyina" o'lkadagi o'zbek tilida chiqqan birinchi jurnal edi. U xalq orasida ancha mashhur bo'lgan. Boshida haftada bir, 1914-yildan esa har o'n besh kunda chiqqan.

Munavvar Qori Abdurashidxonov milliy matbuotning asos-chilaridandir. U 1906-yil sentyabrda "Xurshid" ("Quyosh") jaridasini nashr etdi va unga muharrirlik qildi. "Najot" (1917-yil), "Kengash" (1917-yil), "Hurriyat" (1917-yil), "Osiyo", "Haqiqat", "Turon" kabi matbuot nashrlarida muharrirlik qildi.

Abdulla Avloniy (1878-1934) o'zbek xalqining atoqli shoiri, muallimi va mutafakkiri, jadidchilarining yetuk vakillaridan biridir. Abdulla Avloniy o'zi ochgan maktab uchun to'rt qismdan iborat "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Maktab guliston", "Turkiy guliston yoxud axloq" kabi darsliklar va o'qish kitobini yaratdi. Maktab-maorif ishlariiga ko'mak ko'rsatuvchi "Jamiyat hayriya" tashkil etdi. "Nashriyot" shirkati tuzib, Xadrada "Maktab kutubxonasi" kitob do'konini ochgan. U 1913-yilda tashkil etilgan professional "Turon" nomli teatr to'garagini tashkilotchilaridandir.

Abdurauf Fitrat (1886-1938) jadidchilik haraktining yirik namoyondalaridan biridir. U Buxoro jadidchilarining tashkilotchilaridan biri sifatida xalqni ma'rifat va madaniyatdan bahramand qilish uchun astoydil kirishadi. Fitrat adabiyotga shoir va adabiyot-shunos sifatida kirib keldi. U "Munozara" nomli drama yaratgan. Shuningdek, "Sayxa", "Sayyohi hindi", "Rahbari najot", "Tarixi islom" kabi asarlarini 1908-1913-yillarda yaratdi. Fitrat o'z ona

diyорини озод ва hur ko'rishni orzu qildi. U ana shunday ilg'or g'oya va fikrlari uchun ko'pchilik jadidlar qatorida shakkoklik, tsyonkorlikda ayblandi, chor ma'murlari esa uni mustamlakachilikka qarshi turganlikda aybladilar, kommunistik mafkura hukmron ho'lyan qizil sultanat davrida esa millatchilikda, panturkizm g'oyasi tarafdori, "xalq dushmani" degan uydirma tamg'a bilan aybladilar.

Turkistonning milliy shoiri, Andijonda jadidchilikka asos solgan Cho'lpon (1898-1938) shaharda "Turon kutubxonasi" va uning yonida katta bir qiroatxonani tashkil qilgan.

Xulosa shuki, rus mustamlakachilarini Turkiston zamini uzra o'z hukmronliklarini o'tkazgan kezlarda yurtning jonkuyar, millatsevar, erksevar farzandalri jadidlar harakati ta'sirida milliy istiqlol uchun, mustaqil Turkiston uchun, ekspluatatsiya, zo'rlik va zo'ravonlikka qarshi xalqni otlantirdilar. Faqat o'lkada so'nggi asrlar davomida ishlab chiqarish kuchlari va taraqqiyotning orqada qolganligi oqibatida, xalq ommasining ijtimoiy-siyosiy, g'oyaviy-nazariy saviyasi ham yetarli darajada davr talabiga monand bo'lmaganligidan bu kurash birlashgan katta kuch sifatida muvaffaqiyat qozonildi. Siyosiy-ijtimoiy tarqoqlik, "o'zingni bil, o'zgani qo'y" kayfiyatni milliy kayfiyatga, milliy birlikka putur etkazdi.

Jadidchilik harakatini o'lka xalqlari ommaviy suratda qo'llab quvvatlamadilar. Bu harakat faqat xalq orasiga ma'rifat va madaniyat g'oyalarini tarqatishdan nariga o'tmadni, o'zining tor biqiq doirasida o'rallib qoldi, siyosiy kurash partiyasi darajasiga ko'tarila olmadi va ommani zuhm va istibdodga qarshi dasturiy kurashga torta olmadi... Jadidlar harakatining nazariy va siyosiy barkamollik darajasiga o'sib yetmaganlikdan rus bolsheviklari ustalik bilan foydalandilar va ularni ikkiga bo'lib yubordilar. Jadidlarning bir guruhi bolsheviklarning volg'on va quruq va'dalariga ishonib, ular tomoniga o'tdilar, "Yosh buxoroliklar" va "Yosh xivaliklar" guruhiga uyushdilar. Natijada milliy-ozodlik va istiqlol uchun kurash olib borayotgan kuchlar kuchsizlandi va parokandalikka uchradi.

Mavzuga oid tayanch iboralar

N.O. Rozenbak (1884-1889), "Yosh buxoroliklar" va "Yosh xivaliklar", "Turon kutubxonasi", "usuli jadid" maktablari, "Tarjimon" jurnali, Ismoil G'aspirali.

Mavzu bo‘yicha takrorlash uchun savollar

1. Turkiston o‘lkasida xalq maorifi va adabiy-ma’rifiy jarayonlar haqidagi fikringiz?
2. Mustamlakachilik davrida Turkiston o‘lkasida ilm-fan va san’at rivoji?
3. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda me’morchilik, badiiy hunarmandchilik va tasviriylar san’at haqidagi fikringiz?
4. Turkiston o‘lkasida jadidchilik harakatining vujudga kelishi va namoyondalari haqida nimalarni bilasiz?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – T.: “Sharq”, 1998-y.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma’naviyat”, 2008-y.
3. Mirziyoyev Sh. M. Ilm-fan yetuklari – taraqqiyotning bir omili // Xalq so‘zi. 2016. 31 dekabr.
4. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 59 b.
5. Abdullayev X.U. San’at tarixi. – T.: San’at. 2001-yil.
6. Azizzxo‘jayev A. Davlatchilik va madaniyat. – T.: Sharq, 1997-y.
7. Azamat Ziyo O‘zbek davlatchiligi tarixiy: (Eng qadimiy davrdan Rossiya bosqiniga qarshi). – T.: 2000-yil.
8. Zoxidov P. Memor olami. – T.: Qomus, 1996-y.
9. Sagdullayev va boshqalar. O‘zbekiston tarixiy: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – T.: 2000-yil.
10. Oydinov N. O‘zbekiston tasviriylar san’ati tarixidan lavhalar. – T.: O‘qituvchi, 1997-yil.
11. Musayev N.U. O‘rta Osiyoda dehqonchilik madaniyati va agrar munosabatlari tarixidan (Tosh davri so‘nggi – XX asr boshlari ga qadar). – T.: Fan, 2005-yil.
12. Eshov B.J. O‘zbekiston davlatchiligi tarixiy. (o‘quv qo‘llanma). – T.: Ma’rifat, 2009-y.
13. O‘zbekistondagi yangi tarixiy. 1, 2, 3-kitoblar. – T.: “Sharq”, 2000-y.
14. O‘zbekiston davlatchiligi tarixiy ocherklari. Mas’ul muharrirlari D.A.Alimova., E.V.Rtvelodze. – T.: 2001 yil.

MAVZU: SOVET MUSTABID TUZUMI DAVRIDA O'ZBEKISTON MADANIYATI VA SAN'ATI

Reja:

1. Sovet davlatining Turkistonda yuritgan mustamlakachilik siyosati, uning mohiyati va maqsadlari.
2. O'zbekistonda maorif, oliv ta'lif, fan va adabiyot.
3. Ikkinci jahon urushi-yillarida O'zbekistonda fan va madaniyat.
4. Sovet davrida O'zbekiston SSR da madaniy-ma'rifiy muassasalar tizimi.
5. Qatag'onlik siyosati va uning oqibatlari.

Mavzuning o'quv maqsadi: Talabalarga mustabid sovet tuzumi davrida O'zbekiston madaniyati va san'ati sohasidagi yutuq va muammolar haqida batafsil ma'lumotlar berish.

Sovet mustabid tuzumi davri madaniyati o'zining qaramaqarshi tomonlari va xususiyatlari bilan boshqa davrlar madaniy taraqqiyotidan farq qiladi. Bu davrning asosiy xususiyati hayotning barcha sohalari, jumladan, ma'naviy madaniyat sohasining kommunistik mafkuraga tobelligi bilan tavsiflanadi.

Ma'lumki, milliy madaniyat milliy e'tiqod va milliy his-tuyg'ular asosida rivojlanadi. Sovet mustabid tuzumi davrida ana shu xususiyat

milliy madaniy taraqqiyot o'zani begona madaniy oqim tomonga burib yuborildi. Natijada milliy madaniyat o'zining hayotbaxsh manbayidan, milliy e'tiqod va his-tuyg'ularidan ajratib qo'yildi. Madaniy-tarixiy hodisa g'oyaviylashtirildi, hukmron mafkura va hukmron sinf manfaatlariga bo'ysundirildi. Ikkinci tomonidan, sotsialistik lagerga kirmaydigan "begona davlatlar madaniy hayoti bilan milliy madaniyatlar o'rtasidagi tabiiy aloqadorlikka rahna solindi. Bu esa milliy madaniyatlarning umumbashariy madaniyatlardan

uzilib qolishi va “begona” lashuviga olib keldi.

Bu davrning ikkinchi salbiy tomoni badiiy ijodiy jarayonning bir qadar cheklanganligi bilan xarakterlanadi. Ijodiy erkinlik hukmron mafkura ko’satmasi asosida qurildi. Badiiy ijod “shaklan milliy, mazmunan sotsialistik uslubda bo’lishi shart qilib qo’yildi. Bu qonuniyat o’tmish madaniy merosga ham tatbiq etildi. Natijada o’tmish avlodlardan qolgan barcha madaniy boyliklarni o’rganishda, uning ana shu qonuniyatga javob bermaydigan tomonlari olinib, qolgan jihatlari “zararli”, “kommunizm quruvchisi”ning ongini zaharlaydigan “og’u” deb topildi. Bu esa avlodlardan avlodlarga qonuniy tarzda o’tuvchi yahlit jarayonning buzilishiga sabab bo’ldi.

Har bir jarayonning ijobiy va salbiy tomonlari mavjud bo’lganidek, sobiq sho’rolar davrining ham o’ziga xos ijobiy tomonlari ham mavjud bo’lganki, bundan ko’z yumish umumiy tabiiy-tarixiy jarayonga bir tomonlama nazar tashlash bilan barobardir.

Sovet mustabid tuzumi davrida o’ziga xos madaniy taraqqiyot vujudga kelib, bu madaniy jarayon ozmi-ko’pmi umumbashariy madaniy taraqqiyotning rivojiga sezilarli ta’sir ko’rsata olgan. Bu davrda ilm-fan, texnika va san’atning ko’pgina sohalarida (ayniqsa, me’morchilikda) ulkan yutuqlarga erishildi. Fanning ayrim sohalardagi rivoji dunyo miqyosidagi darajaga ko’tarildi.

Sovet mustabid tuzumi davri madaniyatining asosiy tomonlaridan yana biri majburiy ta’limning joriy etilganligidir. Bu vazifani amalga oshirish uchun ko’plab maktablar tashkil etildi. Natijada qishloq joylari madaniy-maishiy hayotining yaxshilanishida ana shu maktablarning ta’siri sezilarli darajada bo’ldi. Yoki xalq xo’jaliqning turli sohalarini kadrlar bilan ta’minlash uchun ta’lim tizi-mining bosqichma-bosqich yaxshilanib borilishi ham aholi madaniy saviyasining ko’tarilishida muhim rol o’ynagan.

XX asrning 20-yillaridayoq o’zbek milliy professional teatri va milliy kino san’atlaring tamal toshi qo’yildi. Oliy va o’rta maxsus ta’lim o’z rivojlanish bosqichiga kirdi. Sovetlar davrida ham Rossiya imperiyasi amaldorlari tomonidan amalga oshiralayotgan siyosat – yerli xalqni ruslashtirish siyosati davom etdi. Milliy ma’naviy qadriyatlar millatning milliy g’ururi va o’zligini anglashga bo’lgan intilishlari bo’g’ib qo’yilishi davom etdi.

O’tmish madaniy merosga bo’lgan munosabatda sinfiylik

tamoyili asosiy mezonga aylandi. Mazkur tamoyilning madaniyijodiy jarayonga tatbiq etilishi o'zbek milliy madaniyatining qadim ajdodlari tomonidan vujudga keltirilgan sarchashmalaridan bahramand bo'lishiga barham berdi.

O'tgan asrning 20-yillari boshida qabul qilingan San'at buyumlari va ilmiy kolleksiyalarini chet elga olib chiqib ketishni taqiqlash to'g'risida (1921-yil, 22-may), "Musulmon nashrlari uchun mablag' ajratish" (1922 -yi, 10-avgust), "Turkistonda yerli bolalar uchun mакtablar tarmog'ini kengaytirish" (1923 -yi, may) va boshqa ko'pgina chora-tadbirlar o'z samarasini bermay qolmadi. Maktablar tarmog'i tez sur'atlar bilan rivojlandi, matbaa ishi yaxshilanib madaniy-ma'rifiy ishlarni ko'laming ta'siri kengaydi. Bu ishlarning amalga oshuvni natijasida mahalliy xalq orasidan A.Avloniy, A.Fitrat, A.Qodiriy, S.Ayniy, Hamza, A.Cho'lpion, Botu (M.Xodiyev), Ziyo Said singari adiblar, M.Uyg'ur kabi atoqli aktyor va rejissyorlar yetishib chiqdi.

1925 -yiga kelib o'zbek tilida 17 nomdag'i gazeta va jurnallar chiqsa boshladi. Turkistonda yashovchi o'zbek, qozoq, rus va boshqa millat tillarida kitoblar chop etildi. 14 teatr, 19 kinoxona, 152 ta kutubxona va boshqa madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyat ko'rsata boshladi.

Savodsizlikni tugatish maqsadida xalq tilida maktablar tashkil etish sur'ati yanada kuchaytirildi. Ularni darsliklar va o'quv qurollari bilan ta'minlash chora-tadbirlari ko'rildi. 1930-yil 25-iyulda majburiy boshlang'ich ta'lif joriy etildi. XX asrning 30-40-yillari oralig'ida mehnatga yaroqli aholining deyarli barchasi savodsizlikni tugatish tizimida o'qib chiqdi. XX asrning 30-yillarining oxirlariga kelib, umumiy yetti-yillik ta'limga o'tildi.

1920-yilda Toshkentda rasman tashkil etilgan O'rta Osiyo Davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy Universiteti) nafa-qat respublikamiz uchun, balki O'rta Osiyo respublikalari va Qozoq'iston uchun oliy malakali mutaxassislar tayyorlab beruvchi yagona markazga aylandi.

XX asrning 20-30-yillarga kelib respublikamizning yirik shaharlarda xalq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan mutaxassisliklarni yetkazib beruvchi ko'plab oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari tashkil etila boshlandi. Bu davrda respublika madaniy hayoti partianing qat-

tiq nazorati ostida tashkil etilardi. Partiyaning yo‘l-yo‘riqlariga ozgina bo‘lsa-da beparvolik qilish, undan chetga chiqish va erkin ijodga intilish aksilinqilobiy harakat hisoblanar va qattiq jazoga mubtalo qilinar edi. O‘tmish madaniy meros va qadimiy madaniy yodgorliklarga yangi sotsialistik madaniyatning dushmani sifatida qaralar edi. Madaniyatning tarkibiy qismi hisoblangan dinga qarshi ayovsiz kurash boshlandi.

Bu holat, ayniqsa, XX asrning 30-yillarida avjga chiqdi. Ko‘plab dindorlar uzoq o‘lkalarga, begona yurtlarga surgun qilindi. Islom va xristian dinlariga oid qanchadan qancha kitobtar yo‘q qilinib, masjidlar, cherkovlar, xonoqohlar va maqbaralar vayronaga aylantirildi. Shunga qaramasdan, XX asrning 20-yillaridan boshlab respublika madaniy hayotida bir qator o‘zgarishlar ro‘y bera boshladi. Xalq ta‘limi tizimida, madaniy yodgorliklarni saqlash va mahalliy matbuotning rivojlanishida sezilarli o‘zgarishlar sodir bo‘ldi.

Respublika madaniy hayotida o‘sha davrning fidoyi siymolari eng murakkab sharoitda ham partiya yakkahokimligi va davlat tomonidan avj oldirilgan jazo choralariga qaramay, milliy ruh va milliy istiqlo‘l uchun kurash olib bordilar. O‘sha davrning mashhur adiblari va publisistlari Munavvarqori, A. Fitrat, A. Cho‘pon, A. Qodiri, A. Avloniy, Hamza, G. Yunus, Ashurali Zohiriy, Xurshid (Sh. Sharofiddinov), keyingi yosh avlod vakillaridan Botu (M.Xodiyev), Ziyo Said va boshqalar hamda o‘zbek professional teatri tashkilotchilaridan M.Uyg‘ur kabi ziyolilar shular jumlasidandir.

XX asrning 20-30-yillari Respublika madaniy hayotidagi og‘ir-yillar hisoblanadi. Bu davrda milliy adabiyot va san’atni saqlab qolish, uning ilg‘or an‘analarini tiklash uchun harakat avj oldi. Shu bilan birga adabiy-badiiy jarayonni hukmron sinf manfaatlariga bo‘ysundirishga yordam beruvchi ikkinchi guruh ham paydo bo‘ldiki, ular millat qahramonlarini qatag‘on qilishda jonbozlik ko‘rsatdilar.

Ana shu kurashlar natijasida o‘zbek adabiyoti tarixida yangi janr – o‘zbek romanchilik janri vujudga keldi. Abdulla Qodiri “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” nomli asarlar yaratib o‘zbek romanchiligi asosiga tamal toshini qo‘ydi. A.Fitratning “Chin sevish” va “Abulfayzxon”, “Arslon”, A.Cho‘ponning “Cho‘riqiz isyonii”, “Yorqinoy” va “Zulmkor” nomli dramatik asarlarida Turkiston xalqlarining fojasi, tuganmas dardlari to‘laqonli aks ettirildi.

Sobiq TASSRning ijozati bilan tuzilgan “Chig’atoy gurungi” tashkiloti Turkiston xalqlari madaniy merosini toplash va o’rganish yumushlari bilan birga madaniyat va adabiyot sohasi orqali milliy istiqlolni targ’ib qilish yo’llida faoliyat ko’rsatgan. Bu tashkilotga a’zo shoir va adiblar, ma’rifatparvarlar til va adabiyotning milliyligi masalasida ulkan ishlarni bajarishdi. O’tmisht merosga, xususan, chig’atoy adabiyotiga katta ixlos bilan qaragan holda, xalq tiliga, xalqona ifodaga, milliy zaminga alohida e’tibor qaratdilar. O’z amaliy ishlari bilan ruslashtirish siyosatiga qarshi turdilar. Lekin bunday sa’y-harakatlar hukmron mafkura andazalariga mos tushmas edi.

Respublikaning mustaqilligi uchun kurash dastlab ochiqdan ochiq olib borilgan bo’lsa, partiya yakkahokimligi va totalitar tuzum o’rnatalishi hamda milliy istiqlol uchun kurashuvchilar ayovsiz jazolana boshlangandan so’ng bu kurash yashirin tarzda olib borildi. Masalan, maorif vaziri bo’lib ishlab turgan R.Inag’omov rahbarligidagi “18 lar guruhi” yer-suv islohoti kompaniyasi boshlanishi oldidan o’z faoliyatini ochiqchasiga olib borgan. R.Inag’omov, eng avvalo, partiya rahbarligi, uning gegemonligiga qarshi chiqadi. Partiyani diktatorlikda va demokratiyanı bo’g’ishda ayblaydi, jamiyatni boshqarishda barcha guruhlarning erkin qatnashishini ta’kidlaydi. Davlatni boshqarishda faqat sho’rolarning ishtirokini tan olib, partianing asosiy vazifasini faqat targ’ibot va tashviqot ishlarini olib borishdan iborat, deb hisoblaydi.

Ayrim ma’rifatparvarlar mahalliy aholi bolalari uchun o’z mablag’idan maktablar ochdilar. Xalq ta’limining ko’pgina tashkilotchilari pedagogik faoliyat bilan shug’ullanishdan tashqari, maktablar uchun o’zbek tilida darslik tayyorlash ishida ham faol qatnashdilar. Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Fitrat, Ashurali Zohiriy, Shorasul Zunnun, Rahimjon Shokiriy, Elbek, Qayum Amazon, Sh.Saidrizo Alizoda, Rafiq Mo’min, Abduqodir Shokiriy va boshqalar shular jumlasidandir.

XX asrning 30-yillarida adabiyot sohasiga G’ayratiy, Oybek, G’. G’ulom, Botu (M.Xodihev), Hamid Olimjon, Abdulla Qahhor, Oydin Sobirova, Usmon Nosir, Amin Umariy, Uyg’un singari yozuvchi va shoirlar kirib keldilar va xalq orasida tanila boshladilar.

XX asrning 20-30-yillarida o’zbek teatr san’ati shakllana bosh-

ladi. Bu davrda Hamza va Mannon Uyg'urlar tomonidan o'zbek professional teatri beshigi hisoblangan akademik teatr tashkil topdi. Natijada Yetim Bobojonov, Abror Hidoyatov, Muhiddin Qori Yoqubov kabi ulug' siymolar yetishib chiqdi. Bu davrda O'zbekiston kino san'ati asosiga tamal toshi qo'yildi. O'zbek musiqa, kinematografiya va teatr san'ati tezkorlik bilan rivojlandi. O'z davrining buyuk san'atkorlari: M.Ashrafiy, T.Sodiqov, M.Burhonov, (musiqa), Y.A'zamov, N.G'aniyev, S.Iskandarov, A.Umarov, R.Pirmuhamedov (kino-matografiya), L.Narzullayev, Z.Hidoyatova, Sh.Qayumov, T.Saidazimova, X.Nosirov (teatr) kabilar yetishib chiqdilar.

XX asrning 30-yillari o'zbek fanining jadal rivoj topayotgan davrlaridan biri hisoblanadi. Bu davrda mashhur geolog olimlardan X.M.Abdullahayev, G.A.Mavlonov, matematiklardan T.N.Qori Niyozov, T.A.Sarimsoqov, biolog olimlardan T.X.Zohidov. D.K.Saidov, A.M.Muzaffarov, A.To'laganov, kimyogarlardan O.S.Sodiqov, A.S.Sattorov, M.Yunusov, X.U.Usmonov K.S.Ahmedov, energetiklardan X.F.Fozilov, G.R.Rahimov, faylasuflardan I.M.Mo'minov, arxeologlardan Ya.G'.G'ulomov kabilar yetishib chiqdilar.

Bu davrning eng buyuk muvaffaqiyatlaridan biri – televideniyening vatani Toshkent bo'lib qolganligidir. 1928-yili o'zbekistonlik V.P.Grabovskiy va I.F.Belyanskiylar elektron nur yordanida harakatdagi tasvirni bir joydan ikkinchi joyga uzatadigan va qabul qilingan «radiotelefon» yaratdilar.

Xullas, XX asrning 30-yillarda ro'y bergan murakkab ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlar respublika madaniy hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, ma'naviy hayot sohasidagi qatag'onlar milliy madaniyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

“Xalqlar otasi” ning jamiyat turmushidagi barcha sohalarga “dohiyarcha rahbarligi” xato va kamchiliklarsiz ideal jamiyat qurilayotganligini madh etuvchi asarlarning ko'payishiga olib keldi. San'atning turli sohalarida hayot haqiqatini bir yoqlama korsatuvchi, qolipga solingan ijod namunalari paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

Qonunchilikning qo'pol ravishda buzilishi, insoniy qadr-qimmatning poymol etilishi natijasida milliy madaniyatning ko'pgina ko'zga ko'ringan namoyandalari - Munavvarqori, Abdulla Qodiriy, Cho'lpion, Fitrat, Zohiriy, Shokir Sulaymon, Elbek, Usmon Nosir, Otajon Hoshimov va boshqa millatparvarlar yo'q qilindi.

II jahon urushi-yillari adabiyot va san'atdagi asosiy mavzu – insonparvarlik g'oyalarining yanada kuchaytirilishi edi. Chunki fashizm butun insoniyat va uning tomonidan yaratilgan barcha madaniy merosni yo'q qiluvchi ofat hisoblanardi. Shu sababli urush-yillarida yaratilgan barcha madaniy boyliklar insoniylik g'oyalariga yo'g'rilgan edi. Bu davrdagi asosiy mavzularidan biri – vatanparvarlik hissining oshib-toshib ketishi va barcha san'at asarlarida namoyon bo'lishi edi. Barcha narsa va harakat, barcha badiiy ijod - buyuk Vatan tuyg'usini shakllantirish, Vatan uchun jonini tikishdek qudratli hisga bag'ishlandi. Natijada bu davrda yaratilgan barcha san'at asarlarida millati, tili, e'tiqodi har xil bo'lgan kishilarning yagona, qudratli kuchiga aylangan ichki ruhiy hissiyot – Vatan tuyg'usi o'z ifodasini topdi.

O'zbekiston ishchi va mehnatkashlari bilan bir qatorda fan, maorif va madaniyat xodimlari ham nemis-fashist bosqinchilari ustidan qozonilgan g'alabaga o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar. Hamma narsa front uchun, hamma narsa g'alaba uchun! Shioriga labbay! deb javob bergen ko'pgina olimlar urushning birinchi kunlaridayoq frontga ketdilar.

Ular orasida O'zbekistonning mashhur olimlaridan – U.A.Orifov, Ya.X.To'raqulov, I.Ismoilov, X.Uzmanov va boshqalar bor edi. T.N.Qori-Niyozov, V.I.Romanovskiy, T.Z.Zohidov, I.A.Raykova, O.S.Sodiqov kabi olimlar natijasi xalq xo'jaligi va front zaruriyatiga uchun xizmat qilgan muammolarni hal qilishda katta kuch bilan mehnat qildilar.

O'zbek matematik, mexanik va astronomlari evakuatsiya, o'qdori, harbiy texnika sifatini oshirishga aloqador bo'lgan bir qancha muhim ilmiy muammolarni hal qildilar. Bunda T.A. Sarimsoqov, V.I. Ramonovskiy, M. Kamolov, N.N. Nazarov va boshqa olimlarning hissasi katta bo'ldi. Ularning ehtimollik nazariyasi va matematika statistikasi sohasidagi ijodiy izlanishlari artilleriya otishmalari va bomba tashlash aniqligini, jangovar samolyotlarning yuk ko'tarish imkoniyatini oshirishga, respublikada ishlab chiqarilayotgan harbiy texnikaning sifat ko'rsatkichlarini takomillashtirishga imkon berdi. Geolog olimlar foydali qazilma boyliklarni qidirib topish, sanoatni zarur xomashyo bilan ta'minlash vazifalarini bajarishga katta e'tibor berdilar. O'zbekiston tog'lari va cho'llarida 1943-yilning o'zidagina

35 ta geologiya ekspeditsiyalari ish olib bordi. O'zbekistonlik kimyogarlar paxta chiqindisidan xalq xo'jaligida foydalanish taklifini, etil spirtini, sirka kislotasini, qamishni quruq qayta ishlash natijasida ko'mir briketini olishning yangi usullarini ishlab chiqdilar. Bunda akademik O.S. Sodiqov boshliq guruh ishlari alohida ahamiyat kasb etdi.

O'zbekiston o'simliklarining alkoloidlik xususiyatini o'rganish yuzasidan akademik S.Yu. Yunusov rahbarligida katta ishlar olib borildi. O'rta Osiyo davlat universiteti (O'zMU)ning kimyo fakultetida urush davrida muhim ahamiyatga ega bo'lgan narkoz efiri, xlorli kalsiy, kofein, streptotsid, sulfidin, nikotin kislotasi ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Fakultet bazasida Toshkent farmatsevtika zavodi tashkil etildi. O'zbekistonlik farmatsevtlar mahalliy xomashyodan 15 ta yangi dori preparatlarini ishlab chiqarish usullarini kashf etdilar.

O'zbekistonning ijtimoiy-gumanitar fanlari olimlari-tarixchilar, sharqshunoslar, adabiyotshunoslari, tilshunoslari, iqtisodchilar va faylasuflar o'zlarining ijodiy mehnatlari bilan mamlakat ilmiy salohiyatini rivojlantirishga, ommaga insonparvarlik, vatanparvarlik, erksevarlik g'oyalalarini singdirishga qimmatli hissa qo'shdilar. Ilmiy tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish, ularni muvofiqlashtirishni dastlab 1940-yilda tashkil etilgan SSSR FAning O'zbekiston filiali (O'zFAN), keyin 1943-yil noyabrda ochilgan O'zFA amalga oshirdi. O'zFA ning birinchi prezidenti qilib T.N.Qori Niyozov saylandi. Bu o'zbek xalqi hayotida muhim voqeа bo'ldi. 1943-1945-yillarda qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlar bilan O'zFA Ittifoqda tanilgan ilmiy markazga aylandi. Bu paytda akademiya tarkibidagi 22ta ilmiy muassasada 818 ilmiy xodim fan olamining turli jabhalarida tadqiqot ishlarini olib bordilar. O'zFANing faoliyatida ko'chirib keltirilgan ilmiy xodimlarning ham o'ziga xos hissasi bo'ldi.

Urush-yillarining qiyinchiliklariga qaramasdan O'zbekistonda Oliy va o'rta maxsus yurtlari va maorif muassasalarining faoliyati ham to'xtab qolmadi. O'zbekistonda 29 ta oliy va 52 ta o'rta maxsus o'quv yurti ishlab turdi, ularning soni markazdan ko'chirib keltirilgan 31 ta oliy o'quv yurti va 7 ta harbiy akademiya hisobiga yana ortib bordi. Bu o'quv yurtlarida urush-yillari mobaynida 11.750 nafar yuqori malakali mutaxassis va 6.673 nafar kadrlar tayyorlandi. Xalq

tur'lini sohasida ham o'qituvchilarning frontga ketishi, ko'pgina binolarning gospitallarga, bolalar uyi va harbiy-o'quv punktlariga berilishi, darslik va o'quv qo'llanmalarining, mutaxassis kadrlarning yetishimovchiligi anchagina qiyinchiliklarni keltirib chiqargan edi. Shunday bo'lsa ham urush-yillarida o'qitish ishlari muntazam olib borildi. O'quvchilar maktabda o'qish bilan birga yaradorlarga, frontga ketganlarning oila a'zolariga, urush nogironlari oilalariga yordam berdilar.

O'zbek adabiyoti ham xalqimizning yovuz dushmanga qarshi kurash-yillarida o'zining munosib hissasini qo'shdi. Oybek, Hamid Olimjon, Shayxzoda, G'ofur G'ulom, Uyg'un, Sobir Abdulla, Zulfiya, Temur Fattoh kabi shoir va yozuvchilar urush maydonlariga safarbar etuvchi she'rlari va maqolalari bilan xalqni g'alabaga ruhlantirdilar. Oybekning – Yovga o'lim! she'ri, – Navoiy romani, G'.G'ulomning – Sen yetim emassan she'ri, Hamid Olimjonning – Yigitlarni frontga jo'natish, – Jangchi Tursun, – Roksananing ko'z yoshlari va boshqa asarlar urush-yillaridagi o'zbek adabiyotining yorqin namunalaridir. M. Ismoiliy, Ilyos Muslim, Nazarmat, Adham Rahmat, N. Safarov, Ibrohim Rahim, Z. Fatxullin, Adham Hamdam kabi yozuvchi va jurnalistlar frontda ishtirok etib, – Qizil armiya, – Front haqiqati, – Qizil askar haqiqati, – Suvorovchi, – Vatan sharafi uchun kabi front gazetalarida xizmat qilish jarayonida, Hamid Olimjon, Oybek, A.Umariy, G'afur G'ulom, Ra'no Uzoqova va boshqa shoir, ham yozuvchilar hukumat delegatsiyalari tarkibida frontning oldingi marralariga borib, o'z qahramonlari bilan tanishdilar, yurtdoshlarining jasoratlarini tarannum etdilar. A.Axmatova, I. Virta, S. Gorodetskiy, A. Deych, K. Zelinskiy, YA. Kolas, N. Pogodin, A. Tolstoy, V. Yan kabi yozuvchi-shoirlar ham O'zbekistonda yashab, o'zbek adabiyotchilari bilan hamkorlikda ajoyib asarlar yaratdilar. Bunda respublika Yozuvchilar uyushmasiga rahbarlik qilgan H.Olimjonning xizmati katta bo'ldi. Dramaturgiya sohasida N. Pogodin, Hamid Olimjon, Uyg'un va Sobir Abdullalar yozgan – O'zbekiston qilichi va A. Umariyning – Qasos, Yashin va Sobir Abdullaning – Davron ota kabi asarlari bilan birga Uyg'un va Izzat Sulton – Alisher Navoiy, Hamid Olimjon – Muqanna, Maqsud Shayxzoda – Jaioliddin Manguberdi, Oybek – Mahmud Tarobiy kabi dramatik asarlarini yaratdilar-ki, ularda o'zbek xalqining

bosqinchilarga qarshi kurash sahifalari aks ettirildi.

1941-1945-yillardagi urush davrida O'zbekistonda ta'sirchan vosita hisoblangan teatr va san'at ancha rivojlandi. Teatr va san'at arboblari frontning oldingi marralarida bo'ldilar. Bu davrda O'zbekistonda 35 ta mahalliy va 16 ta ko'chirib keltirilgan teatr jamoasi faoliyat ko'rgazib, butun urush davomida 203 ta yangi postanovka tayyorladilar va 6.667.303 tomoshabinga 13.568 ta spektakl va konsertlar ko'rsatdilar.

Ikkinci jahon urushi-yillarida respublikamizda 30 dan ortiq konsert brigadaları tashkil etilib, ular harakatdagi armiya qismlarida 35 mingdan ortiq, Turkiston harbiy okrugi qismlari va gospitaldagi nogironlarga 26 mingta konsert qo'yib berib, jangchilarni ruhltirdilar, ularni fashizm ustidan g'alabaga undadilar. Ayniqsa, Tamaraxonim, Halima Nosirova, Mukarrama Turg'unboyeva, Sora Eshonto'rayeva, Abror Hidoyatov, Shukur Burhonov kabi san'atkorlar ishtirokidagi konsert va tomoshalar jangchilar, tomoshabinlar qalbiga zo'r ko'tarinkilik baxshida etgan.

A.Abdullayev, Ch.Ahmarov, O'.Tansiqboyev kabi rassomlar urush lavhalari, badiiy-yilnomalarni yaratib, xalqimizning front va front orqasidagi fidokorona mehnatini mahorat bilan tasvirladilar. Qisqa metrajli filmlar va 10 ta ovozli badiiy filmlarini yaratish bilan I. A'zamov, K. Yormatov, N. G'aniyev, S. Muhamedov kabi o'zbek rejissyorlari urush-yillarida kinomotografiyanı rivojlantirdilar. Bu davrda ishlangan – Nasriddin Buxoroda, – Tohir va Zuhra kabi filmlar – O'zbekfilmning oltin fondiga aylandi. Umuman olganda urushda qo'lga kiritilgan g'alabaga o'zbekistonliklar o'zlarining fidokorona mehnatlari bilan katta hissa qo'shdilar.

Shu bilan birga, XX asrning 40-yillaridan 50-yillarigacha davom etgan siyosiy qatag'onlar O'zbekiston madaniy hayoti va taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu qatag'onlar asosan ilm-fan va madaniyat arboblariga qaratilgan edi. Ko'pgina yozuvchilar, shoirlar, olimlar va boshqa fan va madaniyat arboblari nohaq qoralandi, "millatchi"likda ayblanib, hatto «xalq dushmani» tamg'asini oldi. Natijada adabiyot, san'atning taraqqiyot yo'li yuqorida belgilab beriladigan yo'lga solib qo'yildi. Asosiy e'tibor hayotni realistik, demokratik va oshkora tasvirlab berish o'tniga "xalqlar otasi"ning, partiya va rahbarlar gegemonligining buyuk qudrati hamda qahramonliklarini

borttirib tasvirlashga qaratildi.

Millat, xalq va Vatan tarixini yoritib beruvchi asarlarning mualliflariga “o’tmishni qo’msovchi, “o’tmishni ideallashtiruvchi” kabi ayblar qo’yildi. Yozilgan asarlar partiya organlari senzurasi tomonidan qattiq tekshirilar va rahbariyatga yoqmagan “zararli elementlar” uchun ijodiy organlar va mualliflar badnom qilinari edi. Partiya organlari ayrim yozuvchilar va shoirlarning asarlaridan jiddiy xatolar “topib”, ularni milliy cheklanganlikda, o’tmishning zararli tomonlarini ideallashtirishda ayblay boshladilar. Natijada Oybek, Abdulla Qahhor, M.Shayxzoda, Shukrullo, Said Ahmad, M.Boboyev, Mirtemir va boshqa ijodkorlarni badnom qildilar. Bir qator jurnallar, jumladan, “Sharq yulduzi” va “Zvezda Vostoka” jurnallari tahririyatiga jiddiy ayblar qo’yildi.

Xullas, ma’naviy hayotdagi qatag‘onlar keyingi madaniy hayotda ko‘pgina salbiy oqibatlarning kelib chiqishiga, ya’ni ijod-dagi erkinlik o’rnini hadiksirash, mavzuning yuqorida belgilab berilishini kutish kabi noxush hotatlarning ro'y berishiga olib keldi. Shuningdek, ijodning hukmron millat, mafkura va sinf tazyiqi ostida belgilab berilishi yozuvchilarning ijtimoiy taraqqiyot hodisalarini bir tomonlama yoritishga, mavjud kamchiliklarni ko’rib-ko’rmaslikka olishga majbur etdi. Natijada XX asrning 70-yillaridan so’ng shahar hayotiga asosiy e’tibor berish bilan cheklanib, qishloq voqealarini yoritish e’tibordan chetda qola boshladi. Qishloq hayoti, madaniyat va turmush ikkinchi darajali mavzuga aylandi. Aholining ozchilik qismi yashaydigan shahar hayoti ko’klarga ko’tarib maqtaldi. Ayniqsa, badiiy filmlar ishlab chiqarishda yuzakilikka – g’oyaviy bo’sh, mazmunan sayoz, o’zbek millatining haqiqiy qiyofasini, urf-odatlari, qadriyatlarini, milliy o’zligini ochib bera olmaydigan filmlar ishlab chiqarishga o’tib olindi.

Xulosa qilib aytganda, bu davr O’zbekiston madaniy taraqqiyotini boshdan kechirgan bir bosqich sifatida tarix sahifasidan munosib joy oldi. Fan, texnika, adabiyot va san’at hamda maorif sohalarida muayyan siljishlar bo’lib o’tdi, ularning moddiy-texnika bazasi ancha mustahkamlandi.

1991-yil 1-sentabr kuni O’zbekistonning Mustaqil deb e’lon qilinishi, Milliy istiqlolga erishuvimiz xalqimizning ma’naviyat va madaniyatini yanada yuksaltirish imkoniyatini berdi. Bu shunday bir

ne'matki, ajdodlar tomonidan yaratilgan madaniy-ma'naviy merosga xalq milliy ruhiyati orqali nazar tashlashga, uning sarchashmalarini qalban his qila bilish, xalqona milliy va diniy e'tiqodlarga chuqur ehtirom ila qarash imkoniyatini yaratib berdi.

Milliy istiqlolning mohiyatiga tushunib yetilgan taqdirdagina kishilarda chin vatanparvarlik hissi uyg'onadi, nafaqat o'tmish madaniy merosini, balki zamonaviy, qolaversa, xalqning kelajak madaniyati va ma'naviyati masalalarini ham chuqurroq anglab yetish hissi paydo bo'ladi. Milliy istiqlol shunday qudratli kuchga egaki, o'z millati, xalqi va elatingin taqdiri, madaniyati va milliy qadriyatlar uchun kurash har bir fuqaroning insoniy e'tiqodiga aylandi. O'z navbatida, milliy madaniyatning taraqqiyoti har bir insonning zamonaviy taraqqiyot oqimiga qo'shilib ketishiga yordam berdi.

Mavzuga oid tayanch iboralar

Mustabid tuzum, ijtimoiy fanlar rivoji, partiya organlari, Sharq yulduzi jurnali, "18 lar guruhi", yer-suv islohoti kompaniyasi, qatag'onlik siyosati.

Mavzu bo'ycha takrorlash uchun savollar

1. Sovet davlatining Turkistonda yuritgan mustamlakachilik siyosati, uning mohiyati va maqsadlari haqidagi fikringiz?
2. O'zbekistonda maorif, oliv ta'lim, fan va adabiyot sohasidagi yutuq va kamchiliklar?
3. Ikkinchi jahon urushi-yillarda O'zbekistonda fan va madaniyat sohasi namoyondalaridan kimlarni bilasiz?
4. Sovet davrida O'zbekiston SSR da madaniy-ma'rifiy muassasalar tizimi haqidagi fikringiz?
5. Qatag'onlik siyosati va uning oqibatlari haqidagi fikringiz?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: «Sharq», 1998-y.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: "Ma'naviyat", 2008-y.
3. Mirziyoyev Sh. M. Ilm-fan yetuklari – taraqqiyotning bir omili // Xalq so'zi. – 2016. – 31 dekabr.

4. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 59 b.
5. Abdullayev X.U. San'at tarixi. – T.: San'at. 2001-yil.
6. Azizxo'jayev A. Davlatchilik va madaniyat. – T.: Sharq, 1997-y.
7. Azamat Ziyo O'zbek davlatchiligi tarixiy: (Eng qadimiy davrdan Rossiya bosqiniga qarshi). – T.: 2000-yil.
8. Zoxidov P. Memor olami. – T.: Qomus, 1996-y.
9. Sagdu'llayev va boshqalar. O'zbekiston tarixiy: davlat va jumiyat taraqqiyoti. – T.: 2000-yil.
10. Oydinov N. O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhalar. T.: O'qituvchi, 1997-yil.
11. Musayev N.U. O'rta Osiyoda dehqonchilik madaniyati va agrar munosabatlari tarixidan (Tosh davri so'nggi – XX asr boshlariga qadar). – T.: Fan, 2005-yil.
12. Eshov B.J. O'zbekiston davlatchiligi tarixiy. (o'quv qo'llanma). – T.: Ma'rifat, 2009-y.
13. O'zbekistondagi yangi tarixiy. 1, 2, 3-kitoblar. – T.: "Sharq", 2000-y.
14. O'zbekiston davlatchiligi tarixiy ocherklari. Mas'ul muharrirlari D.A.Alimova., E.V.Rtvelodze. – T.: 2001 yil.
15. O'zbekiston tarixi (1917-1991-yillar). Ikkinchchi kitob. T.: O'zbekiston. 2019. – 576 b.

MAVZU: MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA MADANIY HAYOT VA SAN'AT

Reja:

1. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining qo'lga kiritilishi.
2. Madaniyat sohasida milliy g'oya ifodasi.
3. Mustaqillik-yillarida ma'naviy va tarixiy merosning tiklanishi.
4. O'zbekistonda madaniyat va san'at taraqqiyoti.

Mavzuning o'quv maqsadi: Talabalarga O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritishi, uning tarixiy ahamiyati, mustaqillik-yillarida O'zbekistonda madaniyat, san'at va ilm-fan sohalarida qo'lga kiritilgan yutuqlar haqida ma'lumot berish.

Har bir ijtimoiy tuzum o'zi uchun qulay madaniyat tizimini yaratadi. Mustabid sovet tuzumi davrida kommunistik mafkuraga xizmat qiladigan yagona markazlashtirilgan madaniyat tizimi yaratilib, unga kommunistik partiya rahbarlik qilar edi. Sovetlarga madaniyat asosan kommunistik g'oyalarni targ'ib qilish, o'z hokimiyatini mustahkamlash uchun kerak edi. Kommunistlar mamlakatda o'ziga xizmat qiladigan va mavqeyini mustahkamlaydigan sotsialistik madaniyatni rivojlantirish uchun mablag'iini ayamasdi.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy, siyosiy islohotlarni amalga oshirish bilan bir vaqtda ma'naviy merosimizni, madaniy qadriyatlarimizni tiklash va ularni xalqimizga yetkazish borasida keng ko'lamma faoliyat olib borilmoqda.

Madaniy meros – qadim zamonlardan beri ajdodlarimiz, otaboboblarimizdan bizgacha yetib kelgan ma'naviy boyliklar – siyosiy, falsafiy, huquqiy va diniy qarashlar, axloq – odob me'yirlari, ilm-fan yutuqlari, tarixiy, badiiy va san'at asarlari majmuidir. Har bir avlod ma'naviyatni yangidan yaratmaydi, mavjud ma'naviy merosga

tavanadi, biroq uni qanday bo'lsa shundayligicha, ko'r-ko'rona qabul qilavermaydi, taraqqiyatparvarlik, insonparvarlik, adolat nuqtai nazaridan qabul qiladi va rivojlantiradi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng demokratik huquqarolik, odil jamiyat qurish maqsad qilib olindi. Madaniyat komil insonni shakllantirishga xizmat qila boshladi. Bu borada ulkan tarixiy va jahonshumul ishlar amalga oshirildi. Jumladan:

✓ qadimiy tariximizning haqqoniy, chuqur va har tomonlama o'tqaniishi, tarixiy mavzulardagi sovet davrida taqilangan usurlarning chop etilishi xalqimiz milliy-tarixiy ongini shakllantirishda muhim rol o'yamoqda;

✓ sovetlar davrida man qilingan yoki cheklangan madaniy qadriyatlar: tarixiy xotira, milliy ong, milliy ruh, diniy e'tiqodlar, xalq odatlari, davlat tili, xalq ijodi, milliy o'yinlar, tarixiy me'morchilik san'ati, ko'pgina an'anaviy ijjod turlari tiklandi;

✓ xalq odatlari, marosimlari va bayramlari (Navro'z, Ro'za hayiti, Qurbon hayiti kabilalar)ning tiklanishi va yangi bayramlar (Mustaqillik kuni, O'qituvchi va murabbiylar kuni, Xotira va qadrlash kuni kabilalar)ning joriy etilishi xalq ma'naviy hayotiga yangi ruh va mazmun bag'ishlamoqda;

✓ diniy qadriyatlarning tiklanishi, eski machit va madrasalarning ta'mirlanishi, yangilarining barpo etilishi, diniy adabiyotlar nashr etilishiga keng imkoniyatlar yaratilishi respublikamizda vijdon erkinligini ta'minlamoqda;

✓ o'zbek tilining davlat tili darajasiga ko'tarilishi dilni quvontirmoqda. O'z navbatida, jahon tillarini o'rganish ehtiyoji bizni olamga "yuz tutishimiz"ga, jahon hamjamiyatiga qo'shilishga, umuminsoniy qadriyatlarni yanada kengroq o'zlashtirishimizga yordam berinoqda;

✓ xalq ijodi, milliy amaliy san'atimiz jonlanib, rivoj topib. Vatandoshlarimiz va xorijliklarni lol qoldirmoqda. Xalq ijodi bo'yicha respublika va xalqaro anjumanlarning o'tkazilishi, ajodolarimiz merosi, milliy-axloqiy madaniyat durdonalari yoshlarni tarbiyalashda muhim omil bo'lmoqda. Bu borada o'tkazilayotgan rang-barang tudbirlar, jumladan, xalq hunarmandchiligi va tasviriy san'at ko'rikлari, oilaviy ansambllar va lapar ijrochilar tanlovları, "Alla" ijrochilarining ko'rikлari, folklor-etnografik ansambllar festivallari,

dorbozlar, an'anaviy sirk san'ati, qo'g'irchoq teatri jamoalarining ko'rik-tomoshalari, qadimiy qo'shiqlar, urf-odatlar va marosimlar namoyishlari kabi boshqa ko'plab anjumanlar vatanimizda xalqimizning boy ijodiy merosiga katta e'tibor berilayotganligidan dalolat beradi.

✓ Respublikamizda madaniyat sohasining yangi tizimi vujudga kela boshladi. Jumladan, Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat kengashi", "Ta'lim markazi", "O'zbekkino", "O'zbeknavo", "O'zbekraqs", "O'zbekmuzey", "O'zbekteatr", "Badiiy akademiya", "Milliy madaniy markazlar" kabi ko'plab madaniy-ma'rifiy tashkilotlarning tuzilishi respublika ma'naviyati asosiy sohalarining ravnaq topishiga zamin bo'ldi.

✓ ko'plab nodavlat, notijorat tashkilotlari vujudga keldi.

Jahon madaniyatiga munosib hissa qo'shgan ajdodlarimiz vakillari tavalludlarining yirik sanalarini nishonlash ham xalqimizning eng ulug'vor an'analariga aylanmoqda. Masalan, YUNESKO orqali xalqaro miqyosda:

✓ 1993-yil - Bahouddin Naqshbandiyning 675-yilligi;

✓ 1993-yil - Zahiriddin Muhammad Boburning 510-yilligi,

2003-y. 520-yilligi;

✓ 1994-yil - Mirzo Ulug'bekning 600-yilligi, (Samarqand,

Parij);

✓ 1995-yil - Mahmud Zamahshariyning 920-yilligi;

✓ 1995-yil - Najmiddin Kubroning 850-yilligi;

✓ 1996-yil - Amir Temuring 660-yilligi (Samarqand, Parij);

✓ 1998-yil - Imom al-Buxoriyning 1225-yilligi;

✓ 1998-yil - Ahmad Farg'oniyning 1200-yilligi;

✓ 2000-yil - Burhoniddin Marg'inoniyning 910-yilligi;

✓ 2000-yil - Kamoliddin Behzodning 545-yilligi;

✓ 2001 -yil - Alisher Navoiyning 560-yilligi;

✓ 2003-yil - Abdulkoliq G'ijduvoniyning 900-yilligi kabi buyuik ajdodlarimizning yubileyлari, shuningdek:

✓ 1999-yil - "Alpomish" eposining 1000-yilligi (Termiz);

✓ 2001-yil - "Avesto"ning 2700-yilligi (Urganch);

✓ 2005-yil - Ma'mun akademiyasining 1000-yilligi (Xorazm)

kabi sanalarga bag'ishlangan tadbirlar o'tkazildi.

O'zbekistonning qadimgi shaharlari yubileyлari, jumладан:

- ✓ 1997-yil - Xiva va Buxoro shaharlarining 2500-yilligi;
- ✓ 2002-yil - Termiz shahrining 2500-yilligi;
- ✓ 2002-yil - Shahrisabz shahrining 2700-yilligi;
- ✓ 2006-yil - Qarshi shahrining 2700-yilligi;
- ✓ 2007-yil - Samarcand shahrining 2750-yilligi;
- ✓ 2007-yil - Marg'ilonning 2000-yilligi keng nishonlanishi vatandoshlarimizning eng quvonchli kunlariga aylanib ketdi.
- ✓ 2009-yilda Toshkentning 2200-yilligi tantanasi Mustaqillikimizning 18-yilligi bayramiga ulanib ketdi.

O'zbekistonda bo'lib o'tayotgan Toshkent kinofestivali, "Sharq taronalari (Samarqand)", "Teatr festivali", "Simfonik musiqa festivali", "Maqom" kabi xalqaro anjumanlar ham madaniyat bayramlari satatida xalqimiz qalbidan joy olib ulgurdi.

Mustaqillik-yillarida o'tkazilayotgan "Yangi avlod", "Kelajak ovozi", "Vatan yagonadir, Vatan bittadir", "Yangi nomlar" va boshqa ko'rik-tanlovlarning o'z yo'nalishi, o'ziga xos maqsad va vazifalari bor.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 7-aprel PQ-1091-son "Yagonasan, muqaddas Vatan" respublika ko'rik-tanlovini o'tkazish to'g'risida»gi Qarori mamlakatimiz madaniyati va san'ati, xususan, yoshlar ijodi ravnaqida muhim hodisa bo'ldi. Bu ko'rik-tanloving bosh maqsadi: millatimiz, xalqimiz, eng avvalo, ertangi kuniimizning ishonchi bo'lgan yoshlarimiz qalbida o'z ona-Vataniga bo'lgan mehr va muhabbat, sadoqat tuyg'ularini uyg'otish, Vatanni sharaflaydigan, ulug'laydigan, qadr-qimmati, sha'ni, shavkatini ifodalaydigan mazmunan teran qo'shiqlar yaratish, shu bilan birga yoshlar orasidan iste'dod sohiblarini izlab topish va kashf etishdir. Shu bois, ushbu ko'rik-tanlovni o'tkazib kelinayotgan barcha tanlovlarning umumlashmasi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

O'zbek madaniyatining xalqaro nufuzi osha boshladи. Eng avvalo, ajdodlarimiz merosini tiklash bo'yicha qilinayotgan keng ko'lamli ishlarimizni jahon hamjamiyati tan olmoqda. Bu boradagi olamshumul ishlarimizni o'rganish uchun dunyoning ko'pgina mamlakatlari, chunonchi, Amerika, Norvegiya, Gollandiya, Fransiya. Olmoniya, Turkiya kabilardan tashrif buyurgan mutaxassis olimlar ham amalga oshirilayotgan ishlarga tahsin aytmoqdalar.

O'zbek san'ati jahonga tanilmoqda, ko'plab folklor jamoalari, jumladan. Toshkentning "Kamalak", Andijonning "Sumalak", Xorazmnning "Meros" kabi folklor-etnografik ansamblari xorijiy mamlakatlarga tashrif buyurib, xalqaro anjumanlarda qatnashib, ajnabiylar e'tiboriga nodir san'atimiz durdonalarini havola etishmoqda. Chet ellarda o'zbek xalq madaniyati va ijodiga oid ko'plab kitoblar, maqolalar chop etilmoqda. O'zbek xalq ertaklari, maqollari, iboralari, afsونalarining Xitoy, Eron, Turkiya, Germaniya va AQSHda nashr etilgani quvonchli holdir. Vatanimizda xalq madaniyatini taraqqiy ettirish borasida ulkan tarixiy ishlar amalga oshirilganligini butun jahon tan olmoqda. Shuni bemalol aytishimiz mumkinki, mustaqil O'zbekiston madaniyatining yangi mustahkam poydevori yaratildi.

Xullas, mustaqillik sharofati bilan xalq ijodining rang-barang turlarining tiklarnshi - xalqimiznjing tarixiy ongi, milliy ma'naviyatini shakkantirish va ravnaq toptirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bir tuzumdan ikkinchi tuzumga o'tish davrida hayotning boshqa jabhalari kabi madaniyat sohasida ham jiddiy o'zgarishlar, islohotlar amalga oshirila boshlandi. Ma'lumki, O'zbekistonda islohotlar mamlakatimizning birinchi prezidenti I.Karimov tomonidan taklif etilgan beshta tamoyil bo'yicha amalga oshinlmoqda. Madaniyat sohasida ham bosh islohotchi - bu davlat. O'zbekiston hukumati madaniyat va ma'naviyat sohasidagi islohotlarni ustuvor yo'naliш deb hisoblab, bu boradagi ishlarga jiddiy e'tibor bermoqda.

O'zbekiston xalqining maqsadi – kuchli davlat asosida kuchli jamiyat qurish. Bundan kelib chiqib, mamlakatimiz madaniyat sohasidagi islohotlarning ham asosiy yo'naliши madaniyat va san'at muassasalarini davlat tasarrufidan chiqarib, ularni nodavlat va jamiyat tashkilotlariga aylantirish, jamiyat va inson manfaati asosida xizmat qiluvchi yangi jamiyatlar, uyushmalar, markazlar va jamg'armalar tuzishdan iborat.

O'zbekiston madaniyat tashkilotlari va muassasalari tizimida ikki yo'naliш paydo bo'lmoqda:

1 .Davlat tashkiloti va muassasalari.

2.Nodavlat va jamoat tashkilotlari.

Davlat tasarrufidagi tashkilotlar: Madaniyat va sport ishlari vazirligi tizimidagi tashkilotlar; davlat aksionerlik jamiyatları,

kompaniyalar, birlashmalar: “O‘zbekkino” Milliy agentligi, “O‘ztele-radio” kompaniyasi, O‘zbekiston Badiiy Akademiyasi, “O‘zbeknavo” estrada birlashmasi, “O‘zbekteatr” IIB, “O‘zbekraqs”, “Musavvir” ilmiy ijodiy ishlab chiqarish birlashmalari, “O‘zbekmuzey” birlashmasi. “O‘zbekturmiz” aksionerlik kompaniyasi va boshqalar.

Nodavlat va jamoat tashkilotlari: jamg‘armalar; ijodiy tashkilotlar, jamiyatlar va uyushmalar; madaniy-ma’rifiy markazlar.

O‘zbekistonda quyidagi jamg‘armalar mavjud: Imam al-Buxoriy nomidagi xalqaro xayriya jamg‘armasi, Amir Temur nomidagi xalqaro xayriya jamg‘armasi, Ibn Sino nomidagi xalqaro jamg‘arma, “Oltin meros” xalqaro jamg‘armasi, Bobur nomidagi xalqaro jamg‘arma, Sodiqov nomidagi xalqaro jamg‘arma, “Sog‘lom avlod uchun” xayriya jamg‘armasi, “Kamolot” jamg‘armasi, Bolalar jamg‘armasi, “Iste’dod” jamg‘armasi, “Ekosan” xalqaro ekologiya va salomatlik jamg‘armasi, O‘zbekiston ommaviy-axborot vositalarini demokratlashtirish va qo‘llab-quvvatlash ijtimoiy-siyosiy jamg‘armasi, O‘zbekiston faxriylarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash “Nuroniy” jamg‘armasi, “Mahalla” jamg‘armasi va boshqalar.

Ijodiy tashkilotlar, jamiyat va uyushmalar: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O‘zbekiston Bastakorlar uyushmasi, O‘zbekiston Me’morlar uyushmasi, O‘zbekiston Faylasuflar jamiyat, O‘zbekiston Tarixchilar jamiyat, O‘zbekiston “Tasviri oyina” ijodiy uyushmasi, O‘zbekiston Jurnalistlar ijodiy uyushmasi va boshqalar.

Madaniy-ma’rifiy markazlar: Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi, Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi, O‘zbekiston huquqiy madaniyat markazi, Ijtimoiy fikr jamoatchilik markazi, O‘zbekiston ijtimoiy falsafa va milliy tiklanish markazi, O‘zbekiston baynalmilal madaniyat markazi, Milliy-madaniy markazlar (rus, ukrain, qozoq, koreys kabi yuzga yaqin markazlar) va xalqaro aloqalar jamiyatları. Madaniyat tizimidagi davlat va jamoa tashkilotlari faoliyati. O‘zbekiston madaniyat tizimidagi tashkilotlarda hozirgi davrda: tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Muhim tashkiliy ishlar hal etilmoqda, ish mazmuni va shakli yangilanmoqda; jiddiy izlanishlar olib borilmoqda, jahon tajribasi o‘rganilmoqda va tajribalar orttirilmoqda; yangi sharoitda moddiy va iqtisodiy muammolar hal qilinmoqda.

Davlat tasarrufidagi O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va

sport ishlari vazirligi bosh-qosh bo'limoqda va ulkan ishlarni amalga oshirmoqda.

Davlat tizimida yangidan tuzilgan ko'pgina tashkilotlar, masalan, "O'zbekteleradio" kompaniyasi, "O'zbekkino", "O'zbekiston Badiiy Akademiyasi", "O'zbeknavo", "O'zbekteatr", "O'zbekturizm" kabilalar samarali faoliyat ko'rsatishmoqda.

Ijodiy tashkilotlar orasida esa yozuvchilar, bastakorlar, me'morlar uyushmalarining faoliyati diqqatga sazovor.

Madaniy-ma'rifiy markazlar ichida O'zbekiston baynalmilal markazi, ijtimoiy fikr jamoatchilik markazi, Huquqiy madaniyat markazi va boshqalar ibratlari ishlarni amalga oshirishmoqda.

Madaniyat tizimidagi muammolar. Jamiyatimiz madaniyat va ma'rifat "bino"sinи baquvvat va go'zal bo'lishi uchun hali ko'p ishlarni amalga oshirishimiz lozim bo'ladi. Bu sohada bajarilishi lozim bo'lgan ishlar talaygina. Ularning bazilariga to'xtalamiz: Respublika va viloyatlar darajasida ulkan ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsa ham, ba'zi joylarda, jumladan, tuman, mahalla va qishloqlarda jiddiy e'tibor berish lozim bo'lgan ishlar mavjud. Ko'pgina joylarda gi mahalliy rahbarlar hanuzgacha madaniyat sohasiga yetarlicha e'tibor berishmayapti.

O'zbekiston hududlarining mushtarakligini ta'minlashda madaniyat va san'atning o'rni katta. Bu borada "Viloyatlar kuni", ya'ni viloyatlarda bir-birining kunlarini o'tkazish yaxshi samara beradi. Bunday tadbirlarni tumanlararo ham o'tkazish mumkin.

Hozirgi davrda yoshlardan ma'naviyatiga alohida e'tibor berish lozim bo'limoqda. Ba'zi yoshlardan ongida va ma'naviy hayotida bo'shliqning paydo bo'lishiga mahalliy madaniyat muassasalarining talab darajasida ishlar mayotganligi sabab bo'limoqda. Klublar, madaniyat uylari, kutubxonalar, istirohat bog'lari mahalliy aholi va yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishga va ularni g'oyaviy, ma'naviy kamol topishiga samarali xizmat qilishi lozim.

Madaniyat tizimining moddiy negizini yaxshilash muhim muammlarning biri sifatida namoyon bo'limoqda, bu borada ko'pgina ishlarni amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, hali qator muammolar ham mavjud:

a) madaniyat sohasida tuzilgan yangi (davlat, jamoa va nodavlat) tashkilotlariga hukumatimiz katta mablag'lar ajratgan. Ularga mod-

diy va ma'naviy yordam berib turilibdi, mablag'ini ko'paytirish maqsadida tijorat ishlarini olib borishga ruhsat berilgan, soliqdan ozod etilgan. Biroq ular ishni yo'lga qo'yish uchun ajratilgan mablag'lar dan maqsadga muvofiq foydalanishmayapti. Ishga eng zaruriy narsalar o'rniغا bu tashkilotlarning rahbarlari o'zları uchun qulayliklar yaratishmoqda. Shuningdek, madaniyat tizimi o'zini o'zi mablag' bilan ta'minlash ishlarini ham yaxshi yo'lga qo'yishi zarur;

b) madaniyat va san'at sanoati yo'lga qo'ymasdan bu sohani taraqqiy ettirib bo'lmaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kino sanoati (ssenariy yaratish, kino olish, ularni targ'ib qilish, ijara ishlarini amalga oshirish), musiqa sanoati (musiqiy asarlarni yaratish, ijro qilish, ovoz yozib olish va ularni tarqatish), tasviriy san'at sanoati (tasviriy durdonalar yaratish, ularni targ'ib qilish, ko'rgazmasavdolar, auksionlar uyushtirish) kabilarni yanada yaxshi yo'lga qo'yish zarur bo'lmoqda;

d) madaniyat tizimi faoliyatini yaxshilash uchun unga, albatta, ko'proq faol qiziquvchi, tashabbuskor va izlanuvchi ijodkorlarni jalb etish muhim ahamiyatga ega. Ko'pgina joylarda madaniyat sohasida hamma ishlayverishi mumkin, degan tushuncha mavjud. Bunday tushuncha bilan madaniyatni rivojlantirib bo'lmaydi. Madaniyat jonkuyar, tashabbuskor tashkilotchilar bilan tirik. Ularsiz madaniyat tizimi ishlay olmaydi va inqirozga uchraydi.

Bugungi globallashuv sharoitida milliy g'oya va mafkura muhim ahamiyat kasb etmoqda. Milliy g'oya - bu, jamiyatni birlashtiruvchi, ruhlantiruvchi va olg'a yetaklovchi kuchdir.

Milliy g'oyaiga birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning:

- yurt tinchligi;
- vatan taraqqiyoti;
- xalq manfaatiga oid fikrlari asos bo'ladi.

Milliy g'oya va mafkurani targ'ib qilish uchun unga xizmat qiluvchi barcha vosita, usul va shakllardan samarali foydalanishimiz zarur. Bu borada, ayniqsa, madaniyatning o'rni benihoya kattadir. Boshqacha qilib aytganda, madaniyatsiz, ya'ni, adabiyot, san'at (musiqa, kino, teatr, tasviriy ijod), ma'rifat, ilm-fan, odat, marosim, bayram kabilarsiz milliy mafkura o'z ifodasini topishi qiyin. O'z navbatida, milliy mafkura milliy madaniyatning ravnaq topishi va ezu maqsadlar sari intilishiga yordam beradi.

Milliy mafkurasiž madaniyat ravnaq topishi mumkinmi, degan savol tug'iladi. Balki mumkindir. Biroq bunday madaniyat millatni ezgu maqsadlar sari yetaklay olmaydi. Odillik, halollik, imon-e'tiqodlilik, hurflkrlilik, vatanparvarlik, ma'rifatparvarlik, taraqqiyatparvarlik, olijanoblik, mehr-muruvvatllilik, saxovatllilik, insонparvarlik kabi ma'naviy omillarsiz milliy mafkura rivoj topa olmaydi. Bu omillarsiz madaniyat, jumladan, ilm-fan, adabiyot, san'at, ta'lim-tarbiya tizimi rivojlansa ham, jamiyat taraqqiyotida ijobiy emas, balki salbiy rol o'yinaydi.

Milliy g'oya, mafkurani amaliyatda rivojlantirishda madaniyatning har bir turining o'ziga xos o'rni bor. Ilm-fan milliy g'oya va mafkurani ravnaq topishida katta ahamiyat kasb etadi. Ilm-fanda paydo bo'lgan g'oyalalar, konsepsiylar, ta'limotlar hayotni taraqqiy ettiradi. Shuning uchun biz ilm-fan sohasida jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan fikr, g'oya, ta'limotlar paydo bo'lishi uchun qulay sharoitlar yaratishimiz kerak.

San'at (musiqa, raqs, teatr, tasviriy san'at)da xalqning ongi va qalbini qamrab oluvchi sehrli kuch borligini inkor etib bo'lmaydi. Bu mo'jizaviy imkoniyatdan xalqimiz ongini o'stirish va ruhini tetiklashtirishda samarali foydalanish zarur.

San'at asarlarida tarixiy merosga, milliy qadriyatlarimizga mu-rojaat etila boshlangani quvonchli hol. Biroq hozirgi yaratilayotgan san'at asarlarining saviyasi yetarli darajada emas. Shuni bilish kerakki, buyuk qadriyatlar haqida past saviyada gapirib bo'lmaydi. Masalan, yuksak g'oyalarni ifoda etish uchun o'sha darajadagi ijodkor kerak. Agar Ahmad Farg'oniy haqida spektakl yaratayotgan dramaturg, rejissyor va aktyorning g'oyaviy, falsafiy, ma'naviy va madaniy saviyalari past bo'lsa, mantiq talab qilgan yuqori darajadagi teatr asari yaratilmaydi. Past darajadagi asarlar, aholining madaniy saviyasini yuqoriga ko'tara olmaydi.

Shuni unutmaylikki, nazariy jihatdan bitta qo'shiq yoki bitta badiiy film bilan jahonga tanilish mumkin. Qani endi, "O'zbek kino"da yaratilgan bir kinofilm, jahoning turli kino va teleekranlarida namoyish qilinish darajasiga loyiq bo'lsa! Yoki Vatanimizda yaratilgan ohangrabo qo'shiq jahoning ko'plab joylarida ham yangrashiga erishsak, agar milliy san'atni yuqori darajaga ko'tara olsak, bu asarlar bilan birga bizning fikr, g'oyalaramiz, fazilatlarimiz, bir so'z

bilan aytganda, milliy ma’naviyatimiz ham jahonga chiqadi.

Adabiyot insoniyat taraqqiyotida muhim rol o‘ynagan va hozir ham shunday. XX asrgacha asosiy g‘oyalar faqat adabiy asarlar orqali xalqqa yetib borgan. XX asr boshida milliy uyg‘onish jarayonda ham, XX asr oxirida mustaqillikka erishishda ham qalam ahli katta rol o‘ynadi. Biroq negadir mustaqillikka erishishimiz bilan yozuvchi va shoirlarimiz ham ijtimoiy, ham ijodiy jihatdan bir qadar surʼ bo‘lib qolishdi. Mustaqillikka erishilgandan so‘ng yaratilgan yaxshi adabiy asarlarni barmoq bilan sanasa bo‘ladi. Ba’zi adiblar «yozuvchiman!» deya turib, o‘zi jiddiy asarlar yozmay, faqat «papiruvchi»ga aylanib ketmoqda.

Mustaqillik-yillarida badiiy adabiyotda milliylik, ming-yillik tarixiy ijodiy an’analar, umuminsoniy qadriyatlar, erkin fikr yuritish tamoyillari tiklandi. Badiiy adabiyotda mustaqillikni asrabuvaylash, ozod va obod Vatan qurish, barkamol insonni tarbiyalash, milliy o‘zlikni anglash kabi masalalar bosh mavzu bo‘lib qoldi. Abdulla Oripov, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Xurshid Davron kabi ijodkorlarning tarixiy roman, pyesa va qissalarida ulug‘ bobokalonlarimiz Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Bobur va boshqalarning siymolari umuminsoniy va milliy qadriyatlarga mos tarzda yangicha talqinda yoritildi.

Mustaqillik davri adabiyotining yalovbardorlari O‘zbekiston qahramonlari Said Ahmad, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuflar ijodiy faoliyati bilan butun xalqimiz faxrlanadi. Istiqlol davridagi o‘zbek adabiyotshunosligi oldida turgan muhim vazifalarni hal etishda O.Sharofiddinov, B.Qosimov, N.Karimovlarning asarlari alohida o‘rin egallaydi. Muhammad Ali va T.Malikning romanlari, U.Azim, E.A’zam, S.Sayyid, H.Xudoyberdiyeva, H.Ahmedova, J.Ergasheva, H.Do’stmuhammad, Sh. Salimova singari shoir va adiblarning badiiy barkamol, g‘oyaviy yetuk asarlari katta hissa bo‘lib qo‘sildi. Umuman, adabiyotga e’tibor madaniyatning muhim yo‘nalishi bo‘lib qoldi. Yozuvchilarini qo’llab-quvvatlash borasida 2010-yil O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi huzurida “Ijod” fondi tashkil etilib, 2011-yildan yosh ijodkorlarning birinchi kitoblari davlat hisobidan chop qilina boshlandi.

Adabiyotga e’tibor 2017-2018-yillarda yanada kuchaydi. 2017-

yil 12-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Shu-yildan 10 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan kitobsevarlar o‘rtasida “Yosh kitobxon” respublika ko‘rik tanlovi tashkil etildi. Shuningdek, O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 3-avgust kuni ijodkor ziyolilar bilan bo‘lgan uchrashuvida bir qator madaniy muassasalarga homiy tashkilotlar belgilab berildi. Shu yo‘nalishda Xalq banki bilan Yozuvchilar uyushmasining “Do‘srlar klubi” tashkil etildi. “Do‘srlar klubi”ning tashkil etilishi yozuvchi va shoirlarning ijtimoiy hayotdagi o‘rni va nufuzini oshirish, ularning ijodiy salohiyatlarini ro‘yobga chiqarish, moddiy va ma‘naviy rag‘batlantirish, munosib ish va turmush sharoiti yaratib berish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Musiqqa, kino, teatr san’atlarining rivojlanishi ham ko‘p jihatdan adiblarga bog‘liq. Adiblar bu ijod turlarining asosi – qo‘shiq, she’r, pyesa, ssenariy, librettolarni yaratadi. Ushbu adabiy janrlar yaxshi rivojlanmasa, san’at turlari negizan bo‘sht bo‘lib qolaveradi. Hozir aynan tele va kino, teatr san’atiga milliy g‘oyalar bilan sug‘orilgan yaxshi asarlar yetishmayapti.

Xalq odatlari milliy g‘oya va istiqlol maskurasini, ayniqsa, yosh avlod ongi va qalbiga singdirishda muhim vosita hisoblanadi. Asrlar osha shakllangan, avloddan avlodga bebaho meros bo‘lib o‘tib kelgan, biroq sho‘rolar davrida ta‘qibga uchragan xalq an‘analari ajodolarimizning eng yaxshi fazilatlari, fikrlari, tajribalari, yutuqlari, qadriyatlarini bizga yetkazib, jamiyatimizni axloqiy sog‘lom-lashtiruvchi, insonparvarlikni barqarorlashtiruvchi, ayniqsa, yosh avlodning g‘oyaviy-ma‘naviy kamol topishida muhim omil sifatida xizmat qiladi. Xalq an‘analari odamlar orasida odob-axloq, imon-e’tiqod, insof, insonparvarlik, mehr-muruvvat, saxovat, adolat, halollik, birodarlik, vatanparvarlik, mehmondo‘slik kabi xislatlarni ravnaq topishida muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, millat, jamiyatni birlashtiruvchi an‘analardan foydalanishimiz zarur. Jumladan, Navro‘z, Gul sayili, Mehrjon, Hosil bayramlarida xafagarchilikni unutish, arazlashganlarni yarashtirish, tanishish, qarindosh tutinish, do‘splashish, mehmondorchilik fuqarolarni ezgu maqsadlar sari

yetaklaydi, ularni g‘oyaviy va ma’naviy jihatdan birlashtiradi. Qodimiy va navqiron Navro‘z esa xalqimizning ko‘p ming-yillik qobiyl fazilatlarini mujassamlashtirib, bizni doimo bonyodkorlik, ezbilik, yangilanishga chorlaydi.

Istiqlol davrida vujudga kelgan “Mustaqillik kuni”, “O‘qituvchi va murabbiylar kuni”, “Xotira va qadrlash kuni” kabi bayramlar ozodlikning qadriga yetish, Vatanni e’zozlash, ota-onva ustozlarni hurmat qilish, ajdodlar an’analariga sodiq bo‘lish, o‘tganlar xotirasini abadiylashtirish, yorqin kelajak sari intilish, el-yurt, millat uchun xizmat qilishga undashda samarali vositaga aylanmoqda.

Azaliy va yangi zamonaviy xalq an’analarini o‘rganish, targ‘ib qilish bilan bir qatorda bu boradagi muammolarni bartaraf etish yo‘llariga ham alohida e’tibor berish zarur. Jumladan, turarjoylarda xalq marosim va bayramlarini o’tkazish kengashlarini tuzish, ularning mavsumiy emas, doimiy faoliyatini olib borish, to‘y-ma’rakalarni ixchamlashtirish, kam daromad oilalarga to‘y va aza marosimlarini o’tkazishda ko‘mak berish, diniy odatlar orasida payshanbalik, yakshanbalik, uchlik, yettilik, yigirmalik, qirqlik kabi islam shariatida bo‘limgan udumlarni ixchamlashtirish; to‘y marosimlarining moddiy tomonlariga emas, balki ma’naviy tomoniga alohida e’tibor berish kabi ko‘plab muammolarni doimo hal qilib borish lozim.

Oz navbatida, millat rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi unsurlarni an’analarimiz qatoridan chiqarishimiz lozim. Masalan, bir tog‘li qishloqda shunday odat bor ekanki, ikki kishi urishsa, ikkala tarafdagagi aka-ukalar o‘rtasida ham bordi-keldi to‘xtar ekan. Natijada, qishjoq ikki araz tomoniga bo‘linib qolar ekan. Bunday arazchilikni taraqqiy ettiradigan odatlar bizga kerak emas, albatta.

Biroq xalqimizda shunday odatlar ham borki, ular elni birlash tiradi. Masalan, bayram (Navro‘z, Mehrjon, Ro‘za va Qurbon hayiti) kunlari tinchlik kunlari hisoblanib, bu vaqtida nafaqat urushlar to‘xtatilgan, balki xafagarchiliklar unutilgan, arazlashganlar yarashtirilgan, begonalar tanishgan, tanishlar do‘stlashgan. Xullas, milliy bayramlarimizdagи odamlarni g‘oyaviy, ma’naviy, ijtimoiy birlashtiradigan ruhiy-ma’naviy holatni rivojlantirishimiz kerak.

Bu bayram an’analaridan hozirgi vaqtida samarali foydalanish millat vakillarini hamjihat qilib, birlashtiradi. Milliy g‘oyaning ham asosiy maqsadi -millatni ezu maqsad sari birlashtirish! Din ham

madaniyatning eng nozik va murakkab masalasidir. Hozirgi davrda dinimizga aynan madaniyat yetishmayapti. Islom dini sobiq sho'rolar davrida taqiqlangani uchun mustaqillik sharoitida uning tiklanishiga keng imkoniyatlар yaratib berildi. Atomdan atomelektrostansiyasi va atom bombasi tayyorlash mumkin. Dinni niqob qilib, vatanimizga nur emas, yovuzlik-terorchilik olib keladiganlar paydo bo'ldi. Bu kasallikning oldini olish uchun unga qarshi immunitet hosil qilish lozim bo'lmoqda. Birinchi Prezidentimiz aytganidek, "Biz farzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolamizning muqaddas diniga sog'lom munosabatni qaror toptirishimiz, ...ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur. Ana shunda johil aqidaparastlarning "da'vati" ham, axloqni rad etadigan, biz uchun mutlaqo begona g'oyalar ham ularga ta'sirini o'tkaza olmaydi".

Milliy g'oyaning shakllanishi va taraqqiy etishi, eng avvalo, madaniy-ma'rifiy xodimlarga, ziyorolar, jumladan, olimlar, yozuvchilar, san'atkorlar, ijodkorlar, tarbiyachilar, ma'rifatchilar (professor-o'qituvchilar) kabilarga bog'liq. Ular chin ko'ngildan, faol mehnat qilishsa, jamiyatda ezgulik g'oyalari g'alaba qozonadi. Bu ishda har kimning o'z vazifasi bor. Agar olimlar milliy g'oyani shakllantirish bo'yicha tadqiqotlar, yozuvchilar millatni birlashtiruvchi g'oyalarni tarannum etuvchi badiiy asarlar, san'atkorlar ezgulikka, milliy taraqqiyotga xizmat qiluvchi ijod mahsullarini yaratishsa, madaniyat xodimlari, jumladan, kutubxonachilar, muzey, klub va istirohat bog'i xodimlari joylarda milliy mafkura targ'iboti, muktab o'qituvchilar o'quvchilar ongi va qalbiga insonparvarlik va millatparvarlik g'oya va tuyg'ularini singdirish bilan faol shug'ullanishsa, tabiiy tarzda jamiyat olg'a dadil qadam tashlaydi. O'z moddiy muammolari bilan band bo'lib qolgan ziyorolar ma'naviy sohada, jumladan, milliy g'oya va mafkurani yaratish va targ'ib qilishda yaxshi natijalarga erisha olmay qoladilar. Ma'naviyatsiz, milliy g'oya, mafkurasiz esa jamiyat olg'a siljiy olmaydi. Jamiyatni ezgu maqsadga yetaklovchi milliy g'oyani shakllantirish va rivojlantirish ziyorilarning muhim vazifasi ekan, davlat ularning faoliyatlarini qo'llab-quvvatlab turishi, ularga moddiy va ma'naviy sharoitlar, qulayliklar yaratmog'i katta ahamiyatga ega.

Xullas, milliy g'oya va mafkuraga tayangan o'zbek madaniyati

o‘z tarixiy tomirlaridan kuch olib, gullab-yashnab, ajdodlarimiz tajribasiga tayanib, jahon darajasiga chiqib, umuminsoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotiga yana xizmat qiladi, degan umiddamiz.

O‘zbek xalqi an’anaviy madaniyati. Mustaqillikka erishgan har bir davlatning ma’naviy poydevori mustahkam bo‘lgandagina, u baquvvat bo‘lib, keng ko‘lamda rivojlana oladi. Buning uchun esa ajdodlar ming-yilliklar ichida yaratgan bebaho meros – xalq madaniyati an’analarini yanada jonlantirish, taraqqiy ettirish va ulardan aql-idrok bilan foydalanish lozim bo‘ladi. Biroq ma’naviy merosni chuqur, har tomonlama o‘rganmasdan turib, bu bebaho boylikni tiklash, ayniqsa, rivojlantirish aslo mumkin emas.

Ayonki, sobiq sho‘ro hokimiyati davrida, mamlakatda tezroq yagona sovet xalqini shakkantirish maqsadida milliy xususiyatga ega bo‘lgan qadriyatlar, milliy ong, ruhiyat, xalq odatlari, an’anaviy madaniyat kabi hodisalar rasmiy-norasmiy taqiqlandi.

Mustaqillikka erishgan har bir millat, avvalo, o‘zligini tiklashga barakat qiladi. Chunki istilochilar, eng avval, o‘z mustamlakasidagi xalqning ma’naviy o‘zligini yo‘q qilishga intiladi. Millatning ma’naviy o‘zligini esa milliy ong, ruh, an’analar, til, din, adabiyot, axloq, ilm-fan, ma’rifat kabi ma’naviy qadriyatlar vujudga keltiradi. Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so‘ng eng dastlabki ishlardan biri, bu - tarixiy-ma’naviy qadriyatlarni tiklash bo‘ldi.

“Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar mobaynida yaratib kelingan g‘oyat ulkan, bebaho ma’naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan nihovatda muhim vazifa bo‘lib qoldi”, deb ta‘kidlagan edi O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov. Darhaqiqat, mustaqillik tufayli amalga oshirilgan tarixiy buyuk ishlardan biri – bu xalqimizning ma’naviy merosini tiklana boshlagani bo‘ldi.

Mustaqil O‘zbekistonda ma’naviy islohotlar negizida milliy qadriyatlarning tiklanishi. Ma’naviy qadriyatlarimizni tiklash o‘z-o‘zidan bo‘layotgani yo‘q, albatta. U, eng avvalo, mustaqillik sharofati bilan vujudga kelgan tarixiy ehtiyojlar asosida ma’naviyat va ma’rifat sohasidagi islohotlar zamirida sodir bo‘lmoqda. Ma’naviy sohadagi islohotlar doirasida muhim ishlar amalga oshirila boshladи. Eng muhimi, Respublikamizda “Ma’naviyat va ma’rifat” Kengashi

tuzildi va uning markazlariga yuklatilgan vazifalar yurtimizda ma’naviyat masalalarini yuksaltirishga qaratildi.

Ma’naviyatni rivojlantirish – davlatning bosh vazifasi deb qarash sohaning jiddiy taraqqiy etishiga zamin bo’ldi.

O’zbekiston Prezidentining avvaldagi «Ma’naviyat va ma’rifat» jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to‘g‘risidagi (1996-y) farmonida ‘Ma’naviyat va ma’rifiy islohotlar davlat siyosatining asosi, ustuvor yo‘nalishi deb hisoblansin”, - deb qayd qilindi.

Kino. Mustaqillik-yillarida milliy kino san’atini rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratildi. Dastlabki davrdagi moliyaviy qo’llab-quvvatlashlar 2004-yili “O’zbekkino” milliy agentligi tashkil etilgandan keyin yangi bosqichga ko’tarildi.

2017-yil kino san’ati uchun ham muhim-yil bo’ldi. Birgina shu-yilning o’zida “O’zbekkino” milliy agentligiga davlat budjetidan 12 milliard 400 million so‘m ajratildi. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 29-dekabr kuni milliy kino san’atini xodimlari va mutasaddilari bilan uchrashdi. Unda kino san’atining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, madaniyat va san’at yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalari, tajriba va malaka oshirishini tashkil etish, hududlarda kinoteatrlar qurish, ularning faoliyatini yo‘lga qo‘yish masalalari muhokama qilindi. Shuningdek, kinematografiya sohasini rivojlantirish borasida qabul qilingan qarorlar ijrosini ta’mirlash, xorijiy kinostudiylar va kinoijodkorlar bilan aloqalarni mustahkamlash, ular bilan hamkorlikda filmlar yaratishni yo‘lga qo‘yish ta’kidlandi.

Muzey. Millatimizning o’zligini anglashda hamda milliy, tarixiy qadriyatlarimizni tiklashda muzeylar alohida o‘rin tutadi. Muzeylar orqa ni o‘tmishni, tarixni ko‘rish, eslash, sezish, o‘rganish mumkin. Shu boisdan ham, mustaqillik-yillarida mavjud muzeylarni ta’mirlash, ularni yangi eksponatlar bilan boyitish, yangi muzeylar barpo etishga alohida e’tibor berildi. 1996-yili Toshkentda Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Olimpiya shon-shuhrati, 2002-yili Qatag‘on qurbanlari xotirasasi, Surxondaryo viloyatining markazi - Termiz shahrida Arxeologiya muzeyi ish boshladi. O’zbekiston Prezidentining 1998-yildagi “Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni mamlakatimizda muzey

ishini rivojlantirish istiqbollarini belgilab berdi.

Muzeylar davlat muhofazasiga olindi, ularni ta'mirlash, muzey ekspozitrlarini boyitish davlat budgeti hisobidan moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlandi. Muzeylar faoliyatini muvofiqlashtirish, ilmiy-uslubiy yordam ko'rsatish, moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida 1998-yilda "O'zbekmuzey" Respublika jamg'armasi tuzildi. Aholining muzeyshunoslik madaniyatini oshirishga ko'maklashuvchi "Moziydan sado" jurnali ta'sis etildi va u 1999-yildan boshlab o'zbek, rus va ingлиз tillarida nashr etila boshlandi. Yoshlar ma'nnaviyatida muzeylarning ahamiyati hisobga olinib, 2014-yil Vazirlar Mahkamasining qarori bilan haftaning seshanba va juma kunlari bolalar va ularning ota-onalariga bepul xizmat ko'rsatish, har-yili 2-8 sentabr kunlari "Muzeylar haftaligi"ni tashkil etish belgilandи.

An'anaviy xalq ijodi. Mustaqillik sharoitida xalq ommasining ijodiy an'analarini saqlash va rivojlantirish, jumladan, xalqning og'zaki, musiqali, amaliy, teatr-tomoshaviy deb atalgan ijod turlari va janrlarini tiklash va kamol toptirish muhim ahamiyat kasb etib bormoqda.

Xalq og'zaki ijodining askiya, doston, mushoira, lof, kulgilikoya, asotir (mif), afsona, ertak, latifa; an'anaviy musiqa ijodining alla, yalla, yor-yor, alyor, terma, ashula, marosim qo'shiqlari va musiqa folklori asosida vujudga kelgan oilaviy ansamblar, folklor etnografik guruuhlar, xalq havaskorlik jamoalari; xalq teatr-tomosha ijodining masxarabozlik, qo'g'irchoqbozlik; xalq amaliy-bezak ijodining naqqoshlik, kulolchilik, o'ymakorlik, zardo'zlik, zurgarlik, to'qimachilik turlarini; tabiat bilan bog'liq bo'lgan ijodning rang-barang tur va janrlarini tahlil qilish asosida shunday xulosaga kelindiki, ular avlodlar ongini, badiiy tafakkurini, estetik qarashlarini taraqqiy ettiribgina qolmay, balki ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ijodkorlikni rivojlantirgan, xalqning o'z tarixi va taqdiri haqida o'ylashga, bunyodkorlik qilishga undagan. Shuning uchun ijodiy merosni tiklash va kamol toptirish xalqning barcha ijtimoiy-madaniy sohalaridagi faolligini oshirishda muhim omil bo'ladи.

Mustaqillik sharoitida o'zbek xalq ijodining tiklanish va ravnaq topishi jarayoni jadal sur'atlar bilan amalga oshmoqda. O'zbekiston Respublikasida bu soha ishlarini rivojlantirishda "Respublika xalq

ijodi va madaniy-ma'rifiy ishlar markazi"ning xizmati kattadir. Xalq ijodiga oid ma'naviyatimiz durdonalarini aniqlash va ularga tegishli ko'mak berish borasida respublikamizda amalga oshirilayotgan diqqatga sazovor tadbirlarga murojaat qilamiz:

- xalq hunarmandchiligi, amaliy va tasviriy san'at, havaskor ijodkorlar ko'rigi, savdo-ko'rgazmalarini amaliy san'at ixlosmandlarini rag'batlantirib, ularning ilhomiga ilhom qo'shib yubordi;

- "Alla" ijrochilarining Respublika ko'rik-tanlovleri bola kamolotida muhim o'rinni tutadigan Ona shaxsini e'zozlashga oid ko'plab qo'shiqlarning yuzaga kelishiga imkon berdi;

- folklor jamoalari Respublika seminar-kengashi faoliyatini xalq ijodiyoti sarchashmalarini aniqlash, tiklash va targ'ib qilishda folklor-etnografik ansambllarning muhim o'rinni tutishini namoyon etdi;

- oilaviy ansambllar, katta ashula, lapar ijrochilarini Respublika ko'rik-tanlovleri o'zbek xalq ijodining barcha tur va janrlariga Xalqaro darajada ham katta qiziqish bilan qaralayotganligidan dalolat berdi.

- "Chashma" Respublika folklor ko'rik-tanlovi xalq ijodi bitmas-tuganmas va boy ma'naviy "buloq" ekanligini ma'lum qildi va ayni chog'da bu sohadagi qator muammolarni davlat miqyosida ijobiyligi rial etilishiga turtki berdi;

- maqomchilar Respublika ko'rik-tanlovleri bu mumtoz san'at dovrug'ini yanada keng yoyib, ko'plab iqtidorli iste'dodlarni yuzaga chiqardi.

- mashhur xalq baxshilari yubileyлari baxshilik san'ati hozirgi kunda qaysi yo'llar, janrlar va qaysi ijodiy maktablar doirasida ravnaq topayotganligini namoyon qildi;

- "Oilaviy ansambllar Respublika ko'rik-tanlovleri" vatanimizda oilaviy ijodni targ'ib qilishda va ommalashishida muhim omil bo'ldi;

- "Turkiston – umumiyligi uyimiz!" ruknida Markaziy Osiyo baxshi-shoirlarining ko'rik-tanlovi o'z atrofiga 100 dan ortiq baxshilarni yig'ib, mintaqasi ko'lamida Turkmaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Qoraqalpog'iston baxshilarining o'zaro ijodiy boyishiga xizmat qildi;

- dorbozlar, an'anaviy sirk san'ati va qo'g'irchoq teatri

jamoalarining Respublika ko'rik-festivali bu qadimiy san'atga yuqada jiddiyroq va har taraflama e'tibor berishimiz lozimligi mavasini kun tartibiga qo'ydi;

"qadimgi qo'shiqlar, urf-odatlar, an'analar, marosimlarni o'tqanish va targ'ib qilish" bo'yicha uyuştirilgan respublika ilmiy ekspeditsiyasi xalqimiz tarixiy-madaniy merosining ko'pgina mu'munalarini saqlab qolishga ko'mak berdi;

Milliy qadriyatlarga bag'ishlangan Respublika ilmiy-amaliy anjumanlari bu soha muammolarining hal qilinishida muhim amaliy yo'llarni belgilab berdi;

"Oilaviy ansambillar"ning navbatdagi Respublika ko'rik-tanlovi xalqimiz ruhiyatiga mos mazkur o'ziga xos ijodiy yo'lga katta e'tibor berish zarurligini ko'rsatdi;

qadimgi qo'shiqlar, urf-odatlar, an'analar va marosimlarni o'tqanish, targ'ib qilish maqsadida Jizzax viloyatiga uyuştirilgan ilmiy-amaliy ekspeditsiya ham ko'pgina ijodiy an'analarni asrash va targ'ib qilishga ko'mak berdi.

Xalq ijodini tiklash va ravnaq toptirish bo'yicha amalga oshinilayotgan bu tadbirlar mustaqillik sharoitida Respublikamiz inqoyosida xalq manaviyati, boy ijodiy an'analariga qay daraja e'tibor berilayotganiga guvohlik beradi.

Xalq ijodi sohasida respublikamizda o'tgan Xalqaro nufuzli anjumanlardan biri BMTning 50-yilligiga bag'ishlangan Toshkentdag'i Milliy bog'da (1997, 24-25- oktabr) Barhayot an'analar nomli xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi yarmarkasi bo'ldi. Bu yarmarka o'zbek xalq amaliy san'atiga xalqaro darajada bo'lgan qiziqishni yana bir marta namoyon qildi. Samarqand, Buxoro, Xorazm va Farg'on amaliy san'at ustalari o'ziga xos an'anaviy ijodlari bilan barcha kishilarni lol qoldirdi. Yarmarka yakunida xalqimizning amaliy ijod turlari barhayot an'analarga aylanishi uchun har bir novob kusib egasi bo'lgan iste'dodli ustozga o'ziga 5 tadan shogird tuyvohleshta oid huquqiy va iqtisodiy imkoniyatlar yaratib berildi.

YUNESKO tasarrusida uyuştirilgan "Boysun bahori" xalqaro folklor festivali o'zbek og'zaki va nomoddiy madaniyati durdonalarini jahon tan olgанининг isboti bo'ldi. Festival doirasida bo'lib o'tган folklor jamoalar ko'rigi, baxshi qo'shiqchilar tanlovi, yosh modelyerlar ko'rigi, folklorga bag'ishlangan xalqaro ilmiy anjuman

va yakunlovchi folklor tomoshasi o'zbek an'anaviy nomoddiy madaniyati boy va serqirra ekanligini yaqqol namoyish qildi.

O'zbekistonda xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligin ravnaq toptirish uchun 1997-yil 31-martda Respublikamizning birinchi Prezidenti I.A.Karimovning maxsus farmoni chiqdi va unga binoan respublikamizda bu boradagi barcha ishlarni muvofiqlashtiruvchi maxsus markaz tuzildi. Bunday e'tibor natijasida xalqimizning ko'plab ijod turlari tiklanmoqda. Respublika xalq amaliy san'ati markazi rahbari Shohalil Shoyoqubovning ta'kidlashicha, agar mustaqillikgacha xalq hunarmandchiligining 10 ga yaqin turi saqlanib qolgan bo'lsa, mustaqillikdan so'ng hozirgi vaqtga kelib, uning 50 ga yaqin turlari qayta tiklangan va hozir ham bu jarayon davom etmoqda.

O'z navbatida, o'zbek folklori jahonga tanilmoqda, ko'plab folklor jamoalar xorijiy mamlakatlarga chiqib xalqaro anjumanlarda qatnashib, ajnabiylar e'tiboriga nodir san'atimiz durdonalarini havola etishmoqda. Quyida mustaqillik-yillari xorijiy mamlakatlarga chiqib, o'zbek xalq ijodini jahonga tanitib kelgan ba'zi folklor jamoalari haqida qisqa ma'lumotlar keltiramiz:

Toshkentning "Kamalak" fofklor-etnografik ansamblı, Andijonning "Sumalak" xalq raqs ansamblı, Xorazm viloyati xalq ijodiyoti markazi qoshidagi "Meros" bolalar namunali folklor-etnografik jamoasi, Respublika o'quvchilar saroyi qoshidagi "Chaman" folklor guruhi, Quvaning "Anor" xalq ashula-raqs ansamblı, Navoiy viloyat qo'shma folklor jamoasi Misr, Turkiya, AQSH, Fransiya, Pokiston, Yaponiya kabi mamlakatlarda bo'lib o'tgan xalqaro folklor festivallari va boshqa tadbirlarda ishtiroy etib, vatanimizga ko'plab nufuzli sovrinlar olib kelishgan.

Chet ellarda o'zbek xalq ijodiga oid ko'plab kitoblar, maqolalar chop etilmoxda. Keyingi-yillar milliy madaniyatimiz o'tmishi va bugungi kunini uzviy bog'laydigan festivallar safi kengayib bormoqda. Madaniyat va san'at Forumining yangi keng qamrovli loyihasi – "Asrlar Sadosi" festivali ham xalqimizning an'analarini, amaliy san'ati va milliy taomlari, xalq og'zaki ijodi kabilarning boy va rang-barang ekanligini namoyon etmoqda. Ushbu festival har-yili mamlakatimizning turli madaniy va tarixiy maskanlarida mutaxassislar, olimlar va xorijiy mehmonlar ishtiroykida xalqaro

darajada YUNESKO hamkorligida o'tkazildi.

2008-yilda Festival Kitob tumanida, 2009-yilda esa Parkent tumanida o'tkazilgan "Asrlar sadosi" festivalida folklor va teatr guruhlari, xonandalar, musiqachilar, raqqoslar, xalq baxshilari, mursxarabozlar, liboschi dizaynerlar, rassomlar, amaliy san'atning atoqli vakillari, mohir oshpazlar ishtirok etishdi. Festival dasturi, shuningdek, xalq o'yinlari, ko'pkari (uloq), kurash, dorbozlar chiqishi, mamlakatning turli viloyatlaridan kelgan oshpazlar tanlovini ham o'z ichiga olgan. Festival amaliy san'at yarmarkasi doirasida kulolchilik, kandakorlik, kashtachilik, miniatyura, o'ymakorlik ustalari ham o'z mahoratlarini namoyish etdilar. Festivalga 50 ming nafarga yaqin tomoshabin, 15 mingga yaqin mehmonlar tashrif buyurishdi. Ular orasida Rossiya, Fransiya, AQSH, Turkiya, Koreya, Italiya, Yaponiya, Xitoy, Shveysariya, Bolgariya, Avstriya kabi davlatlardan 100 nafardan ortiq madaniyat va san'at arboblari, olim va tadqiqotchilar, nufuzli xalqaro OAV vakillari, diplomatik korpus va valqaro tashkilotlar xodimlari bor edi.

Respublikamizda muntazam ravishda o'tkazib kelinayotgan turli xil ko'rik-tanlovlari, Respublika miqyosidagi tadbirlar o'zbek milliy san'at turlarining rivojiga munosib hissa bo'lib qo'shilmoqda. Milliy dorbozlar va an'anaviy sirk san'ati jamoalarining Respublika ko'rik-festivali, Askiyachi va qiziqchilarning an'anaviy Respublika ko'rik-festivali, "O'lan aytgani keldik" nomli an'anaviy folklor san'ati bayrami, Yosh kulollarning Respublika ko'rgazmasi, Qo'r'irchoqbozlik san'ati bayrami, Xalq ashula va raqs ansamblarning Respublika ko'rik-festivali, "Barhayot navolar" turkumidan milliy cholgu sozlar ijrochilarining Respublika ko'rik-festivali mamlakatimizning ko'plab viloyatlarida iqtidorli ijrochi yoshlarni kashfi etmoqda.

Ijolarda milliy qadriyatlar, xalq ijodiyotini targ'ib qilish maqsiddida 2006-yildan buyon "Xalq ijodiyoti poyezdi" tashkil etilmoqda. Bu poyezd yordamida respublika ko'rik-tanlovlari, festivallar ijrochilarining chekka qishloqlar aholisi bilan ijodiy uchrashuvlari o'tkazilmoqda. Madaniyat poyezdi aholiga madaniy-maishiy xizmat ko'rsatib, xalq ijodiyotining noyob durdonalari (o'lan, lapar, askiya, baxshichilik va folklor san'ati turlari)ni keng omma o'rtasida targ'ib etib hormoqda.

Xalq an'analari. Mustaqillikning birinchi-yillaridanoq milliy qadriyatlar, xalq an'analalarini tiklash O'zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan muhim vazifaga aylandi. Darhaqiqat, milliy an'analarni tiklash borasida amalga oshirilayotgan tarixiy ishlarimizning qamrovi juda kengdir. An'analar – xalqning tarixiy shakllanishi va rivojlanishi jarayonida yaratilgan va avlodlardan avlodlarga muqaddas meros sifatida o'tib kelayotgan beba ho ma'naviy boyligi hisoblanadi. Millatning asosiy belgilardan biriga aylangan odatlarni asrash va kamol toptirish har bir avlodning muqaddas burchidir. Ajdodlarimiz an'analarini barhayot bo'lishi uchun, eng avvalo, uni kelajagimiz bunyodkorlari-yoshlarimiz ongida barqarorlashtirish lozim. Yoshlar tomonidan ajdodlar an'analarini qadrlanmay qo'yilishi avlodlar o'rta sida ma'naviy uzilishni vujudga keltiradi.

Eng qadimiylar xalqlardan biri hisoblangan o'zbeklarning an'analarini tarixiy zaruriyat asosida vujudga kelgan, zamon chig'iriqlaridan o'tib, muhim ma'naviy qadriyat sifatida ravnaq topgan. Biroq avloddan avlodga o'tib kelayotgan xalq an'analarini sobiq sho'rolar davrida jiddiy to'siqlarga uchragan bo'lsa ham, o'zbek xalqi mustaqillikka erishgandan so'ng, ularga ehtiyoj kuchayib, qayta tiklana boshlandi. Buning natijasida ilgari norasmiy nishonlangan an'analar jiddiy tadqiqot obyektlariga aylanib, milliy an'analar haqida qator kitoblar chop etilmoqda. Bu bejiz emas, atbatta. Chunki an'analar xalq ma'naviyatining tarkibiy qismi, muhim axloqiy qadriyat, tarbiya vositasi sifatida xizmat qilmoqda. Xalq an'analarini, marosimlar jarayonida namoyon bo'layotgan odob-axloq, mehr-oqibat, izzat-ikrom kabi xislatlar yoshlar ma'naviyatini shakllanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Etnos-millatning asosiy belgilardan biriga aylangan odatlarni asrash va kamol toptirish har bir avlodning muqaddas burchiga aylangan. An'anaviy xalq bayramlarining tikianishi o'zbek madaniyati tarixida o'ta muhim voqealarni bo'lib qolmoqda. Chunki bayramlar hayotning eng yaxshi tomonlarini o'zida mujassamlashtiradigan va aks ettiradigan ko'zgu sifatida xalq madaniyatining yirik va muhim shakli hisoblanadi. Shuning uchun azaliy madaniyatning eng qimmatli tomonlarini qoidalashtirishga zamin yaratildi.

Mustaqillikka erishilgandan so'ng O'zbekiston rahbariyati, eng avvalo, xalqimizning ehtiyoji, orzu-istikclarini hisobga olib, azaliy

bayramlarni tiklashga va yangi istiqlol bayramlarini shakllantirishga katta e'tibor bera boshladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov Farmonlari asosida "Navro'z", "Ro'za hayiti", "Qurbon hayit"lari rasman tiklanib, xalq o'rtasida keng nishonlana boshladi. Shuningdek, istiqlolni sharaflaydigan bayramlar "Mustaqillik kuni" va "Konstitutsiya kuni" joriy etildi. O'z navbatida, O'zbekiston rahbariyati sobiq mustabid tuzumi davrida paydo bo'lgan barcha bayramlarni taqiqlamadi. Ular orasida umuminsoniy g'oya va qadriyatlarni targ'ib qiluvchi "Yangi-yil bayrami", "Xotin-qizlar bayrami" kabilar saqlab qolindi.

Hozirgi vaqtida O'zbekistonning asosiy davlat bayramlari asosan shakllangan bo'lsa-da, azaliy bayramlarni tiklash jarayoni tugagan, deb hisoblash noto'g'ri bo'ladi. Bu borada hali bajariladigan ishlar ham kam emas. Bir tomondan, azaliy bayramlar bilan birga ularga xos odatlar va an'analari tiklanishi darkor. Ikkinchisi tomondan, mustaqillik davrida paydo bo'lgan tarixiy - ma'naviy qadriyatlar bilan ham boyitilmog'i lozim.

Xalq an'analariga oid tadqiqotlarimiz, chunonchi, Markaziy Osiyo xalqlarining ming-yil ichidagi yuzga yaqin bayram va marosimlariga oid to'plangan ma'lumotlar tahlili natijasida quydagilar ma'lum bo'ldi: insонning tabiiy-hayotiy ehtiyojlari asosida paydo bo'lgan marosim va bayramlar asrlar davomida o'z ahamiyatini yoqotmaydi. Ularga siyosiy vaziyatlar, turli davlat sulołalarining mahv etilishi, hukmdorlar, istilochilarining kelib-ketishlari, hattoki, hududdagi aholi tarkibiy o'zgarishlari ham ta'sir etmaydi. Ikkinchisi turkum bayram-marosimlar esa ma'lum vaqtidan so'ng o'zgarishi yoki boshqa yangi bayramlar vujudga kelishiga asos bo'lishi mumkin. Uchinchisi guruhi marosim va bayramlar esa muayyan davr siyosati, davlat yoki hukmdorlarning xohish-irodasi sifatida vujudga keladi, o'shalar bilan birgalikda yashaydi va o'z tarixiy vazifasini bajarib bo'lganidan so'ng barham topadi.

Amaliy san'at. Mustaqillik-yillarida an'anaviy madaniyatga e'tibor kuchayib, O'zbekiston Prezidenti farmoni bilan bir qator yangi korxonalar vujudga keldi. 1997-yil "Musavvir" Ilmiy-teknichirish markazi qoshida "Hunarmand" Assotsiatsiyasi tashkil qilinib, respublikadagi turli hunarmandchilikda ijod qilib kelayotgan ustalarni qamrab oldi. Bugungi kunda an'anaviy hunarmandchilikning

yo'qolish arafasida turgan turlarini, mahalliy markazlarini tiklash jarayoni ketyapti. Hozirgi kunda badiiy kulolchilik, kandakorlik, zargarlik, zardo'zlik, an'anaviy to'qimachilik, kashtachilik, gilamdo'zlik, do'ppichilik, yog'och va ganch o'ymakorligi, naq-qoshlik kabi turlar juda rivojlangan. Yetakechi kulollar A.Rahimov, S.Otajonov, Sh.Yusupov, R.Usmonov, A.Isoqov, Narzullayevlar, R.Zuhurov; kandakorlar M.Madaliyev, D.Holidova, G.Rahmatova, U.Aliyev, O.Umarov; zargarlar F.Dadamuhamedov, G.Yo'ldosheva, G.Tosheva; ganchkorlar M.Murodov, X.Abdullayev, A.Muxtorov; yog'och o'ymakorlar S.Xo'jayev, M.Ibrohimov, O.Fayzullayev, A.Azlarov, S.Rahmatullayev; zardo'z B.Jumayev; kashtachi Z.Obloberdiyeva va boshqalar samarali ijod qilmoqdalar.

Mustaqillik davrida noan'anaviy amaliy bezak san'at turlari ham rivojlanib kelyapti. Masalan, toshkentlik kulo'l N.Qo'ziyevaning asarlari shu uslubda mo'jazgina ishlangan. O'zbekiston zargarlik maktabining vakillari orasida E.Gostyev, U.Xolmurodov, A.Ulumbekova lar hozirda zamонавиј, noan'anaviy yo'nalishda ijod qilmoqdalar.

Tasviriy san'at. Mustaqillik davri rangtasvir san'ati turli-tuman uslublar ko'lamining kengligi bilan farqlanadi. Akademik realizm, dekorativizm, milliy romantizm, abstraksionizm, instalyatsiya ko'rinishlari ko'p jihatdan ijodiy dunyoqarashning kengayishidan dalolat beradi. 1997-yilda O'zbekiston Badiiy akademiyasining tashkil etilishi tasviriy san'atning turli sohalarini rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Mustaqillik davrida tasviriy san'atning turli sohalari va janrlari rivojlanib bordi. Masalan, ushbu davr haykaltaroshligida, asosan, tarixiy siymolar gavdalandi va ularning soni ko'payishi barobarida uslub jihatlarining yangilanishi ham bir qator asarlarda ko'zga tashlandi. A.Rahmatullayev, L.Ryabsev, F.Jabborov, R.Mirtojiyev, J.Kuttimurodov, K.Norxo'rozov kabi haykaltaroshlar mahobatli, A.Xotamov, E.Esanov, S.Sharipov kabi rassomlar esa dastgohli haykaltaroshlikni rivojlantirishga harakat qilishdi.

Tasviriy san'at uchun mustaqillik keng imkoniyatlar yaratib berdi. Avvalo, 1997-yilda O'zbekistonda birinchi bor Badiiy akademiya tashkil etildi. 2002-yili Toshkent foto uyi, 2004-yili O'zbekiston tasviriy san'at galereyasi, 2005-yili O'zbek liboslari galereyasi,

2006-yili Madaniyat va san'at ko'rgazmasi ish boshladi. Mamlakat Prezidentining 1997-yil "Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida amaliy bezak san'ati ahamiyatini oshirish, qo'lida ishlanadigan badiiy buyumlarni tayyorlashda davlat tomonidan madad berilish choralarini belgilandi. Jumladan, "O'zbekiston Respublikasi xalq ustasi" faxriy unvoni ta'sis etildi. "Hunarmand" uyushmasi tashkil qilindi. Qolaversa, hunarmandlar daromad solig'idan ozod etildi.

Mustaqillik-yillarida uslubiy jihatdan o'ziga xos rassomlar guruhi shakllandi. Rassomlar ijodida jiddiy evrilishlar sodir bo'lmoqda. Yangi plastik izlanishlarda ertagu dostonlar, xalq og'zaki ijodiyoti, turli xit rasm-rusum va marosimlar bilan bog'liq belgilar hamda ramzlar ular rangtasvirining yangi bosqichini belgilab berdi, Ushbu davrda serqirra ijod qilgan rangtasvirchilardan R. Ahmedov, N. Qo'ziboyev, R. Choriyev, M. Nabihev, A. Ikromjonov, B. Jalolov, S. Raxmetov, A. Mirzayev, N. Shin, V. Oxunov, J. Umarbekov, S. Alibekov, A. Isayev, J. Usmonov, N. Shoabdurahimovlarni keltirib o'tishimiz mumkin. Bu davrdagi mahobatli san'atning rivojlanishi ijodiy erkinlik, badiiy merosimizni boy an'analariga murojaat qilish bilan bog'liq. Yangi ma'muriy-ijtimoiy inshootlar, ko'hna binolarni qayta ta'mirlash hamda yangi shahar ansamblarini barpo etish ishlarining jadallahish ketishi bilan mahobatli rangtasvirchilar ijod vositalarining yangi imkoniyatlarini qidirib topishga bo'lgan yondashuvlari sezilarli darajada faollashdi. Mahobatli san'at sohasida ijodiy izlanishlar olib borgan rassomlardan A. Aliqulov, O. Xabibullin, "Sanoyi-nafisa" guruhi, A. Buxorboyev, A. Axmedshin kabi rassomlarni aytishimiz mumkin.

Mustaqillik-yillaridagi ko'rgazmalarda M.Nabihev, A.Ikromjonov, R.Choriyev, R.Ahmedov, N.Qo'ziboyev, N.Shin, B.Boboyev, J.Umarbekov, B.Jalolov, V.Burmakin, L.Ibrohimov, haykaltaroshlar A.Hotamov, T.Tojixo'jayev, D.Ro'ziboyev, M.Borodina, grafik rassomlar M.Kagarov, A.Mamajonov, M.Sodiqovlar, yosh rassomlar D.Oxunboboyev, A.Ivanova, A.Nikolayev, M.Aliyev, V.Nechayeva, X.Ziyoxonov, X.Inog'omova, G.Alimatova, A.Nurshina, K.Boboyev kabi ko'plab taniqli san'atkorlar ijodi barchaga manzur bo'lmoqda. Shuningdek, A.Nur, V.Oxunov, G.Qodirov, G.Boymatov, R.Gag-

loyeva. J.Usmonov, A.Isayev, E.Is'hoqovlarning yangi, qiziqarli asarlari tomoshabinda katta qiziqish uyg'otmoqda.

Musavvirlarimiz yangi tarixiy bosqichda madaniy aloqalarni gayta tiklash, yagona ma'naviy makon yaratishga yo'naltirilgan uslub va yo'nalishlarni umuminsoniy tamoyillarga bo'ysundirishga intilmoqda. So'nggi-yillarda kelajak poydevorini bugundan barpo etish maqsadida, yoshlarga va o'sib kelayotgan yangi avlodga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bularni bo'lib o'tayotgan festivallar, tanlovlardan, badiiy ko'rgazmalar misolida ko'rishimiz mumkin. An'ana tusiga aylanib qolgan "San'at haftaligi", "Ustoz-shogird" kabi qator ko'rgazmalar shular jumlasidandir. Ushbu ko'rgazmalarning barchasida tanlovlardan e'lon qilingan bo'lib, bir-birlari bilan ijodiy raqobatga kirishgan yoshlarni ma'naviy rag'batlantirish orqali iqtidorlar tanlab olinmoqda va ularga keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Shuni guvohi bo'lamiczki, yosh rassomlar o'z qiziqishlari va intilishlariga ko'ra hamohang mavzu va o'z uslublarini tanlashlari mumkin bo'lsa-da, akademik san'at poydevor vazifasini o'tamoqda. Yosh rassomlar ijodida o'ziga xos milliy san'at rivojlanganligi kishini quvontiradi. Shuningdek, jahon zamonaliviy san'atining yangi shakllari va konseptual g'oyalari bilan muloqotlari faolligini yuqori baholash mumkin.

Yoshlar tashkiloti. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin mamlakat yoshlarni birlashtirish uchun "Yoshlar ittifoqi" tashkiloti tuzildi. Tashkilot yoshlarni o'z plenumi va konferensiya lari qarorlarini bajarishga safarbar qilishga urinishi, qarorlarda yoshlarning manfaatlari va ehtiyojlari to'la aks etmaganligi natijasida 1996-yilda "Yoshlar ittifoqi" tashkiloti tugatilib, O'zbekiston Respublikasi yoshlarning "Kamolot" jamg'armasi tuzildi. "Kamolot" jamg'armasining vazifasi yoshlarning manfaat va ehtiyojlarini o'rganish, ularni qondirish yuzasidan dasturlar tuzish va davlat ko'magida hayotga tatbiq etishdan iborat edi. Ammo "Kamolot" yoshlar jamg'armasi bunday vazifalarni bajara olmadi, yoshlarning haqiqiy ma'nodagi yetakchisiga aylana olmadi, deb topildi.

2001-yil Toshkentda bo'lgan yoshlar qurultoyida o'zini o'zi boshqaradigan nodavlat notijorat tashkilot - O'zbekiston Respublikasi "Kamolot" yoshlari ijtimoiy harakati tuzildi. "Kamolot" yoshlari ijtimoiy harakatining asosiy maqsadi yoshlarni birlashtirish, jamiyatda

munosib o'rnini egallashga ko'maklashish, ularning manfaatlarini himoya qilish, yosh yigit-qizlarning o'z aql-zakovati, kuch-g'ayratini to'la namoyon etishi uchun zarur shart-sharoit yaratib berish, yosh avlodning tayanchi va suyanchi bo'lishdan iboratdir. Harakatning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tuman va shahar bo'limlari, ta'lim muassasalari, harbiy qismlar, huquq-tartibot organlarida boshlang'ich tashkilotlari tuzildi. Ular 14 yoshdan 28 yoshgacha bo'lgan O'zbekiston fuqarolari - yoshlarni o'z saflarida ixtiyoriy ravishda birlashtirgan holda faoliyat ko'rsatdi.

2017-yil 30-iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirokida "Kamolot" Yoshlar ijtimoiy harakati (YoIH) qurultoyi bo'lib o'tdi. Bu qurultoyda "Kamolot" YoIH tashkiloti tugatilganligi va "O'zbekiston yoshlar ittifoqi" tashkil etilganligi e'lon qilindi. Yoshlarning muammolari hamda tashabbuslari O'zbekiston Prezidentining to'g'ridan-to'g'ri e'tiborida bo'lishini ta'minlash maqsadida "O'zbekiston yoshlar ittifoqi" raisi bir paytning o'zida Prezidentning Davlat maslahatchisi lavozimida bo'lishi ham belgilab qo'yildi.

Yoshlarning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi. Millat kelajagi ham ma'nani, ham jismonan baquvvat, sog'lom yoshlar qo'lida. O'zbekiston aholisining 60 foizdan ortig'ini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi.

1996-yil «Kamolot» yoshlar jamg'armasi tuzildi. 2001-yil bu jamg'arma «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatiga aylantirildi. 2017-yil mazkur harakat faoliyati tugatilib, «O'zbekiston yoshlar ittifoqi» tashkil etildi. 30-iyun sanasi «Yoshlar kuni» sifatida nishonlanadigan bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yildagi "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalgalashishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorining qabul qilinishi mamlakatimizda yuksak ma'naviyatli, mustaqil va erkin fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o'zlashtirgan har tomonlama sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish borasidagi ishlarning mantiqiy davomi bo'ldi. Ushbu qaror ilm-fanni yanada rivojlantirish, iqtidorli va qobiliyatli yoshlarni, jumladan, qizlarning intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun yanada keng sharoitlar yaratishga qaratilgan.

Mustaqillik-yillarida yosh iqtidorli qizlarning adabiyot, madaniyat, san'at, fan va ta'lif yo'nalişlarida o'z iste'dodini, salohiyat va qobiliyatlarini namoyon etishlariga imkoniyat yaratib bergen O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yilda qabul qilgan "Zulfiya nomidagi davlat mukofotini ta'sis etish bo'yicha takliflarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi farmoni jamiyat hayotida yetuk mutaxassislar, yetakchi va iqtidorli qizlarning shakllanishiga zamin yaratdi. 80 nafarga yaqin xotin-qizlarning mumtoz qo'shiqchilik, akademik ijro, estrada, opera, balet, cholg'u ijrochiligi, an'anaviy ijrochilik, raqs yo'nalişlarida "Nihol" mukofoti bilan taqdirlangani tom ma'noda ularga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor va g'amxo'rlikning yorqin ifodasıdır. 2017-yilga kelib 14 yoshdan 22 yoshgacha bo'Igan qizlardan iborat «Zulfiya» mukofoti sovrindorilarning soni 200 dan oshdi.

Harbiy xizmatning yoshlar uchun mustahkam hayotiy prinsiplar, harbiy xizmatni tugatayotgan yoshlarni rag'batlantirishning ahamiyatini, ularning o'qishni davom ettirishi va mamlakat oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirishi uchun imtiyoz va sharoitlar yaratishni e'tiborga olib, 2005-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilarga beriladigan imtiyozlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi. Ushbu qarorga muvoofiқ, O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o'tab bo'Igan fuqarolar uchun respublika oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirishda test sinovlarida to'planadigan eng ko'p ballning 25 foizi miqdorida qo'shimcha ball shaklidagi imtiyoz berish belgilandi.

Istiqlol-yillarida yoshlarning har tomonloma yetuk, barkamol voyaga yetishi uchun mustahkam qonunchilik bazasi yaratildi. Xususan, 23 ta qonun va 100 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, hayotga izchil tatbiq etilmoqda. Bundan tashqari, -yillarga nom berishda ham yoshlarning manfaatlari alohida e'tiborga olindi. Xususan, 2000-yil - "Sog'lom avlod-yili", 2001-yil - "Onalar va bolalar-yili", 2008-yil - "Yoshlar-yili", 2010-yil - "Barkamol avlod-yili", 2014-yil - "Sog'lom bola-yili", 2016-yil - "Sog'lom ona va sog'lom bola-yili", deb e'lon qilinib, yahlit chora-tadbirlar dasturlari amalga oshirilgani fikrimiz tasdig'idir.

Yoshlarga e'tiborning kuchayishi. 2016-yilda "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi. Unga ko'ra, 30 yoshgacha bo'lgan barcha toifadagi shaxslar yoshlar ekanligi qayd etilgan. "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi mamlakatimizda yoshlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini mustahkamlashga, yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda davlat organlari hamda boshqa tashkilotlar mas'uliyatini kuchaytirishga, ushbu sohada sog'lon, barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan choratadbirlar samaradorligini yanada oshirishga xizmat qildi.

Prezidentimizning 2017-yil iyuldag'i "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab- quvvatlash to'g'risida"gi farmoniga muvofiq mamlakatimizdagi barcha harbiy akademik litseylarga "Temurbeklar maktabi" nomi berildi. Yoshlarni yanada rag'batlantirish maqsadida "Mard o'g'lon" mukofoti ta'sis etildi. Shu-yil sentabrda o'quvchilarning aniq fanlarning yuksak marralarini zabit etishiga ko'maklashish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi iqtidorlarini aniqlash hamda qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tasarrufida Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab (Al-Xorazmiy maktabi) tashkil etildi. Ushbu maktabga o'quvchilar 5-sinfdan boshlab yozma va og'zaki sinov natijalariga ko'ra tanlov asosida qabul qilinadi.

Musiqa va raqs san'ati. Mustaqillik-yillarida musiqa san'atida tub burilish asliga qaytish an'anaviy ohanglardan bahramandlik va ta'sirlanishda namoyon bo'ldi. Buning uchun, eng avvalo, xalqqa yaqinlashish, el orasida yurish, eng noyob xalq iste'dodlarini izlab topish zarur edi. Shu maqsadda 1992-yili bir qancha ko'rik-tanlovlar o'tkazildi. Jumladan, Toshkent shahrida mart oyida milliy soz ijrochilarining "Asrlarga tengdosh navolar", aprel oyida mash'hur san'atkorlar asarlari ijrochilarining "Boqiy ovozlar", Xorazm viloyatida may oyida folklor jamoalarining, iyun oyida Qo'qon shahrida askiya, qiziqchi va masxarabozlarning va avgust oyida Toshkent shahrida lapar, yalla ijrochilarining ko'rik-tanlovlar tashkil

etildi. Ular bir necha o‘nlab iste’dodlarni kashf qildi. Bu kabi tadbirlar, festivallar o‘tkazilishi an’anaga aylanib, xalqaro miqyosda nomoddiy madaniy merosni asrash yuzasidan olib borilayotgan harakatlar bilan uyg‘unlashib ketdi. Mustaqillik davrida professional musiqa va raqsni rivojlantirish ishlariiga ham e’tibor qaratildi. 1996-yil “O‘zbeknavo” gastrol-konsert birlashmasi tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan 1997-yil Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi “O‘zbekraqs” milliy raqs birlashmasi hamda Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliv maktabi tuzildi. 2001-yil “O‘zbeknavo” estrada birlashmasi, Milliy estrada san’atini rivojlantirish va muvofiqlashtirish Kengashi ish boshladi.

Istiqlol davrida tamomila yangi ko‘rik-tanlovlar, festivallar yuzaga keldi. 1995-yilda Vazirlar Mahkamasi “O‘zbekiston - Vatanim manim” mavzuida ko‘rik-tanlov o‘tkazish yuzasidan qaror qabul qildi. 1996-yil mart oyidan o‘tkazilib kelinayotgan “O‘zbekiston - Vatanim manim” mavzuidagi ko‘rik-tanlovi mustaqillikni, Vatanni anglash, uni ulug‘lash yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi. Shuning uchun ham 1996-yil 27-avgust kuni maxsus farmon qabul qilindi. Unda har-yili avgust oyining uchinchi yakshanbasi, “O‘zbekiston - Vatanim manim” qo’shiq bayrami kuni deb e’lon qilindi. Tanlov mustaqillikni madh etuvchi yuzlab qo’shiqlar yaratilishiga turtki bo‘ldi. Vazirlar Mahkamasining 1997-yildagi qarori bilan har ikki-yilda bir 1998-yili mamlakatimizda birinchi marta simfonik musiqa festivali o‘tkazildi. Mazkur festivalda dunyoning 20 ga yaqin mamlakatlaridan ijrochilar ishtirok etishdi. Mustaqillik-yillari musiqa san’atini akademik, an’anaviy va zamonaviy yo‘nalishlarida rivojlanishiga zarur shart-sharoitlar yaratish qatorida uning ta’limiga ham e’tibor berildi. 2002-yilda Toshkent davlat konservatoriysi O‘zbekiston davlat konservatoriyasiga aylantirildi. Konservatoriyaning yangi binosi qurildi.

Prezidentning qarori bilan qabul qilingan Bolalar musiqa va san’at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo‘yicha davlat dasturi ham muhim o‘rin tutib, uning doirasida 2009-2014-yillarda hududlarda 278 ta musiqa va san’at maktabi foydalanishga topshirildi. “Nihol”, “Zulfiya” nomidagi davlat mukofotlari ta’sis etilishi, “Kamalak yulduzlari” respublika bolalar ijodiyoti festivali, “Sozlar navosi”

yosh musiqa ijrochilari va boshqa ko'rik-tanlovlari o'tkazib kelinayotgani yangi iste'dodlarni ro'yobga chiqarish va qo'llab-quvvatlash maqsadlariga xizmat qiladi.

Teatr san'ati. Mustaqillik davrida o'zbek teatrining turlari va janrlari rivojlanmoqda. Yoshiar, bolalar va qo'g'irchoq teatrlari alohida mavqega ega. Mustaqillik sharofati bilan tiklangan milliy qadriyatlar, jamiyat ma'naviyati haqidagi yangilangan tushunchalar, tarix va zamonaviylik muammolari ushbu teatrlar diqqat-e'tiborida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbek teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida»gi 1998-yil Farmoni milliy teatr san'atining istiqbolini belgilab bergen hujjat bo'ldi. «O'zbekteatr» ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi o'z faoliyatini milliy tomosha va teatr san'atining eng yaxshi an'analarini asrab-avaylashga hamda boyitishga yo'naltirdi.

Mustaqillik davrida O'zbek teatr san'ati milliy qadriyatlarni tiklashga qo'l urdi. Bir zamonlar qoralangan asarlar teatrlarda sahnaлаshтирildi, yangi asarlar yaratish harakati boshlandi. Turii teatrlarda Fitratning «Abulfayzxon» tragediyasi, To'ra Mirzoning «Amir Temur» dramasi, Clio'lponning «Kecha va kunduz» romani, "Yorqinoy" dramasi, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanlari asosida sahna asarları yaratildi. Umuman, o'zbek teatr madaniyati yanada rivojlandi. O'zbek san'atkorlari xorijiy mamlakatlarga gastrollarga bormoqdalar. Zamonaviy o'zbek teatri san'atiga hissa qo'shgan namoyandalardan dramaturglar

M. Boboyev, Sh. Boshbekov, E. Samandarov va boshqalar; rejissyorlardan - N. Abdurahmonov, R. Yoriyev, B. Yo'ldoshev, N. Otaboyev, O. Salimov, V. Shapiro, R. Hamidov va boshqalar; rassomlardan - G. Brim, B. Kim, S. Salimov, B. To'rayev, T. Shorahimov va boshqalar; dirijyorlardan - D. Abdurahmonova, E. Ioshimatov, N. Xalilov, H. Shamsiddinov va boshqalar; raqs ustalari

G. Izmaylova, M. Is'hoqova, I. Yusupov va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Teatr san'atining rivojlanishiga hissa qo'shgan aktyorlardan Ya. Abdullayeva, M. Abduqunduzov, T. Azizov, Sh. Azizova, Yo. Ahmedov, X. Boboxonova, Z. Davletmuradova, Ye. Dmitriyeva, G. Jamilova, J. Zokirov, G. Zokirova, D. Ismoilova, M. Ixtiyorova, E. Komilov, E. Malikboyeva, E. Nosirov, H. Nurmatov, M. Razzoqova, S. Rametova, A. Rafiqov, G. Rahimova, M. Teshaboyeva, N.

Toshkenboyeva va boshqalarni aytishimiz mumkin.

Mustaqillik tufayli tarixiy qadriyatlarini tiklash, o'zlikni anglash, ma'naviy boyliklarga intilish o'zbek teatrining ham muhim vazifasiga aylandi. Sahnamizda buyuk Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy obrazlari yangicha talqin qilindi. Al-Farg'oniy, Al-Buxoriy, Jaloliddin Manguberdi, Feruz kabi ulug' ajddodlarimizga bag'ishlangan asarlar keng shuhrat qozondi. Respublika teatrlari har-yili 130 dan ziyod turli mavzu va janrlarda spektakllar sahnalaشتiradi. Bular asosan tarixiy, afsonaviy mavzulardagi spektakllardir. 1998-yili Xalqaro miqqosda keng nishonlangan buyuk vatandoshlarimiz hayoti va faoliyati hamda «Alpomish» dostonining 1000-yilligi munosabati bilan qator sahna asarlari yaratildi. O'zbekiston Milliy akademik drama teatrida sahnalaشتirilgan dramaturg Hayitmat Rasulning «Piri koinot», Farg'ona viloyati Yu. Shakarjonov nomidagi musiqali drama teatrida sahnalaشتirilgan “Osmonga sig'magan muhabbat”, Samarqand viloyati H. Olimjon nomidagi musiqali drama teatrida sahnalaشتirilgan Usmon Qo'chqorning “Imom Buxoriy”, Andijon viloyati Y. Oxunboboyev nomidagi musiqali drama teatrida sahnalaشتirilgan «Alpomishning qaytishi», Xorazm viloyati Ogahiy nomidagi musiqali drama teatrida sahnalaشتirilgan Erkin Samandarovning «Jaloliddin Manguberdi» kabi asarlari Respublikamiz ma'naviy hayotida katta voqeа bo'ldi.

Toshkentda «Sharq va G'arb», «Humo» kabi yirik xalqaro teatr festivallari o'tkazilishi o'zbek rejissurasi, aktyorlik san'atining yirik yutuqlari, mahorat o'rganish, tajriba almashinish maktabi vazifasini o'tadi. «Humo» festivali marafoni Toshkentda muvaffaqiyatlil o'tib. Germaniya, Gruziya, Rossiya va boshqa mamlakatlar teatr jamaolarining o'zaro ijodiy uchrashuvi maskaniga ayiandi. 1996-yil Amir Temur tavalludining 660-yilligiga bag'ishlangan «Navro'z» teatr festivalining muvaffaqiyati xalqaro ahamiyatga molik bo'ldi. «Andijon bahori», «37+l», «Debut» teatr festivallari san'at muxlislari uchun haqiqiy tuhfa bo'ldi. Havaskorlik teatrlari ham rivojlanmoqda. Talabalar havaskorlik teatrlarining «Nihol» festivali katta qiziqish bilan o'tkazilmoqda.

Respublikamiz teatr sohasida ham yoshlar uchun ko'p ishlar qilindi, ular uchun maxsus tomoshalar qo'yilmoqda, qo'g'irchoq teatrlari barcha viloyatlarda ishlab turibdi. «Kattalar teatrlari bolalar

«Innun» festivali shunday teatrlarda bolalarga xizmat ko'rsatishni tubdan yaxshilash ishiga xizmat qiladi.

XXI asr o'zbek teatrining taraqqiyotida alohida sahifa ochdi. Qadimgi ko'ngilochar milliy tomoshalar va Yevropadan kirib kelgan maxsus teatrlar uyg'unligida shakllangan o'zbek teatri bu asrda huqiqiy o'zbek milliy teatrini vujudga keltirdi. O'zbekiston teatrlari o'z ijodiy-uslubiy izlanishlari, turli asarlar talqinlariga yangicha yondashuvlar bilan teatr san'ati uslubi va ifoda vositalarning takomillashuviga sabab bo'lmoqda.

Mustaqillik davrida teatrlarimiz faoliyatida ko'pgina diqqatga sazovor o'zgarishlar yuz berdi. Teatrlarning repertuar siyosati, rejsura va aktyorlik san'atidagi yangiliklar, spektakllarning prokati, tomoshabinlar bilan aloqalarning yangicha mazmun, shakllari va mühayat, ushbu maxsus teatrlarning xalqaro san'at va madaniyat maydonida orttigan tajribalari e'tiborga loyiq.

Mustaqillik davrida O'zbekiston teatrlari funksiyasi o'zgardi. Ular o'z faoliyatlarida tomoshabinlarga mazmundor, ta'sirli, qiziqarli spektakllar tayyorlashga ahamiyat berdilar. Mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan professional teatr va teatr-studiyalari valqumiz ma'nnaviy dunyosini, tafakkurini boyitadigan sahna asarlari yaratmoqdalar. Ushbu dargohlarda minglab ijodiy va texnik xodimlar faoliyat olib boryapti.

Mustaqillik davrida birorta ham teatr o'z faoliyatini to'xtatgani yo'q. Nodavlat va xususiy teatrlar paydo bo'lmoqda. Teatrlarning xalqaro miqyosda yutuqlarga erishayotgani e'tiborni tortadi. Teatrlarimiz jamoatlari AQSH, Turkiya, Pokiston, Germaniya, Polsha, Huyuk Britaniya, Isroil kabi xorij mamlakatlarda o'tkazilgan turli teatr festivallarida qatnashib, turli sovrin va mukofotlarga sazovor bo'ljanliq quvonchlidir. Teatr ijodkorlari mamlakatimiz hayotining turli jahonlarda faol ishtirok etmoqdalar. Vatanimiz oliy organi – Oliy Majlisiga, viloyat, tuman va shahar mahalliy Kengashlariga deputatlikka saylamoqdalar. Bu esa teatr ijodkorlariga bo'lgan yuksak ishonchning dalilidir. Teatr san'atimiz ayni kunlarda bozor iqtisodiyoti sharoitiga kirib bormoqda.

2018 yil O'zbekiston Mudofaa vazirligi huzurida ilk bor harbiy teatr-studiya - «Turon» tashkil etildi. Mazkur teatr nafaqat harbiylar va ularning ojalari, balki barcha uchun xizmat ko'rsatadi. Boshqa

sohalarda bo‘lgani singari, 2017-yil teatr san’ati sohasida ham keng islohotlar boshlandi. Eng avvalo, 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasida teatr va tomosha maskanlarini, madaniy-ma’rifiy tashkilotlar faoliyatini rivojlantirish hamda takomillashtirish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash belgilab qo‘yildi.

Madaniyat muassasalarining faoliyatini tashkil etish, madaniyat va san’atning jamiyat hayotidagi o‘rnini va ahamiyatini oshirish, yosh avlodni milliy va umuminsoniyga sadoqat ruhida tarbiyalash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Bugungi kunda mamlakatimizdagi mavjud 37 ta teatr faoliyatini ta’minlash uchun 2017-yilning o‘zida davlat budgetidan 81 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ ajratildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydag‘i “Davlat madaniyat muassasalari va davlat arxivlari xodimlari mehnatiga haq to‘lashning takomillashtirilgan tizimini joriy etish va ularni moddiy rag‘batlantirishni kuchaytirish to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, davlat madaniyat muassasalari artistlari, ma’muriy-boshqaruv, badiiy-rahbar, ijodiy va boshqa xodimlarining mehnat haqi miqdorlari o‘rtacha 45 foizga oshirildi.

O‘zbek xalqining islom madaniyati rivojiga qo‘sghan beqiyos hissasining yuksak e’tirofi sifatida Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha islom tashkiloti - AYSESKO tomonidan 2007-yilda “Toshkent shahri – Islom madaniyati poytaxti” deb e’lon qilindi. Aziz poytaxtimizning bunday nomga sazovor bo‘lganligi nafaqat xalqimizga, balki butun muslimon olamiga iftixor tuyg‘usini bag‘ishladi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki bu asrlar davomida ajdodlarimiz Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziyy, Xoja Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Mahmud az-Zamaxshariy kabi mutafakkir zotlarning diniy ilmlar sohasida qilgan buyuk kashfiyotlari, islom madaniyati rivojiga qo‘sghan hissasiga yuksak bahodur. Bunday sharafga yurtimizning islom dini bilan bog‘liq tarixi, muslimon dini va madaniyatiga qo‘sghan hissasi, ulug‘ ulamolarning qoldirgan ma’naviy merosi, o‘z navbatida, ularni jahon miqyosida targ‘ib qilish borasidagi ishlar tufayli muyassar bo‘ldik.

Toshkent shahrining “Islom madaniyati poytaxti” deb e’lon qilinishi bilan bog‘liq bosh tadbirlar sifatida Toshkent va Samarqand

shaharlarida “O‘zbekistonning islom sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan hissasi” mavzusida hamda Samarqand va Buxoro shaharlarida “O‘zbekiston – islom dunyosining buyuk mutafakkirlari yurti” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar o‘tkazildi. Anjumanga dunyoning turli burchaklaridan kelgan mehmonlar Vatanimizda mustaqillikning ilk-yillardanoq Sharq durdonalari sanalmish Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz kabi shaharlardagi tarixiy obidalarni saqlash, qayta tiklash va ta’mirlash, qadimiy va boy merosimizni asrab-avaylash ishlarini ko‘rib lol qolishdi.

Toshkent shahriga «Islom madaniyati poytaxti» degan nomning berilishi xalqimizning farzandlarida g‘urur uyg‘otadi, ayni paytda yanada ko‘proq mas’uliyat yuklaydi. Yurtboshimiz so‘zları bilan aytganda, «necha yuz-yillar mobaynida yurtimiz hududida yaratilgan buyuk madaniy va ma’naviy merosning tub mohiyatini, uning ko‘pchilikka ma’lum bo‘lмаган qirralarini nafaqat muslimmon olamiga, balki butun jahon ahliga keng targ‘ib qilish, shu tariqa islom dini tinchlik, ma’rifat, yuksak axloq-odob ifodachisi ekanini yana bir bor namoyon etish borasida ko‘p ish qilishimiz zarurligini yaxshiroq anglash talab etiladi.

Mustaqillik sharoitida ma’naviy isiohotlar zamirida madaniy-ma’rifiy muassasalar faoliyati tubdan o‘zgardi, yangi mazmun kashf etdi, shaklan kamol topdi. Bu o‘zgarishlar istiqlol bergen imkoniyatlar asosida sodir bo‘ldi. Zero, bu sohaning yangilanishi tarixiy zarurat edi. Sobiq sho‘rolar davrida madaniy-ma’rifiy muassasalar xalq manfaatlariiga xizmat qilish o‘rniga, zo‘raki ravishda kommunistik poyalarini targ‘ib qilish maskanlariga aylantirilgan edi. Mustaqillik sharoitida esa madaniy-ma’rifiy muassasalar xalqning ma’naviy chitvoqlarini qondirish, milliy an‘analarini tiklash, xalq ijodini davnaq toptirish, yangi milliy mafkurani targ‘ib etish maskaniga aylandi. Mustaqillik tufayli respublikamizda milliy-ma’naviy tiklameh davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgandan so‘ng, madaniy-ma’rifiy muassasalar xalq ma’naviyati kamoloti yo‘lida xizmat qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Birinchi Prezidentimiz Farmoni asosida respublikamizda «Ma’naviyat va ma’rifat» jamoatchilik markazi (hozirgi ma’naviyat va ma’rifat kengashi markazlari) va uning tarmoq tizimlarining yujidiga kelishi madaniy-ma’rifiy muassasalar (jumladan, klublar,

madaniyat uylari, madaniyat saroylari, madaniyat va istirohat bog'lari, madaniy komplekslar, axborot-texnologiya markazlari, kutubxonalar, muzeylar) faoliyati jiddiy yangilanishiga turtki bo'ldi. Eng muhimmi, ma'naviyat va ma'rifat rivojiga davlatning bosh vazifasi deb qarash bu soha faoliyatini yangidan ravnaq topishiga asos bo'ldi.

Ma'lumki, madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatida milliy ma'naviyat masalalari bilan shug'ullanish asosiy soha bo'lgani sababli, madaniyat muassasalari komil insonni tarbiyalash jarayoniga o'zining munosib hissasini qo'shishga mas'ul hisoblanadi, chunki kelajakda buyuk davlat egasi bo'ladigan komil insonni tarbiyalamasdan, uni axloqiy jihatdan barkamol qilmasdan turib rivojlanish vazifalarini hal etish mumkin emas. Hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish borasidagi murakkab vazifalarni muvafiqiyatli hal etish fuqarolarning ma'naviy-axloqiy kamolotiga, imon-e'tiqodiga, g'oyaviy-siyosiy yetuklik darajasiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Inson kamoloti millat va mamlakat rivojiga asos bo'ladi. Xalq orasida, turarjoylarda madaniy-ma'rifiy faoliyat olib boruvchi muassasalarning bu ishlarni amalga oshirishda o'ziga xos imkoniyatlar mayjud.

Shu narsani e'tiborda tutish kerakki, madaniy-ma'rifiy muassasalar asosan joylarda va konkret aholi qatlamlariga xizmat ko'rsatadi. Shu boisdan ham madaniyat muassasalari muayyan regionning asosiy madaniyat markazi, ma'rifat va mazmunli dam olish maskani sifatida xalq ijodini kamol toptirishda, bayram va sayillarni uyuştirishda keng imkoniyatlarga ega ma'naviy-mafkuraviy tashkilotlar sifatida xizmat qilmoqdalar. Madaniyat muassasalari kishilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilish, shaxs ma'naviyatini har tomonlama rivojlanterish va ularning ijtimoiy-madaniy faolligini oshirish jarayonlarini uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimi shaklida amalga oshiradi. Shuningdek, ular joylarda mafkuraviy targ'ibot-tashviqot ishlarni olib borishda ham davlat, partiyalar, yoshlar uyushmalari, kasaba tashkilotlar va ko'ngilli jamiyatlarning tayanch-tarbiyaviy markazi sifatida ham faoliyat olib boradilar.

Mavzuga oid tayanch iboralar

Mustaqillik, tarixiy xotira, ma'naviy meros, teatr, kino san'ati, musiqa, tasviriy san'at, amaliy san'at, Yoshlar ittifoqi, ma'naviy qadriyatlar.

Mavzu bo'yicha takrorlash uchun savollar

1. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining qo'liga kiritilishi va uning tarixiy ahamiyati haqidagi fikringiz?
2. Madaniyat sohasida milliy g'oya ifodasi tushunchasi?
3. Mustaqillik-yillarida ma'nnaviy va tarixiy merosning tikkalishi masalasidagi tushunchangiz?
4. O'zbekistonda madaniyat va san'at taraqqiyoti sohasida qo'lda kiritilgan yutuqlar to'g'risidagi fikringiz?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: «Sharq», 1998-y.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'nnaviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'nnaviyat, 2008-y.
3. Mirziyoyev Sh. M. Ilm-fan yetuklari – taraqqiyotning bir omili // Xalq so'zi. 2016. 31 dekabr.
4. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. 59 b.
5. Abdullayev X.U. San'at tarixi. – T.: San'at. 2001-yil.
6. Azizzojayev A. Davlatchilik va madaniyat. – T.: Sharq, 1997-y.
7. Azamat Ziyo O'zbek davlatchiligi tarixiy: (Eng qadimiy davlatdan Rossiya bosqiniga qarshi). – T.: 2000-yil.
8. Zoxidov P. Memor olami. – T.: Qomus, 1996-y.
9. Sapdullayev va boshqalar. O'zbekiston tarixiy: davlat va jumiyat taraqqiyoti. – T.: 2000-yil.
10. Oydimov N. O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhalar. – T.: O'qituvchi, 1997-yil.
11. Ushov B.J. O'zbekiston davlatchiligi tarixiy. (o'quv qo'llamasi) – T.: Ma'rifat, 2009-y.
12. O'zbekistondagi yangi tarixiy. 1, 2, 3-kitoblar. – T.: "Sharq", 2000-y.
13. O'zbekiston davlatchiligi tarixiy ocherklari. Mas'ul muhabarlari D.A.Alimova, E.V.Rtvelodze. – T.: 2001 yil.
14. O'zbekiston tarixi (1917-1991-yillar). Ikkinchchi kitob. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 576 b.

MUNDARIJA

So‘z boshi	3
O‘zbekistonning madaniyati va san’ati tarixi faniga kirish.	
Ibtidoiy davr madaniyati	4
Markaziy Osiyo va Eron madaniyati	26
Ilk o‘rta asrlar davri madaniyati va san’ati	38
Arab xalifaligi madaniyati va san’ati.....	55
IX-XIII asrlarda Movarounnahrda	
madaniyat va san’at taraqqiyoti	62
Amir Temur va Temuriylar davri madaniyati.....	73
XVI-XIX asrlar madaniyati.....	104
O‘rta osiyo rossiya imperiyasi tarkibida: me’morchilik, musiqa, tasviriy san’at, ilm-fan rivoji.....	118
Sovet mustabid tuzumi davrida O‘zbekiston madaniyati va san’ati.....	135
Mustaqillik yillarda O‘zbekistonda madaniy hayat va san’at ...	148

*Muharrir: S. Abdunabiyeva
Badiiy muharrir: K. Boyho jayev
Sahifalovchi: A. Muhammadiyev*

Nashr. lits № 0038.

Bosishga ruxsat etildi 24.05.2021 y.

Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$. Offset qog‘ozи. “Times New Roman”
garniturasи. Hisob-nashr tabog‘i. 9,0.

Adadi 100 dona. Buyurtma № 22.

«DAVR MATBUOT SAVDO» bosmaxonasida chop etildi.
100198, Toshkent, Qo‘yliq 4 mavze, 46.

